

H 932  
M89

Murod Muhammad Do'st

# Galatepaga qaytish



2010/85

5339





Murod Muhammad Do'st

**GALATEPAGA QAYTISH  
YOXUD**

**saodatmand G'aybarov rivoyati**



Qurʼon Qurʼon ——————

—————— ——————

—————— ——————

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent—2009

84 (50\*)6

М 89


НО 36923

285

Н Уз2

Н М8995

ПОДР.



М 4702620202-52  
М 352(04)-2009 2009

ISBN 978-9943-03-223-1

© Murod Muhammad Do'sli,  
G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi,  
2009-y.

---

## 1. AZA

Javzoning boshida Raim oqsoqolni yerga qo'yishdi.

G'aybarov janozaga arang yetib keldi. Ukalari, ko'ngil yetar qarindoshlar — hamma uni yig'lab qarshi oldi. Lekin uning o'zi yig'layolmadi. Hatto mozorda ham ko'zidan yosh chiqmadi, begona odamday bir chekkada turdi. Unga ola qarashdi. Orlandi chog'i, ukasi Mavlonboy yoniga kelib, tishlarini qayragudek bo'ldi:

— Loaqal ko'zni tupuklang, aka!..

G'aybarov ukasiga indamay go'rga yaqinroq bordi. Qoraygan lahad og'zida turgan Naim amaki unga yig'lamsirab mo'ltiradi. Kimdir tobutning iplarini yechdi. G'aybarov otasining oq kigizga o'rالgan jasadini avaylab ko'tardi, go'r qiblasidan kelib, Naim amakiga uzatdi. Marhum bo'ychan odam edi — Naim amaki eplashi qiyin bo'ldi. Uning yoniga Mahanboy sakrab tushdi, marhumning oyoq tarafini qo'liqqa qisib, kigiz chetlarini yoydi va lahad og'ziga ro'para qildi. Lahad ichida turgan Mannon murdani kigiz orasidan sekin sug'urib oldi.

Kigiz oq, kafan oq — murdaning lahadga o'tgani sezilmadi. ...oq pilla ichida oppoq bir g'umbak.

Xiyol o'tib, lahad ichidan Mannonning guvillagan ovozi keldi:

— Xudo u dunyosini bersin, makoni keng... Salimboyga rahmat!..

Salimboy, lahadni qazigan odam, go'r labida turgan edi.

— Muning savobi ko'p, — dedi u. — Oqsoqol jannati odam, Mannonboy. Makoni keng bo'lsin, iloyim, makoni nurga to'lsin!..

— Makoni keng, makoni keng... — Mannonning ovozi qo'rquvdan battar titrab eshitildi.

Naim amaki go'r labidagi chimdan birin-ketin uchtasini lahad ichiga uzatdi:

— Yostiq qilib qo'ying, Mannonboy!..

G'aybarov yoniga qarab, mulla Chorini ko'rdi. Uning egnida ko'k kamzul, boshida ko'k salsa.

... farosatli odam.

Mozor boshidagi kishilar orasida birgina mulla Chorining yuzida hayrat ko'rmasdi. Boshqalar — begona, yaqin, toki tomirlarida marhumning qoni kezgan odamlargacha — hammasi hayratda, tappa-tuzuk yurgan oqsoqolning qo'qqis o'limidan hayratda edi.

G'aybarov lahadning qoraygan og'ziga qaradi. Xo'rsindi. U otasini hali ko'p yashaydi, deb xayol qilardi. Otasi tetik edi, tagida baroq yolli cho'bir ot, qo'lida raislik zamonidan qolgan kumush qoplamali zarangdasta qamchi, mansabsiz, lekin mansabdorlardan ham gerdayibroq, ishqilib, o'z soyasini o'zi ergashtirib yurardi. To'g'ri, avvalgidan dasti kaltaroq edi. Bor davlatini borida sovurgan, lekin dami baland, birovga yalinmas, birovga sirini bermas, o'g'liga, kaitta shaharda o'qiydigan Toshpo'lat G'aybarovga, tishining kirini sidirib bo'lsa ham, har oyda yuz so'mdan pul jo'natar edi. Yo'q u bir martagina odatini kanda qilgan: shaharga yumush bilan borib, o'g'lini bitta sochi qirqilgan qiz bilan ko'rganida sal achchiqlangan, keyin ahvol yana eski iziga tushib ketgan edi.

O'shanda G'aybarov ozmi-ko'p sarmoyasini yeb bitirgach, pul istab Galatepaga keldi. Hovliga kirib, kallaklanmay qolgan

tutning soyasida o'tirgan otasi bilan mulla Choriga ko'zi tushdi. Raim oqsoqol o'g'lini ko'rib suyindi, bir xayoli o'midan turmoqchi bo'ldi, lekin turmadidi, eski arazini — o'sha sochi qirqilgan qizni, bir oydirki, o'zining pul yubormay qo'yganini esladi. Keyin o'g'li — aslida yuz so'mning dardida kelganini o'yladi, xafa bo'ldi. Ko'nglidan o'tganini ichiga yutdi-yu sherigi bilan gurungini davom etirdi:

— Mana men, mulla, umrim bino bo'lib ichmadim, chekmadim, birovning molini o'g'irlamadim, ko'nglim tinch, mulla, mening qo'rqaqidan joyim yo'q....

Mulla Chori uning gapiga parvo qilmay, G'aybarovga yuzlandi:

— Xush kelibsiz, Toshpo'latboy!

G'aybarov mulla bilan ko'rishdi, so'ng otasiga qo'l uzatdi. Raim oqsoqol yumshadi, qo'lini berdi, sal pastroqdan joy ko'rsatdi:

— Qani, o'tir.

G'aybarov o'tirdi. Katta yo'ldan hovligacha piyoda yurib horigan edi, chanqog'iga suv so'ramoq istab uy tarafga ko'z yogurtirdi, lekin hech kim ko'rinnadi.

— Maylonboy soyning bo'yida, — dedi Raim oqsoqol uning ko'z qarashini ilg'ab. — Loy qoryapti. Borib sal yordam qilsang bo'lardi...

Otaning ovozi ko'p tolgin edi.

«Maylonboy ajralib chiqmoqchi ekan-da, — deb o'yladi G'aybarov. — Xotini qo'yagan. Men oldinroq chiqib ketganman, hademay, otam Zokirni uylantiradi. — Zokir chiqib ketadi... Keyin bir o'zi qoladi. Yonida biringa Ahmad, lekin Ahmad hali kichkina, hali u hammani haravar yaxshi ko'radi...»

Raim oqsoqol o'g'lining xayolidagini payqadi.

— Qo'yaver, — dedi u. — Yaxshisi, sen unga bir moshin semon topib ber. Kamol bilan gaplashsang, senga yo'q demaydi. Men aytsam bo'lmaydi, rais raisni yomon ko'radi.

— To'g'ri, — deb bosh irg'adi mulla Chori. — Siz so'ta-sangiz yarashmaydi, oqsoqol.

— Sen ham ko'p yalinib o'tirma, — dedi Raim oqsoqol o'g'liga qarab. — Bersa bergani, bermasa — ukasining qorniga! Bir moshin semonni tupkaning tagidan bo'lsayam topib kelaman!

— Ahmad qani? — deb so'radi G'aybarov.

— Akasining yonida. Ikki kunga maktabidan so'tab oldim, mayli, sal qarashib tursin.

G'aybarov o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'ldi.

— Shoshma, charchagandirsan, avval bir piyola choy ichib ol! — dedi Raim oqsoqol.

G'aybarov mulla Chori coynak tubidan sirqitib uzatgan bir piyola taxir choyni sipqordi. Tishlari qamashdi, charchagan tanidan jiqqa ter chiqib, ko'y lagi egniga yopishdi. Ko'nglida vahm uyg'ondi. Yo'q, u Mavlonboy bilan bo'lishi muqarrar ko'ngilsizlikdan qo'rwmadi — u payilar ukasi juda nozik, nimjon edi — butunlay boshqa narsadan, borib aytadigan da'vosining nochorligidan qo'rwdi.

...soy bo'yiga borib nima qilasan? Mavlonni urishding, so'kding, xo'sh keyin-chi? Shoxing chiqadimi? Mayli, xotini uni ming bora yo'ldan ursin, pichoq qilib qayrasin, otangning, sening taningga tig' qilib sanchsin, lekin bari bir Mavlonboy sendan behroq. U nari borsa, yuz qadam uzoqqa ko'chib chiqadi, nari borsa, qozon-tovog'i bilan hamyonini ayri qiladi. U sendan yaqinroq, sen-chi?

G'aybarov nari ketdi. Tandir supasida yotgan eski mis barkashga o'tirdi. Barkash kuydirgudek issiq edi, lekin u qo'zg'alwadi, achchiqma-achchiq o'tiraverdi.

— Men hech narsadan qo'rwmayman, — dedi otasi shergiga qarab. — Mening ko'nglim tinch, mulla.

Mulla Chori olam zamon jim o'tirdi.

— Men qo'rwanman, oqsoqol, — dedi u nihoyat.

— Siz mulla odamsiz, Choriboy, — dedi Raim oqsoqol. — Xo'sh, o'zingiz ayting, men u yoqqa borib birovni ko'ramanmi?

— Ko'rmaysiz, oqsoqol, — deya quvonib so'zladi mulla. — Hech baloni ko'rmaysiz.

— Bo'lmasam, mulla... unda... menga muning hammasining nima keragi bor?

— Sizga oson, oqsoqol, o'zingiz aytdingiz-ku, sizning umidingiz bor, siz ishonib turganingiz ma'qulroq. Menga qiyin...

Keyin — G'aybarov mis barkash ustida, mulla bilan Raim oqsoqol tutning soyasida — ancha mahal tek o'tirishdi. Axiyri Raim oqsoqol chidolmadi, so'radi:

— Rosti bilanmi, mulla?

— Yolg'on gapirdim, oqsoqol, — dedi mulla, keyin pikkilab kuldì, chamasi, alami keldi. — Bo'lmaydi, bo'lmaydi, oqsoqo-o!.. Ishonmasangiz qiyin. Hozir siz ham yolg'on so'ylayapsiz! Siz ichmagansiz, chekmagansiz, birovning molini o'g'irlaganingiz yo'q, lekin bari bir, siz ham qo'rqaqasiz! Siz ham qo'rqaqasiz, oqsoqo-o!..

Mulla Chori, qo'lida tuproq solingan ko'k chorsi, G'aybarovning yoniga keldi:

— Bir siqimi tuproq tashlang, o'g'lim.

G'aybarov yerga engashib, go'r labida uyulgan nam tuproqdan bir kaft oldi.

— Tuproqqa dam soling, o'g'lim, — dedi mulla Chori.

G'aybarov pichirlab duo o'qirkhan, go'rning narigi tarafida turgan ukasi Zokirni ko'rdi. Keyin birdan ko'zlarini tindi. Zokir xiralashib, tepaga uchib ketganday bo'ldi.

Kimdir uning yelkasiga bosh qo'ydi. G'aybarov o'girilmadi, chap yelkasasi osha quchgan qo'lni tanidi: Ahmadning qo'lli, somon qorib, go'ng kurab, naq tappi bo'lib ketgan qo'llar, qishloqi o'smirning qo'lli.

...ichimizda birgina shu sag'ir.

Mushtini yozdi — kaftidagi tuproq barmoqlari orasida siqilgan, misoli umurfganining bir parchasiday bo'lib qolgan edi.

...ko'mishadi, et suyakdan ajraladi, so'ng suyakning bir o'zi qoladi. Umurtqa ochiladi, xuddi tuproqday, xuddi kaftimdag'i tuproqday. Oxiri xok, xok bo'ladi, oddiy xok...

Mulla Chori boshqalarning kaftidagi tuproqni ham belbog'iga solib, pastda turgan Naim amakiiga uzatdi, Naim amaki ichkariga, hamon lahad ichida o'tirgan Mannonga berdi. Mannon tuproqni jasad ustiga apil-tapil sochib, belbog'ni qaytardi, keyin o'zi ham qorong'ilik orasidan chiqib keldi.

Yuzi bo'zday oqargan, hushi uchibroq chiqdi. Unga darrov bir kosa suv berishdi.

...lahad tor, shifti yelkangdan bosganda bilasan!

Mannon go'rdan sakrab chiqdi. Chaqqonroq sakradi — qizardi, atrofga o'g'rincha qarab, boshqalarning yuzidan gap uqmoqchi bo'ldi. Lekin hech kim uning sakraganiga parvo qilmadi. Mannon sal yengil tortdi, favqulodda xushhollik bilan go'r labida turgan G'aybarovning bilagidan tutdi:

— Bardam bo'ling, yigit!..

G'aybarov ijirg'angandek Mannonning qo'lidan yulqinib chiqdi.

Go'r labiga katta xarsangni yumalatib keldilar. Yoqub polvon go'r ichiga tushib, Naim amaki bilan birgalikda xarsangni lahad og'ziga qo'ydi. Tepadan chim uzatib turishdi, Naim amaki xarsang barobar qilib taxladi.

— Bekiting, qaytib chiqmaydigan bo'lsin!..

G'aybarov titrab ketdi. Uyaldi. Bu gapni boshqalar ham eshitdi, deb cho'chidi. Lekin o'ziga ishonmagan bo'ldi:

...sekin aytdi, sekin, birov eshitmaydigan qilib aytdi. Yo'q, aytmadni, menga shunday tuyildi.

So'ng u birdan hayratlandi:

... nahotki! Yo'q, men bunday deyolmasdim. Zolim odam aytdi. O'ylab-o'ylab, huzur qilib aytdi. Yemon!

U orqaroqda turgan Turdiqulni ko'rdi-yu, hamma gapga tushundi.

Turdiqul bu gapni aytishi kerak edi. Aqlini tanibdiki, u Raim oqsoqolni yomon ko'radi. Bola-chaqasi bilan birga o'tirib qarg'aydi. Raim oqsoqol uning otasi Panjini o'ldirgan. Turdiqul shunday deb o'ylaydi. Aslida Panjini o'ldirgan Raim oqsoqol emas, boshqa odam — Ochil Kuch. Lekin Ochil Kuchni birov hisobga qo'shmaydi. Ochil Kuch guppiroq odam, gapga tez uchadi. Umr bo'yli birovlarining qutquisiga qul bo'lib o'tdi. Uni Raim charxlagan, keyin Ochil Kuch Panjini otgan, deb o'ylashadi. Go'yoki Panji o'g'ri devordan oshib qochmoqchi bo'lganida Raim oqsoqol egar qoshiga ilig'liq miltig'ini erinibroq qo'lga olgan: «Otaymi, Kuch?» Ochil o'zining Kuch laqabini eshitgan mahali bir gaz o'sardi, hovliqib xitob qilgan: «Qo'ying, yurt og'asi, men o'zim surobini to'g'rilayman!»

Ochil Kuch shunday gardankash odam edi. U hech baloni tushunmagan, beshotarni Raim oqsoqolning qo'lidan yulqib olib, Panji o'g'rining naq ensasidan qo'ygan. Odam o'ldirib ko'rmagan-u, ishqivozligi bo'lganmi yoki qo'rqqanidanmi, ishqilib, Panji o'g'rini Ochil Kuch otgani rost.

Keyin u umr bo'yli maqtanib yuradi: varanglatib ottim! Raimning ko'ngli bo'sh, yuragi betlamadi, o'zim beshtig'ni olib, endi devordan oshgan mahali varanglatib otib tashladim!

Ochil Kuch maqtanganda, Raim oqsoqol nochor iljayardi. Aslida, Panji o'g'ri devor oshib qochmagan, qo'llari rasmana bog'log'liq, keng ko'chada oldinga tushib ketayotgan mahali otilgan edi. Keyin uni qochediga chiqarishdi. Kattaqo'rg'onidan maxsus odam kelib, o'likni ko'rganida aytdi: «Yo'q, afandilar, o'likning sochi kuyibdi, naq ensasidan qo'yib otgansizlar!..» Uni bir amallab tinchitishdi. Avval Ochil Kuch yetmay

qolganiga Raim oqsoqolning o'zi ziyofat qildi, xullas, tinchitishdi. Panji o'g'ini ilgari ham ikki marta Katta-qo'rg'onga eltilib hibs qilishgan, lekin ikki safar ham omon qaytib kelgan edi. Har kelganida ikkitadan odamning yostig'ini quritgan, jami — to'rtta. Agar bu gal ham qochsel, yana ikki odamni o'ldirardi: Raim oqsoqolni, keyin...

Endi fol ochish qiyin. Har holda, u Ochil Kuchni otmagan bo'lardi — undan zarracha ham hadik qilmasdi. Panji o'g'ri odam bo'lib, belga belbog' boylagidan beri Ochil Kuchga o'xshagan hovliqma, pishangtalab mardumni pisand qilgan emas. Agar u tchinchi gal ham omon qaytsa, Raim oqsoqol bilan o'zining ammasini otgan bo'lardi. Panjini solgan kishi shu Amma edi. O'g'irlab keltirgan tillasini bekitib, o'zini Raim oqsoqolga solgan.

Keyinchalik Ochil Kuch Panjining ammasi Oyparchaga uylanaman deb ko'p urindi, lekin xotin unga parvo qilmadi. Unga erdan ko'ra astrab qolgan tillasi behroq edi. Qolaversa, erga muhtojligi ham yo'q. G'uchchi yilqichini jazman tutgan, yilqini dashtda qoldirib, tunlari bag'rini to'ldiradi — Ochil Kuchni boshiga uradimi! Tilla ko'ngilni to'q qiladi, umrni uzaytiradi.

Hozir Oyparcha kampir naq saksonga kirdi. Beli bukchayib qolgan, lekin hali umri uzoq, mayli, u buikul cho'kib, ko'taram bo'lib qolsin, lekin hali yuzga kiradi, ikki yuzga, uch yuzgal..

Oyparcha kampir o'lmaydi, mangu yashaydi!

Jon shirin, o'g'lim, qo'rqqdim. Qaytiib kelsa, meni bir panadan turib otardi. Nima qilay, yolg'iz tirnoq o'g'ilman, qari otam bor, qari enam bor, boshqa ilojini hech topolmadim. Panji o'g'ri dunyo ko'rigan odam edi. Mening hech kimim yo'q. o'lib ketsam, otam bilan enamning chirog'i o'chsa, keyin birov qaytiib otimni

atamasdi... Uning bola-chaqasi ko'p, o'tnida qoladigani bor, menda-chi? Panjining zot-zurriyoti o'choq aylanib meni qarg'aydi, zavolimni tilaydi. Lekin men haq edim, o'g'lim, bu dunyoni chidaganga chiqargan!..

Turdiqulning soqoliga oq tushibdi. Salla chetidan ko'rинган соchlari ham oq. Demak, u ko'p kulgan. Bugunga kelib, u niyatiga yetdi. Raim oqsoqol zavolini topdi. Ammo Turdiqulning boyaga aytgan gaplari behuda. Bari bir, Raim oqsoqol qaytib go'rdan chiqmaydi.

Turdiqulda ham ayb yo'q, unga o'rgatishgan. Otadan yosh qolgan, o'zi hech narsani ko'rмаган, hech narsani тушунмаган. Unga o'rgatishgan. Kichkinalarga doimo o'rgatishadi. G'aybarovga ham bir zamonlar o'rgatishgan. U ko'chadagi ismi o'tkinchini to'xtatib: «Kel, senga enamni beraman!» deb qichqirgan. Kimadir shu narsaning qizig'i bo'lган. Otasi Raim oqsoqol turmada, bor qarindoshlar o'zlarini panaga olgan, biyday hovlida ikkita go'dak bilan mushtipar onasi, kimdir unga o'rgatgan va hali go'dak G'aybarov ko'chaga chiqib, duch kelgan kimsani enasiga er bo'lishga chorlagan: «Kel, senga enamni beraman!..» Odamlar kulgan. Bolaning yelkasiga qoqib maqtagan: «Yashang, ota o'g'li, zo'rsiz!» Kimdir uni koyigan ham chiqar, lekin koyishdan oldin albatta bir marta miyig'ida iljayib olgan.

Bir kuni Galatepa ko'chalaridan ot surib o'tayotgan bad-jahl suvoriy uni tanib qoldi. Xolbozorov rais, Jomning eski raisi, Raim oqsoqolning eski oshnasi, ko'chada ot surib ketayotib uni tanidi, qichqirib aytayotgan gapini ham eshitdi, от устидан турив боланинг ялкасига қамчи туширди:

— Bas qil, itdan tarqagan! Tilingni sug'urib olaman!..

So'ng bolani bilagidan ushlab dast ko'tardi-yu darvozaga eltdi. Tagida gijinglagan bo'z ayg'ir, xushmo'ylov, ko'zlar

olachag'ir, kelbatidan odam cho'chiydi — devordan bosh cho'zib, ichkariga baqirdi:

— Valadingni yig'ishtirib ol! Yo Raim ketib, munga o'zing gap o'rqaatdingmi, qanjiq?!

Ona qo'rqaq edi — chiqmadi.

Lahadning og'zini bekitib, go'rga tuproq tashlashdi. G'aybarov chetga, ukalari Zokir bilan Maylonboyning yoniga borib turdi. Kimdir Ahmadga belkurak tutqazdi. Ahmad indamay ishga tutindi; boshqalar bitta tashlaganda, u ikki kurakdan tuproq tashladi, Ahmad doim shunday tez ishlardi, lekin hozir, otasini ko'mayotgan paytda bunchalik shoshmasa ham bo'lardi.. Uning ko'zlarini yosh qoplagan, hech narsani ko'rmasdi. Zokir borib, sekkingina ukasining qo'liga urdi. Ahmad unga sal ajablanib qaradi, keyin tushundi, qizardi (bolaligi bor-da hali), achchiq bir xo'rsinib, ortga, nazardan soliroq joyga tislandi.

Keyin qabrning yonida, oyoqlar ostida toptalgan qovjiroq maysa ustiga cho'kka tushib qur'on o'qidilar. Qur'oni jomlik mulla Nizom o'qidi.

Tugadi. Tobutni sindirishdi.

Tobut cho'plarini ham sindirishdi. Hammasi terakdan edi — oson sindi.

G'aybarov hozir otasi bilan mulla Chorining, terak tobut yaxshimi yoki tol tobutmi, deb bahslashganini esladi. Raim oqsoqol o'shanda negadir terakni yoqtirmay yengilroq, sal bexosiyat daraxti, deb aytgan, tolni maqtagan, chidamli, qayishday pishiq degan edi. Bugun Raim oqsoqolni terak tobutda ko'tarib kelishdi. Teraklarni uning tung'ich o'g'li Toshpo'lat ekkan. Suvni kenja o'g'li Ahmad tashib kelgan. Olti yil burun, Ahmad unda kichkina edi — sakkiz yoshda. Ular qalamchalarini yerga suqaturib, osmonga bo'ylagan baland daraxtlarni ko'rishni o'ylagan edilar. Lekin o'sha teraklardan bugun tobut yasashidi. Endi uni sindirishyapti.

Tobutni sindirgan ma'qil, toki u sinib, bosnqaning unga yumushi tushmasin.

Tobut sindirildi. Endi tobut yo'q. Endi hech kim o'lmaydi. Endi hech kim o'lmasin!..

O'n qadam, yigirma qadam, o'ttiz... Hamma — sukulda. Sukutni mulla Chorining hayqirig'i buzdi:

— Mo'minlar, Raim G'aybar o'g'li qanday odam edi?! Hamma birdan javob qildi:

— Yaxshi odam edi! Yaxshi odam edi! Xudo rahmat qilsin! Mulla Chori ortga, go'r tarafga o'g'rincha qarab oldi.

...nahotki u xudoga ishonsa? Ya'nikim, marhumni yerga qo'yib, mardum uzoqlashsa bas, Munkar bilan Nakir lahadga kiradi va so'roq boshlaydi: kimsan? Rabbing kim? Rasuling kim?

— Jannatidan joy ato qilsin, — deya sekin so'zlandi mulla Chori.

...otamdan qarzini uzmoqchi. Otamni jinidan battar yomon ko'rardi, endi u raqibsiz yolg'iz qoldi, gurungga boradigan joyi yo'q. Endi o'zicha uyalyapti, afsus qilyapti.

Birov kelib G'aybarovning yengidan tortdi. O'girilib qaradi: Mahanboy, maktabdosh jo'rasi. Bugun choshgohda u hovliga bo'zlab kirdi. qo'lida chetlari popukli ojizabop ro'molcha, marhum yotgan uyning derazasi oldida azador hisob bo'lib turdi. G'aybarov uchun ham o'zi yig'ladi, bilgan bildi, bilmagan uni ham Raim oqsoqolning farzandi ekan, deb o'yladi. Mahanboy G'aybarovning so'qirko'z bo'lib turganini ko'rib, deraza yonidan nari haydadi: «Bor, jo'ra, o'ksang quribdi, jamoatning oldiga borib tur, harne, katta o'g'ilсан...» G'aybarov, noiloj, jamoatning oldiga ketdi. Shashardan kelib bo'yinbog'ini yechishni unutgan ekan, kimdir yarim yo'lda ortidan yetib, yelkasiga ko'k to'n tashladi, bo'yinbog'ini yechib oldi. G'aybarov bo'yinbog'ni ko'rib ajablandi: nahotki xabar yetgandan keyin faqqan bo'lsam?..

Yo'q, bo'yinbog'ini avvalroq taqqan edi. Xabar keyin yetdi. Xabar yetganda G'aybarov o'zini o'ylagulik holda emasdi. Faqt salgina umidi bor edi, otamni tirik ko'rman, deb o'ylagan edi...

— Charchabsan, mashinaga o'tir, — dedi Mahanboy.

G'aybarov rad etib bosh chayqadi. O'n qadamcha nariga kelib to'xtagan qizil mashina o'midan jildi, yo'l-yo'lakay eshigi qarsillab yopildi. Mahanboy, lablari quruqshab yorilgan, horg'in, u bilan yonma-yon ketaverdi. Ularga Zokir kelib qo'shildi. Uchovi qabristonga kirgan mashinalar, aravalı traktorlar ortidan darvoza taraflga qarab yurishdi. Chiqar mahali G'aybarov ortiga o'girildi, lekin otasining go'rini ko'rolmadi — qabrlar ko'p edi.

Mashinalarga sig'magan odamlar yo'lni qisqa tutib, qabristonning pastak devorlaridan sakrab o'tmoqda edilar.

So'qmoqdan yurishdi. Bu so'qmoqni G'aybarov bolalikdan bilardi. Tug'ilgan uyidan uzoqda yurgan kezları ko'p bor eslagan.

Xususan, sayohatni eslagan. So'qmoqda turnaqator bo'lib ketayotgan yo'lovchilarni, Oldinda egarga oq qo'chqor o'ngargan Naim amaki, undan orqaroqda, qora moda eshak ustida Amma, Raim oqsoqolning kampir ammasi — Raim oqsoqol yomon ko'radigan, to'rtta er almashfirgan, endilikda o'g'illarini qo'yib, kuyovinikida yashaydigan kampir, uning ortida, o'sha qora eshakning quymichida — kichkintoy Toshpo'lat, keyinda — onasi, boshqa yo'lovchilar, olli, eshakli, yayov, bahor fasli, yolg'izoyoq yo'lni sharros yomg'irlar savalab qotirgan, o'tloq toza, yuvilgandek, son-sanoqsiz qo'zigullar, ularning ostida esa yam-yashil chim bamisol baxmalday muloyim. Yolg'izoyoq, yo'lning chetlarida — past-u baland, lekin usti birday yassi tepachalar. Ular go'dak G'aybarovga g'alatiroq bo'lib ko'rindi. Ammadan, bu nima,

deb so'radi. Amma tushuntirdi, manavisi o't, manavinisi gul, deb aytdi, anavi sariqqinasi qo'zigul, qo'zigu'lni qo'zi-choqlar xush ko'radi, kurt-kurt qilib uzib yeydi, anavilari qo'ziquloq, qo'zilarning qulog'iga o'xshaydi, hali ular barra, kichkina, keyin borib-borib katta bo'llib ketadi...

Biroq Amma tepachalarni go'r deb atamadi, shunchaki, tepacha deb tushuntirdi, keyin yana bir gapni qo'shib qo'ydi: «Bularni odamlar yasagan, tagidayam odamlari bor». Rostini keyinroq Raim oqsoqol aytadi: «Galatepa deganing olam zamondan beri muqim, umr-u tarixi Jomdan kam emasdir, mozorga ketar yo'lning ikki tarafiyam pastak do'nglik, go'rga hech o'xshamaydi, tekislanib ketgan, lekin asli u yerlar ham mozor, bir zamondan qolgan ekan...»

U paytlarda esa G'aybarov hali bola, binobarin, salginaadolatliroq ham edi. Amma ham unga, garchi jo'nroq bo'lsa-da, rostini aytgan: tepachaning tagida odamlari bor, bo'tam. O'shanda G'aybarovning kichkina yuragi birdan uvishdi. Atrofqa boqdi — o'tlarni va gullarni ko'rди, osmonga boqdi — oppoq parq-y bulutlarni ko'rди, keyin o'yladi, kattalarga hayton bo'ldi: shuncha o't, shuncha gullar, shunday keng osmon-u oppoq bulutlar bo'la turib, nega pastak tefanining tagida yotadi?

Mulla Chori Raim oqsoqolga naql qilguvchi edi:

— Esingizda bo'lsa, oqsoqol, hazrati Odam Atoning ikki farzandi bo'lardi: birini Qobil atashardi, unisini — Hobil. Bir kuni alar o'ynab yurib edi, Qobili bexosdan tosh otib, Hobilini o'ldirib qo'ydi. Qo'rqi, har tarasga yugurdi, dod soldi. Uning tangligini ko'rib xudovandi karimning o'zi amr qildimi yoki boshqa bir sinoat sabab bo'ldimi, ittifoqo bir qarg'a ham justini o'ldirib, murdasini sudrab keldi, keyin Qobilning ko'z o'ngida tumshug'i bilan yer qazib, chuqurehaga daln qildi.

Unda Raim oqsoqol ham, mulla Chori ham tetik, hech balodan hadiklari yo'q edi. Bugun Raim oqsoqol o'ldi, mulla —

qarigan, endi u sal qo'rqadi, qabrdan uzoqlasha turib, ortiga o'g'rincha boqadi, Munkar bilan Nakirni o'ylaydi, vahimaga tushadi...

Tobutkashlar hovligá qaytib keldilar. Xotin-xalaj tag'in yig'i ko'tardi. Ovozlar charchagan, bo'g'iq edi, ular ertalabdan beri jamiki alamlarni sanab bo'lgan. Endi tezroq kech tushmog'ini, o'choqlarga o't qalab, marhumning arvofiga shom oshi pishirib kelishni o'ylashardi. Kim shavla pishiradi, kim palov — tashvishining o'zi bir olam.

Go'yandalar orasida birlgina Anzirat kampirning ovozi bardam. U to'lib-to'lib yig'layapti:

— Meni kimlarga tashlab ketding, to'ram!..

Raim oqsoqol Anzirat kampirni tashlab ketganiga ko'p bo'lgan. Biror qirq yil, balki undan ham ko'proq. Anzirat kampir esa, shuncha vaqt o'tib, endi yig'layapti. Ko'ngildanmi, go'yandalik shavqidanmi — dafatan anglash ham qiyin.

Anzirat kampir marhumga juda yaqin: bir tarafdan xolasining qizi, bir yoqdán ko'z ochib ko'rgani. Undan chiqib, qayta er tutmadı. Avvaliga odamlar Raim raisdan hayiqib og'iz solmagan bo'lsa, keyin raisning oyog'i uzangidan ketganda, Anziratning o'zi bevalikni bukul kash qilib oldi. Raim oqsoqol uni haydab, keyin necha bor uylangan bo'lsa, xotinlarining hammasi Anziratdan cho'chinqirab o'tdi. Go'yoki o'rtada taloq aytilmaganday edi. To'y-ma'rakaga keladi, o'zining uyiga mehmon kelganda chaqiradi, kelganda quvolmaysan, aytganida borasan, boshqa ilojing yo'q, jamoat, odamgarchilik degan gap bor, to'y-u aza odamsiz o'tmaydi, hammamiz ham bir-birimiz tufayli kun ko'ramiz.

Anzirat xola o'g'il tug'di, ikkisi ham kattiq terlamadan ketdi, ikkita qiz tug'di — ikkovi ham omon, erli, bola-chaqali.

Raim oqsoqoldan boshqa odam bu savdoga chidolmagan bo'lardi. Boshqa odam tuflagan tupugini qaytib og'ziga olsa

ham ajab emasdi. Negaki, qizlari ota deydi, nevaralari buva deydi, keladi-ketadi... U xotinning talog'ini tutqaza turib, yuziga qaramayman, deb qasam ichgan. Qaramaslik mumkin, lekin eslamay ko'r-chi... Eslaysan, chorang yo'qdirki, eslaysan, u sening har ikki ko'zingga mahkam o'mashib qolgan, o'n sakkiz yoshligi, qorasoch, qoriko'z... Qo'rquv aralash nozdan titragan yelkalariga qo'l yuborgansan, bag'ringga bosgansan... Unutish qiyin! Nochorlikdan g'azabga minasan, ming go'rdan olib ming go'rga solasan — befoyda! Ko'rib turasanki, hammasi befoya.

Xiyonati yo'q, qing'irligi yo'q, qaytaga, Raim oqsoqolni izzat qildi, boshqalarning oldida yuziga oyoq bosib qaytadan er qilmadi, orqavoratdan cholim, deb ataydi. Avvallari yosh edi, alam va andak kinoya bilan cholim, deb atagan, keyin u qarigan, Raim oqsoqol ham qarigan, cholga aylangan va Anzirat, chol deb atashga butkul ko'nikkan.

Shular boisdirki, Raim oqsoqolning Anziratga taloq aytaganiga birov ishonib, birov ishonmagan. Shu boisdirki, Anziratdan keyin Raim oqsoqolning nikohiga o'tgan ayollarning rangi chiqmadi, barisi g'amgin, czilibroq yashab o'idi.

Ikki o'g'limiz bor edi, mulla, ikkoviym erta ketdi, keyin yana bir marta uylandik, undan ham bir o'g'il ko'rdik. Oldin qo'ygan xotinimiz o'zi bilan opketigan qizchamizdan birini yuboribdi, shu qizchamiz yangi topgan o'g'ilchamizni o'ynatmoqchi bo'lib, hovlidan tashga opchiqibdi... Shamollaganmi-netganmi, kechqurun Jomning cho'lidan Xolbozorov rais bilan janjalimizni hal qilib kelsam, bolaning hech holi yo'q, qorachig'i qimir etmaydi. Tabibga odam yubordik. Keldi, bolani ko'rib, miyasi andak lat yebdi, deb aytdi. Qizchamizdan so'rasak, yo'q, aytmadni, yiqitganim yo'q, deb turib oldi. O'zim ham yiqliganiga ishonmadim, bolaning biror joyida

ko'kargan belgi yo'q edi. Mulla Doniyorga o'qitdik — nasi bo'lmasdi. Ertalabga yetmay uzildi. Keyin xotinning o'ziyam ko'pga bormadi, kuyib ado bo'ldi. Ikkovini ikki joyga qo'yidik. Bir ko'nglim, bolani qo'yindidan olib, enasining yoniga qo'yay dedim, lekin odamlarni o'yladim, o'zingiz bilasiz, mulla, udumi shu, bolani ena qavmiga qo'shib bo'lmaydi, keyin desangiz, bolaning harne norasidaligi bor, kattalarning gunohi mo'iroq — ayrim ko'mishadi. Endi turib afsus qilaman, mulla, u zamonda ozmi-ko'p obro' bor edi, echkini tuya desam ham ishonishardi, bu yog'i xotinin rahmatlining ham gunohi ko'p emasdi, juda dili pok, so'zlar jo'yali yaxshi ayol edi.. Shu bolaning dardida tamom bo'ldi. Bolani ko'mdim, enasini ko'mdim, keyin forig'lik muddatini o'tkazib, yana uylandim, mana endi, xudoga shukr, yana bolalarim bor, lekin desangiz, mulla, ko'ngilda armon qoldi-da! Xudoning o'zi kechirsin, lekin armonim kun sayin orlgan bo'lsa ortgan, hech kamaygani yo'q!..

Raim oqsoqol gumonini hech qachon ochiq aytmagan. Keyinroq G'aybarov onasidan eshitib bildi: o'shanda qizcha o'gay ukasini hovlidan tashqariga olib chiqib, boshiga igna saneghan ekan.

G'aybarov bu gapga ishonmadi. Keyin ishonmoq istab so'radi:

— Birov o'rgatganmi, ena?

Onasi aytdi:

— Yo'q, birov o'rgatmagan, o'zi bilib qilgan, opang kichkina paytidayam jodugar ekan, o'zi bilib qilgan.

G'aybarov bari bir ishonmadi. Lekin o'gay opasidan bir umr cho'chiydigan bo'ldi.

Vaqti kelib, Mavlonboyni uylantiradigan bo'lishdi. To'ydan oldinroq, to'nbincharga odam chaqirishganda, u o'gay

opasini tizzasida bichiq, qo'lida qaviq igna bilan ko'rdi va sekin, zolimona ohangda sekin aytdi:

— Ehtiyot bo'ling, opa, ignani sanchib olmang...

Keyin asta kuzatdi: opaning yuzi qilt etmadi. Hamma gap bo'hton edimi yoki endi esdan chiqqanmi...

G'aybarov Anzirat kampirning o'zidan gumon qilishga uyalgan. Bilardiki, u kezlar Anzirat ersizlikka batamom ko'nikkan edi. Taloq ancha oldin aytig'an, bolaning o'limi ko'p keyin sodir bo'lgan.

Bir gal mulla Chori Raim oqsoqoldan so'rab qoldi:

— Shu, Anziratni qo'yganingizga achimmaysizmi, oqsoql?

Raim oqsoqol mullaga o'qrayibroq qaradi — gapga xotinlarni aralash tirishni yomon ko'rardi.

— Yo'q, — dedi u sal turib. — Nimasiga afsus qilaman!.. Akalari menga gap qaytarmasa ham bir navi edi. Iken ular yuzimga oyoq qo'ydi, keyin talog'ini aytidim...

G'aybarov aslida bunday emasligini bilardi. Raim oqsoqol bunchalar bachkana emasdi, erkakka achchiq qilib, o'chini hech qachon xotindan olmagan bo'lardi... Bo'lmasa, nima sabab?

Axir ikkita qizi bor edi, o'g'llari o'lga bo'lsa, hali Anziratning o'zi yosh, istaganicha o'g'il ham tug'ib berardi. Tushunish qiyin. Bugun Anzirat kampir o'kirib yig'layapti, Raim oqsoqol uni qirq yilcha oldin tashlab ketganiga, zoye ketgan umriga, xo'jako'rsin oriyatiga motam tulyapti.

...yoki u otamni rostdan yaxshi ko'rganmi?

Anzirat kampir Raim oqsoqolning o'limidan uch kun oldin keldi. Lekin uni bemorning yoniga qo'yishmadi. Kecha tag'in yugurib keldi. Ko'ngli sezdiki, Raimning kuni oz qolyapti. Sezdi-yu boshiga jelagini ilib yugurdi, lekin uni tag'in qo'yishmadi, sen endi nomahramsan, deb aytishdi.

Anzirat kampirga alam qiladi: churik Amma, Raim oqsoqol umr bo'yi ro'yxushlik bermay o'tgan Amma quvilmadi,

to Raim oqsoqol jon taslim qilgunicha yostiq yonidan jilmay o'tirdi, lekin uni, Anziratni, marhumning ko'z ochib ko'rganini ichkari qo'yishmad!

Kim biladi, balki, Anzirat umr bo'yи loaqal shu oxirgi onda birga bo'lmoqni o'ylagandir? Balki, shuning ilinjida boshqa er tutmagan chiqar?

Muhabbat deganlariga bir zum ishonsak bo'lar?

Toqlik, shuncha alam va armonlar... nahotki, bularning barchasi bekor?

Yig'la, Anzirat, mayli, sen yig'lagin — senga yarashadi.

Dunyo — bayt-ul-ahzan, qayta gullamoq yo'q. Xazonday sovrilamiz, xazonday, xazonday!

Dunyo — bayt-ul-jafo, g'amgusor yo'q, dillarimiz gung va besharh qoladi!

Gung va besharh!..

Yig'la, Anzirat, yig'la!

Mahanboy kelib, G'aybarovning yoniga turdi. Zokir, Ahmad ularning tengurlari, jiyalar... biror o'n besh chog'li yigit deraza yonida yo'qlov boshladilar. Endi uy ichida jasad yo'q edi — yig'lov sust tuyildi. Uy to'la xotin-xalaj. Marhum yuvilgan burchak bo'sh, unda g'assollar keltirgan ikkita yassi taxta, taxtaning chetida eski jinchiroq... uyning to'rida Amma, pastrog'ida Anzirat, boshqa xotinlar... uvvos tortib yig'lashardi. Hamma o'zining dardini aytdi. Anzirat Raim oqsoqolni yo'qladi. Amma to'rtta erini yo'qladi, o'g'illaridan nolidi, boshqalar...

Dunyoda alam va armon ko'p — hammaga yetarli.

G'aybarov deraza oldidan jilayotgan mahali kechikkanlar kirib kelishdi.

Xushsurat keksa ayol uning yuziga bir nafas qarab turdi, keyin tanidi va bo'yniga osilib yig'ladi. Yig'isi rost edi.

G'aybarovning egnidagi zangor to'nning yelkasi tim ko'kka aylandi. U beixtiyor cho'ntagidan ro'molcha chiqardi, lekin ayol alam bilan boshini chayqadi, yo'q, yo'q, u ko'zlarini artmoqchi emas, yig'laydi, ming yil bo'lsayam yig'laydi... G'aybarov ayolni ko'zlaridan tanidi, yigirma yilcha burun shu qo'yko'z ayol, otasining uzoq bir qarindoshi, mehmonga kelib, qaytar chog'i Toshpo'latni ham o'zining qishlog'iga olib ketgan edi. Ayolning Toshpo'lat tengi o'g'li bo'lardi, bir gal ikkalasi qari tutga chumchuqning polaponini axtarib chiqib, qaytib tusholmagan, qo'rqqan, yig'lagan, keyin, shom mahali, adashgan sigirlarni haydab qaytayotgan podachi yigit ularni tushirib qo'ygan edi.

G'aybarov yoniga qayrildi: ayolning qizi, yigirma yettilar atrofidagi suluvgina juvon ko'zlarini yerga tikib turardi. Mana, u boshini ko'tardi, G'aybarovga qiziqsinib tikildi. Yuzida hayrat va qiziqsinish — motamdan asar ham yo'q.

Juvon ham uni esladi.

Qo'yko'z ayol mudom ayiguvchi edi: Toshpo'latjon, qizimni senga beraman, poshshoning o'g'li bo'lsayam, sendan boshqaga bermayman, sening o'zginangga beraman.

G'aybarov, unda hali kichkina bola, qo'yko'z ayolning qizini olishga hech unamagan. Lekin qizchaning o'zi uning olishini istardi, onasining yonida, sochlari to'sqi, jamalaklari betartib, ko'zlarini «kuyovbola»ga muloyim tikib turardi. U hozir ham shunday qarayapti. Unga hammasi qiziq tuyiladi.

Endi qo'yko'z ayolning hazilkashligi, kun bermay gapirganini eslaysan, xolos: qizimni beraman, olsang ham olasan, olmasang ham olasan, agar ko'nmaydigan bo'lsang, to'rva ga solib, bo'yningga taqib yuboramani..

G'aybarov juvonga sekin bosh irg'ab, nari ketdi. Sal yurib, tag'in ortiga qayrildi: keksa ayol yig'layapti, juvon hayronlikda,

...otamni deyarli ko'rmagan, o'zining nega kelganini bilmaydi. Ular ko'pdan beri kelmagan edi. Bugun kelishdi,

keyin yana kelishadi, yig'lov-siqtov, eslashlar, shu asnodda qarindoshlik qaytadan tiklanadi, bizlar boramiz, ular keladi... besh, o'n, o'n besh yil... so'ng tag'in bir uzilish.... yana kimningdir o'limigacha...

Olmalar tagida odam ko'p edi. Soyaga ikkita katta gilam to'shalgan. Ikti qo'r. O'ngdag'i qo'rning to'rrog'ida mulla Soat, uning yonida Mavlonboy, undan sal berida mulla Chori, tund, o'ychan, uchovlashib ta'ziya qabul qilishyapti. Akasini ko'rib Mavlonboy sekin o'rnidan turdi. G'aybarov oyoqlarini yechmay, ko'rpachaning bir chekkasini qayirib o'tirdi. Mulla Soat unga atab tilovat qaytardi. Yuzga fotiha tortishdi.

— Bandalik, — dedi mulla. — O'zi bergen jon ekan, o'zi yana qaytarib oladi.

Bir navbat kelganlar yo'lga otlandi. Ularning o'rnnini yangi kelganlar oldi. O'rtada to'rti-beshta patir non, parvarda, choy... Tilovat, bir tishlam non, bir ho'plam achchiq ko'k choy, tag'in tilovat va ta'ziya; bandalik-da, uka, bandalik-da, aka...

Odamlar andak siyraklashgan mahal mulla Soat G'aybarovga yaqinroq surildi, taskin bergen bo'ldi:

— O'lim deganimiz otameros gap, domla Toshpo'lat. Choryorning eng ulug'i hazrati Ali edi, o'g'illari ikkita, imom Husayn bilan imom Hasayn...

— Hasan, — dedi G'aybarov uning gapini bo'lib. — Oti Hasayn emas, Hasan.

— O'g'illari o'lganda hazrati Ali ko'p qayg'urdi, — mulla uning gapiga parvo qilmadi. — Ta'ziyasiga Odam Ato kelib aytdi, qayg'urmang. Ali. o'lim deganimiz otadan meros...

— Mendan meros, deb aytgandir? — deya so'radi mulla Chori.

— Shunday, mendan meros, deb aytdi.

— Odam Ato oldinroq o'lib ketgan emasmikan? — deb iljayib so'radi mulla Chori.

Mulla Soat ranjidi:

— Odam alayhissalomning tirilib kelishlari qiyin ekanmi?

— Qiyin, — deb tag'in iljaydi mulla Chori. — O'lqandan keyin ro'zi mahshargacha qimir etmay yotasiz.

Mulla Soatning qovoq-tumshug'i osilib tushdi.

— Siz xudoga shak keltirmang, Chori, — dedi u, — Egamining izmiga chek yo'q.

— Siz yolg'onne kamroq gapiring, Soatboy! — dedi mulla Chori.

— Qani, rostini o'zingizdan eshitaylik, — dedi mulla Soat ham bo'sh kelmay.

— Muning tarixi uzoq, — dedi mulla Chori. — Xudo yetti qabat osmonni yaratdi, farishtalarni, maloikalarini, jinlar va moridlarni va eng oxirida odamni, siz aytgan Odam Atoni yaratdi. Uni yaratmoqdan avval Jabroilni Zaminga yubordi. Jabroil pastga tushdi, yerdan bir kaft tuproq olib, tag'in osmonga uchdi. Zamin uning ortidan: «Dod, bag'rimdan uzib ketiyapsan!» — deb faryod qildi. Jabroil uning nolasiga chidolmadi, quruq qaytdi. So'ng, mulla Soat, xudo Mekoilni yubordi. Zamin yana dod soldi, dodiga Mekoil ham chiday olmadi. Oxirida Azroil keldi, bir siqim tuproqni olib, tepaga uchdi. Zamin uning ham ortidan faryod qildi: «Dod, bag'rimdan uzib ketding!..» Lekin Azroil parvo qilmadi, uchgan ko'yil qo'lidagi tuproqni xudoga eltdi. Xudo loy qorib, odamning shaklini yasadi, so'ng nafasidan usurib, jon ato etdi va tag'in Azroilni chaqirdi: «Xokni qanday olib kelding?» — deb so'radi. Azroil aytди: «O'zing aytganday, Zaminga tushdim-u bir kaft tuprog'idan oldim, chandon dodladi hamki, parvo qilmadim». Xudo bunisini o'ylamagan ekanmi, mulla Soat, Azroilning gapini eshitib, ko'p ajablandi: «Bekor qipti, Azroil, Za-

min chakki dodlabdi. Biz hech nimarsaga jabr qilmagaymiz, endi, ey Azroil, modomiki Zamin dodlab, bag'rimdan uzing, deb aytg'an ekan, sen uning bag'tidan uzganiningni qaytadan bag'riga ciltib qo'yadigan bo'lasan!..» Azroil bu hukmi hoziqni eshitib Zamindan ham ming chandon qattiqroq faryod qildi, lekin soydasi bo'lindi — xudoi taolonning yozmishi aniq, kalomiga shak yo'q. Shunday, mavlono Soat, odamzod tuproqdan bino bo'lgan va yana oxir tuproqqa qaytadi...

— Ma'qul, — deb g'udrandi mulla Soat. — Ilmingiz durust, Chori. Siz o'qigan yurtlarning madrasasi zo'r ekan.

Bu gapdan mulla Chorining yuzi bo'zday oqardi. iyaklari titrab, zahrini sochdi:

— Muni bilish kerak, mavlono Soat. — dedi u. — Muni salja o'ragan eshak ham biladi.

Mulla Soat bepisand kuld'i, so'ng:

— Ilmimga amal qilmagan mulladan o'rgildim, — deb kesatdi.

— Kim meni sizga mulla, deb aytdi?

— E, mulla bo'lmay kimsiz? — deb ajablandi mulla Soat.

— Yurgan bir odam, — dedi mulla Chori. — Siz o'zingizni ko'p g'alchalikka solaver mang, mavlono Soat.

— Hammamiz mulla bo'lamiz, — dedi mulla Soat. — Galatepada hamma elliq yoshgacha tappa-tuzuk odam, ellikdan keyin barisi ayniydi, erkagi mullalikka, urg'ochisi folbinlikka o'tadi. Bittasi yoshligida bo'za ichib olib, os-monga miltiq bo'shatardi: xudongni topib ber, shartta otib tashlayman! E xudo, deb aytardi, xudo bo'lsang, qani, pastga tush, yakkama-yakka ko'tamiz. U odamni egamning o'zi jazoladi. Oq'zi qiyshayib yurdi.

— Qo'rqqanidan, — deya sekin gap qo'shdı G'aybarov. — Xudodan emas, o'zidan qo'rqqandan.

— U odam — kofir, g'irt kofir, — deb po'ng'illadi mulla Soat.

Mulla Chori sirtiga suv yuqtirmay, shunchaki bir iljayib qo'ydi.

— U odamning boshqa ayblariyam bor, — dedi mulla Soat.

G'aybarov o'zi istamagan holda mulla Soatning tegirmoniga suv quyganini payqadi. Angladiki, mulla Soat mulla Chorini qattiqroq ayblamoqchi, ya'ni u mulla Soat yoki Odam Atoning tarixini ham tuzukroq bilmaydigan shunchaki bir nodon odam, kolxozning ayg'irlariga sayislik qilib yurgan mahali mulla Chori urushga borib nemisga asir tushgan, keyin butun zukkoligi bilan kofir g'animplarning qo'lida mullalik qilgan. Ober-mulla Chori afandi so'roq aylaydi, bandilar javob aylaydilar: kimsan? rabbing kim? rasuling kim? Xuddi Munkar bilan Nakirday!.. Qani, kalimai shahodatni qaytar! Tezroq, tezroq, shnellen!.. Tezroq kalima qaytar, bo'lmasam, seni buxor juhuddan farqlash qiyin, ikkoving ham xatnasan... Sen juhud, tojik.na gapir, o'zingni tojik qilib ko'rsat. Musodan tarkagan, kalima qaytar — tirik qolasan!..

Ober-mulla Chori afandi bandilarni jangga tayyorlagan. «Ozod Turkiston», Cho'qayevlar, keyinroq paydo bo'lgan Hayitlar va boshqa illar uchun...»

Mulla Chori xudoga sig'inmay qo'yganiga ko'p bo'ldi. Bandasining do'zaxida bo'lgan odam, keyin qaytib xudoga ixlos qilmaydi.

Mulla Chorining birgina hamsuhbati bo'lardi — Raim oqsoqol. Boshqalarning yoniga bormasdi hisob. Boshqalar dastlab u bilan gaplashgani ham qo'rqibroq turgan: harne, nomi qaro bo'lgan odam, nemisning qo'lida mullalik qilgan, keyin biror o'n yil yotib kelgan... Birgina Raim oqsoqol burnini jiyirmagan. Raim oqsoqol dovyurak odam edi, ozgina maqtanchoqligi ham bor, quvg'indidan hazar qilmasligini boshqalarga ko'z-ko'z qilgan. Lekin mulla Chorini baqamti ham keltirmagan. Keyin egardan

tushib, nazardan qolgan mahaligina oralari sal yovuqlashganday bo'ldi. Mulla Choriga shuning o'zi ham kifoya qilardi. Mulla — ko'p donishmand odam. U Raim oqsoqolning zaif joylarini bilardi, uning yonida muqul qondan va shahidlardan gap ochar-di. Raim oqsoqol bunday paytlarda miq etolmasdi. U qonni ham, shahidlarni ham ko'p ko'rgan: Panji o'g'ri. Mamadali ponsod, Oqbosh bosmachi va boshqalar... To'kilgan qon ham oz emasdi. Lekin bularning hammasi uzoqda, inqilob atrofidagi yillarda qolib ketgan.

So'ngroq mulla Chori o'zini sal oqlaganday bo'ldi. Uni izlab etikdo'z Mekoil keldi. Mekoil ober-mulla Chori afandi nemisning asirida asrab qolgan juhudlardan biri edi. Bir kuni u xaloskorini izlab keldi, so'ng har yakshanba Galatepaning katta bozorida do'konini ochadigan bo'ldi. Mijozlarning etigini yamaydi, qo'lida bigiz yoki bolg'acha, lunji to'la mix, sekin gap sotadi:

— Akamiz odamning xo'rubi, bizniyam ana shu akamiz omon qoldirgan.

Odamlar Mekoildan so'rashdi:

— Musulmon bo'lganining rostmi?

Mekoil aytdi:

— Yo'q, uzil-kesil musulmon bo'lmadik. Lekin akamiz xohlasa, musulmon ham bo'lamic. Akamizning gapi — bizga zakun.

Shundan so'ng bir-ikki musulmonparvar uni rost yo'lga solmoqchi bo'lib, mulla Choriga maslahat berdi. Lekin mulla Chori Mekoilning musulmon bo'lishini xohlamadi. Chama-si, uning uchun musulmonlik bilan yahudiylilik orasida katta farq yo'q, ikkisiga ham birday e'tiqodsiz qarar edi.

Mekoilning axtarib kelgani tuzuk bo'ldi. Endi mulla Chorini avvalgiday qatag'on qilishmasdi. U yakshanba kun-lari Mekoilni ergashtirib, Raim oqsoqolning oldiga borardi.

Endi mulla yolg'iz emas, yonida tirik hijjati bor. Raim oqsoqol ularning qarshisida sal qimtinib turadi. Lekin o'rgangan ko'ngil, payti bilan quyushqondan chiqib ketadi, o'zining gapini ma'qullatmoqchi bo'ladi: men, mulla, umrim bino bo'lib ichmadim, chekmadim, birovning molini o'g'irlamadim... ko'nglim tinch... nimasidan qo'rqaman?

U mulla Chori bilan Mekoil etikdo'zning oldida uyalar-di. To'rt muchasi sog' bo'laturib, urushga bormaganidan, shahid bo'limganidan, loaqal bular ikkisiga o'xshab asir tush-maganidan, firikligidan, umri bino bo'lib ichmagani, chekmagani, birovning molini o'g'irlamagani, tinch va osoyishta yashaganidan uyalardi.

Bosmachilar bilan kurashgani, orttirgan obro'si, raisligi, xizmat-u mansabini o'ylab urushga olishmagani — hammasi bekorday tuyilardi. Qo'lingga tutqazilgan qog'ozdag'i gaplarga o'zgalar ishonsa mumkin, lekin o'zing ishonmasang qiyin, sening o'mning u yoqda edi, qaytaringdan qaytmasing rostroq, lekin joying u yoqda edi.

Mulla Chori ayyor edi. Raim oqsoqolning ko'nglini varaqdag'i yozuvday ravon o'qirdi.

Ikki mulla birdan G'aybarovning ko'ziga yomon ko'rindi.

— Odam ham siyraklashdi, — dedi u. — Ikkovingiz ham charchadingiz.

Mulla Chori miq etmadi. U G'aybarovning avzoyi buzil-ganini payqagan edi.

— Men charchaganim yo'q, Toshpo'lat domla, — dedi mulla Soat. — Hali ikki kun fotiha o'qigani qurbim yetadi.

— Qolganini boshqa paytda o'qiysiz, — dedi G'aybarov.

Mulla Soat achchiqlandi. Nariroqda turgan Naim amaki ni imlab chaqirdi, arzini aytdi:

— Men ko'chada qolganim yo'q, Naimboy!.. Quvlab solyapti. O'zim istab qilmayapman-ku bu ishni, siz o'zingiz so'radingiz, men ham shu Galatepaning uvol-savobiga sherik...

Naim amaki o'rtadan gap qochganini sezdi.

— Qo'ying, mulla buva, — deb yupatdi u. — Sizni hech kim ket demaydi.

— Mana, oqsoqol rahmatlining kattasi shu gapni ayttyapti! — Mulla barmog'ini nuqib G'aybarovni ko'rsatdi.

Naim amaki G'aybarovga o'pkalanib qaradi: shu gap rostmi?

— Mayli, boraversinlar, — dedi G'aybarov. — Qur'on bo'lsa, o'zingiz o'qiysiz, mayli, ikkoviga ruxsat.

— Men Qur'oni bilmayman, — dedi Naim amaki.

— Unda men o'zim tilovat qilaman. Bular charchadi.

— Avval tahorat qilib oling, domullo!.. — deya kesatdi mulla Soat. — Ha, tahorat qilib kelng, keyin o'qiysiz Qur'oni!

G'aybarovning jahli qo'zg'adi, mullaga ilkis qaradi.

— Urasizmi, mayli, uring!.. — deb xo'rozlandi mulla Soat. — Yoshimi hurmat qilmasangiz ham mayliga! Yomon o'g'il elni buzar, deb aytmishlar, shu gap — gap, siz ham elni buzyapsiz!.. — U dasturxon chetida yotgan tugunchasini olib, o'rnidan turdi.

— Qo'ying, qizishmang, mulla. — Naim amaki mullani ketgani qo'ymadidi, bilagidan ushlab ko'rpa chaga o'tirg'izdi.

— O'tiring, mavlono Soat, — deb iljaydi mulla Chori. — Sizsiz ma'raka hisobga o'tmaydi. Meni yolg'izlatib qo'y mang-da, mavlono.

— Toshpo'lat charchabdi, mulla buva, — dedi Naim amaki. — O'zingizdan qolar gap yo'q, otadan ayrilish oson emas. Mayli, bu ozgina dam olsin... Siz shaytonga hay bering, mulla buva...

Yig'in ahli G'aybarovga achinibroq qaradi.

Kechqurun hech kim yozig'liq dasturxonga qo'l urmadidi. Zokir choyni qaytardi, avval Anzirat kampirga, keyin akasiga quyib uzatdi.

— Ahmadni chaqiraymi, aka? — deya sekin so'radi u.  
— Kerakmas...

Ahmad hozir Maylonboyning yonida edi. Ikkovi uzeq-dan keladigan odamlarning tashvishini qilyapti. Hali Ahmad suruvdan qo'y opkeldi, qassobni chaqirdi. Endi qo'yni so'yish kerak, qozon osish... ish ko'p.

Mavlonboy ichkari kirdi. Oyog'ida og'ir kirza etik, qo-vqlari qizargan, shishgan... Gilamni bosib, ko'rpa chaga o'tib o'tirdi. Bir piyola choyni shosha-pisha ichib, tag'in o'rni-dan qo'zg'aldi. Ketaturib, Zokirga ta'nali bir qarab oldi, chamasi, undan norozi edi, do'xtir odam, kim biladi, tuzuk-roq qaraganida balki...

Mavlonboy chiqib ketdi.

— Hech iloji bo'lindi, aka, — dedi Zokir yig'lamsirab.

G'aybarov ukasiga ta'na qilmoqchi emasdi. U bor-yo'g'i o'limning qanday kechganini bilmoq istardi, xolos. Yoqimsizroq bir tuyg'u, lekin bilgisi keldi... Zokirdan so'rash ham o'ng'aysiz. Hozir undan boshqa hamma Raim oqsoqolning o'limi tafsilotlarini biladi. Azaldan rasmi shu: odamlar azadan qaytib kelib, o'limning tafsilotini hikoya qiladilar.

Barisi ayollarning ishi. Boshqalarga yorilib, ko'ngilni yengillatmoq istaydilar: kechqurun tuzuk edi, rangiyam ochildi, suv so'radi, ozgina tamaddi qildi, keyin bolalar bilan gaplashdi, biram kulib, biram chiroyi ochilib o'tirdi, hah, falak, odamzodning sho'ri qursin, xom sut emgan bandasi qachon o'larini bilmasa... Lekin rahmatlining o'zi sezgan ekan, bolalarni uxlatib qo'yib aytdi, qo'y, xotin, endi mendan umidvor bo'l manglar, dedi, kunim bitdi, yaratganga shukr, bolalarning boshida o'zing borsan, sag'ir-yetim qilib qo'y massan, onali yetim — gul yetim, otali yetim — shum yetim, ma'rakamni tuzukroq o'tkazsang bo'ldi, xotin, ming-dan-ming rozman...

Bu turfa hikoyalar G'aybarovga bolalikdan tanish.

Bugun, ayni lahzada, garchi Raim oqsoqol necha yillardan beri xotinsiz yashagan bo'lsa-da, Galatepada shunga o'xhash bir afsona kezib yurgani aniq. Odamzodni yakka o'Igani qo'yishmaydi. Kimdir albatta boshida bo'ladi, o'layotganini ko'radi, qovoqlarini yopadi, iyagini tang'iydi, so'ng, avval hamdardlikdan va qo'rquvni sal bosmoq bo'lib, keyin... azbaroyi hangoma uchun shavq bilan hikoya qiladi.

Yana qaytib o'sha gap — tirik ekaningni his etmoq qanday huzurbaxsh!

— Ilojini topolmadim, — deb takrorladi Zokir boshini xam qilib. — Avvaliga bilishim qiyin bo'ldi. Kechikibroq tushundim, keyin igna sanchib ko'rsam...

G'aybarov ukasining gapini anglamadi.

— Oson o'tdimi, ishqilib? — deb so'radi u.

— Tinch, aka... Kechikibroq xabar topdim, qarasam, qoni quyilibroq qolgan ekan. Doriyam topib keluvdim, agar gumonim rost chiqarini bilsam... Qiziq-da, aka, oson kechdimi, deb so'rayapsiz, tinch-u notinch, endi gapirganning foydasи bormi? Asli ayb mendan o'tdi, aka.

— Qo'y, Zokir, mayli, gapirma.

Zokir chontagidan quticha chiqarib, bitta xobdorini aka-siga uzatdi:

— Shuni iching, aka, charchagansiz.

G'aybarov unga ishoninqiramay qaradi:

— Uyqudorimi? — deb so'radi. — Bugun meni uxlatib, ertaga gapirib yurmaysanmi? Keyin yuz yilgacha shuni ro'kach qilarsan? Otam o'lganda quloq qoqmay uxladi deb!..

— Xudo haqqi, insof qiling, aka!.. — deb yalindi Zokir.

— Bo'lmasam, quyilgan qonni gapirib nima qilasan? — deya battar asabiylashdi G'aybarov. — Jo'ngina ayt, otam o'ldi, ilojini qilolmadim, deb ayt, nega endi... Agar mendan or qilsalaring, buniyam ayt, odamlarga ko'rinxma, degin!..

— Mullasiz ma'raka bo'lmaydi, aka, o'zingiz bilasiz.— Zokir nihoyat akasining holiga tushundi. — O'zingiz bilaturib!.. E, gapirib nima qildim!.. Siz kattasiz, otam sizni hammadan yaxshi ko'rardi...

— Endi u o'lgan!..

Zokir indamadi. Xo'rsindi.

— Mayli, bu gapni qo'y, — dedi G'aybarov sal turib. — Meniki jirttakilik, Zokir ... Yaxshisi, enamga choydan quyib ber.

Shungacha aka-ukaning gaplariga tek qulq solib o'tirgan Anzirat kampir birdan iydi. To'rdagi ko'rpachadan betiga sudralib kelib, qo'lini G'aybarovning yelkasiga qo'ydi va sekin hiqilladi:

— Qo'y, bolam, sen muni xafa qilma, endi o'zing ota o'rniga otasan, bular hali yosh, o'zing aql bo'lmasang qiyin...

— Siz kuyinmang, ena, bizning bolaligimiz qolmadidi, — dedi G'aybarov. — To'rt yigit bir yoqadan bosh chiqarsak...

Anzirat kampir uning gaplarida mehr sezmadidi. Battar o'ksindi. Yana yig'lamoqchi edi, lekin hech qanday rag'bat ko'rmadi. G'aybarovning yuzi tund edi. Kampirning endi bu tarafdan xo'rligi keldi, tag'in hiqilladi:

— Kunim bitib qoldi, bolam. Endi men tirik yurib nima qilaman?

G'aybarov unga taskin berib o'tirmadi. Xayriyatki, ko'p o'tmay, kampir mudray boshladi. Zokir uning boshidagi qattiq lo'labolishni olib, o'rniga yumshoqroq yostiq qo'ydi. keyin yana poygakdag'i joyiga cho'kkaladi.

— Oldinroq xabar qilmadim, aka, — dedi u. — Ozgina umidimiz bor edi. Oxirgi kun sizni ko'p yo'qladi.

— ...

— Ishlayotganimga uch yil bo'ldi, ozmi-ko'pmi o'lim ko'rganman, — deya o'zi bilan gaplashganday so'zladi Zokir. — O'qib yurgan paytlardayam ko'rganmiz... Lekin o'zing-

ning boshingga tushgani boshqacha ekan. Hech ishongim kelmedi. Chidolmasman, deb o'ylovdim, ammo odam deganizingiz tosh ekan...

- Qo'y, endi, Zokir...
- Sizning ko'zingizga yosh kelmadi, aka.
- Ta'na qilyapsanmi? — deb so'radi G'aybarov.
- Enamning qazosida yig'lagan edingiz, — Zokir shunday deb, ko'zlarini olib qochdi.
- Bilmasam... — dedi G'aybarov. — Axir, otam menga yaqinroq edi-ku, Zokir?
- Bo'lmasa, nimaga... — Zokir gapini tugatmadı, tag'in yerga qarab oldı.
- Xolamiz o'lgandayam yig'lovdim, — deb esladi G'aybarov. — Meni hovliga qo'yish magan. Yoshim o'narda edi. Yig'i chiqayotgan hovligacha bordim, keyin Naim amaki yo'limni to'sdi, sen hali kichkinasan, deb aytdi. Ortga qayrilib, qir farasga chiqib ketdim. Hozir aniq eslolmayman, lekin qayg'urganim tayin... O'shanda kechki payt enam qaytib keldi. Sen kichkina eding, Mavlon esini tanib qolgan, enam bizga ovqat pishirib bergani keldi. Gap orasida otamga o'limdan gapirdi, esimda bor, bechoraning tani ko'p ozor yemabdi, mayizdakkina ekan, deb aytdi. Qanday ozor ekaniga hech tushunolmadim. Keyinroq, xolamizni eri urganmikan, deb o'ylaydigan bo'ldim.

— Bemor uzoq vaqt qadalib yotsa, terisi ilvirab, salga shilinadigan bo'p qoladi, — deb izoh berdi Zokir.

G'aybarov ukasiga g'alati qaradi:

- Balki, mayizgayam izoh berarsan?
- Gapiring, aka, mening kasbim shu, parvo qilmang.
- Nimasini gapiray... O'shanda enamning ovozini sekinkinlatgani menga ko'proq ta'sir qilgan ekan. U xolamning o'limidan ancha gapirdi. Keyin dasturxon yozdi. Choy ustida

otam unga taskin berdi: «Opang imonli ayol edi, xudo u dunyosini obod qilsin», — dedi. Otamning ovozi ham sokin edi. Menga hammasi erish tuyildi, chidab o'tirolmadim, tashqariga chiqdim. Qanday jur'at qilganimni bilmayman, bolalikda qorong'idan juda qo'rquq qoraygan mahal mozor yonidan o'tsam bas, darrov xudoni tilga olardim. Uni aldayotganimni sezardim, ertaga yoki bugunning o'zidayoq, tinchgina uysa yetsam, hammasini unutishimni ham sezardim. Yolg'onimni o'ylagan sayin qo'rquv oshardi. Lekin o'sha kechasi hovliga yolg'iz chiqib, hech qo'rquq qoraygan... Esimda qolgani — qora itimizning hadeb oyog'imga suykalgan. O'shanda men hammadan oldinroq o'lishni o'ylagan edim... Bola zoti shunday xudbin bo'ladi, o'zi o'lsa o'lsin, lekin birovlarning o'limi tufayli azob chekishni aslo istamaydi...

G'aybarov jim qoldi. Zokir unga nima deyishini bilmasdi. U akasining birinchi bor shunday ochiq gapirganini ko'rishi edi — hayraiga tushdi.

Bolalikda boshqacharoq edi. Toshpo'lat har gal kelganida o'zining uzoqdagi shahridan hikoya qilardi. Zokir unda shahar nimaligini bilmas, akasi ham uzoqdagi shahar singari sirli va yaxshi bo'lib tuyilar edi. Qaddi-basti kelishgan, bo'ynda bo'yinbog', qo'llari oq, tishlari oq, butun vujudidan ohori ketmagan kiyimlar hidi keladigan yigit. Zokir o'zining shunday akasi borligidan faxrlanardi.

Endi qiyinroq. Gap o'rtadagi qandaydir o'n yoshda ham emas. Zokir o'zidan ellik yosh katta odam bilan ham bemalol gap berib, gap olishi mumkin. Akasi hamon unga yaqin, lekin endi o'sha havas va faxr yo'qolgan hisob, endi ko'p narsalar jo'nroq tuyiladi...

Tashqarida chigirkalarning chirillagani eshitildi. G'aybarov birdan qo'shni xonani o'yldi. Uni kunduzi ham ko'p eslagan edi: ikkita yassi taxta, namiqqan, chekkasida jinchiroq...

Tunda bu manzara sal qo'rqinchli tuyildi: xonaning huvillab qolgani, jinchiroqning miltiragani... Aytishardiki, arvoh uch kungacha aylanib kelaveradi, o'zidan keyin qolgan jonlarga nazar soladi, uni eslashyaptimi, uni yaxshi ko'rishatmid?

G'aybarov seskandi. Go'yo otasining arvohi yolg'iz qolib, ulardan og'ringanday edi.

— Endi nima qildik, aka? — deb so'radi Zokir.

G'aybarov indamadi. U hali bu haqda tuzukroq o'ylab ko'rmagan edi. Otalari o'lib, endi ularning har biri bir butaning tagida, tarqalib ketadimi yoki boshqacha biror yo'l tutadimi?.. Har holda, endi tartib o'zgacha bo'lishi tayin.

— Men boray, aka, ularga qarashmasam bo'lmaydi.

Zokir tashqariga chiqdi. G'aybarov jimgina uxmlayotgan Anzirat kampirga bir zum tek qarab o'irdi, so'ng turib, mixga ilingan choponni oldi, uni kampirning ustiga tashlab, o'zi yalang ko'yakda otasining hujrasiga o'tdi...

## 2. OPA

G'aybarovni yarim tunda uyg'otishdi. U qayerda ekaniga daftaran tushunolmadi, ko'zlari chirt yumuq, uyg'olgan odamdan jahli chiqib yoldi, keyin, sal turib, ko'ngil tubiga cho'kkani og'ir, balg'amday yoqimsiz xo'rsiniq qaytib keldi va u hammasini esladi: aza, yig'i, qabriston va o'zining yetimligi. So'nggi o'y keskin, hech kutilmaganda paydo bo'lidi va boshqa moddiyroq narsalarga — tanni zirqiratgan horg'inlik, yopishqoq ter tuyg'usi bilan qorishib ketdi.

...ko'pdan beri yolg'iz edim, ko'pdan beri... Ming yillardan beri.

O'zining yolg'iz ekaniga ishondi. Yetimlik haqidagi yarim tasodifiy, hali tugal anglanmagan o'ydan ko'ra, o'zining yolg'izligi xiyla yaqin edi. G'aybarov doimo bu tuyg'udan

qochib yashardi, lekin hozir, ayni daqiqalarda, uni o'zi istab tuydi, tuyish barobarida battar xo'rligi keldi.

Ustida aqalli choyshab ham yo'q. Kiyim-piyimi bilan yakqat ko'rpachada yotibdi. Boshi ostida — jun tifilganmi,— qattiq bolish. Toshday qattiq.

G'aybarov orzu qildi: uxlasang, hech kim uyg'otmasa, hech qachon uyg'onmasang, og'riq sezmasang... Dengiz, uning beshik-beshik to'lqinlari seni ko'mib yuborsa-yu qaytib turmasang!..

Nafasi qaytdi. Ko'zlarini yirtib qarshisida o'tirgan opasini ko'rди: semiz, yuzlarini bevaqi ajin qoplagan xotin.

...qaribdi bechora, qaribdi!

O'zining ottiz ikkiga kirganini esladi.

...sochidan tortib urardim, keyin u enamga chaqardi, enam o'qlog'i bilan meni urardi, keyin men yana buni... Qaribdi bechora!

— Yetib kelolmadim, — dedi Opa.

...nima keragi bor?

— Mening aybim nima? Men ham shu qozonga sherik edim, aqalli...

...hozir yig'i boshlaydi. Men ham aybdor emasman, opa, mengayam xabar qilishdi.

— Sen yetib kelibsan, Toshpo'lal, axir men ham...

— Qo'y, opa, — dedi G'aybarov ko'rpachaga chordana qurib o'tirib. — Nima keragi bor? Kasal ekanini bilarding, kelib, boshida o'tirsang bo'lardi.

— G'ayirliging qolmabdi!..

— Bo'ldi, bo'ldi, opa. Ko'ngling joyiga tushsin, men ham faqat janozasiga yetib keldim.

— Meni ayirdinglar, — deya hiqilladi Opa. — Mening sizlardan boshqa kimim bor?

— Ering, bolalaring.

G'aybarov, bir zum o'tib, aytgan gapidan afsuslandi.

...bu bechoraning aybi nima, seni uyqandan uyg'otganimi? Yo'l uzoq, keyin Maylonboy rostdan ham kechikib xabar qilgan bo'lsa-chi? Axir hammaga u xabar yuborgan, lekin munga...

Opa yig'ladi. Xo'rsiniq, aralash, go'yoki arzanda o'g'lini koyib solayotgan onadek past ovozda yig'ladi...

G'aybarovning rahmi keldi.

...kunduzi boshqacha yig'lagan bo'lardi.

Tashqarida esa hamon tun. Xo'rozlar uxbab yotibdi — hali tun.

...tonggacha sabri chidamagan. Tongda yig'lasa yaxshiroq bo'lardi. Lekin u ham farzand, bir zamonlar shu ro'zg'orga sherik edi, otani yo'qlamasa bo'lmaydi, yo'qlaganda guvoh bo'lgani tuzuk.

Ikki kundosh erlari o'lib beva qolganlarida, murdaning belidan bir shoda kalitni yechib olib, qaznoqni ochadilar, xaltadan un va yog' olib chalpak pishiradilar.

Shunday bir hikoya bo'lardi.

...chalpakmidi? E, bari bir emasmi! Balki, chalpak emas, qatlamatdir. Chalpakmi, bo'g'irsoqmi, bir yegulik narsa pishirib, qornini to'yg'azadilar, so'ng, tongni bo'zartirib, ikkovi bor ovozda uvvos tortadilar: voy to'ram, voy, to'ram!..

Opa yig'layverdi.

...muhibimi — ovoz chiqarish, ishqilib, seni toshbag'ir deyishmasa bo'ldi. Yo'q, opa, sen toshbag'ir emassan, otamni yaxshi ko'rarding, meniyam, ukalarning barini yaxshi ko'rarding. Endi-chi, opa, endiyam yaxshi ko'rasanmi?

G'aybarov burchakdag'i po'stak ustida bir burda bo'lib yotgan Anzirat kampirga qaradi. Opaning unga nazari tushmagan ekanmi, qovog'i solindi:

— Sen chaqirdingmi?

— Nega men?.. O'zi kelgan,

— Bu gap sendan chiqadi, — dedi Opa, keyin yuzini ters o'girdi.

...rosi ayfasan, opa, men uni chaqirgan bo'lardim.

Opa parishon bo'lib, to'rga — taxmondag'i usti bo'shi og'ir sandiqqa qaradi. Xona ship-shiydam, sandiq ustiga taxlab qo'yiladigan kigiz va ko'rpalar boqqa olib chiqilgan.

Ular o'tirgan xona azaldan ham bo'shi, huvillagan bo'lardi. Unda onalari un solingan xaltalar, supra, rapida va boshqa anjomlarni saqlardi, keyin, onalari o'lib, uyga kelin tushar mahali, odamlarning ko'ziga yomon ko'rinnmasin deb, xonani Mavlonning yolg'iz o'zi bir amallab suvoqdan chiqargan, ikkita taxmon yasagan, onalaridan qolgan ikkita og'ir mis sandiqni taxmonga qo'yib, ustiga ko'rpacha-yu kigiz taxlashgan, poygakda — do'ppaygan tunuka o'choq, har qishda chollar yig'ilib keladigan juma kechalari yoqilgan. Chollar ko'rpachalar ustida cho'zilib olib, boshlarini chayqatib, tanglaylarini taqillatib quloq osishgan; roviylar andoq rivoyat qilibdurlarkim, Sulaymon ibn Dovud jamiki parranda va darrandalar ustidan hitkmdor edilar, ahli morid, ahli jin, boshqa kimarsalar va nimarsalar...

Bunday kezlarda xona ko'p fayzli bo'lardi: tunuka o'choqning uzlusiz guvillashi, qishning uzoq kechalari va rivoyatlar, ularning sekin oqishi... .

...Endi u damlar takrorlanmaydi.

— Otingni bilib qo'yishgan ekan, — dedi Opa. — Yuraging tosh; besh yil ichida aqallli bir marta ostonamdan hatlamading.

— O'zi kam kelaman, opa, ish ko'p.

— Menga sening do'xtirlig-u professurliging kerak emas, — dedi Opa alam bilan. — Hech qaysing hormaysan. Biz, ikki nodondan or qilsalaring, boshqalar bor,. Elchilik, jiyanlariningga, Galatepada tog'alaring bor, deb yuraman.

— Ularni bu yoqqa opkelsang bo'lardi. Tog'alari ko'p, o'ynab ketishadi.

— Janozaga opkelaymi?..

— Yo'q... Keyinroq opkel. Ahmad hali yosh, o'zi o'ynatadi. Zokir ham shu yerda...

— Tog'alari o'ynatarmish, tog'alari xudo-ku!.. — Opa o'zini tiyolmadi, ko'nglida borini aytdi. — Meni teng ko'tmasang, Komil bor, u bilan gaplashasan...

...bizning zotimizdan! Erini er, deb atagisi kelmaydi.  
Opa arazlab yuzini teskari burdi.

U dugonalari bilan til biriktirib, har kuni onani avrardi: hozir o'zgacha zamon, o'qigan o'zadi, o'qimagan to'zadi. Ullarga Toshkentga borib o'qib kelgan muallima — Oysuluv doyaning qizi shunday deb o'rnatgan edi. Ona bechora bu gaplarni eshitib indamasdi. U juda rahmidil edi, qizini xafa qilgisi kelmasdi, mayli, havas qilsin, ko'nglini ovutsin, keyin... axir, odamzodga oxiri nima qoladi? Jillaqursa, havas qilganlaringni eslab yurarsan!..

Keyin, xuddi ona kutganidek, vaqt soati yetdi-yu, ota gapni cho'rt kesdi: hech go'rga bormaysiz, ona qizim, avlod-ajdodimiz xotinning aqlisiz ham bir nav kunini ko'rib kelgan, endi siz bitta donish chiqib nima qilasiz?

Yo'q, u birdaniga cho'rt kesmadi, avval to'ng'ichi Toshpo'latga maslahat soldi: nima qildik, o'g'lim, opangni shaharga o'qishga yuboramizmi?

O'g'il Raim oqsoqolning o'g'li edi, yotig'i bilan, lekin rostini aytdi: endi, ota, qiz bolaning tuprog'i sal bo'shroq keladi-da...

Endi eslab o'zi hayron qoladi, lekin shunday degani rost. Yoshi o'n yettida, lekin tili burro ekan!

G'aybarov o'shanda aytdi: qiz bolaning tuprog'i bo'sh keladi, ota, borsa borsin-ku, hizga tashvish ko'p bo'ladi-da, qizingiz (opam emas — qizingiz!) sharmanda qiladi, deb aytmayman, aql-hushi joyida, lekin...

...lekin ishonib bo'ladimi!

Ota undan mammun bo'ldi va shunday dedi: mayli, o'g'lim, salgina sabr qilib tursin, so'ngroq sen shahar borganingda, balki sening yoningda turib, biron bir kichikroq do'xtirlikka o'qib kelar...

G'aybarovga bu ham og'ir ko'tindi, rostiga ko'chdi: menning yo'rig'im boshqa, ota, men nima qilaman, o'qiymannmi yoki opamni qo'riymanmi?

Ota undan battar mammun bo'ldi va safar oyini boryo'q xatari bilan o'tkazib, Tohirchaning o'g'lidan kelgan sovchilarga «xo'p» deb yubordi.

Opa hamma gapdan xabardor edi. Rahmatli onalari ichida gap yotadigan ayollardan emasdi, bo'lgan gapni o'sha zahoti qiziga yetkazgan, keyin... biror olti-yetti yil, toki jiyanolarning soni uchga yetguncha, Opa ukasini yomon ko'rib yurdi.

Lekin ishkali asli G'aybarovda ham emasdi. Uning gapi shunchaki, o'z yo'liga aytilgan gap edi. Ota bor-yo'g'i uni sinamoqchi bo'lib og'iz solgan edi, u shusiz ham yolg'iz qizini uzoq elga beboshoq qo'yib yubormagan bo'lardi.

Endi Opa ukadan norozi. Uni olim, o'zini omi va nodon ataydi, bormaysan, mendan or qilasan, deb noliydi, lekin u borganida...

G'aybarov uning uyida zerikadi. Izzatini joyiga qo'yishlari rost, yegani oldida, yemagani ortida, mehmonko'rsatar qilib butun ovulni yig'ib kelishadi. To'rda miyasini yeganroq bir mulla, undan pastda latta etik kiyan qishloq faollar, yoshlari, eng poygakda Komil pochchaning o'zi, mo'min va uyatchankeng uyni to'ldirib o'tirishadi. Dasturxonning mulla tarafida qaymoqli patir bilan qand-qurs, pastroqda, faollar va yoshlarning oldida, ustiga barra piyoz maydalangan qatiqli kosalar, o'taroqda mullaning o'g'li — kim biladi, otasidan merosga olganmi, — sekin jilmayib, kichkina piyolalarga aroq

quyadi: endj, aybga buyurmaysiz, boboy, yoshlarniki shuda, hali Mahamat payg'ambarimiz aylib ketgan ekan...

Mulla serzavq kunlarini unutib ulgurmagan, o'g'lidan xursand, tizzasiga urib qiyqiradi: xah, nomardning bolasi, yomon kunda bino bo'lgan ekansan!

O'g'il otasining mard-u tanti ekanidan zavqlanadi: yashasin bizning boboy!

Mulla battar so'ljayadi: mayli, o'g'lim, muning o'zi makruh emas, ichib qilinaturg'on mast-u alast ishlari makruh!..

G'aybarov o'rtada, na to'rda va na poygakda ham mezon, ham mehmon — axir opasining uyida o'tiribdi — aroqqa qaramay, mulla bilan «masala» talashadi.

Mulla undan jiddiy so'raydi: Shoh Mashrab aytmissikim, mabodo eshonning hovlisiga bir murg'ing o'lsa, aning amlokidan bir xasni cho'qisa, ushbu tovuqning go'shti senga makruh, sababi ne — Shoh Mashrabning devonaligimi?

G'aybarov bosh irg'aydi: shunday, mulla buva, uning injiligi sabab. Mashrab aytmissikim, oshiq, bilan yor o'rtasiga tushgan kimki bor, u — muqarrar qo'shmachidir. Oshiq — Mashrabning o'zi, yor — xudo, o'rtadagi mulla va eshonlar — qo'shmachi. Payg'ambar esa, ulardan ham battar. Siz aytgan narsalar asli harom, makruhni hali yesayam, ichsayam bo'la-di, lekin haromni yeb ham, ichib ham bo'lmaydi.

Mulla kuladi: e, bu Mashrabi tushmagur bizniyam juda yomon olgan ekan-ku?

G'aybarov tag'in bosh irg'aydi: shunday, mulla buva, u sizlarni qo'shmachi atagan.

Mulla battar qizishadi, jazavaga tushib, o'zi gap sotadi: roviylar mundoq aytibdurlarkim, ittifoqo payg'ambari oxir-zamon bilan Hotam Toy birga safarga chiqibdurlar. Payg'ambarimiz aytdilar: «Ey Hotam Toy, neniki ko'rsang, hech ajablanma va mendan so'roq so'tama». Hotam Toy uning

gapiga ko'ndi. Ikkov yurib, uzun bir ko'chadan o'tib keldilar. Ko'chada tuman, bola o'ynab yurib erdi, shunda payg'ambarimiz yonlatiga erkalanib kelgan bir bolaning oyoqlaridan tutib, yerga andoq urdilarkim, bolaning joni uzildi. Hotam Toy hayratga tushdi. Yig'ladi, lekin boyagi gap esida, so'roq so'rarga jur'ati yetmadi. So'ng yura-yura bitta boy rabotga tushdilar, rabotning xojasi alarni bo'yrasiz tor kulbaga kiritib, ustlaridan quf soldi. Tishlam non tugul, ichgali bir qultum obijo'sh ham bermadi, so'ng ertalab azon mahali quvib soldi, ani payg'ambarimiz duo qildilar: «Ilkingga bir tut sang, mayli, ming bo'lsin, ming tut sang — tuman bo'lsin!..» Hotam Toy buni ko'rib, chandon faryod ayladi: «Ey rasuli barhaq, sen nechuk zolim va adolatsiz zotdursen?» Payg'ambarimiz aytdilar: «Ey Hotam Toy, sen achingan bola ulg'aysa, g'irt kazzob bo'lardi, tuman bandalarning boshiga yetardi, men aning jonini Azroildan berib yubordim va necha-necha odamlarning o'zлari va bo'lg'usi avlodlarini omon qoldirdim, rabotning egasi xudoni unutgan, boylikka ko'z tikkan banda erdi, anga ganjin o'zga sanamning hojati yo'qdur, men anga ganj tiladim, magar xudodan ganj o'rniga shafqat so'rab bersam, anda men adolat qilmog'on bo'lur erdim...»

Mulla boshqalarga mag'rur qarab oladi: qalay, hozirning mullasini mot qildimmi?

G'aybarov, «shozirning mullasi»— unga tahsinlar o'qiydi: ko'p ma'qul, mulla buva, ko'p ibratlї hikoya qildingiz.

Uning o'ziga qolsa, boshqalarga qo'shilib, bir qultum aroq ichgan bo'lardi. Lekin uni sassiq mullaga jo'ra qilib qo'yishgan. Unga aroq uzatilmaydi. «Hozirning mullasi», Raim oqsqolning to'ng'ich o'g'li arabchani suvday biladigan, Qur'onning yetti xil qiroatini kelishtiradigan odamdan iymanishadi.

Aroqni ular ichadi.

G'aybarov mulladan bezor, ichini it tirnaydi, yutinib o'tirgancha, Xizrning qolgan sarguzashtini eslaydi. Xizr

yamanlik Hotam bilan yurib, safarning ikkinchi kuni qari kampirning kulbasiga qo'noq tushdi. Kampirning birgina echkisi bor edi, shu echkini sog'ib, suti bilan avliyo va saxiy bandani siyladi, so'ng, ertasi kuni, qo'noqdan ketar mahali Xizr duoga qo'l ochdi: «E xudo, bu kampirni echkisidan judo qilgin, mayli, o'g'ri kelib o'g'irlasim, mavliga, bo'ri kelib bo'g'izlasim, ishqilib, xudoyo, uni shu echkidan ayirgin!» Yamanlik Hotam ajablandi: «Ey Xizr, nechuk ming qo'yli boyga tuman qo'y tilading, bir echkili kampirga zavol tilayapsan?» Xizr kuldii: «E Hotam, bu kampirning birgina tashvishi borkim — shu yolg'iz echkisi, magar echkidan judo bo'lsa, ko'nglida faqat tasbehning tashvishi qoladi va oxiratda yuzi yorug' bo'ladi».

Mullaga shuni aytasanmi? Yo'q, u gumroh. Mulla Chori ishongan bo'lardi. Mulla Chori — ablak, lekin gumroh emas. Bunisi g'irt gumroh. Umuman, echki naqlini so'fiylar o'ylab topishgan. Kampir ham aslida kampir emas. Uni atay qaritishgan. Atay yuzlariga ajinlar chizishgan. U aslida juda yosh, juda chiroyli. U arab shoirasi, oqila Robiya al-Adaviy'anining shunchaki bir sharpasi.

Robiya aytgan: payg'ambar va o'zga mulozimlarga ko'nglimda muhabbat qolmadi, ko'nglim birgina ollohnning muhabbatini bilan to'ldi va men uning o'ziga xotin tushdim!

...Bibi Maryam bo'lib ket-e!

Robiya — juda aqli, juda go'zal, hatto ilohiy. Keyin uning zaminiy muhabbatini mol qayg'usiga aylantirishgan.

Borib turgan zolimlik.

Biroq mulla hech baloni tushunmaydi. Undan ortig'ini talab etish o'zi nyat. U Xizrni Muhammad bilan almashlashga tayyor. Uning uchun Muhammadning oti muhimroq, biladiki, Xizrga hech kim ishonmaydi, biladiki, Xizrni hech kim ko'rмаган, Muhammad esa, har holda, bir zamonlar tirik bo'lган, keyin o'lган, o'likdan bunaqa gaplarga javob so'ralmaydi, marhumning xotirasini faqat izzat qilish kerak.

Opaning ko'nglida ko'p gap yig'ilib qolgan ekan. Taqdirdan nolidi, dunyoning bevafo-yu benavo ekanini aytdi. Ukasini aybladi.

— Otam bechorani niyatiga yetkazmadining, — dedi. — Sen kolir, gapini olmading, nevara ko'tolmay armonda ketdi.

— Qo'y, opa, tag'in eski nag'mani boshlama, — dedi G'aybarov. — Hech bo'lmasa, bugun tinch qo'yinglar. Sening bolang, Maylonning bolasi unga nevara emasmi? Balki, men sizlarning bolangiz bobolarini rashik qilishmasin, deb o'ylagan chiqarman...

— Sening yo'rig'ing boshqa edi, Toshpo'latjon, — deya hiqilladi Opa, keyin ukasining gapidagi kinoya miyasiga borib yetdi, alamidan qizardi. — Sendan oladiganim shu-da! Men bechorani it bo'lib talaysan! Sendan bir ro'shnolik ko'raman deb, bechora otam...

...boshlandi! Meni deb tamom bo'ldi! Mendan ro'shnolik ko'raman deb xor bo'ldi!

— Og'zimdan gap chiqsa bas, meni it bo'p talaysan!.. — deb takrorladi Opa.

Bu gap unga onalaridan meros qolgan. Onalari, sodda ayol, farzandlaridan birortasiga so'zi o'timasini bilsa bo'ldi, ko'zidan daryo qilib yosh to'kardi: meni it o'rniда ko'rmaysan, bolam.

...buyam shunday dedi chog'i? Yo'q, it bo'lib talaysan, deb aytdi. Enam soddaroq edi. O'zini pastroq olardi. Bu o'zini ilga mengzashni istamaydi. Lekin buning ta'rifsi ham ma'qul — mo'ljalga aniq borib tegadi.

To'rda, po'stak ustida do'ppayib yotgan Anzirat kampir bezovta g'imirladi, tamshandi, uyqu aralash kalima qaytaridi: o'zingga shukr, yaratganingga shukr.

Opaning ko'zları olazarak bo'ldi, kampirning uyqusı sog', gapimizni eshitdi, deb cho'chidi.

— Ishlaring yaxshimi o'zi? — deb so'radi Opa tamom boshqa ohangda, so'ng mijalariga qalqqan yoshni ro'molining cheti bilan artdi.

...avvalroq shundan gapisang bo'lardi-ku, opa? Qo'y, zorlanma, odamga o'xshab, mendan salgina bo'lsayam hol so'ra, toki muz to'ngan mehrim tag'in uyg'onsin.

— Yuribman, opa, — dedi G'aybarov hazin tortib.

— Ermat cho'loqning bolasi seni maqtab keldi, — dedi Opa. — Unga yordam qipsan. Otasi seni ko'p alqadi, bugun Komilga qo'shilib o'ziyam keldi. Kech xabar qilishdi, Toshpo'latjon, otamni ko'rolmay qoldim.

Opaning armoni rost edi. G'aybarov unga ishondi. Uning o'zi ham yo'lda shuni o'ylab kelgan edi. Bilardiki, otasini tirik ko'rsa, salgina yengil tortardi. Lekin ulgurolmadı. Kelib, sovigan tanni ko'rди. O'lik o'ylagandek begona ko'rinnmadı. Ko'ngli ozgina taskin topti, o'limni tan oldi, ko'nglini oxirgi damda hazin va loza muhabbat to'ldirib, shu muhabbatdan ozgina yuksalgan ko'yi, o'zi ham sof va hazin bo'lib, ota bilan vidolashdi. Murdaning murda ekanini ko'rgan mahal jamiki armonlari achchiq bir xo'tsiniq bilan qo'shilib, ich-ichiga singib ketdi.

Alami o'tmaslashdi. Ojzligini sezdi. Endi ko'nikaman, deb o'yladi, ko'nikmayin ilojim qancha...

Hozir, Opaning g'ussasi baravj payti, o'zining ancha ko'nikkanini payqab, aybsindi.

— U miyali bola, mening yordamim tegmadi, — dedi ozgina chalg'immoqchi bo'lib.

G'aybarov kimgaki yordam qilsa, hammasiga shu sifatni taqardi, o'zi miyali. Shunisi ma'qul, negaki, bir kun borib hamma xizmatlar unut bo'ladi, tinchgina, minnatsiz yashagan tuzuk.

Ishqilib ko'rganda salomini ayamasa bo'ldi. Hammasi Opa tuʃayli. Opa — Komilga xotin, Komil — Ermat cho'loqqa jiyan, G'aybarov Ermat cho'loqning jiyanı — Komilning xotiniga uka bo'ladi. Pochchasining tog'asi uni bir safar

mehmonga aytdi, qornini to'yg'azdi, ko'nglini ovjadi, keyin jamiki qilg'ilikni qilib bo'lib, sekkingina ichini yordi: endi, domullo, bittagina valadimiz bor, shuning kashti-yu sharofatidan, qarigan chog'imizda sizga ishimiz tushib turibdi, endi, bizga yo'q demaysiz...

Ermal cho'loq so'ragandan keyin yo'q deyolmadi, do'sti Samadga aytdi: oshnalaring ko'p, bitta qarindosh bor, opamizning qaynisi, shunga bir yordam qilasan, yiqlilib ketsa, changim naq osmonga chiqadi.

Samad ko'nmadidi: qo'y, Toshpo'lat, bunday odamlardan yorug'lik chiqmaydi, tuzukroq, o'qisini edi, mana, sen o'zing birovdan yordam so'rabi kirganmisan, bularni qo'y, oshna, bir marta ko'nsang bas, kelasi yili dumidan yana o'ntasi ergashib keladi.

Ko'nmadidi-yu, lekin Haykal G'aniyevichning erkatoj aspirantidan iltimos qildi. Aspirantning do'stlari ko'p edi, o'shalar baho qo'yib berishdi. Endi Ermal cho'loqning o'g'li o'qiyapti.

Samad ham bir kuni aylanib G'aybarovning oldiga keldi: bitta ateist akamiz bor, malaka oshirishga kelgan, bola-chaqasi ko'p, fanini yaxshi biladi-yu, yoningga borgani cho'chib turibdi, shundan yengilroq bir so'rabi ko'rsang.

Ateist domla, qirraburun, qizilmag'iz, muloyim va chiroqli odam, talabalariga nimalarni o'rgatishi noma'lum, lekin javobni ko'p yolchitmadidi. G'aybarov noiloj undan hijratni so'radi. Bir amallab javob topildi: faloninchchi yilda falonching falon joydan falon joyga qochishi. Ko'chishi emas, qochishi. Chamasi, ateist domla, shunday desam, G'aybarovga yoqaman deb o'yladi. Keyin u buxorolik bo'lgani uchun al-Buxoriyga o'tildi: xo'sh, al-Buxoriy kim bo'lgan? Ateist domla G'aybarovning ko'zlariga mo'ltirab qaradi: endi, biz taraflar sal uzoq, domlajon, Toshkanga yetish qiyin, chorvador

xalqımız, yurtımız obod, dasturxonimiz ochiq, tabiatımız zo'r, ayniqsa bahor payti, shirvoz qo'zilar baayni töbga kelganda...

...shunda beixtiyor seni la'natlädim, opa. Axir sen qancha-qancha «miyalis» yigitchalarga homiylik qilding. Qaytaga, Mavlonboy tuzuk, bunday savdolarga aralashmaydi. Zokir ham tuzuk. U bor-yo'g'i bir marta aytgan, qimtinib, chiroyligina bir qizni ko'rsatgan; ana, sochini yelkaga yoygani, shunga yordam qiling, aka, qarangchi, balkim... Qizaloq o'zining bahosini oldi. U yordamga muhtoj ham emasdi. Buxoriyning bobosi kosir bo'lganidan tortib, uning chap ham o'ng qo'li bilan barobar yozganiga qadar bilardi. Lablarini cho'cheytirib aytdi: Al-Jome as-Sahih! Bilag'on edi, qurmag'ur! Bilag'onligini o'zi ham sezardi. Zokir uning ortidan tushsa bormi, besh yil, o'n yil, balki butun umr yueurgan bo'lardi. Bu qizlar, bu chiroyli va aqli qizaloqlar, Buxoriyning tazkirasi nomini talassuz etganda lablari kibrli cho'chhayadigan qizaloqlar hech qachon biz galatepaliklarga nasib qilmaydi. Biz ularga merov bo'lib ko'tinamiz, xolos.

— Men bas qildim, opa, — dedi G'aybarov. — Mayli, Ahmad sal ulg'aysin, unga ozroq yordam qilarman, lekin boshqaga... Jonga tegdi, opa. Ilik osh, qazi-yu hasiplar qornimni og'rittyapti.

U Opadan dashnom eshitishni kutdi. Lekin Opa negadir g'azablanmadı, birdan yumshadi:

— Baxting chopsin, Toshpo'latjon, men bir tilakdoshingman, uka. Meni birov hisobga qo'shmaydi, otamning oti sen bilan ukalaringda qoldi.

G'aybarov sekin bosh irg'adi: ha, opa, bizda qoldi.

— Otam biron vasiyatini aytmabdими? — deb so'radi Opa.

— Bilmadim... Zokir bir varaq, qog'öz berdi, deganday bo'lувди.

- Mengayam ko'rsat, Toshpo'latjon, — dedi Opa.
- Mayli, — dedi G'aybarov. — Otam pul qoldirmagan chiqar...
- Pul — qo'lning kiri, — dedi Opa ginaomuz.
- To'g'ri aytasan, opa, — dedi G'aybarov. — Mayli, erta-indin qarat ko'tarman.
- Shunday qil, uka, — keyin sen o'zingga tinchroq bir amal topsang bo'larmidi.
- Menda amal yo'q, opa, amalsiz yashamoqchiman. Amaling bo'lsa, odamlar rost gapni aytmay qo'yadi.
- Yo'q, — dedi Opa. — Sen biror amal topgin, Otamning otini tutib o'tasan, o'rni yo'qolsa bo'lmaydi.
- G'irromliksiz yashashning o'ziyam kifoya. Menga shundan boshqa amal yo'q, opa.
- Bor ekan, Turdiboy aytdi.
- Yo'q, opa, Ermat cho'loqning bolasi menga oshiq-charoq narx qo'yibdi. U sizlarga yoqishni o'ylagan, qolganini ering ikkoving to'qib-bichgansizlar.
- Nima, og'irimiz tushib qoldimi?
- Yo'q, opa, buning tarixi uzoq, sen bari bir tushunmaysan.
- To'g'ri, sen biz nodonlarni tinglab nima qilarding!..
- Opa tag'in tumtayib oldi. Xayriyatki, Anzirat kampir uyg'ondi. Mudroqdan chiqqan buzoqday bir muddat baqrayib turdi, qayerda ekanini anglamadi, keyin xonaga ko'z yogurtirib, o'tirganlarni farqladi, munisi Toshpo'lat, unisi...
- Senmisan, Malohat?.. — deb sekin so'radi u..
- Men, ena, — deya javob berdi Opa.
- Obdastani opkel, — deb amr qildi Anzirat kampir.
- Opaning tusi ko'p o'zgarmadi, dahlizga chiqib, dastsho' bilan ostoba keltirdi. Kampirning qo'lliga, suv quydi. Kampir yuvininib bo'lib, ro'moliga artindi, keyin

chetroq surilib, cho'ntagidan tasbeh chiqardi, lekin o'girmadi, Opaning dastsho' - ostobani dahlizga eltilib qo'yishini kutdi, so'ng, u kelib poygakroqdan joy olgach, sekin gapirdi:

— Ko'zim ilinibdi, qizim, kelganiningni sezmay qolibman. Qarilik, qizim, aybga buyurmaysan...

— Uyg'otgani ko'zim qiymadi. — deya yolg'onladi opa.

Anzirat kampir cho'zib bir esnadi, keyin kalima qaytardi, o'zini sal yig'ibroq o'tirdi.

— Ko'rgilik ekan, — dedi. — Otangdan ayrilib o'tiribmiz.

Opa unga javoban sekkingina bosh irg'adi, so'ng ikkovlon qo'shilib yig'i boshladilar,

Qayg'u ularning ozmi-ko'p nafratini chetga surdi. Sekin, ko'ngilni tiyib vig'lashdi. Opaning ko'zi G'aybarovga tushib, ovozi sal bo'g'ildi. Chamasi, uyalardi: nima qilay, uka, hammamiz shunaqamiz...

### 3. MUROD AMAKI

G'aybarov tashqariga chiqib, olmazorning narigi burchagida g'imirlagan sharpalarni ko'rди: fonuslar yorug'ida, jim va tund, belkuraklarni xira yiltiratib o'choq qazishyapti.

Havo salqin edi. G'aybarov ichkarida sal namiqqan ekan, chap kuragi ostida sanchiq turdi. U yo'ng'ichqapoya chetidagi pastak uvatga behol o'tirdi, oyoq tarafida uyulib yotgan namatlardan yupqarog'ini olib, yelkasiga tashladi. Papiro tutatdi. Nimadir shitirlaganday bo'lidi. G'aybarov avvaliga suyak-puyak axtarib kelgan it xayol qildi, lekin ko'zi hech narsani ilg'amadi. Shitirtash takror eshitildi, oldinda uyulib yotgan namatlar tagidan birov sudralib chiqib, uvatga o'tirdi.

— Bisso'm ber!.. — dedi u.

G'aybarov Murod amakini tanidi. Cho'ntagiga qo'l suqib birinchi bo'lib ilingan shaldiriq qog'ozni oldi. Murod amaki

sal muddat ishonmay turdi, keyin yaqinroq surgalib kelib, pulga qo'l cho'zdi.

— Bisso'mmi? — deb so'radi.

— Bilmadim, — dedi G'aybarov. — Balki uch so'mlikdir, Tun qorong'i, amaki, ko'rib bo'lmaydi.

— Bisso'm ber!..

— Boshqa pul yo'q, — dedi G'aybarov. — Ertaga olasiz, amaki.

Murod amaki boshqa injiqlik qilmadi, Boshidan telpagini olib, pulni ichiga tashladi va telpakni qaytadan bostirib kiydi.

G'aybarov cho'ntagidan papirosh chiqardi.

— Chekmaysizmi, amaki?

— Rost... rostingmi?

— Rost, amaki.

— O-o! bu yoqqa! — Murod amaki G'aybarovning qo'liga chang soldi. — Chakkim kelyapti!..

— Shoshmang, amaki, — dedi G'aybarov uning qo'lini nari itarib. — Mundayda papiroshni sindirasiz.

Murod amaki sal o'yaniib turdi, so'ng:

— Boshqa papiruskang yo'qmi? — dedi.

— Bor, amaki, bor-u, lekin ezmaganingiz yaxshi.

— Bo'pti, — deb rozi bo'ldi Murod amaki, keyin o'zingning bezozorligini ko'rsatmoqchi bo'lib, qo'llarini ko'kragi ustiga chalishtiirdi. — Mayli, ol, ezmayman.

— Qachon keldingiz, amaki? — deb so'radi G'aybarov.

Murod amaki uning gapini javobsiz qoldirdi, chamasini chalg'itib, papirosh bermay qo'yadi, deb o'yadi.

— Mayli, o'zingning og'zingdagini ber, — dedi u yalinchchoqlik bilan. — Maylon yaxshi, menga ddu... dumi qizil papiruska beradi.

G'aybarov qutidan papirosh olib, Murod amakinining labiga qistirdi.

— Ggugurt?..

G'aybarov gugurt chaqib, Murod amakiga tutdi. Uning qarib qolganini ko'rди. Soch-soqoli oppoq chol. Faqat qoshi bilan kipriklari qora. Murod amaki boshdan chiroyli odam edi. Kipriklari qiz bolanikiday uzun-uzun, uchlari tepaga qayrilgan, ko'zlar dumaloq, uzukday... sodda, dunyoga salgina hadik va shubha bilan boqib turadigan ko'zlar.

...go'dakday begunohi odam, qarimasa, dunyoda birgina shu qarimagan bo'lardi.

— Sen kimsan? — deb so'radi Murod amaki. — Seni tanimadim.

— Mavlonning akasiman. — dedi G'aybarov.

— Mmeni qayoqdan bilasan?

— Men Toshpo'latman, amaki. Eslaysizmi. Toshpo'lat? Mavlonning akasi Toshpo'lat!..

— Mavlonning otasi o'ldi, — dedi Murod amaki.

G'aybarov salgina kutib tirdi: Murod amaki uning ham otasi o'lganini tushunib yetishi uchun ozroq vaqt kerak edi.

Murod amakini yo'tal tutdi. O'qehib-o'qehib yo'taldi, keyin uvatga oyoqlari tagiga balg'am tulfladi.

— Mavlonning papiruskasi yaxshi, — dedi u. — Ddumi qizil... yo'talni bosadi... Seniki bbo'lmadi..

— Ertaga dumi qizildan opkelaman, amaki.

— Yana bisso'm ber, — deb talab qildi Murod amaki.

— Ertaga, amaki. Hammasi ertaga bo'ladi.

— Mmenga raisning gulli kosasida sho'rva bersin, — dedi Murod amaki. — Ssen... sen o'zing ayt.

— Aytaman, amaki, sizga otamning gulli kosasida berishadi.

— Sening ham otang o'ldimi? — deb so'radi Murod amaki.

G'aybarov indamadi, sekin xo'tsindi...

Har yil saraton mahali, eski dardi qo'zg'ab, o'zini qo'yarga joy topolmay qolganida Murod amakinj Raim oqsoqol hovliga yetaklab kelardi: bizga mehmon bo'ling, Murodboy, yesangiz — osh, iehsangiz — achchiq choy, manavi mening o'zimning piyolam, manavi mening o'zimning kosam, hammasi sizniki, Murodboy, ozgina dam oling!..

Murod amakiga shapaloq gulli yashil kosada yemak berishardi. Murod amaki yashil kosaga «raisning kosasi» deb nom qo'ygan edi. Unga birgina shu kosa halol edi, boshqasidan na sho'rva va na suv ichardi.

Raim oqsoqol umri bino bo'lib o'sha shapaloq gulli yashil kosadan taom yemagan. Uning chegalangan eski bir kosasi bo'lardi. U ham shu eski, chegalangan kosadan boshqasini tan olgan emas, ya'ni dehqon bir kuni podsho bo'lib, chorig'ini yostiq qilib uxlagan ekan.

Murod amakining yashil kosaga mehri zo'r edi. Shunchalar zo'r ediki, kosani uning uchun avaylab-asraydigan bo'lishdi.

Murod amaki yashil kosadan maosh qilgan zahoti kayfi chog' bo'lib qolardi, Raim oqsoqol kosadagi yemakka bir giyoh qo'sharmidi yoki rostdan ham kosanining biror botin xosiyati bormidi, ishqilib, Murod amaki taomdan so'ng bir muddat xursand bo'lar, keyin... surunkasiga ikki kecha-kunduz qotib uxbab, yana o'z yo'liga ketar edi.

...Bundan yigirma yilcha oldinga, aniqrog'i, yigirma yilcha ortga, ming to'qqiz yuz ellik va palonchi yilga, uning bahoriga qaytamiz. Shunday qilib ayni bahor edi. O'tlar endigina yerning bag'rini nish urgan, rangpar, astodahol... ostobni kutardi. Ularning orasida boychechaklar bodroqday sochilgan edi. Oq, oq-sariq, ko'kish-sariq va to'q jigarrang boychechaklar. Ular qorning sovuq pinjida yotib zerikkan, endi ostobni ko'rishga mushtoq. Xomush, gulqo'rg'oni

yumilganroq, uyatchan, go'yoki onasiga ham o'ptirmagan qizchaday...

Qirda shamol esar, sovuq edi. Bolalar qo'y-qo'zilarni chuqur soylikka keltirib qamashdi. Keyin jarlikdan bulturgi garmsel tiqib ketgan ho'l xashakni, yalanglikda ochilib qolgan chirik tezaklarni terib kelib, kichkina gulxan qaladilar.

Gulxan bo'lib gulxan emas, shunchaki bir olov, tezakning dimoqyorar isi, qo'ziquloqlarning namiqqan, ko'zni achi-tuvchi sarg'ish tutuni, oldindan nimjon bir taft, orqadan epkinli izg'irin shamol va to'rt bolakay: Hazrat, Safar, Qo'ziboy, kichigi — Toshpo'lat. U ko'zlaridan yosh oqizib, burqsib yotgan tezak uyumi tagidan puslaydi.

— Murod amakiga maza-da, Toshpo'lat! — degan edi o'shanda Qo'ziboy. — Doim yalang oyoq yuradi, oyoqlari hech sovuq yemaydi, qordayam etik kiymay yuradi!..

Toshpo'lat ishonmadi. Hayraidan ko'zlar katta-katta ochildi.

— Xudo ursin, ajina chalib ketsin! — Qo'ziboy qoqsuyak panjasini bo'g'ziga pichoq qilib qo'ydi.— Xudo ursin agar, qordayam yalang oyoq yuradi!..

O'sha bahorda, G'aybarov rosa bir oy to'shakka mixlanib yotgan edi. Xonaning derazalari oftobga terskay, ichkariga yorug' uncha tushmas edi. Ochiq derazalardan vijirlagancha qaldirg'ochlar uchib kiradi, maynalarning hadik to'la ovozi, kechalari qurbaqalar... Ovozlari ko'p va turfa xil. Hatto havo ham qandaydir yangroq. Tarang tortgandek bo'lib tuyildi.

Vujudni ezgan isitma, muzdek ter bahorni baralla tuygani imkon bermaydi. Yurak qisadi. Yostiqning yonida mudom ochiq dasturxon, anorlar, qand-qurs, Amma keltirgan qizil olmalar, choynakda yaxna choy— shiftga tikilib yotasani.

Shift baland edi. Umuman, Raim oqsoqol qurgan binolarning hammasi baland, devqomat, lekin yuragi torroq

odam edi, pastak shiftni yomon ko'tardi. Toshpo'latga shiftning bir xil moviy tusidan ko'ra, oq-sariq bir dog' qiziqroq bo'lib ko'rinaridi. Mudom shunga tikilib yotardi. Avvaliga dog'ni ko'rshapalakning qurigan murdasi sahmlab cho'chidi, otasidan so'radi. Raim oqsoqol kuldii: bu Boltaning ishi, uyga ko'char kunimiz shu yerda bitta qo'chqorni nimtaladi, harom tomirini ajratgan-ü shiftga qaratib otgan.

Tashqarida — bahor; uyning ichi g'ira-shira, shiftda quruqshab qotgan go'sht parchasi, yurak dimiqqan, shunchalar zerikarli ediki. Toshpo'latga selning muzday suviga oyoq tiqib o'tirganini eslash yoqimliroq tuyilardi... Bo'tana bo'lib, pishqirib oqqan suvni, nochorgina osma ko'priknинг tagida aylangan, ko'piklariga doyur loyqa girdobni, uning sovuq epkinini qayta-qayta idrok etadi. U muzday suvga oyoqlarini solib o'tribdi. Quturgan suv osma ko'prikn yalay-yalay deb oqadi, suv kuchli, u esa juda kichkina, chumoli orqalagan ushoqday, lekin katta bo'lishni istaydi, kattalarday mard bo'lishni, sovuqdan qo'rmaslikni, hatto qalin qorda ham Murod amakiday bemalol yalang oyoq yuraverishni istaydi. So'ng girdobning chirpiraklari va pishqirgani, suvning sovug'i... hamma-hammasi ko'ngildan tashga chiqadi, ko'zlari oldida u umrida ko'rмаган yarim afsonaviy, qishning qorini yalang oyoq kechib yuradigan mard va chidamli odam — Murod amakining juda xira, lekin haybatli siymosi qad ko'tarardi-yu, butkul dunyoni to'sib qo'yadi!..

O'shanda Ona qo'rqi. Qo'rqqanidan avliyoga oq qo'chqor atab yubordi. Ona juda qo'rkoq edi, go'yoki xudo uning har bir so'zini eshitib turibdi, salgina gunohni, dilning salgina qing'irligini ham darrov sezadiganday...

Raim oqsoqol kuldii: bekor qilyapsan, xotin, qorasini atasang bo'lardi, qora qo'chqorimiz kichikroq, oqining go'shti ko'p, qassobga pullardik.

Ona unga yig'lab tarmashdi: sizga bola kerak emas! Bolangiz bir o'lib tirildi-yu, siz bitta qo'chqorni qizg'anasisiz!

Raim oqsoqol murtlarini burab kului. Uning kulmasdan iloji yo'q edi. Uni, Raim raisini, bir umr qilgan ishi topganini sovurmoq bo'lgan odamni, cho'ntagida sariq chaqa tutmagan odamni, bugun kelib xasislikda ayblashyapti!

Raim oqsoqol miriqib kului.

Ona yig'ladı.

So'ng, chorshanba kuni, Toshpo'lat oyoqqa turgan kuniyoq uni Ammaning ortiga o'tqazishib, o'zlarib boshqa ulovlarda, avliyoning mozoriga qarab jo'nashdi. Oldinda — egarga semiz oq qo'chqorni o'ngarib olgan Naim amaki, undan orqaroqda, qora moda eshakning ustida Amma bilan Toshpo'lat, keyin boshqalar... yolg'izoyoq dasht yo'lidan ketishdi. Hovlida birlina Raim oqsoqolning o'zi qoldi. U avliyoning mozoriga borishni istamadi.

Ayji bahor edi. Yolg'izoyoq yo'lni yomg'ir savalab qotirgan. O'tlar yuvilgandek ozoda. Yam-yashil chimzor, sanoqsiz qo'zigullar, toshbaqagul va guliqayrag'ochlar, sariq va gunafsha... Yo'Ining ikki tarafida past-balando, lekin birday yassi tepachalar... Tepachalar g'alati tuyildi. Toshpo'lat Ammadan so'radi. Amma birdan ma'yuslandi, keyin «tepacha» deb tushuntirdi, lekin yolg'onga tili aylanmadidi, rostiga ko'chdi: odamlar yasagan, bolam, tagidayam odamlari bor.

Avliyoning mozori yonida kichkina xonaqoh bor edi. Ulolvarni bog'lab, shu xonaqohga kirishdi. Nam, chirik somon hidini yutgan ko'yi ichkarini git aylanib, devorlarga bosh urib tavof qilishdi. Toshpo'latni Ammaning o'zi yetaklab olgan edi. Toshpo'lat hali tavof qilishni bitmasdi. Amma uning ensasidan tutib, devorga tomon undadi: tavof qil, kosir, avliyo buvang boshqa dard-u balolardan asrasin'..

Boshi devorga tekkan mahali Toshpo'latning yig'lagisi keldi. Ammaga alami oshibroq tikildi, lekin yig'layolmadni, ko'rdiki, Amma ham peshonasini ayamayapti, quruqshagan lablarini cho'zib, sho'r bosgan devorlarni o'pyapti.

Xonaqohdan chiqishdi. Mutasaddi qorovul chol bilan Naim amaki chetraqqa o'tib, oq qo'chqorni so'yishdi, keyin chol qo'yning bo'g'zidan tizillab oqayotgan issiq qondan bir piyola keltirib avliyoning go'ri ustiga to'kdi. Avliyoning go'ri ko'p qon ichgan edi: ustidagi toshlarning hammasi qo'ng'ir tusda, qotgan qon palaxsa-palaxsa bo'lib yorilgan.

Chekkadagi yakka qayrag'och tagidagi o'choqqa shoxshabba qalab, qozon osishdi. Qorovul chol qo'lini soyabon qilib pastga, qabriston etagidagi g'aribgina uylarga qaradi:

— Suvni Murodboy opkeladi.

So'ng ayol-erkak o'choq oldida davra qurib, Murodboyning suv keltirishini jumgina kutishdi.

G'aybarovning eslab qolgani shu.

Keyin, biror o'n besh yil o'tib, G'aybarov Shoirga Murod amaki haqida ozgina gapirmoqchi bo'ldi. Lekin Shoir uning Murod amakiga o'xshashni istab, selning bo'tana suviga oyoq tiqqaniga ishonmadni, ammo o'zini ishongandek ko'rsatdi va xitob qildi: juda nafis, G'aybarov, siz ancha samimiy odamsiz, asli yozuvchilik qilsangiz bo'lardi.

G'aybarov bepisand kuldii: men nafis adabiyotni yomon ko'raman.

Shoir ta'kidladi: yo'q, yo'q, mening gapimga ishoning, G'aybarov aka.

G'aybarov o'zining samimiy emasligini aytdi.

Shoir ranjidi, lekin u gapirishga o'rganib qolgan odam edi, zum o'tmay xalalikni unutdi va o'zining hikoyasini boshladidi.

— Bizning yurtimizda ham bitta jinni bo'lardi. G'aybarov aka. Onasi qari — uydan ko'chaga chiqolmaydi, otasi qari — guzardan beri kelmaydi, bozor-o'chargayam jinnini yuborishardi. Odamlar qiziq. G'aybarov aka, ming g'irromi bo'lsin, ming kazzob bo'lsin, lekin jinni bilan yetim-yesirga qolganda ko'p g'irromlik qilishmaydi. Haligi jinni bozordan tappa-tuzuk xarid qilib kelardi. Keyin onasi qo'liga ikkita paqir berib, ko'chaning narigi boshiga suv opkelgani yuborardi. Bir chaqirimlar bor deng, G'aybarov aka, jinni shuncha yo'ldan ikki patir suvni ko'tarib keladi. Issiq, yo'l toshloq, buning ustiga jinni mudom oyoq yalang yuradi, tovonini yer tishlaydi. Siz-u bizga o'xshagan odam har o'n qadamda bir marta dam oladi, lekin u damning nimaligini bilmasdi. Paqir to'la suv, charehoq bilan og'riqdan mayishib, zo'rg'a yuradi, gandiraklab ketadi, lekin paqirlarni hech yerga qo'ymaydi. Yelkasi uzilib kelmaganiga hayron qolasan. Endi o'ylasam, rostdan jinni bo'lgan ekan, bir chaqirimdan suv tashigan odamning paqirlarni yerga qo'yib, aqalli bir marta bo'lsayam dam olgani aqli yetmaganini qarang!

G'aybarov Shoир yana nimalarni gapirganini eslayolmaydi. Shoир u paytlar boshqalarga yoqishni, tanilishni istardi, buning ustiga, andakkina kayfi ham bor — ko'p gapirgan. G'aybarovning eslab qolgani ikki chelak suvni ko'tarib, gandiraklab-gandiraklab kelayotgan tentak bo'ldi, xolos. So'ng u xayolidan Shoирning o'zini va uning tentagini quvlab chiqardi. Bir zum o'tmishta boqdi va ortda, yigirma yilcha ortda, qabristonni, undan pastiga qarab keigan so'qmoqni va shu so'qmoqning etagidan ikkita chelak suv ko'tarib kelayotgan Murod amakini ko'rdi. Murod amaki mozorboshiga yetib kelguncha rosa qiyndaldi, mayishdi, gandirakladi, lekin chelaklarni yerga qo'ymadidi, chelaklarni yerga qo'yish mumkinligi uning ham xayoliga kelmadidi.

Ammo Murod amakini jinni deyishga G'aybarovning tili bormadi.

Murod amaki xotiralar tubidan tiniqib chiqqan, xotiraning o'zi singari aziz, sof va sodda edi.

Shunda G'aybarov o'ziga bot va bot uqtirdi: sen unga taqlid qilganingdan uyalma, do'stim, mayli, faxrlanmasliging mumkin, lekin hech uyalma!

Murod amakinining oriyatmand odamlarga o'xshab, o'zi to'qigan tarixi yo'q. Uning tarixini boshqalar to'qigan, Biladigan va tushunadigan odamlar. Bu ko'p serqayg'u, lekin egasi uchun betashvish bir tarix. Uni hamma biladi. Murod amakinining o'zidan boshqa hamma biladi.

Aytishlaricha, Murod amaki urushga borishni istamagan. U azal-avval miltiq ovozini eshitsa, qo'rqrar ekan. Urushga chaqirib kelishganda Murod amaki urushning o'zini o'yalamagan, bor-yo'g'i lashkar yig'adigan odamlarning yelkasiga ilig'liq miltiqlardan qo'rqqanidan qochgan.

Biladigan odamlarning aytishlaricha, Murod amakini tegirmon tagidan topib olishgan. Topmasliklari ham mumkin ekan, lekin Murod amaki bekingali joy axtarib, tegirmon tagida kalamushlar borligini hisobga olmagan. Chamasi, u kalamushlardan xuddi miltiqdan qo'rqqanday, balki undan ham ziyodroq qo'rqqan. Bekinishga bekingan-u, lekin kalamushlarni ko'rgan zahoti dod solib, tegirmon tagidan otilib chiqqan. Biladigan odamlarning aytishlaricha, Murod amaki urushgacha ham urushdan keyingidek sodda ekan. Qochoqligini eslashning o'zidanoq uni ayyor bo'lган, deb aytish qiyin. Negaki, urushdan qochgan odam uchun tegirmon tagidan ham bema'niroq boshpana bo'lishi mumkinmi? Urush boshlanganda boshqa odamlar, birov mardligidan, birov uyalganidan, lekin hamma birday tinch,

ortiqcha gap-so'zsiz g'arbga jo'nagan. Lekin Murod amaki ularga o'xshagan dovyurak yoki uyatchan bo'limgan, urushga borishni istamay, tegirmonning parraklari ostiga yashiringan.

Galatepada Sotim pakana ham harbiydan qoqgan. Uni hech kim topolmagan. U rosa besh yil somonxonha tagidan qazilgan lahmida yashagan. Tashqariga faqal kechalari, el uyquga ketgan mahali chiqarkan. Nihoyat, besh yil urushni o'tkazib, Sotim pakana chohdan chiqib kelgan, o'zini hukumatning qo'liga eltib topshirgan, uch-to'rt yil qamoqqa tushishni o'ylab borgan, lekin, urush tugab, odamlar bir muddat shafqatliroq bo'lib qolganmi, uni qamashga hech kim hafsala qilmagan; qaytiq kelib, tag'in kutgan, lekin birov ortidan izlab kelmagan. Go'yoki dunyo uni butkul unutib yuborganday, go'yoki u — yo'q, o'lgan, birov ko'rganda salom bermaydi, bergen salomi aliksiz qoladi.

Murod amakiga kelsak, agar aqli ko'toh bo'lganida, uni mutlaqo bezovta qilishmas edi. Ehtimol, u sal-pal qo'rroq bo'lgandir, lekin aslo jinni bo'limgan, binobarin, miltiqdan ortiq darajada dahshatga tushmagan, tegirmonning tagiga ham bekinmagan, uni askarlar quvlagani yo'q, kalamushlar ham qo'rqtigan emas. Bularning barisi yolg'on, biladigan odamlar Murod amakining izni va ishtirokisiz to'qigan gaplar.

Rosti — Murod amakining ko'p qatori urushga borgani va undan sanoqli tiriklarga qo'shilib qaytgani.

Rosti — uning o'zi haqida bir og'iz ham jo'yali gap aytolmagani. Bir og'iz jo'yali gap aytolmagan, lekin Galatepani shuncha yil va yo'llardan so'ng o'zi topib, Kattaqo'rg'onidan Ne'mat aravakashning uloviga tushib kelgani-chi?

Qarasam, Kattaqo'rg'onidan chiqar yo'lda Murodboy turibdi. Ko'rib to'xtadim, indamay aravaga mindi. Gap

so'rasam, javob bermaydi. Enasi bechoraning qazosini eshitgan bo'lsa, shundan ko'ngli xuston ekan-da, deb o'yladim. Aravada chayqalib, ko'zi ilinibdi. Galatepaga kirar mahali ustiga chakmonimni yopdim. Keyin odamlardan suyinchi oldim. Umidvor odam ko'p ekan, ko'p suyinchi berishdi. Suyinchi uzatgan odamga chakmonning barini ko'tarib, Murodni ko'rsataman, u boyoqish gapdan bexabar, tinchgina uxlab yotibdi. Uylarining ro'parasiga kelib, turtib uyg'otdim, aravadan tushdi, uyiga qarab noryurish qilib ketdi. Lo'killab yurganiga parvoyam qilmabman. Axir, shuncha vaqt o'tdi, shuncha qon to'kildi, endi shuncha qirg'indan keyin uyiga omon qaytgan banda, yugurmasdan, lo'killab ketganiga balli. Boshqa odam bo'lsa, entikib o'lardi!..

Ne'mat aravakash Murod asl kining lo'killab yurganiga parvo qilmagan. Lekin tog'asi i'dan payqadi. U oriyatli odam edi, jiyani Murodnинг lo'killab yurganini hech yoqtirmadi. Uni biror oy eski og'ilning to'ridan qazilgan xandaqda saqladi, chalop bilan ko'kpiyoq berib boqdi, tuzalib ketar, lo'killamay boshqa odamlarga o'xshab soppa-sog' yurish qilar, deb umidvor bo'ldi. Lekin tog'aning umidlari puchga chiqdi. Oydin bir tunda hovliga chiqarib sinashga yurgizib ko'rganida Murod amaki avvalgiday lo'killashini qo'ymadidi. Tog'a uni qaytadan xandaqqqa haydadi. Ko'ngliga turfa o'ylar keldi, lekin insof qildi, harna bo'lsa ham, tug'ishgan jiyani, begona emas, xandaqni tekislab yuborgani ko'ngli bo'Imadi...

Peshinda Galatepani aylanib yurib, Jalilning hovlisiga kirdim. Meni kutmagan ekanmi, ko'zlari bejo bo'la verdi. Men eski og'ilga qarab boryapman-u, Jalil yonimda

ilonga o'xshab eshiladi, bu bir nomahramroq joy, xotin-ning ashqol-dashqollari qalashib yotibdi, deb aytadi. Men kolxozning yo'qolgan bir yashar novvosini izlab yuribman, bu mena xotinini peshkash qiladi, ko'zimga biram yomon ko'rindi. biram yomon ko'rindi!... Yo'lindan chetlatib, ichkari kirdim. Qarasam, Murodboy bechorani xandaqqa tijib qo'ygan ekan. Zang'ar Jalil oyoqlarimga tirmashib yig'ladi. Murodboyning o'zidan gap so'rasam, hech indamaydi, mo'ltilab tog'asiga qaraydi. Bu yodda Jalil yig'layapti, endi Murodboyni boshimda ko'tarib yuraman, deydi. Yomon g'azabim qo'zidi, o'ldirib-netib qo'yishim ham hech gap emasdi, bir amallab o'zimni bosdim, Jalilning yelkasiga besh-o'n qamchi tushirib, Murodboyni xandaqdan chiqarib oldim, ozodlikka qo'yib yubordim.

Raim oqsoqolning bu gaplari qirq oltinchi yilga tegishli. O'shandan beri Murod amaki ozodlikda yashaydi. Uyi yo'q joyi yo'q. Boshi ochiq — istagan tarafiga ketadi. Raim oqsoqol moshinachi Risqat abziyga aytib, ikki sidra kiyim-bosh qilib bergenida ham egniga ilmadi. O'zining urushdan kiyib qaytgan eski shinelini afzalroq ko'rdi. Shinelini to to'zib qolgunicha kiydi, yamoqlari chirigach, ustidan yana yamoq solib kiydi.

Uni ilgari qo'shni qishloqli Ellikboy degan odamga mengzab yurishardi. Ellikboy ham Murod amakiga o'xshab urushdan tirik qaytgan. Yuvosh, ishdan qochmaydigan odam. Kolxozning hisobchiligini qiladi. Bo'sh qoldi deguncha, eshakkinasini minib dashtga chiqadi, xas-xashak o'radi, saksovulning qurib tushgan shoxlarini teradi, xullas, ro'zg'orining tashvishi bilan ovora. Birov uni qon kechib urushgan, deb hech o'ylamaydi. Bezozor, mo'min, keyin salgina

ko'ngilchanligi bor, dashtiда uchragan kimsaga ko'zasidan suv tutadi, suvi bo'Imasa xurjunidan birorta tarrak qovuncha chiqaradi. Odamlar uni cho'chitishni xush ko'rishadi. Ellikboy juda qo'rkoq, ko'chada yurib keyyaptimi, uyida o'tiribdimi, dashti biyobonda yuribdimi, ishqilib, «Tanka kelyaptit» deylsa bas, boshini changallab, ko'zlar kosasidan chiqquday bo'lib qochadi. To sillasi qurib, yerga yuztuban yiqilib qolgunicha qochadi. Uning tankdan qo'rqishini qayyoqdan bilib otishgani noma'lum. Ehtimol, o'zi biror suhbatda aytganmi, yoki agar bosinqirab chiqqan bo'lsa, xotini eshitib, keyin qo'shnilariga aytganmi.. har qalay, noma'lum. G'alati odam, urushning tugab ketganiga qancha bo'ldi, u esa haligacha tankdan qo'rqadi.

G'aybarov Murod amakini ergashtirib, bog' burchagi-dagi o'choq tarasga bordi. Ular kelishi bilan sonus yortig'ida sabzi archayotgan odamlarning suhbatini tindi. Kimdir surilib, yonidan joy ko'rsatdi:

— O'tiring, domla.

G'aybarov o'tirdi. Nima qilarini bilmay, dasturxon chetida yotgan pichoqlardan birini qo'lga oldi, lekin Mahanboy izn bermadi:

— Qo'yaver, o'zimiz eplaymiz.

Jim qolishdi. Murod amaki G'aybarovning yelka tarafidan kelib, boyta olgan pulini yoruqqa tutib qaradi, so'ng egasiga qaytarib uzatdi:

— Bbo'Imaydi.. Bisso'm ber!..

— Bir so'mlikdan boshqa pulni olmaydi, — dedi Mahanboy, keyin gapining isboti uchun Murod amakiga o'girildi:— Bu uch so'mlik ekan, amaki, katta pul, bir so'mlikdan uch marta katta.

Murod amaki qo'lidagi pulni tag'in yoruqqa tutib qaradi, lekin kattaligiga ishonmadidi.

— Bisso'm, — dedi u G'aybarovga. — Bisso'm berl..

Mahanboy tizzaladi-yu shiminining cho'ntagidan bir so'mlik chiqardi:

— Mana, amaki, oling.

Murod amaki pulni oldi. Keyin haligi uch so'mlikni tag'in G'aybarovga uzatdi.

— Muniyam kissaga soling, amaki, — dedi Mahanboy. — Ertaga o'zim maydalab beraman, siz menga uch so'mlik bitta pulni berasiz, men sizga bir so'mlik uchta pul beraman. — Mahanboy uchta barmog'ini ko'rsatdi: — Mana shuncha bir so'mlik, endi siz boring, amaki, dampingizni oling. Mana sizga bitta sabzi...

Murod amaki Mahanboy uzatgan sabzini qo'yniga solib, davradan nari ketdi.

— Bekor qildingiz, Mahan aka, — dedi yoshgina bir yigitcha. — Sabziga tishi o'tmaydi.

— O'ylamabman, maxsum, — deya iqror bo'ldi Mahanboy.

— Murodboy qaridi, — dedi chekkada o'tirgan Soli qassob. — Uni sob qilgan yong'oqfurushlar bo'ldi. Qo'rqaqanidan hovuchlab uzatgan, endi qarabsanki, bitta sog' tishi yo'q. Qachonki qozon osilganda kelsa, unga bir parcha quyruq beraman. Mundayroq go'shtga tishi o'tmaydi.

— Yaxshi qilasiz, qassob, — dedi Mahanboy.

— O'zimning ham bitta tishim yo'q, — dedi Soli qassob. — Lekin Ismatilla tish qilib berdi. Kechqurun, uxlari mahali olib qo'yaman, ertalab yana og'izga solaman.

— Murod amakining tishim bor, — dedi kimdir qorong'ida turib. — Tish butkul bo'limasa, burni iyagiga tushib ketardi.

— Bor-u, lekin bari chirigan, — dedi Mahanboy.

— Sen tishini ochib ko'rmagandirsan? — dedi Soli qassob.

— Siz ko'pyurishli odamsiz, qassob, — dedi Mahanboy. — Murod amakigayam bitta shunday narsadan topib bersangiz bo'lardi.

— Unga tishning keragi yo'q, — dedi boyagi yigitcha.  
Uni G'aybarov kelbatiga qarab, mulla Doniyorning kenja  
o'g'li, deb taxmin qildi. — Kuni oz qolgan. Tishi sog'odamlardan ozi qolyapti-yu...

— Sen ko'p mahmadana bo'lma, — deb jerkidi Mahanboy.

— Harna bo'lsayam, kuni bitmagan odamga tish kerak.

— Men unga o'lim tilamadim-ku? — dedi mulla Doniyorning kenjası.

— Men seni bilaman, sen zang'ar, otang o'lгandayam parvo qilmagansan, — dedi Mahanboy.

Mulla Doniyorning kenjası o'qraydi, lekin indamadi.

— Men shahardan bir surishtirib ko'ray, — dedi Soli qassob. — Balki, Murodboygayam tish opkelarman. Lekin ko'p izlash kerak shekilli.

— O'zini oboring, do'xtirlar ko'rib, mos tushadiganini yasab beradi, — dedi Mahanboy, keyin mulla Doniyorning kenjasiga yuzlandi: — Sen ham Murod amakidan or qilasan, nomard.

— Muning gappa nima daxli bor? — deb hayron bo'ldi mulla Doniyorning kenjası.

— Hammang or qilasan, — dedi Mahanboy. — Mana, qassob unga achinganday bo'lyapti. Qozonboshiga aylanib kelganida quyruq berarmish. Lekin hamma gapi yolg'on. To'y-po'yda bergen bo'lsa bordir, to'yning yemishi hammaniki, lekin qassob uni atay uyiga chaqirib, bitta o'ziga deb bir kilo go'sht qaynatarmidi? O'lгanda qaynatmas!.. — Mahanboy Soli qassobga xo'rozlanib qarab qo'ydi. Qassob miq etmay o'tirardi. — Murod amakining tishi tugul, jag'i uzilib tushsa, achinmas! — U battar avj qildi. — Shaharga ergashtirib borgani uyaladi. Murod amakining usti juldur, keyin lo'killab yuradi... Uyaladi, qassob uyaladi!..

— Men uyalsam, sen o'zing obor! — deya zarda qildi Soli qassob.

— Oboramən! — dedi Mahanboy. — Ma'raka o'tsin, o'zim oboramən.

— Sen moshin haydaysan, senga osonroq, — deb qo'ydi Soli qassob.

— O'g'limning otiniyam Murod qo'yaman! — dedi Mahanboy. — Hammang or qilasan, o'ttiz yildirki, necha o'g'il bola tug'ilsa, ichida Murod degani yo'q. Mazax qilib, hammang bir so'mdan berasan. Keyin undan To'raboy aldar oladi.

Hech kim indamadi. Ovozni baland qo'yish o'ng'aysiz edi. Birovning ma'rakasi. Hazil gap emas, kimsan Raim oqso-solning ma'rakasi... Galatepani ellik yil og'ziga qaratgan odam, azasida nizo qilib o'tirish yaxshimas. Mahanboyniki kechirimli, qarindoshligi bor, keyin marhumning to'ng'ichi bilan oshnachilik qiladi. Qolaversa, uning bir xil gaplari rost; Soli qassob hech qachon Murod amakini yetaklab, shahardagi tish do'xtiriga bormaydi. Murod amaki tirik ekan, birorta galatepalik o'g'lini uning oti bilan atamaydi — irim qiladi.

— To'raboyning ikki dunyosiyam kuyib ketgan, — dedi Soli qassob.

— Orqasidan sasimang, qassob, — deb tag'in qo'rs gapirdi Mahanboy. — O'zini ko'rganda pastqamga tashlab ketasiz-u, bu yerda gardankashlik qilasiz!..

Yana jim qolishdi. G'aybarov o'zining ortiqcha ekanini sezdi: u kelguncha odamlar o'zlarining gapini gapirib o'tirishgan edi, endi... Insot bilan aytganda, Raim oqsoqolning o'llimi ular uchun katta yo'qotish ham emas. Nari borsa, uning raisligini, qilgan bir-ikki xayrliroq ishini eslashadi, keyin ma'rakasi qanday o'tganini eslashadi: falonchi qazo qilganida falon joydan falonchilar keldi...

— Kosonga odam ketganmidi? — deb so'radi Soli qassob.

— Mening xabarim bo'lmasdi Soli aka, — dedi G'aybarov. — Kosondayam, Qarshidayam oshnalari ko'p edi.

— Rahimutli oshnachilikni joyiga qo'yardi. — dedi Soli qassob sal turib. — Keyin o'zi tifib yeguvchiligi edi. Hammasi bilmayman, lekin bitta Mahamat degan samarqandlik oshnasi bo'lardi. Qarz so'rab keldi. Oqsoqol gapini sindirmadi, ko'zimning oldida so'riganicha simab berdi, keyin oqsoqolni qamashganida shu Mahamat aqalli hol so'rab Galatepaga kelmadi.

— Balki turmaga borgandir, qaydan bilasiz? — dedi Mahanboy.

— Turmagayam bormagan, men oqsoqoldan so'riganman, o'zi oshna tutinganiga afsuslanib yurardi.

— Pulini qaytarib olgandir? — deb so'rabi mulla Doniyorning kenjası.

— G'alchasan-da, bolam. — dedi Soli qassob. — Oqsoqol puliga achingani yo'q, qadriga kuydi. Pul deganining nima, qo'lining kiri-da! Xuddi tariqning donasiday, barmoqlaring orasidan shuvillab to'kiladi-ketadi!.. Oqsoqol rahimutli, oshnasi Mahamimatning loaqlar bir piyola choy ichgani kelmaganiga achinardi. Lekin u kelmadi, nomard!..

— Oqsoqol egarda mahali tillani ko'p qilishi kerak edi, — dedi mulla Doniyorning kenjası. — Ana, Nazar maxsumning «hukumat» o'g'li Sanaqul, puldan pora bersang, ketimni artamanmi, deb dastasi bilan yuzingga otarmish, qizildan olarkan, keyin yaxlit g'isht qilib quyarmish...

— Tek o'tir-ey, jinqarcha, mullaning bolasi!.. — deya o'dag'ayladi Mahanboy. — Odam mengzashniyam eplashi kerak-da! Nima, senga oqsoqol attormidiki, mol-dunyo yig'sal.. E, o'zi bizlardan bu dunyoda nima qolardi, tashib ketarmidik. Ikki-uchta ko'ngil yetar jo'rang bo'lib, ovuntirib tursa-yu o'lar soating kelganini sezmay qolsang, shu kerak-da o'zil..

G'aybarov ajablandi, Mahanboyning tajang yuziga sinchiklabroq tikildi. Ichida uning gaplarini takrorladi, battar hazin tortdi.

— Oqsoqol qo'lidan kelganini qildi, — dedi Soli qassob.— Toshpo'lai domlani o'qitdi. Zokirboy do'xtir bo'ldi. Qolganlariyam, xudoga shukur, yurtning orti emas, manzili, tutgan iskanasi but, oqsoqol ko'ngli te'lib ketdi...

G'aybarov boshini quyi egdi. Bu gap unga atalgan edi. Uni yupatishmoqchi, dalda berishmoqchi.

— Rahmatli biror nima qoldirgan chiqar, — deb tusmoljadi mulla Doniyorning kenjası. — Aqli bor odamning hammasi ham ozmuncha yig'inadi, bola-chaqani o'ylaydi.

— Obbo, enag'ar-ey!.. — deb boshini sarakladi Mahanboy. — Otang rahmatli aqlli edi, lekin sening aqling kissangga tushgan ko'rindi.

— Rost-da, — dedi mulla Doniyorning kenjası Mahanboyning gaplariga parvo qilmay. — Oqsoqol shuncha yil davr surdi, qo'lida pul tutgan, mol tutgan... Yomon kunga deb astagani ham bordir? Yo'-o'q, bir nima qoldirgan.

— Vasiyat qoldiribdi, — dedi G'aybarov sal o'ng'aysizlanib.

— Ana, aytmoidimmi!.. — deya quvonib so'zлади mulla Doniyorning kenjası.

Qo'rdagi odamlar G'aybarovga qarashdi.

— Vasiyat qoldiribdi, — deya takrorladi G'aybarov.— Lekin men hali o'qib ko'rmadim.

— Tilla-pilla ko'mgan joyini aytgan bo'lsa kerak, — deb yana taxmin qildi mulla Doniyorning kenja o'g'li. — Uni ochiq sartlab bo'lmasa,,,

— Jim tur, bari bir u tilla seniki emas, — deb Mahanboy uning biqiniga turtdi.

— Rostdan o'qimadim, — dedi G'aybarov. — Hali menga ko'rsatishmadni.

U negadir aybsinib, qimtinib gapirdi. Avval ham ishonin-qiramay turgan odamlarning battar shubhasi ortdi. O'zi ham

bir zum gumonga bordi: rostdan ham, otam sezdirmay yig'ingan bo'lsa-ya!..

Ishonmadi, lekin ko'ngilning chetida guman qolaverdi.

Qo'rda o'tirganlar boshqa gap so'rashmadı. Ular G'aybarovdan, qo'rga qo'qqisidan kelib qo'shilgan, turish-turmushiga shahar nuqsi urgan odamdan salgina iymanishar, lekin uni begona sanamas edilar.

G'aybarov shunisiga shukrona aytdi.

#### 4. QIZIL OLMALAR

G'aybarov chetroqdagi tol savat ustiga o'tirgan edi, Anzirat kampir, alami oshgan, uning yoniga yig'lab keldi. Chamasi, kampir G'aybarovni o'ziga yaqin xayol qildi. Go'yoki ular ikkisi ham bu yerda begona, ikkisini ham chetga surishi-di, ayirishdi, mana endi ular ikkisi odamlardan narida, hech narsaga aralashmay turishibdi.

G'aybarov kampirning ko'z yoshiga dosh berolmaslikdan qo'rtdi.

— Ichkariga kiring, ena, — dedi. — Kutib qolishadi.

— Menga kim ham mahtal bo'lardi, bolam, mening birovga keragim bormidi...

Kampir shunday dedi-yu, lekin ichida, bari bir buyam begona, deb o'yladi. Xo'rligi oshdi. Raim oqsoqolning qilgan nomardligini esladi. Bu o'y ko'p eski edi, uni Anzirat kampir salkam qiriq yildan beri o'ylardi, endi juda o'tmaslashib qolgan, ortiq jonne qiynamas edi. Lekin ko'hna o'ylar endi hech asqotmaydi, ular hozir, Raim oqsoqol zax yerda yotgan mahal, juda yomon tuyildi: qo'y, Anzirat qarg'anma, yaxshimi, yomonmi, ishqilib, imonini bersin, rahmatli tinmagan odam edi, endi u yoqda tinim topsin...

Anzirat kampirning ketmoqchi emasligini ko'rib. G'aybarov o'rnidan turdi, savat ustidagi sholchani to'g'rilab, kampirni o'tqazdi:

— Ozgina dam oling, ena.

— Senga gapim bor, Toshpo'latjon. — dedi Anzirat kampir. — Esingda bo'lsin, ammang — sening dushmaning!..

G'aybarov Ammaning dushmanligini hech tasayvur qilomadi. Amma qari edi, qarib-churigan bir kampir, Anzirat kampirdan ham kampirroq.

— Illoyim, uyi kuysin, — deb qarg'andi Anzirat kampir. ...bu gapniyam otamdan metos olgan.

Faqat bu gap Anzirat kampirning og'zidan qarg'ish bo'lib chiqadi. Raim oqsoqol aytganda so'kishday chiqardi. Keyin Raim oqsoqol ayollarni so'kmagan, or qilgan — ayolning o'zi nimayu yana uni so'ksang... Erkaklarni, uying kuygur, deb so'kardi. Unda odmiroq so'kishlarda tilga olinadigan mavhum xattiharakallar-u shallaqilikdan asar ham yo'q, so'kayotgan odamning erkakligi va nafratning aniq miqdori sezildi: uying kuysin.

...uyning surati, qimmati, yong'in, hisobga chaqiladigan zarar, xullas — manzara.

— Ammangning uyi kuysin, — deya tag'in qarg'andi Anzirat kampir.— Tuxumi qurisin, ammasi bo'la turib shu gapni aytibdi. Jonchiqar chog'ida rahmatlining boshida o'tirgan ekan.

— Bekor gap, — dedi G'aybarov. — Amma emas, Naim amaki o'tirgan. Zokir aytdi.

G'aybarov kecha ukasidan hammasini so'radi: bemorning boshida kim o'tirgan-u kimlar hol so'rab kelgan... Angladiki, otasining kasaliga hech kim parvo qilmagan. Nari borsa — tumov, o'z-o'zidan o'tib ketadi, deb o'yashgan. Raim oqsoqol o'z yaqinlari uchun juda haybatli odam edi: neki nizo bo'lsa, uning o'zi yechadi, maslahat oshlarining to'ri ham uniki, go'yoki qarindoshlar hammasi murid-u Raim

oqsoqol — pir, ko'zları tiyrak, boshi baland, naq osmonga tutashib ketgan! Ehtimol, qarindoshlar Raim oqsoqolning o'lmos'i mumkin ekaniga ishonmagändir ham?

Uning boshida birgina Naim o'tirdi. Naim, Salimboy bilan Mayramning yolg'iz o'g'li, Raim oqsoqolning yolg'iz jiyani, Besh kun tugal yonidan jilmadi.

Raim oqsoqol Naimni uncha yoqtirmasdi. Boshi yostiqqa tekkach, qarindoshlardan birgina Naimni chaqirib olganida hamma ajablandi Axir Raim oqsoqol uni qancha yozg'irib gapirgan, bo'shang odam, deb aytgan, og'ziga kesak qalasang uvog'i turmaydi, muning ustiga qo'li cgri, yelkasi ivibroq terlamas!..

Naim tog'asidan iymanardi, lekin yomon ko'rmasdi, uning gaplarini jim turib eshitardi. «Seni yo'rgagingda uring ketgan, Naimboy, o'lqandayam biring ikki bo'lmaydi».

Naimga alam qiladi, birini ikki qilishni o'yaydi. Tog'asiga qasd qilib, o'zini unga ko'rsatib qo'ymoqchi bo'lib. Lekin hech ilojini topolmaydi.

Naimning chirangani Raim oqsoqolning zavqini keltiradi, yetib qolguncha kuladi: «Yasha, jiyan, yasha, Naimboy! Senga shuncha pul berdim, mol berdim, qani ular? Endi meni hisobga qo'shma, meni qo'y, mayli, ulusning ushoq molini boq, taksasini o'zim qo'yaman, qo'y boshiga bir so'mdan, echki boshiga — ellik tiyin, mingta qo'y boqsang, ming so'm pul topasan!..»

Keyin o'zi bosh bo'lib ulusning podachiligini Naimga olib beradi.

Bular Raim oqsoqolga bir ermak edi — u Naimning xashaki g'azabini ko'rib huzur qilardi. Axiyri, Naim chida-yolmadi, bir gal taqdiri tavakkal qilib ham ko'rdi, uyatni bo'yniga oldi-yu, o'zini xudoga topshirdi. Bahor mahali edi, ertalabki tuman ichidan bir gala bo'ri chiqib, suruvga oraladi, yarmini ayirib olib, bilganini qildi. Cho'ponning

o'zi yo'q, itlarining ham shashti sust, nomiga bir-ikki akillab, ortiga qaytib ketishdi. So'ng tuman tarqab, kun yoyilib ketgan mahali xabar yetdi-yu, Galatepaning mardumi qirma-qir, soyma-soy yurib, qo'yarning o'ligrini terdi. Bo'g'izlangan, quyrug'i shart yulingan, qorni yorilgan... hali jon saqlab turganlari.. hammayoq qon, qiron. Odamlar qo'llarida pichoq, hali o'lmay xirillab yotgan qo'yarning bo'g'ziga tig' tegizib, halollab qolishdi. Cho'ponning o'zini ko'rigan kishi bo'lmedi.

Bo'rilarни ham hech kim ko'rmadi. Ular allaqachon ketib ulgurgan edi. Rosa afsus qilishdi: «Bu nokas Naim vaqtida xabar bersa, balki alamiga ikki-uchtasini otib olarmidik!..»

Naim ikki kungacha ko'rinish bermadi. Uchinchi kuni choshgohda kelib avvaliga tog'asining uyiga qo'ndi: «Qo'rqedim, tog'a, shuncha kasofatdan keyin odamlar uradimi, deb qo'rqedim... Kelsam acheniq ustida o'ldirib qo'yishardi...»

Raim oqsoqol uni to'rga o'tqazdi, atay osh damlatdi, keyin, Naimning qorni to'ygach, sekin so'radi: «O'zingiz nechtafiga bo'rilik qildingiz, Naimboy?» Naim tog'asiga zorlanib qaradi: «Bor-yo'g'i ellikta, tog'a». «Payshanbaning bozoriga obordingizmi?» «Payshanbaga, tog'a, Jomning bozori yaqin, keyin u yerda o'zimizning jalloblar oldi-sotdi qiladi». Raim oqsoqol kului: «O'sha gap — gap, jiyan, sening peshonang terlamaydi, jiyan, meni aytdi, deysan, balki, hozir kissang to'la puldir, lekin biring ikki bo'lmedi, seni yo'rgagingda urib ketgan...»

Galatepaning odami hamma gapni sezdi. Bir xili, endi Naim boyib ketadi, deb o'yladi. Ammo Raim oqsoqolning aytgani keldi — o'g'irlangan qo'yarning puli Naimga yuqmadidi. Xayriyatki, bo'ri bahona, undan birov tovon so'ramadi. Kambag'al odam, qo'li egri-ku, biroq bola-chaqasi ko'p — rahm qilishdi. Qolaversa, bu yoqda Raim oqsoqolning ko'zi tirik, og'rinadimi, degan xayolga bordilar.

Bu turfa hangomalarning sanog'i yo'q. Go'yox Raim oqsoqol umr bo'yisi Naimning ustidan kulib o'tganday. Qizig'i shuki, keyin u o'lari soatida birgina Naimni huzuriga chaqirtirdi.

Kecha Zokir aytdi: Naim amaki g'addirroq-ku, lekin otamdan hayiqardi, doim undan uyalib iloji bo'lsa chetlab-roq o'tardi, keyin otamning o'zi chaqirib oldi, endi, aka, ochig'ini ayiganda, otam bilan ikkovi birov-biroviga ham-madan ko'ra yaqin-da, otam rahmatli, mundan boshqa kimim bor, deb o'ylaganmi?

Raim oqsoqol yolg'iz jiyanidan kechirim so'rab chaqirgan edi — buni G'aybarov endi tushundi.

U hushini yig'ib Anzirat kampirga qaradi: ezilgan, nochor-gina tol savat ustida bir burda bo'lib o'tiribdi — rahming keladi!

— Otangni o'laridan oldin g'arg'ara tortdi, deb aytibdi...

— Kim aytibdi? — deb talmovsiradi G'aybarov. — Shu gaplarni qo'ying, ena. Naim amaki munday demaydi.

— Naimning dardini olsin, Naim tillo-ku, tillo!.. — dedi Anzirat kampir. — Ammasi aytibdi! Aza tugamay turib, bu meqajin gap soladi!..

Nihoyat, G'aybarov angladiki, Amma, marhumning gunohi ko'p edi, shu sabab, qiynalib jon berdi, demoqchi bo'lgan.

Axir u ammasi edi-ku? Balki, bu gapni Anzirat kampirning o'zi to'qigan chiqar?

G'aybarovning onasi Ammani yaxshi ko'rardi. Necha bor uni Raim oqsoqolga maqtab, dakki ham eshitgan. Go'yoki qari qiz haqida gapirganday bo'lardi. Onaning hikoyalari dagi Amma — Amma emas, uning peshonasini kesgan taram-taram ajinlar ham yo'q, osilib tushgan halqumi ham yo'q, go'yoki Amma baxti munis bir juvon-ku, undan hamdardlikni ayashning o'zi gunoh.

Ammaning kichkina qizil qutisi bo'lardi. Toshpo'latning tishi og'tib qolganida onasi qo'lidan yetaklab, Ammaning uyiga olib borardi. Amma juda kuyunchak edi, bolaning shishgan lunjini ko'tib, o'zini qo'ygani joy topolmasdi: «Voy, boyoqish, sen sho'tlikning bolaginasи, sening shugina boshingga shunchalar azobmi? Senga kelgan dard menga ursa nima qilardi?!»

Keyin Amma yig'lab oladi.

Keyin, ko'z yoshlari qurib, mijjadan artilgach, poygakda yotgan supurgidan cho'p sindirib, uchiga paxta o'raydi, paxta ustidan atir tegizadi-yu, cho'pni og'rigan tishning kavagiga tiqadi.

...og'zing to'la so'lak, atirning achchiq ta'mi. Miyadagi og'riq so'lakka qo'shilib, mis dastsho'ga oqib tushadi, lunjing karaxtlanadi.

Uning onasi o'zi atir saqlamasdi. Sababini G'aybarov keyinroq bir gal uylariga qaytib, soqolini qirtishlab, yuziga atir surkaganida tushundi.

Raim oqsoqol to'rda, qo'shqavat ko'rpacha ustida kitob ko'tib o'tirardi. O'g'li soqoliga soyun surkashi bilan kitobini yopdi, ustaraning yurishiga qarab o'tirdi. Chamasi, o'zini o'yladi, qarshisida soqol qirtishlayotgan odamni o'zi bino qilganini o'yladi.. Bir zamon bola edi, mana, bugun kelib, soqolini qirtishlayapti, endi, nasib etsa, buyam o'zidan zur-riyot qoldiradi..

Raim oqsoqol suyindi. Go'yoki dunyoda mangu yashaydigandek!..

Keyin, o'g'li purkagichdan yuziga pish-pish atir sepgan mahali, otaning afti burishdi: «Ammangga o'xshaysan, bolam!..»

Amma juda ko'hna edi. Amma endi atir surkamaydi.

G'aybarov rahmdilroq bo'lishga urinardi: balki Amma, uning qari ammasi, qutidagi atirni faqat bolaga atab, uning og'riq tishlariga atab saqlagandir?

G'aybarov atirning mohiyatini kechikibroq anglatdi. Atir — Ammaning yoshligi edi. Endi atir ham, Ammaning yoshligi ham, uzoqda, eski zamonlarda qolib ketgan. Atir ko'p quyilgan, misoli daryoday bo'lib, lekin Amma... Ammam bari bir qariyvergan. Faqat odatni tark etmog'i qiyin. Amma Raim oqsoqoldan qo'rardi. Shu sabab, atirni faqat kechalari separdi, tanidan anvoysi hidlar usurib, xo'rlik bilan, ko'z yoshlariiga belanib yetardi!

Eh, bevalo dunyo!

Og'riq tish kavagiga paxta tiqilgach. Amma qutini qayta ochardi, unga atir shishasini bekitib, bittagina qizil naqsh olma olib, bolaga uzatardi.

Bu tartib hech qachon o'zgarmagan. Amma avval og'igan tishni muolaja qiladi, keyin albatta olma uzatadi, olmadan ham atir hidi keladi. Toshpo'lat atir hidi urg'an olmalarni yaxshi ko'rardi. Bu mehr shunchalar zo'r ediki, Ammaning atir hidi keladigan olmalari oldida boshqa olmalarning, olmalar tugul, butkul dunyoning ham fusi qochardi.

Shunday zo'r ediki, u so'loqmonday o'smir bo'lib, chirigan tishlari yo'qolib, o'mnida yangilari o'sib chiqqanida ham Ammaning qutisidagi qizil olmalarni o'tylaganda, lunjini changallab, onasini aldashga majbur bo'lardi: «Tishim, ena, tishim!..»

Va shu paytda tishidan boshqa hamma a'zolari qaqshab og'rirdi!

Ko'z oldida Ammaning kichkina qutisi: ichida olmalar, bitta, o'nta, mingta — juda ko'p! Hech qachon tugamaydi! Quti emas, naq qaynar xumcha!..

Bechora ona ahmoq o'g'lini yetaklab, tag'in yo'lga tushardi.

Ular kelgach, Ammaning kulbasidagi qutining og'zi ochiladi... paxta, atir... og'izdan oqqan so'lak...

Atirning achchiq ta'mi oralagan qizil olmalarning shira-dor eti...

Va Ammaning sokin, sal makrlı ovozi: «Voy, boyoqish, voy, sen sho'rlikning bolasi, sening shugina boshingga shun-chalar sitammi?!»

... yaxshi edi, bari bir yaxshi edi!

G'aybarov entikdi, titrab ketdi. Qarshisida yana Anzirat kampirni — Ammaning shirin olmalarini yemagan, tishi ham og'rimagan Anzirat kampirni ko'rdi. Anzirat kampir darg'azab edi. Unga Ammaning muolajasi ham, atiri ham, qutidan chiqarib hadya etadigan olmalari ham — hech narsasi kerak emas! Uningcha, Amma — g'ar, tamom-vassalom! Anzirat kampir istaydiki, yo'q, istash ham gapmi, imonini kafil qo'yadiki, Raím oqsoqol hech g'arg'ara tortmagan, oson jon bergen. Amma bekorlarni aytibdi. Raím oqsoqolning gunohi ko'p emasdi. Uning biringa gunohi bor — Anziratni qo'ygani. Lekin unisini Anzirat allaqachon kechir-gan, tepada xudo turibdi — gunohini kechirgan.

— Siz parvo qilmang, ena, — dedi G'aybarov. — Otam-ning boshida Amma o'tirmagan, Naim jiyani bor ekan. Zokiringiz do'xtir odam, o'zi aytidi, otam bir uxlaganicha qaytib uyg'onmabdi...

Anzirat kampirning ko'zlarini katta-katta ochildi. U G'aybarovning ovozi sokinligidan hayratga nishdi. G'aybarov o'zini aybli sezdi: marhumning o'g'li bunday gapirmasligi kerak edi.

— Vasiyatda meni tilga olmabdimi, bofam?.. — deb so'radi Anzirat kampir. — Vasiyat qoldirgan emish...

G'aybarovning jahli chiqdi. Vasiyat bortigini hamma bila-di, faqat u bilmaydi, u hatto ko'rgani ham yo'q.

— Bilmadim, ena, — dedi u o'zini bosib. — Otam bizga nimaniyam vasiyat qilardi, mol-dunyosi bo'lmasa... Borini baham ko'ramiz-da...

— Men senga mol dedimmi, bolam?.. — dedi Anzirat kampir og'rinib. — Bor molini borida o'zları bo'lib olgan, kimningki qornini to'ydirgan bo'lsa, bugun kelib, ortidan sasiydi.. Ayt, bolam, ne qasdi borki, ammang muncha sasiydi?...

...sasiydi?

Kampirni shu bir so'zi uchun gumrohlikda ayblamoqchi bo'ldi. Lekin kampir gumroh emasdi, bor-yo'g'i sodda, aytgan so'ziga o'xshash sodda. G'aybarov o'yladiki, aslida hech narsa o'zgarmabdi, o'zligicha qolibdi. Unga ulug' ko'ringan qayg'u boshqalarning, hatto bir zamonlar otasiga xotinlik qilgan ayolning ko'nglida ham uzoq yasholmaydi. Anchayin echo'zilmog'i chtimol. Birov sal erta, birov sal kechroq, lekin har kim tag'in o'z holiga qaytadi. O'yladiki, Anzirat kampir hozir o'z holiga qaytdi. Ehtimol, u o'zini bir zum ham yo'qotmagan, bevalik tufayli chekkan hasratini daqiqay sayin eslاب turgandir? Ammaga tutgan keki ham faqat o'zi vajhidan bo'lsa-chi? Axir u Raim oqsoqolning xotini edi! Kek ham, boshqasi ham uning o'zi tufayli, hozir Anzirat kampir dunyoda eng osiy sanagan odamning (yaxshi odam uni qo'yib, boshqaga uylanarmidi?) gunohsiz bo'lganini o'ziga — yaña tag'in o'ziga isbot qilmoqchi.

G'aybarov xomush tortdi. Biz kichkina odamlarmiz, deb o'yladi, bizning qayg'umiz misoli qizamiqqa o'xshaydi — salga yuqadi, salgina og'ritadi, sal o'tib qo'yib yuboradi...

— Ena, — dedi u tuyqusdan, — otam bilan keyin hech gaplashganmisiz?

Anzirat kampir savoldan ajablanmadı, hatto G'aybarovga andak rag'bat bilan qaradi. Umri bo'yi unga hech kim bu xil savol bermagan edi, bu esa, mana, so'rayapti... Kampirning mehri iydi. Savolning muhimligini, nainki muhimligi, muqaddasligini tuydi.

Mo'min ayol edi Anzirat kampir!

— Gaphaelganimiz yo'q, — dedi sekin. — Ko'rishardik, lekin gaphaelganimiz yo'q. Salom bergani tilim aylanmasdi, bolam...

G'aybarovning kampirga rahmi keldi. Bu bechora biror qirq yil, rosa qirq yil sabr qilgan, deb o'yadi. U o'zi nimani kutgan? O'limnimi? Qani edi bizni ham shunday kutishsa! Yo'q, bizga faqat daqiqalar nasib qilgan, xolos. Bizni soyasalqin bog'larda, ko'chalardagi soat osig'liq ustunlar ostida, serg'alva bekatlarda kutishadi, xolos...

Galatepada Anzirat haqida gap ketgiday bo'lsa, uning onasi Oyshani muqarrar tilga olishadi. Anzirat Raim oqsoqoldan taloq olgani uchungina unga xaridor chiqmagan, deb aytish ayni gumrohlik. Raim oqsoqolni o'ylashgani rost, lekin o'ziga ishonganroq odamlar chiqib, sovchi qo'ysa ham hech gap emasdi. Hamma gap Anziratning o'zida. Unga ishonishmagan, qayta er qilmaydi, deb o'ylashgan. Ular butun zot-zurriyoti bilan shunday — otasi o'lganida omasi Oysha, ming yillik udumni oyoq osti qilib to qabristongacha borgan. Janoza o'qigan mulla qo'y, qizim, deb aytgan, sen bu niyatingni qo'y, hali yosh boshing bor, mundayin savdoni bo'yningga olma, og'irlilik qiladi.

Halgacha alhazar aralash eslashadi: o'shanda Oysha marhum erining etigini kiydi, to'nini kiydi, erkak tus bo'ldi, so'ng qo'liga qaychi olib, taqimiga urg'an sochlarini qirqib tashladi-yu, erining jasadi solingan tobutning chetiga yelka tutdi. Tobut — talash, tobukashlar har o'n qadamida almashadi, lekin Oysha o'zi tutgan chekkani birovg'a bermadi, toshloq yo'llarda qoqlilib-surinib, erining raso to'niga o'rashib, uning o'ligini qabrga eltdi.

Uni botinmasa kerak, nari borsa, mozor oldidan qaytar, deb o'ylashdi, lekin Oysha qaytishni o'ylamadi, qabristonga ayol boshi bilan kirib bordi va shu ondan boshlab erkak hisobiga o'tdi — endi qaytib er qilolmaydi.

Hamma unga yo'l bo'shatdi.

Go'r boshida qur'on tushirar mahali Oysha eng oldinda, eshon-u mullalarning yonida, yuzini ochib o'tirdi.

Keyin Oysha o'la-o'l gunicha erkak hisobida yurdi. Erkakning ishini qildi: o'tin yordi, mol boqdi, yer chopdi. Unga birov ayol deb qaragani jur'at qilolmadi.

Anziratni o'sha qo'rs, shafqatsiz xotin — Oysha tuqqan. Anzirat ham Raim oqsoqoldan yigirma beshida ajralib, boshqa er tutmagan.

Kim bilsin, balki chekkan azoblaridan onasi Oyshaga o'xshab lazzat tuyganmi?..

## 5. UCH KUN AVVAL

Choshgoh mahali. G'aybarov bozorga kirib, dalada qolgan sheriqlari uchun qora kishmish xarid qildi. Bozorda uzum deganning turi ko'pedi: husayni, shivilg'oni, muskat, doroyi... Lekin u qora kishmishni tanladi. Tatib yoki sav-dolashib o'tirmadi. Xira yiltirayotgan qora uzum donalari qishloqni, ishkom qilinmasdan, shundoqqina pushtalar ustida yoyilib yotadigan uzumzorlarni eslatdi. Bolatikda ukalari bilan qora kishmishdan bosh-bosh uzib, muzdek quduq suviga tashlab qo'yishardi, keyin og'ziga tushgan danaksiz uzum donalari fish tegishi bilan karsillab yoriladi...

Unga qora kishmish solingan savat ortida turgan uzumfuruuning o'zi ham ma'qul tushdi: egnida oq joma, qo'lida oq doka, dam-badam tosh-u tarozisini artadi, xaridor tatib ko'rsin deb, atay, bir parcha mato ustiga katta bosh toza yuvilgan uzum qo'ygan. Xullas, u G'aybarovga o'ta shinavanda odam ko'rindi. Uzumidan ikki kilosini taroziga qo'yib, G'aybarovning qo'lidagi yelim xaltaga boshma-bosh avaylab soldi, so'ng tarozi pallasiga yopishgan ho'l bargni puflab, doka bilan yaxshilab artdi.

— Tozalikka nima yetsin, uka, — dedi muloyim jilmayib.  
— Ha, endi... — deya G'aybarov ham iljaydi. — Kilosi  
bir yarimdan, jami uch so'm, endi qaytimini bersangiz, aka...  
— Qanaqa qaytimni? — dabdurustdan ajablandi uzum-  
furush. — Siz hali pulini bermadingiz.

— Yo'g'-e, — dedi G'aybarov xijolat chekib. Qizarib-  
bo'zarib, cho'ntaklarini kavlay boshladi. — Besh so'm uzat-  
ganday bo'lvdim-ku?

— Hali pulingizni olmadim, uka, — dedi uzumfurush.  
Rasta yoniga kelgan bir-ikki xaridor ularning gapiga  
qiziqsinganday bo'ldi. G'aybarov o'ng'aysizlandi, cho'nta-  
gida bor pulini chiqardi.

— Besh so'm bergen ekanman, — dedi u. — Mana, bitta  
o'ntalik bilan bitta uchtalik qolibdi.., Jami o'n sakkiz so'm  
pulim bor edi. Yo'g'-e, aka, shungayam odam yanglishadimi,  
axir, narxini so'raboq pulini berdim-ku?..

Uzumfurush ham cho'ntagidan pulini oldi. O'ntaliklar,  
beshtaliklar, uchtalig-u bir so'mlik mayda, eski-yu yangi —  
uning puli ko'p edi.

— Balki... manavidir?.. — G'aybarov alohida taxlangan  
besh so'mlikka ishora qildi. — Yangiroqday edi..,

— Yo'q, — dedi uzumfurush qat'iy. — Menga pul berma-  
dingiz. Hamyonni tuzukroq kavlang.

— Dalaga chiqib ketyapman, hamyon nima qiladi, —  
dedi G'aybarov kuyunib, lekin cho'ntaklarini yana bir bor  
tintib chiqdi. — Besh so'mlik yo'q. Yodiningizdan ko'tarilgan  
chiqar, aka, bir o'ylab ko'ring..,

— E, qiziq ekansiz-ku, yo'q pulning yodini qilamanmi!.. —  
dedi uzumfurush tajanglashib. — Gapni kalta qiling, uka,  
pulini to'lang!

— Men pulingizni berdim...

— O'y, xudodan qo'rq, oshna!.. — deya uzumfurush sensirashga o'tdi. — Tuhmatning toshi og'ir-a?

G'aybarov birdan jahllandi, qo'lidagi uzumni xaltachadan savatga ag'dardi.

— Uzumingiz o'zingizga buyursin!

— Pulini bersang olarding, ukam, — dedi uzumfurush pisanda qilib. — Menga sendaqalarning puli kerakmas, sadaqasiz ham kunim o'tadi.

— Mayli, mayli, shu besh so'm bilan boy bo'ling. — G'aybarov alam bilan qo'l siltadi, so'ng oyog'i ostidagi eski chelakni ko'targancha nari ketdi.

— Tekintomoqni qarang! — dedi uzumfurush hamma eshitadigan qilib. — Chuchvarani xom sanabsan, uzumni-ku, mayli, bepul beray, lekin yana qaytim so'ranganingga o'laymi!..

G'aybarov yigirma qadamcha uzoqlashib qolgan edi, ammo ortidan qilingan zamzamaga toqat qilolmadi, uzumfurushning yoniga qaytib keldi. Uch-to'rtta tomoshatalab odam ham uning ortidan ergashdi.

— Keisam bo'lmas ekan, — dedi u. — Eran-qaran bozorga tushib, sizning quruq jamolingizga besh so'm qoldiraymi? Ketsam ketardim, besh so'm sadqai sar, lekin o'ylasam, keyin yomon alam qilarkan!..

— Haliyam ketaver! — dedi uzumfurush.

— Ketolmayman, — dedi G'aybarov. — Agar men indamay ketaversam, siz unda haq bo'lib chiqasiz.

— Izzating bitdi, bola!.. — Uzumfurush shunday dedi-yu savat yoniga batartib terilgan qadoq toshlardan zalvarlirog'ini qo'lga oldi. — Yaxshilikeha ket! G'irt tovlamachi ekansan!

— Shuni o'ylabroq aystsangiz bo'lardi, — deb alam bilan bosh ehayqadi u.

— Jo'na-e, boshimni qotirma! — dedi uzumfurush. So'ng qo'lidagi toshni qo'yib, cho'ntagidan g'ijimlanib ketgan bir

so'mlikni chiqardi-yu G'aybarovning yuziga otdi. — Ma, shuni olgin-u tuyog'ingni shiqillat!..

G'aybarovning miyasiga so'yil tushganday bo'ldi, harchand urinmasin, o'zini tutolmadı, uzumfurushning yoqasidan g'ippa bo'g'ib, silkita boshladi. Atrofdagi odamlar hay-haylagan bo'lishdi, lekin hech kim ajratmadı. Qaydandir jikkakkina bir serjant paydo bo'ldi-yu. G'aybarovning qo'lini orqaga qayririb oldi. Ustalik bilan qayirdi. G'aybarov og'riqdan o'ng taraflga mayishib ketdi.

— Qo'yvor!.. — dedi u ingranib.

Serjant qo'ymadı, battar buradi. G'aybarov og'riqdan battar mayishib ketdi.

— Qo'lini sindirasan, nomard! — deb qichqirdi kimdir o'ktam ovoz bilan. — Ko'rdik, botir ekansan!..

Serjant ovoz kelgan taraflga o'qrayib qaradi, biroq qichqirgan odam yemishlar atrofidagi barvasta chol ekanini ko'rib, zo'rma-zo'raki ijaydi, G'aybarovning qo'lini bo'shatdi, lekin butkul qo'yib yubormadi, yengidan tutib turdi.

— Uzum olib pulini bermadi, — deb shikoyat qildi uzumfurush cholga yuzlanib. — Yana ikki so'm qaytim so'rayapti.

— Uzumingiz boshingizda qolsin, — dedi G'aybarov, lekin xotinqarg'ish qilayotganini payqab uyaldi, jiddiyroq gapirdi: — Pulimni qaytarib bersangiz bo'ldi, — so'ng yengidan tutib turgan serjantga o'girildi. — Mendan biror yorug'lik chiqmaydi, bekorga ovora bo'lyapsiz.

Serjant bir olaydi-yu qo'lini tortdi.

— Surligini qarang! — dedi uzumfurush. — O'rtoq serjantniyam haqorat qilyapti!..

— O'zingdan gapir, — dedi chol ensasi qotibroq. — Sen melisa bolam, borib ishingni qil, bu sen aralashguday nozik masalaga o'xshamaydi.

Serjant cholning gapini qaytarolmadi, nari ketdi.

— Xo'sh, gapir,— dedi chol uzumfurushga.

— Bu odam menga tuhmat qilyapti, ota, — dedi uzumfurush, — umrimda bunday malomat eshitganim yo'q edi.

Rasta yonida yigirmatacha odam yig'ilgan edi. Uzumfurushning nolishidan so'ng shovqin kuchaydi. Chol qo'lini ko'tarib, andak tartib o'rnatdi.

— Tek turinglar, avval nima gapligini bilaylik, — dedi u, Xo'sh, uzum o'zingnikimi yoki olisbtargami?

— O'zimni, — dedi uzumfurush, — O'zim qalamchasin suqib, o'zim pushtasini olganman, ota.

— Tuzuk, — dedi chol soqolini silab, — Lekin dehqon odam bunday baqirib gapirmaydi-ku?

— E, bunaqada farishtayam so'kinib yuboradi, — dedi uzumfurush fig'oni chiqib.

Chol G'aybarovga o'girildi:

— Xo'sh, sen kimsan?

— Yurgan bir odam, — dedi G'aybarov hushi kelmayroq.— Xaridorman.

— Qizishma, otingni ata, — dedi chol. — Bo'lmasa, kim-ligingni qaydan bilaman?..

— Otim Toshpo'lat, — dedi G'aybarov. — Dalada ishlayot-ganlarga ozroq uzum olay deb kiruvdim. Bitta o'maligim, bitta beshtaligim, keyin bitta uchtalik pulim bor edi, lekin endi beshtalik yo'q...

— Besh so'mni berdim, deysan-da?

— Kavlamagan kissam qolmadı, bermasam qayga ketardi.

— Pul berganda odamning ko'ziga qarash kerak, — dedi chol. — Sen qaramabsan-da?

— Besh so'm odamning xuni emas, — dedi G'aybarov yuragi bezillab. — Odamga alam qilarkan, axir buning qo'limdan pulni olgani rost-ku?

Chol G'aybarovning ustidagi to'zibroq qolgan arzon baho kastumga, poshnalari yeyilgan latta etigiga razm soldi. Uning qo'lidagi o'tmas pichoqlar va turli cho'tkalar bilan to'la eski chelak ham cholning nazaridan chetda qolmadidi.

— Besh so'mga iching achimasa-ya, — dedi u kulib. — Maoshing necha pul o'zi?

— Uch yuz elliq, — dedi G'aybarov, ovozida andak maqtanchoqlik sezildi, battar o'sal bo'ldi. — Soliq-polig'iym shuning ichida, — deya g'udranib qo'shib qo'ydi u.

Atrosgagilar ishonmadi.

— Bu degani tappa-tuzuk professorning oyligi-ku, — dedi kimdir baralla kulib.

— Balki, uch so'm elliq tiyin olarsiz, uka? — deb so'radi boshqa birovi.

— Endi, mukofotniyam qo'shsa, uch yuz elliq bo'ladi... — deya piching qildi uchinchi kishi.

Chol kulmadi. Barvasta, go'shidor yuzi jiddiy, lablari qattiq qimtilgan, uning na ishongani va na ishonmaganini bilib bo'lar edi.

— Bularning savdosidan kimning xabari bor? — deb so'radi u rasta ortida tizilgan bozorchilardan.

— Qo'lida besh so'mi borday edi, — dedi o'ng qo'lidagi olmafurus. — Lekin buning berganini, uning olganini ko'r-madim. Yolg'onchi bo'lmay, beshak guvohlik berolmayman. Balki boshqa odamning qo'lida ko'rgandirman... Bozor o'z oti bilan bozor-da, ota, bozorda mol bilan puldan bo'lak nimaniyam ko'rardingiz?..

— Besh so'mlik endi yo'q, — dedi G'aybarov.

— Bor narsa yo'qolmaydi, — dedi uzumfurus. — Senda beshtalik umuman bo'limgan.

Chol ularning bahsiga bir muddat indamay qulog tutdi, so'ng daf'atan uzumfurusha amr qildi:

- Qani, gapni chuvaltirmay uzumingdan tort!...
- Men bu odamdan uzum olmayman, — dedi G'aybarov. — Besh so'mni bersin, boshqa birovdan olaman.
- Yo'q, shundan olasan, — dedi chol cho'rt kesib. — Ha, sen nega qarab turibsan, tortmaysanmi!..

Uzumfurush tixirlik qilolmadi, ikki kilo uzum tortdi. Chol G'aybaroning qo'lidan xaltachani olib, uzumni joyladi.

- Endi ikki so'm qaytimini ber, — dedi. — Yo'q, yaxshisi, sen bunga yana bir yarim kilo uzum ber. Qani bo'll!

Uzumfurush norozi g'udranib, yana bir kilo tortdi. Chol buni ham joylab, xaltachani egasiga uzatdi.

- Mana, molingni ol. Endi rozimisan?
- Yo'q, — dedi G'aybarov va xaltachadagi uzumdan og'irroq bir boshini olib, uzumfurushning savatiga tashladi.
- Chinoq ekansan-ku, — deb kului chol. — Mo'ljalni xato olding, qaytarib tashlagan uzuming ko'p, yigirma besh tiyin bera qolsang tuzuk edi.

G'aybarov indamadi.

- Men qilgan ajrim shu bo'ldi, musulmonlar, — dedi chol. — Ikkovingdan biroving aybdorsan, yo seni dehqonliging yolg'on, yo sening pul bergenning... Bu yog'ini qiyomatda yaratganning o'zi hal qiladi... Sening oting nimaydi, dehqon?

— Abror, — dedi uzumfurush.

- Gap shu, Abror, agar aldamagan bo'lsang, shu to'rt bosh uzum boshingdan sadaqa, iloyim, davlatiningga davlat qo'shilsin, — dedi chol, keyin G'aybarovga yuzlandi. — Sen ham baraka top, moling halol bo'lsa, bemalol yeysan, uzumda ayb yo'q, mayli, osh bo'lsin!. Moling harom bo'lsa, bari bir yeyolmaysan, tomoningdan o'tmaydi, teshib chiqadi! Omin, haloliga buyursin!..

Chol yuziga fotiha tortdi-da, rastanining narigi boshiga qarab yurdi. Yo'l-yo'lakay, bashang kiyingan suluv bir juvonnini to'xtatdi:

— Olmang tushdi, qizim.

Juvon to'xtab, to'rxaltadan balchiqqa tushgan olmaga qaradi, ikkilandi.

— Loy bo'lsa, artib ol, qizim, — dedi chol. — O'zimizning loydan chiqqanimizga ko'p bo'lgani yo'q, irganma, qizim.

G'aybarovning birdan yuragi orziqdi. Otasini esladidi. Go'yo u qaytadan bolaga aylandi-yu otaning yelkasiga mindi, sariq boshmoqchali oyoqlarini tipirlatdi, boshmoqlardan otaning to'niga loy yuqdi, ota boshmoqlarni to'niga battar ishqadi, kuldil: mayli, bolam, otasi boshqa loy-da!..

Yana juvonga qaradi.

Juvon qizargan ko'yи yerga egildi, balchiqqa belanib yotgan naqsh olmani oldi-yu nozik barmoqlari bilan artdi, avaylab artdi, hamisoli zarini ko'chirib qo'yishdan qo'rqqanday... Qaytib to'rxaltaga solmadi, qo'lida tutgancha rastadan uzoqlashdi.

Juvon G'aybarovga yoddi. U juvonning ko'p qavatlari binoning sanoqsiz zinalaridan horib tepaga chiqishini, to'rxaltani eshik ostiga qo'yib, kalit axtarishini, qulfsni ochishini tasavvur qildi. Uyda hech kim yo'q, u nimyorug' xonaga kiradi-yu, qo'lidagi naqsh olmani stolga qo'yadi, stol ustini silliq va yaltiroq, olma unda aksini topadi.

O'ziga kelib, qarshisida yana uzumfurushni ko'rdi. Bezovtalandi.

— Aldaganim yo'q — dedi zorlanganday bo'lib, — Esin-gizdan chiqqandir, kechqurun pulni bir sanab ko'ring, aka...

Uzumfurush u bilan gaplashishni istamay, yuzini teskari burdi. G'aybarov bir zum tang bo'lib turgach, bir qo'lida uzum solingan yelim xaltacha, unisida eski chelak, boshini

xam qilib, rastadan uzoqlashdi. Qo'ldagi yukni tashlab yugur-gisi, qochgisi keldi. Go'yo butun bozor ahli uning ortidan qarab turganday, go'yo hamma uni barmog'i bilan nuqib ko'rsatayotganday edi...

Bozordan chiqib, yukini qo'ydi, cho'ntaklarini tag'in tintidi, astarlarigacha ag'darib ko'rdi — besh so'mlik topilmadi. G'aybarov sal yengil tortdi, qaddi tiklandi.

Katta yo'l chetidagi qabristonni oralab, qazish ishlari borayotgan keng dalaga chiqib oldi. Siyrak qamishzor ortida arxeologlar tikan chodirning uchi ko'rindi. Qamishlar tugab, yaydoq yer boshlandi. G'aybarov katta-yu kichik sanoqsiz chuqurlarda birorta ham odam yo'qligini ko'rib ajablandi. Chodirning og'zi yopiq, uzoqroqdag'i ikki bahaybat soyabonning tagi ham bo'm-bo'sh. Endi orqaga qaytmoqchi bo'lib turganida chapdag'i yassi tepalik tarafdan g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovoz eshitilganday bo'ldi. O'sha tomona qarab yurdi. Borib, tepalikning narigi etagida qazilgan kattakon chorburchak chuqurda ikki kishi ishlayotganini ko'rdi. Aniqrog'i, bir kishi — yigirma uch yoshlardagi antropolog qiz Zamira ishlardi. Uning qo'lida eritma to'la shpris, chuqur chetidagi xira suratlar bitilgan qadimiy devor tuprog'iga qotirg'ich suyuqlik shimdirmoqda edi. Ikkinchisi kishi, ko'ziga qora ko'zoynak tutgan yigit, chuqurning uzoq burjida, asbob-uskuna solingan quti ustida omonatgina o'tirardi. G'aybarov biqinibroq borib chuqurga sakradi. Zamira cho'chib o'rnidan turdi, qo'lidagi shpris yerga tushib ketdi.

— O'takamni yordingiz!.. — dedi u norozilik bilan.— Nima balo, yilingiz mushukmi, muncha sezdirmay yurasiz?

— Keling, Toshpo'lat aka... — Qora ko'zoynakli yigit o'tirgan joyida qimirlab qo'ydi. — Zamira ketolmadi, unga dardisar bo'lib o'tiribman.

— Parvo qilmang, Qobil, — dedi Zamira. — Mensiz ham eplashadi, kimdir bu yerda qolishi kerak edi.

G'aybarov chelak bilan xaltachani yerga qo'ydi-da, borib Qobil bilan ko'rishdi.

— Afsus, — dedi kulib, — Sizlarni naq jinoyat ustida qo'lga tushirmoqchi edim...

— Hay attang, — dedi Zamira shaddodlik bilan. — Sal kechikdingiz, Toshpo'lat aka.

G'aybarov uzum solingan xaltachani olib, og'zini turmakkadi, so'ng peshonasiga shap etkizib urdi:

— Uzum olib, non esdan chiqibdi!..

— Non bor, — dedi Zamira, — Qobil opkeluvdi.

U keraksiz sopol sinqlari to'ldirilgan chelakni ko'tarib, chuqur chetiga taqab qo'yilgan taxtadan yuqoriga chiqib ketdi.

— Meni ertalab Samad aka opkeb tashlovdidi, — dedi Qobil xijolat chekkanday. — Sizni ko'rgim keldi.

— O'zingni oqlayapsan shekilli, Qobil? — deya ajablandi G'aybarov. — Qo'yaver, oshna, Zamira mening qaylig'im bo'lsayam bir gap edi.

— Yo'q, — dedi Qobil battar kalovlanib, — Men boshqa gapni aytmoqchi edim...

Zamira oq ro'molga o'ralgan ikkita shirmoy non kelтиrdi. Sindirib, G'aybarov bilan Qobilga ulashdi. Yerda yotgan sumkachasidan ikkita oq olma ham chiqardi.

— Olmani qo'ying, — dedi G'aybarov, so'ng ularga xaltachadan uzum olib berdi. — Non uzum bilan yaxshi ketadi.

G'aybarov uzumdan bir donasini og'ziga tashladi. Sal so'liganroq ekan, u kutgandek tishlar orasida karsillab yorilindi, lekin shirali edi, danagi ham yo'q...

Zamira qo'lidagi uzumni yeb bo'lib, lablarini artdi. O'rnidan turdi. G'aybarov uzumni ham unutib, qizning sambitday tik va nozik qaddiga bir zum mahliyo bo'lib qoldi.

— Zo'r! — deb xitob qildi u. — Bundan ortig'i bo'l-maydi, Zamira. Mevani pishig'idan juda o'tkazib yuborish ham yaxshimas.

— Sizdan boshqa nimayam gap chiqardi, — dedi Zamira o'pkalanib.

— To'g'risini aytyapman-da.

— Bo'ldi, Toshpo'lat aka, bas qilaqoling, — deb achchiqlangan bo'ldi Zamira, lekin jahli chiqmadi, lablariga qo'n-gan kulgini yashirmoq istab yuzini burdi.

— Chiroyli ayollarni ko'rganda miyamga g'alati fikrlar quyilib kelaveradi, — dedi G'aybarov battar avj qilib. — Biram dadil, biram hur fikrlarki, yuragim tars yorilay deydi!..

— Bunaqa hur fikr uchun sizni toshbo'ron qilish kerak, — dedi Zamira jilmaygancha.

— Muncha zolimlik! Kim u, mendan rostgo'yroq bo'l, deb talab qiladigan?..

— Rostgo'ylik ham evi bilan-da..

— Nima, sal oshirib yubordimmi? — deb talmovsiradi G'aybarov.

— Rost gap odobga zid kelmasligi kerak.

— Alvido, hur fikr, asov g'alayon!.. — deb xitob etdi G'aybarov qo'llarini namoyishkorona yozib. — Rost gapni doim ta'qib qilishgan. Uni deb odamlarni o'ldirishgan, yoqishgan, tiriklayin terisini shilib olishgan!.. Qur'on, Tavrot, Injil, Talmud va sanoqsiz va'dalar! Shariat va inkvizitsiya, ming xil ta'riq!.. Hur fikrga omonlik bormi o'zi?

Zamira ortiq kulmay qo'ydi.

— Bas endi, — dedi ozorlanib. — Nega o'zingizni mayna qilasiz? Axir, siz aslida bunaqa emassiz-ku?

— Yo'q, xuddi shunaqaman, — dedi G'aybarov qovog'ini solib. — Odamzod aqldan ozgan-netgan bo'lmasa, o'zining

toshini o'zi biladi. Qo'litiqqa suv purkab nima qilasiz, men shu bilan yaxshi bo'lib qolarmidim!..

U Jim qoldi. Zamira afsuslanganday, boshini sarakladi, lablarini qattiq tishlagancha chuqurdan chiqib ketdi.

— Uzumdan beraymi, Qobil? — deb so'radi G'aybarov.

Bir chekkada mung'ayibroq o'tirgan qora ko'zoynakli yigit otini eshitib andak jonlanganday bo'ldi.

— Rahmat, men to'ydim, — dedi u. — Shirin uzum ekan. Bir marta Yo'Idosh Parkentdan bir savat shunaqa uzum opkeluvdi, qora kishmish..

— Buyam o'sha tarafdan chog'i, — dedi G'aybarov erinibroq. — Shu Yo'Idosh sabab, doim parkentliklardan uzum olaman. Yodingda bo'lsa, u utylanganda tun bo'yli bazm qildik, keyin erta tongda yo'lga chiqdik, hali qorong'i edi, har qadamda odam, biqinida uzum solingan savat, mashina kutib o'tirardi..

— Tog' rayoni-da, — dedi Qobil. — Ularning rizqi ro'zi ishkomga ilingan. O'shanda Shoир bizni taksida opkelgan.

— Kitobi chiqqan edi, puli ko'p edi, — deb esladi G'aybarov. — Unda hammamiz yosh edik.

— Haliyam yoshmiz, — dedi Qobil ruhsizgina.

— Uzumi o'sha tarafidan, lekin sotgan odami Yo'Idoshga sira o'xshamaydi, — dedi G'aybarov. — Meni yomon uyaltirdi, xayriyatki, bitta chol bor ekan...

— Qanaqa chol? — deya tushunmay so'radi Qobil,

— Yaxshi chol, — dedi G'aybarov.

U Qobilga bozordagi mojaroni aytmoqchi bo'lib og'iz juftladi, lekin fikridan qaytdi, yana kayfiyati buzilishidan qo'rqi. Uzum solingan xaltachani chetroqqa, soya joyga eltilib, qo'liga cho'tka oldi-yu, Zamira qoldirib ketgan eski idishni tuproqdan tozalashga tutindi.

— Toshpo'lat aka, u qanaqa hur fikr edi, Zamira xafa bo'ldi? — deb so'radi Qobil bir muddat o'tgach.

- Xafa bo'ldi, deb o'ylaysanmi?
- Men sezdim, hazilga oldi-ku. Ikin ko'ngli og'ridi.— dedi Qobil.
- E, qanaqa fikr bo'lardi, — dedi G'aybarov.— Bo'y-bastiga qarab o'zing bilgan o'yini o'yladim. Gapga kashta chekishning nima keragi bor? Zamira yaxshi qiz, insofli, bekorga tirk'ilmaydi. Menga shunday odmi qizlar yoqadi.
- Qobil qansharidan ko'zoynakni oldi. Uning qoboqlari oppoq, ko'zlari yashilga moyil, juda chuqur, juda tiniq va butunlay jonsiz edi.
- U chiroylidir, Toshpo'lat aka? — deya sekingina so'radi u.
- Nima desam ekan... — dedi G'aybarov chaynalib.— Gapning rosti, men undan chiroyliroq ayollarni ham uehratganman. Haqiqat — husnda emas.
- Rashkingiz keldi, — deb kului Qobil. — Zamira chiroyli. Ovozidan ham bilinadi. Siz shu qizga uylansangiz bo'lardi. Toshpo'lat aka.
- Mana sen uylangansan, uylanib biror hikmat topdingmi? — G'aybarov gapni hazilga burmoqchi bo'ldi.— Bu yog'i bola-chaqa, tashvish.
- Tashvishsiz bo'larkanmi, Toshpo'lat aka. Mazluma yaxshi ayol, usiz biror kun ham yasholmasdim.
- Charchaganing yo'qmi, biz hali ko'p ishlaymiz?
- Yo'g'e, men ketmon chopmasam, quruq gap sotib o'tiribman-da.
- Mayli, ozgina dam ol, uyquni yaxshi ko'rasan-ku...
- G'aybarov uni chuqurdan yetaklab chiqdi, nariroqdag'i chodirga boshlab kirib, yig'ma karavotlardan biriga avaylab o'Iqazdi.
- Men boray, hademay kun qizib ketadi. Harne, nonimni oqlashim kerak...

— Ozroq o'tiring, Toshpo'lat aka. — dedi Qobil uning qo'lini qo'yib yubormay. — Uxtagim kelmayapti. Og'irim tushyapti, kechirasiz, lekin ozgina o'tiring...

— Qiz bolaga o'xshama, Qobil, — deb jerkidi G'aybarov, biroq ketmadi. Qobilning yoniga cho'kib, yelkasidan sekin quchdi. — Hay, mayli, ish bo'lsa qochmas, ikkov avval bir xirgoyi qilaylik...

— Menga achinasiz-a? — deb so'radi Qobil.

— Yo'q, oshna, — deb yolg'onladi G'aybarov. — Kel izhori dil qilib o'tirmaylik. Biz avvalgiday oshnamiz, Qobil, ortiq ham, kam ham emas. Bugun o'zi shunday... kayfiyat yo'qroq. Kayfiyatni o'g'irlashdi. Bozordagi chol muvaqqat ajrim qildi, haqiqatni mahsharga qoldirdi. Yaxshi chol, Qobil, unaqalar o'tib ketayotgani yomon, do'stim, kim biladi, sen-u men ularning o'rnini bosamizmi, yo'qmi...

— Qanaqa chol edi o'zi, boyadan beri shuni gapirasiz.

— Yaxshi chol, — deb takrorladi G'aybarov. — Shum chol, ko'ngli nozik, odamlarni biladi. E, qo'y, qo'shig'ingni ayt, oshna! Anavi... «Tanavor»ingni ayt!..

Qobil uning so'zini tashlamadi, boshini quyi eggancha, bir-ikki tomoq qirib, «Tanavor»ning o'rtarog'idan, o'ziga eng ma'qil baytdan boshladи:

Oq ilon, oppoq ilon,  
Oydinda yotgoning qani?  
Men yomondin ayrılib,  
Yaxshini topgoning qani?..

Qobilning ovozi G'aybarovning ko'nglida g'alati o'ylar uyg'oldi. Go'yo bu ovozning ortida yana ovozlar borday tuyilardi. Go'yo bu ovoz qo'shiqning o'zi kabi qadimiyl. Yo'q, sal o'zgacharoq, shunday bir ovoz bo'lganki, u dastlab to'lib-

toshib bo'zlagan odamning bo'g'zidan chiqib, lafzma-lafz kczgan va bu kun Qobilning ko'ngli qatlariga cho'kkanday. Bu ovoz va bu ohang shunchalar qadimiyki, manavi sarg'ayib yotgan dala, qirlar, qadamlar uzilib, yo'llar qirqilib, cho'kkan soqov sukunat zalvariga chidolmay yer bag'tiga kirgan ko'hna shahriston, unda mangulik da'vosi bilan asr sayin bodrab chiqib, so'ng yana barbos bo'lgan ne-ne saltanatlar, bozorlar-u karvonsaroylarning ming bir lahjasi, ne-ne go'zal ayollar-u saodatmand erlarning bezavol orzularidan jonsiz bir osor, bir parcha ulgi bo'lib saqlangan ko'hna devor izlari uning oldida hech narsa emas.

Devordagi suratlar ham bekor. Ularni qotirib chizish mumkin, lekin jon ato etish qiyin. Ularda qadim odamlarning naflasi yetishmaydi.

Ayni damda jismini titratgan zoriqish G'aybarovga har qanday moddiylikdan a'lороq tuyildi. O'yladiki, ohang ruh tufayli tirik, ruh tufayli tiniqqan, beva ko'z yoshiday pok, asrdan asrga, bo'g'izdan bo'g'izga o'tib yuribdi. Qo'shig'imiz hali tirik, deb o'yladi u, o'ylagani barobar ko'ngli yuksalganini tuydi. Qo'shig'imiz tirik, undagi arg'umoqlar dupuri, dashtlardagi metin qo'rg'onlarimiz, ular ustida sar-sari kezgan gezarik oyimiz, aj-dodlarning ko'chmanchi va hur yo'sini ham tirik.

Va sekin pichirladi: yana ming yillar o'lmasin, o'lganda ham odil avlodlar tilida ming bora zindalar bo'lsin!

Birdan yuragi to'liqdi, chodir ichida ortiq o'tirolmadi. Tashqari chiqib, dash havosidan to'yib nafas oldi.

Qobil chodir ichida qo'shig'ini aylaverdi. Unga hozir birovning keragi ham yo'q edi.

G'aybarov chuqurga qarab yurdi. Zamira u yerga qaytgan, qo'lida pichoq, bir parcha yerni kichik kataklarga bo'lib, yuzasini ohista qirqib olmoqda edi.

Shahar yo'lida mashina ko'rindi. Hayal o'tmay, bo'yog'i o'chinqiragan qizil «Moskvich» chang-to'zonni ergashtir-

gancha yetib keldi-yu chodirdan sal beriroqda to'xtadi. Undan ko'zları yirik, qirq'iyburun, qaddi-basti kelishgan yigit tushdi.

— Assalomu alaykum, G'aybarov! — dedi u guldiragan ovoz bilan. — Qayoqlarda yuribsan, og'ayni? Tinchmisan o'zi?

— Tinchlik, — dedi G'aybarov unga qo'l uzatib. — Men bekor o'tiribman, Zamira ishlayapti. Qobil shu yerda... Yurib-miz, Samad og'ayni.

— Zerikmayapsanmi, ishqilib? — dedi Samad ovozini pasaytirib, so'ng Zamira ishlayotgan tarafga imo qildi. — Balosan, G'aybarov!..

— Unehalikmas, — dedi G'aybarov. — Eshidim, ertalab kelgan ekansan. O'zingda bir gap bor, serqatnov bo'lib qolding.

— Qo'ysang-chi, — deb qo'l siltadi Samad. — Bola-chaqali odamman-at!.. Ertalab Qobilni opkeluvdim, Dalaga juda o'r-ganib qolibdi, sen bu yerdan ketsang nima qilarkin?.. Uni olib ketmoqchi edim, Kechqurun vaqtim bo'lmas ekan. Bolalarni qishloqqa tashlab kelganman, borib opkelish kerak.

— Men qolaman, Samad aka! Siz aytin, Toshpo'lat aka, men o'zim ham ketaveraman!

G'aybarov ovoz kelgan tomonga qaradi. Qobil chodir eshididan chiqib, ichimlik suv solingen sisternaning g'ildiragiga suyanib turardi.

— Mayli, qolaversin, — dedi G'aybarov Samadga qarab. O'zim eltib qo'yarman.

— Xotini tayinlab yubordi, — dedi Samad. — Ha, yana bir omonat gap. Haykal G'aniyevich seni ertaga ertalab bir kirib o'tsin, dedi.

— Nima ishi bor ekan?

— Bunisini aytmadni. Majlismi, leksiyami...

— Men komandirovkadagi odamman, leksiyaga balo bormi! — dedi G'aybarov.

— Ayting, insof qilishsin, Samad aka, — dedi Zamira chuqurdan chiqib kelib. — Butun boshli ekspeditsiyadan uch-to'rt kishi qoldi. Bittasi shaharda, unisi yosh bolali. Boshqalar rayonga chiqib ketishdi. U yoqda kanal qazi-sharkan, arxeologlar suv o'tadigan pastqamdag'i qabristonni ko'chirib berishadi.

— Kolxozechilar bilan irrigatorlarning o'zichi? — dedi Samad.

— Qishloq ahli irim qilishadi. Irrigatorlarga reja kerak, rejalar bo'lmaganda ham, umumiy tartibni bilishmaydi, qabristonni buldozer qo'yib surishlari ham mumkin.

— Unchalik bo'lmasa kerak, — dedi Samad ishonin-qiramay. — Sizlar qanday ko'chirasizlar? Izzat-ikrom bilan-ni?..

— Ha, — dedi Zamira. — Biz marhumlarni izzat bilan ko'chiramiz...

— Bo'pti, biz ketdik, — dedi Samad to'satdan shoshib.

— Men qolaman, Samad aka, — dedi Qobil. — Bir amallab yetib olarmiz.

— Mayli, men ko'nay, lekin kelinga va'da beruvdim, unga nima deyman? — Samad tang qolib yer tepindi. Ko'zi oyoqlari ostida turgan topildiq idishga tushib, uni qo'liga oldi.

— Bugun qilgan ishlaring shumi? — dedi G'aybarovga qarab.

— Boriga baraka-da, — Zamira kelib, uning qo'lidan idishni oldi. — Ehtiyyot bo'ling, nozikroq matoh...

— Ko'rib turibman, — dedi Samad qizning muomalasi-dan ranjib. Keyin kinoya qildi. — Bu yerda qorovul-porovul yo'qmi? Bular ketsa, yolg'iz qolasiz-ku? O'g'irlab ketishmasin!..

— O'g'irlashmaydi, — dedi Zamira pichoq to'la chelakk'a ishora qilib.

— Bularingiz o'tmas...

- Siz kelguncha charxlab olaman!..
- Bir gapdan qoling, Zamira, — dedi G'aybarov bosiqlik bilan. — Yaxshisi, shaharga borib, anavi ximiklarga aytинг, uchinchi chuqurdagi suratlarni ko'chirib olishsin, oftobda jizg'inak bo'lib yetibdi.
- Sizga nima, og'iri tushyapti, — dedi Zamira G'aybarovning gap ohangidan norozi bo'lib. — Ular ham nonni ko'zi bilan yemaydi, o'zlari tushunishar. Shusiz ham og ko'ylag-u mo'tabar islomni mahtal qilib qo'ydingiz...
- Ketaymi? — deya zarda qildi G'aybarov.
- Ixtiyorингиз, — dedi Zamira. — Sizni men chaqir-ganim yo'q.
- U qovoq uyib, sal nariga borib turdi. Go'yo G'aybarovning ketishini kutayotganday, qat'iyatli, jiddiy.
- G'aybarov uni yo'qotib qo'yishi mumkinligini sezdi, shosha-pista salgina yaldoqlanib, orani hazil bilan yumshatishga urindi:
- Bekor qilyapsiz, Zamira. G'aybarovlar har qadamda ekib qo'yilgani yo'q.
- G'aybarovsiz ham bir kunimiz o'tar!..
- Ayollarning gapiga «xo'p» desang degin-u, lekin aslo ishonma, G'aybarov. — dedi kulimsirab Samad.
- Safsatabozlar! — dedi Zamira jahl bilan, lekin bari bir, ko'pga dosh berolmadi, iljaydi, og'zini kafti bilan to'sdi.— E, boringlar-e, sizlar bilan barobar bo'lib o'tiramanmi!..
- Balli! — dedi G'aybarov. — Ayol kishi o'z haddini bilgani tuzuk. Nima deding, Samad?
- Haddingdan oshaverma, Toshpo'lat. — dedi Samad ovozini pasaytirib. — Ayol kishi bir yomon ko'rmasin, u yog'i chatoq, umrbodlik deyaver...
- Zamira Qobilni jo'nashga ko'ndirdi chog'i, mashinaga olib borib o'tqazdi o'zi yana chuqurga qaytdi.

- Yolg'iz qolyapsan, Toshpo'lat, qizdan ehtiyyot bo'l,— dedi Samad.
  - Yarashadigan gapni gapirsang-chi!
  - Hazil, hazil... — Samad yoni bilan surilib kelib, G'aybarovning yelkasiga turtdi. — Xafa bo'lma-yu, lekin sal g'ala-tiroqsan. Sen-u menga manavi chuqurlarning hech keragi yo'q, o'zimizning nonimiz ham yetib ortadi. Bu qiz to'g'ri aytadi, ularga daxling kamroq. Nimani axtarayotganiningni bilmasang qiyin.
  - Bilsam, axtarib yurmasdim, — dedi G'aybarov. — Lekin nimanidir topsam ham ajabmas.
  - Topibsan chog'i? — dedi Samad Zamira tarasga ishora qilib. — Umuman, diding chakkimas, G'aybarov!
  - Sen o'qigan maktabda hech odob o'rgatishmagan,— dedi G'aybarov.
  - Endi kech, Toshpo'lat, — deb kului Samad. — Xo'p, yaxshi qol. Uyga bor, kecha Saida so'rayotuvdi.
  - Borarman, keyinroq...
- Samad mashinaga o'trib, motorni o't oldirdi. G'aybarov orqa o'rindiqda qimir etmay o'tirgan Qobilga qaradi-yu, g'alati bo'lib ketdi. Uni olib qolsak ham bo'lardi, deb o'yaldi, ovunardi, bizga og'iri tushgani yo'q edi... Yo'q, bu mehr emas, shunchaki Qobilga ichimiz achiydi, uning ketgani ham tuzuk, zo'rma-zo'raki shafqat ko'rsatganda o'zing ham ayanchli bo'lib qolasan... Shunday, do'stim, G'aybarov, dedi ichida, eslاب ko'rsang, bir paytlar soz edi, o'yamasding, o'z holingcha g'imirlab yurarding — ko'chalarda, kafelarda, kutubxonalarda... Unda Zamira ham yo'q edi, Qobil ham soppa-sog', uning sho'xligi-yu, ko'rkamligiga hammaning hasadi kelar edi. Qizlar uning bir qarashiga intiq, buni tush ko'rib chiqishar edi. U ehtiyyot bo'lib qarardi, sinardi, tanlamoqchi bo'lardi, lekin endi — tanlab bo'lganida bu ahvol,

xayriyatki, tanlaganda yanglishmagan ekan: Mazluma tashlab ketmadni, o'tiribdi, do'xtirlarga qaratyapti, endi uzoq shaharlarga eltib ko'rsatmoqchi, har holda, dunyoda umid degan narsa bor, kutish-u intizorlik bor, insol ham yitib yo'qolmagan, shularni o'tylasang, yig'laging keladi, lekin sen yig'-laganda, yig'lab o'tirganingni sezadigan biror jon bormi. — G'aybarov?

Ko'z oldida boyta bozorda ko'rgani — horigan suluv juvon siymosi gavdalandi. U zinalardan sudralib chiqadi-yu, nim-qorong'i xonadagi stolga bir dona naqsh olmani qo'yadi...

— Uchinchi kvadratga o'tamiz, Toshpo'lat aka! — Zamiraning ovozi xayolini bo'ldi.

Ikkovlon toptalgan o't-o'lanylarni bosib, ko'hna shahriston chetiga qarab yurishdi. Uchinchi kvadrat deganlari qadi-miy qabriston bo'lib, Zamira bilan Xosiyat ismli yana bir paleoantropolog qiz asosan shu yerda ish olib borishardi.

— Xosiyat kecha so'rab qoldi, — dedi Zamira. — «Nega faylasuf olim biz «go'rkov»lar bilan yuribdi?» deydi.

— Ilmiy komandirovka ekanini bilmasmikan?

— Biladi... Lekin tushunolmaydi, to'g'risi, men o'zim ham tushunmayman.

— Haykal G'aniyevichning xohishi bilan keldim, — dedi G'aybarov. — U menga yordam bermoqchi, men doktor bo'lsam, uning ham obro'si oshadi... ochig'i bu ish mening o'zimga ham yoqib qolyapti, mana, siz borsiz...

— Muhabbat izhor qilmoqchimisiz? — deb so'radi Zamira qovog'ini solib.

— Yo'q, — dedi G'aybarov. — Kap-katta odam, endi uyalaman...

— Bekor qilasiz, — dedi Zamira.

G'aybarov uning nima demoqchiligini tushunmadidi. Bu orada ko'hna qabristonga — chor burchagiga qoziq qoqilib, kanop ip bilan to'sib qo'yilgan maydonga chiqib olishdi. Zamira

chetroqdag'i ochilgan go'rlar ustiga tashlangan brezent matoni ko'tardi. Qo'lidagi xaltachasidan kichkina fotoapparat chiqarib, yerda yotgan chanoq suyaklari va chirigan ustixonlarni suratga ola boshladi. G'aybarov uni jimgina kuzatib turdi — qiz jiddiy edi, go'yo boyagi qochiriqni u emas, boshqa birov aytganday.

— Chanoq suyaklarini olib ketamiz, — dedi Zamira apparatni xaltachaga solib. — Qolganlari chirigan, tiklab bo'lmaydi.

G'aybarov o'ziga yaqinroq joyda yotgan bosh suyagini olib qaradi.

— Buyam chirib bitibdi-ku?

— Qolganlari tuzukroq, — deya taskin berdi Zamira. — Tiklab olamiz, siz menga yordam berasiz.

Qiz kalla suyagini qog'oz xaltaga solib, bir chekkaga qo'ydi. Qolgan chanoqlarning har birini alohida qog'ozga o'rabi, ustidan qalam bilan qaysi go'rdan olinganini belgiladi, so'ng hammasini kattakon kanop xaltaga joyladi.

— Ko'taring, Toshpo'lat aka, — dedi. — Institutga eltamiz Manavi nochorrog'ini men qo'lda opketaman.

— Meni sinamoqchi bo'lyapsiz-da.

— Nega? — deya ajablandi qiz. — Norday yigit qolib, qiz bola xalta orqalab yurishi yaxshimi?

G'aybarov norozi g'udrangan ko'yi xaltani yelkasiga oldi. Etim jimirlashsa kerak, deb kutgan edi, hech seskanmadni, shunchaki yuk, juda yengil, lekin sal qattiqroq, ustixonlar etga botadi.

...Qabristonni oralab o'tgan so'qmoq yo'ldan qaytishdi. Qabriston obod edi. Hamma go'rlarning ustida marmar toshlar, yozuvlar, yo'l chetlarida o'rindiqlar, besar o'sadigan ajrig'-u alaflardan asar ham yo'q, har tarafda qulf urgan atirgullar, serparvarish, serbarg... Qabrlar tepasidagi jez hilol-larga zarhal berilgan.

— Ozgina dam olaylik, — dedi Zamira. — Bu yer salqin ekan.

G'aybarov xaltani yerga qo'yib, chefga, eskiroq qabr yoniga o'tirdi.

— Hadcmay, butunlay dam olgani shu yerga kelamiz, — deb gap boshladi u jim turmaslik uchun. — Opkelib, izzatikrom bilan ko'mishadi, keyin...

— Qo'ying, Toshpo'lajt aka, — dedi Zamira jiddiy. — Bu gaplarni boshqa qizlarga aytsangiz bo'lardi. Kasbimiz qursin, na men, na Xosiyat bunaqa gaplardan qo'rqlaydigan bo'lib qolibmiz. Xafa bo'lmaysiz endi...

U G'aybarovning og'ziga urganday bo'ldi. Yigit unga xushlamayroq qaradi. Yo'q, shunchaki bir qiz, ko'rimli, nozik, lekin hamma qatori, faqat buning hayratlanmasligi yomon, boshqa ayol bo'lganida vahimaga tushardi, nozlanardi, bu esa, og'zingdan kalom chiqsa bas, o'tirgan joyingga mixlab qo'yadi. O'ziga juda ishonsa kerak. Lekin unday desak, o'ziga ishongan ayolning dimog'-sirog'i qani?..

G'aybarov do'stlari davrasida ba'zan «nutq» irod etishni xush ko'rardi. Bunday nutqlarning birinchisi ham qabristonda aytilgan. Bu yerda emas — Samarqandda, Afrosiyobning giltuproqli qirlaridan sal berida, Xo'jai Xizr machiti ortidagi qabristonda. Ikki kishi edilar — G'aybarov va Shoир. Shoир unda tuzukroq tanilmagan, tanilishni istab, yaxshi she'rlar yozib yurar edi. Afrosiyobdan qaytaturib, qabristonda, kichkina bir gujum tagida dam olgani to'xtashdi. Shoир balog'i bir gaz shimining tizzasini tepaga tortib o'tirarkan, sekin so'zlandi:

— Mozorlarimiz juda xarob-da, G'aybarov aka. Bizda go'ristonni hech obod qilishmaydi.

Shoir u paytlar sal anoyiroq edi, o'zbekning go'ri xarobligi haqidagi gaplar bitor qirq yil avval Abdulla Qahhorning og'zidan chiqib, oldinroq Toshkentda rasm

bo'lgani, Samarqandga esa endigina kirib kelayotganini bilmasdi.

— Siz o'lganda cho'ntakka biror ming so'm solib keting, Shoир, — dedi G'aybarov. — Balki, narigi dunyoda obodonchilik ishlariiga sarf qilarsiz.

Shoир hamrohining gapini hazil fahimlab, zavqlandi. Zavqi zo'r edi, zo'r bo'lgandirki, u yana bir hafta o'tib, G'aybarovning ko'z o'ngida, undan eshitgan o'sha gapini Toshkentdan kelgan Samad bilan Abduvali soqolga takrorladi: «Har biring ming so'mdan, jami ikki mingni cho'ntakka solib ketinglar, u dunyoda xarj qilasizlar». Keyin u birovning gapini o'zgarishsiz takrorlagandan uyaldi chog'i, o'zidan ham ozgina qo'shib qo'ydi: «Mayli, men o'zim ikkita hamyon sovg'a qilaman». Hamyonlar haqidagi gapdan so'ng ko'ngli ochildi, o'zining ham zukkoligini sezdi, G'aybarovga mensimaganday nazar tashladi...

Bu xil gaplar negadir shavqli edi. Ular negadir Galatepani, mozorga eltadigan yo'lning ikki tarafida do'ppaygan eski do'ngliklarni eslatardi.

Endi o'ylab qarasa, zerikish o'shandayoq boshlangan ekan. Xuddi birov aytganiday.

Zamira bu gaplarni bilmaydi, lekin negadir bilishini istaysan. Hayot qiziq: begonalar qadrondolarga aylandimi, bas, bilginki, sen ham kimadir begonasan, lekin begonalarga emas, eski qadrondolaringga, Shoирга, Samarga, boshqalarga...

Bu yog'i nima bo'ladi? Mana, hozir Zamira bilan qabristonda dam olib o'tiribsani. Eski bir manzaraning takrori — Afrosiyob, Xo'jai Xizr, o'zga bir qabriston va soddadil Shoир. Aytيلayotgan gaplar ham o'sha-o'sha.

G'aybarov bu yog'ini nima bo'lishini ham taxminan bilardi. Biror besh daqqa o'tib, ular qabristondan chiqishadi. G'aybarov odad bo'yicha, darvoza yonida o'tiradigan sang-

Iarosh cholga salom beradi, chol ham odatini kanda qilmaydi, ya'ni musulmoni odillarning xilxonasida qiz bolani ergashtirib yurgan kimsa salomiga alik olib, latzini bulg'agisi kelmaydi. So'ng ular katta yo'lga chiqib, yo'lovchi mashinallarga qo'l ko'tarishadi. Kirakash taksichi to'xtaydi. Zamira orqaga, G'aybarov kattakon xaltasi bilan oldinga, shoferning yoniga o'tiradi. Sal yurishgach. G'aybarov orqaga o'giriladi va sekin hazil qiladi: «Bulargayum haq to'laymizmi? Bechoralar ming yil oldin yashab o'tishgan, taksida yurish xayollariga ham kelmagan bo'lsa kerak?» Zamira iljayadi. U G'aybarovning bu bema'ni hazilni rosa yarimi soat oldin hozirlab, orqa-oldini tarashlab, tahrir qilib qo'yanini bilmaydi, sekin iljayadi. Shoferning quloqlari ding bo'ladi: «Yana kimga haq to'laysiz, oka?» Bechoraning qo'lli rulda, orqada o'tirgan Zamiraga tuzukroq qarashning iloji yo'q, G'aybarovga ko'z qirini tashlab, omadli ekan, zang'ar, shunday suluvni ilintiribdi, deb o'laydi. Yigitning oyoqlari orasida yotgan xaltaga e'tibor ham bermaydi. G'aybarov uning yelkasiga turtib, xaltaga ishora qiladi: «O'nta odamning kallasi, og'aynil!» Shoferning ko'zlari olayib ketadi, duduqlanadi: «Yyo'g'-g'e, ooka!..» Zamira uning qo'rkoqligidan kuladi: «Biz arxeologmiz, shofer aka, bu kishi hazillashyapti». Shofer ishonmaydi, endi ishonay deganida G'aybarovning navbatdagi gapidan battar hushi uchadi: «Eski zamonda ham odamlar tilla fish qo'yarkan, og'aynil!..»

Toshtarosh cholning g'azabi, taksichi yigitning qo'rquvi — bular barisi qiziq tuyiladi. Faqat bir narsa, hali cholni ham, taksichini ham ko'rmasdan burun, qabristonda nafas rostlab o'tirgan paytdayoq zavqli tuyilgani yomon. G'aybarovning zavqi doimo chala qoladi. Mabodo, u ko'p qavatlari binozinalaridan sudralib chiqsa-yu, xayolda bir epkin orzui omonat bo'lib yashayotgan o'sha horg'in va suluv ayolni topsa, murodi hosil bo'larmidi?..

Nega u suluv va horg'in? Nega, deylik, Zamiraga o'xshamaydi? Axir, Zamira yaqinroq-ku, shundoq yonida, qo'l uzatsa yetadi!..

Chamasi, ko'ngil qarib boryapti. Jo'nroq bo'lish payti kelganga o'xshaydi. Qarshingda o'tirgan qiz bir soat keyinги umrini bundan yarim soat oldinroq yashab ulgurishga odatlanmagan, aytadigan gaplarini ham avvaldan to'qimaydi, pardoż bermaydi, u har bir daqiqani yashaydi, xomxayol-u safsatalarga vaqtì ham yo'q, demak, sen shunchaki bekorchisan, senunga hasad qilasan, do'stim G'aybarov...

— Bu yorug\* dunyoda bir oshiq bor edi, Zamira, o'sha kelib mahbubasining darchasini chertdi,— G'aybarov qabr toshini chertib ko'rsatdi. — Ichkaridan so'roq so'rashdi: kimsan? Oshiq aytdi: ochaqol, bu menman. Mahbuba aytdi: ketaver, bu yerda ikki kishiga makon yo'q. Oshiq noiloj cho'li biyobonga chiqib ketdi. Biror yil o'tib, yana qaytib keldi, yana darchani chertdi, yana ichkaridan so'roq so'rashdi: sen kimsan? Oshiq aytdi: och, men sening o'zingman. Shunda darchani oshib, oshiqni ichkariga qo'ydilar.

— Shuncha uzoq o'ylab yuribdimi? — deb kului Zamira.

— Ha-da, ilgari odamlarning o'ylashga fursati ko'proq bo'lgan shekilli.

— Qiziq cho'pchak ekan, — dedi Zamira. — O'zingiz to'qidingizmi?

— Yo'q, — dedi G'aybarov. Jaloliddin Rumiyo to'qigan, lekin bechora oshiqning uzoq kutgani rost.

— Uning o'zi: «Ichkarida kim bor?» deb so'rasha bo'imasnidimi?

— Bo'lardi-yu, cho'chigan-da, — dedi G'aybarov ay-yorona ko'z qisib. — Ichkarida boshqa odam borligidan qo'rqqan.

— U yerda hech kim yo'q bo'lsa-chi? — deb kuldil Zamira. — Shuning uchun dashti biyobonga chiqib ketish shart ekanmi?

— Bilmasam, — deb yelka qisdi G'aybarov. — Rostdan ham ichkarida boshqa odam yo'qmi?

— Kim biladi. — dedi Zamira ko'zlarini olib qochib. — Balki u yerda hech kim, balki mahbubanining o'zi ham yo'qdir...

— Oshiqning holiga voy ekan!.. — dedi G'aybarov o'rni-dan turib, — Ketdik!

U qabriston darvozasi tomon yurdi.

— Qayoqqa? — deb qichqirdi Zamira uning ortidan. — Xaltani kim ko'taradi?

G'aybarov istar-istamay xaltani oldi. Qabristondan chiqar joyidagi toshtaroshlik ustaxonasi berk, ko'rgazmaga qo'yilgan tosh bitiklar ham ko'rinnmas edi.

## 6. SAMAD

Sakkiz yil burun, mart oyining boshlarida, dushanba kuni Samad do'sti G'aybarovga kalitini berib, uyiga jo'natdi: sen borib choy qo'yatur.

Ularning ikkisi ham san nomzodi, ikkisi ham bo'ydoq, shahar bir, davra bir, xullas, oradan qil o'tmas qalim oshna edilar.

G'aybarov uning uyiga bordi. Iekin qulsga kalit solib ulgurmasidan eshikni Samadning yoshgina mahbubasi ochdi. Mahbuba choy damladi, dasturxon yozdi, so'ng, G'aybarov u bilan tinchgina gallashib o'tirganida, Samadning o'zi, xir-goyi qilibmi, xushtak chalibmi («ko'ngil sokinligiga ishoral»), kirib keldi. Mahbubasi begona odam bilan apoq-chapoq gap-lashib o'tirganini ko'rib go'yo tildan qoldi, qizardi, bo'g'il-gandek tomog'ini ushladi, so'ng qandaydir shilimshiq so'zlarni gapira boshladи. Gaplari poyma-poy edi, biror ma'no anglat-

masdi — g'azablangan, aqlini yo'qotgan, rashkdan olov bo'lib yonyapti, so'zlarning ma'nosi va yaxlitligi haqida o'yashiga imkon yo'q.

G'aybarov avvaliga doydirab qoldi, hatto o'zini aybdor his qildi, so'ng ro'parasida ruhsiz o'tirgan ayolga qaradi, uning alami va iztirobini — hayratga o'rinn qolmagan edi — ko'rdi-yu, hamma gapga tushundi. Lekin u Samadga xalal berolmadni, o'rnidan sharitta turib uning basharasiga tushirish tugul, ko'zlariga tik boqishdan qo'rqi. Sal o'tib, ko'nglida ojiz bir shodlik uyg'ondi: parvo qilma, singlim, qaytaga senga soz bo'ldi, muhabbat-puhabbat deb yurma, yaralar tez bitib ketadi, ming marta shukr qil, Samad bilan bir umr qolmaganingga, to'kilmay qolgan yoshlaringga, sitilmagan jigaringga shukr qil, singlim, shukrona ko'ngilni to'ydiradi!..

Samad bo'g'ziga tiqilgan hamma so'zlarni aytib, hal-qumini bo'shatdi. Qiz o'rnidan turdi, kanop to'rvachasini qo'lga oldi, o'zi kelib supurib-sidirib yuradigan ozoda xonaga bir qur ko'z yogurtirdi, so'ng tek o'tirgan G'aybarovga qaradi, unga nimadir demoqchi bo'ldi, lekin fikridan qaytdi («barisi bir go'r!»), hech so'z demasdan chiqdi-ketdi.

Samad qizning ortidan chopmadi, yuzida xijolatga o'xshash bir nima ko'rindi-yu, yo'qoldi va u G'aybarovning ko'zlariga tik qarab, go'yo shu so'z bilan dunyo ustidan hukm chiqarganday qilib:

— Ablahman, — dedi.

G'aybarov uni tushunmoqchi bo'ldi. O'sha zahoti, Samad o'zini ablah atagan paytda, hali hayrati so'nmasdan turib, uni tushungisi keldi. Tushunib kechirmoqqa shaylandi...

Lekin Samad o'yalamoqqa fursat bermadi. Jon kuydirib o'zini oqlashga tutindi. Ablahman, do'stim, dedi, asli boshdan adashdim, boshdan o'zgacharoq yo'l tutish kerak edi, bu qizga jo'ngina qilib aytish kerak edi, joninga tegding,

menga ortiq keraging yo'q, o'qishingni o'qi, keyin qishlog'ingga qaytib ket. Lekin men bo'shanglik qildim, rahmim keldi, endi bo'lsa... mana shu ko'rib turganiningday... Og'ir, mengayam og'ir, men ham uyadaman, do'stim!

Samad uzoq vaysadi. G'aybarov uzoq jim o'tirdi. Keyin shartta o'rnidan turdi-yu, uydan chiqib ketdi. Qaytib oyog'imni bosmayman, deb qasam ichdi.

Ertasi kuni Samadning o'zi keldi, yerdan ko'z uzmay o'tindi: iltimos, jo'ra, sen borib gaplash, tun bo'yи mijja qoqmadim, mayli, meni nima desang de, lekin so'zimni tashlama.

G'aybarov bordi. Qiz to'qimachilik institutida o'qir ekan. G'aybarovni ko'rib ochiq yuz bilan so'rashdi, keyin, sizga qo'shmachilik yarashmaydi, Toshpo'lal aka, dedi. Samadning o'zi ham bordi-yu, noumid bo'lib qaytdi. Yana bordi, ertasiga, indiniga, rosa ikki yil yo'llini poyladi, lekin qizga og'ir botgan ekan, so'zidan qaytmadi, keyin Samad yana G'aybarova dil yordi: «Endi nima qilay, jo'ra?»

G'aybarov uning ahvolini ko'rib yurardi, ortiq ayblab o'tirmadi, maslahat berdi: «Endi boshqa birortasiga uylan, Samad».

Samad Ma'sumaga uylandi. G'aybarov ularning to'yiga bordi, keyin qiz ko'rishganda Samadga qo'shilib tug'ruqxonaga bordi. Ma'suma ichkaridan qizini ko'tarib chiqdi, mashinaga o'tirdi, shahardan chiqib uzoq dashilarni aylanib kelishdi. Samad xursand edi. G'aybarov ham xursand. Rish-talar qaytadan tiklangan, tarang...

Samad Ma'suma bilan totuv yashab ketdi. Xotini, uning qarindoshlari, hamkasabalar — hamma uni izlab tug'ruqxonaga bordi. Ma'suma ichkaridan qizini olib chiqdi. Ustozlari Haykal G'aniyevich ham Samadni yaxshi ko'radi. Butun boshli institutda birgina Samad Mansurov direktor bilan bemalol hazillashadi: «Ehtiyyot bo'ling, domla, men doktor bo'lsam, siz o'tirgan kursi talash bo'lib qolmasin!..» Direktor kuladi: «Sizdan

oladiganim shu-da, Samad Mansurovich! Lekin, bir hisobda, siz ham haqsiz, keksa avlod o'z izzatini bilgani ma'qil. Mayli, siz doktor bo'lavering, keyin amal talasharmiz...» U Samadning amal talashmasligini biladi, shu sababdan, ko'nglini keng ochib gapiradi. Ehtimol, sevimli shogirdi uchun biror kafedra ochishni mo'ljallab qo'ygan bo'lsa ham ajabmas.

G'aybarov direktor bilan bunday gaplasholmaydi, tili yomonroq, bo'lar-bo'lmasga chaqib oladi. U bu azim shaharda yolg'iz odam — Samadning to'rt yashar qizchasi Saida bilangina hadiksiz gaplashadi. Ular qalin do'st, bir-biriga yolg'on gapirmaydi. Onasi qizchani sal-pal qizg'anadi, lekin g'ashi kelganini oshkora bildirmaydi. Faqat ba'zida, qizcha Toshpo'lat amakisining naq yelkasiga minib olganida yoki tepaga, shift barobar irg'itishini talab qilganida, uni odobga chaqirgan bo'lib, sekin qulog'idan cho'zadi.

Ma'suma tushungan, oq-qoranini tanigan ayol, G'aybarovga o'chakishib qizchani tergashdan naf yo'qligini biladi. Shu bois, o'zi ham undan o'tkazibroq mehr ko'rgazadi. Lekin qizcha bilan Toshpo'lat amakisining do'stligi bari bir mustahkam. Ona bir kuni erkashlar oqibatini bilmoxchi bo'lib, qizchadan sekin so'rab ko'rdi: «Sen ham katta bo'lga ningda do'xtir bo'lasanmi, qizim?» Qizcha cho'chisa hamki, bolaligiga borib to'g'risini aytdi: «Yo'q, aya, men Toshpo'lat amaki bo'laman». Qizining gapi qiziq tuyilib, ona ko'ngliga kek tugolmadi, kuldii, bo'lgan gapni eriga aytdi, eri — G'aybarovga, G'aybarov esa, bu gapni eshitib, birdan g'amgin tortdi. Bir ko'ngli qizchani bag'rimga bosay, dedi, lekin iyemandi. Qizchaning aytishicha, Toshpo'lat amakining bo'yи juda baland, qo'llari naq xona shiftiga yetar ekan.

— Bu uylarni qurgan me'morlarga ham balli, — dedi Samad faylasufona so'lish olib. — Shiftining pastligi bolaning tasavvurini ham cheklay boshlabdi.

— Yo'q, ayb mening o'zimda, — deb kuldī G'aybarov. — Saida menga o'xhashni istar ekan. Menda bo'ydan boshqa tuzukroq fazilat bo'lmasa, qizingda ne ayb?

Samad, G'aybarovning qadrdon do'sti, birga o'qishgan, birga ishlashadi, turgan gapki, uning xulosasiga mutlaqo qo'shilmadi. Xotini ham, endi qizchasining begonaga bo'lgan mehriga ancha ko'nikib qolgan, G'aybarovning so'qqaboshligini o'yladimi, hartugul, ko'ngli tovlabroq gapirdi:

— Qo'ying, Toshpo'lat aka, bola deganingiz odamning yaxshi-yomonini biladi. Uyimizga sizdan boshqa ham qancha mehmon keladi, lekin Saida ularning birortasiga ham suy-kalmaydi-ku?..

Samad G'aybarov bilan xotiniga barobar ko'z qisib, gapni hazilga burmoqchi bo'ldi:

— Yo'q, Ma'suma, Saida emas, manavi kap-katta amaki ning o'zi suykaladi. Asli bular bir-biriga juda o'xshaydi, ikkovi ham xayolparast, ikkisi ham arazkash, bo'lmasa, biz ham bola bo'lganmiz, lekin men umrimda biror marta qo'shnimiz Sokina xola bo'lishni orzu qilmaganman. Mana sen, do'stim G'aybarov, hademay professor bo'lasan, unvonni olib, yana biror o'n besh yil kutib tursang, Sayda ham kap-katta qiz bo'lib qoladi..

G'aybarov do'stining qaltis hazilidan o'ng'aysizlandi. Uylanmasa bo'lmasligini sezdi. Yo'qsa, oshnalar naq quloqni teshib yuborishadi. Har holda, ro'zg'orning afzallikkari ham bor, kelganingda ovqating tayyor turadi, kiyiming doim yuvilgan, ovqat bilan toza ko'ylakka ozgina mehr ham qo'shilsa bormi!..

Gapning ochig'i, u Samad bilan Ma'sumaga havas qilar di. Ular boshda muhabbat neligini ham o'ylab ko'rishmagan. Shoirning qaynonasi Poshsha xola o'rtada turdi. Mahallasi-dagi dotsent Yoquboyning Ma'suma degan qizi bortigini kuyovining do'sti Samadga kelib aytdi:

— Yurish-turishi joyida, diplomi ham bor, tayinali joyda ishlaydi, topish-tutishi ham chakki emas, siz shunga uylaning, bolam, mening gapim — gap, avval bir ko'rsangiz ham mayliga, husni tarovaati ham tuzukkina, hech afsus qilmaysiz.

Samad, garchi xolaning gaplariga ishionmagan bo'lsa-da, sinchkovligi tutdi, sirk yonidagi maydonga chiqib, quda xola boshlab kelgan qizni ko'rди, ma'qul topdi, qiz ham suqsur-dek yigitni ko'rib, sal tob tashlaganday bo'ldi. Qisqagina, lekin puxta qilib gaplashib ham olishdi.

— Siz-u men bugunning odamlarimiz, Samad aka, — dedi Ma'suma. Bunday namoyishlar-u quda xola bilan yurishlar menga ham sira yoqmaydi, lekin Poshsha xolaning ko'nglini qoldirmay, dedim. Har holda, u kishining kuyovlari tuzuk yigit, elda nom qozongan, sizni u kishining do'sti bo'ladi, deb aytishdi, keyin Shoir akaning do'sti ham bama'ni odamdir, deb o'yladim, mayli, bir sinashib ko'raylik. Endi ochiq gapirganim uchun xafa bo'lmaysiz.

Samadga Ma'sumaning dangalchiligi ayniqsa yoqdi, uyalib-netib o'tirmay, o'zining maishatidan so'zladi, ya'ni kandidat ekanligi, doktorligi yaqin qolgani, tushayotgan moshni, ikki xonali kvartirasi...

— Sizni judayam pakana bo'lsa-ya, deb qo'rqqan edim, — deb hazillashdi u. — Xayriyatki, bo'y bastimiz barobar ekan.

Qiz uyalib, boshini quyi soldi, ibo bilan, o'zini ancha xoksor tutib so'zlandi:

— Siz mendan balandroq ekansiz, Samad aka.

— Endi, Ma'sumaxon, xudo bo'ydan bergen-ku, aqldan ham ayamagan bo'lsin, — deb kuldi Samad, so'ng yana jiddiyashdi: — Mayli, hazil ham o'z yo'liga, asosiy gapga o'taylik... Mening ham o'zimga yarasha yor-birodarim bor, ularning uyga kelib turishi bor, ularga qovoq qilmaysiz. Ma'sumaxon, qachon kelsa ham dasturxon ochasiz. Bir xillari

borki, juda surbet, masalan, islomshunos G'aybarov Toshpo'lat, qulog'igacha cho'pchakka to'la, o'lguday injiq, lekin mening eng yaqin do'stlarimdan.. O'rnatmoqchi yoki yo'liga solib olmoqchi, deb o'ylamang, azaldan udumimiz shu — dasturxonimiz ochiq bo'lgan.

Bir oy o'tib to'y bo'ldi. Mana endi tinch-totuv yashab yurishibdi. Farzandlari bor, Saida, to'rt yashar, juda shirin, hatto injiq G'aybarovning ham mehrini iydirgan qizcha. Bordi-keldilari ham o'zlariga yarasha. Tanishlari orasida ikki-uchta akademik, bitta deputat, ikkita rahbar (biri Ma'sumaning qarindoshi, unisi Samadning hamqishlog'i), uchta yozuvchi, bitta Shoir bor; oy sayin bo'Imasa ham, oy osha kelib turishadi, bularning o'zlarini ham tortinmay borishadi. Ilgarilari uncha o'rganib-o'rganmay, ko'proq til uchida aytiladigan shirin gaplarga uchib oshna bo'lishardi. Shundan sirib ham yedilar — kinochi Akmalning oilasi bilan oshnaliklari ko'ngilsiz xotima topdi. Akmalning o'zi bir navi-ku, lekin xotini Salomat juda g'addor chiqdi, bir gal tumonat ayol o'rtasida Ma'sumaning ko'ziga baqrayib turib, siz bilan eringiz bizning davraga munosib emassiz, deb aytdi. Ma'sumaga yomon alam qildi, uya qaytiib, eti ikkita rasvo film olgani bilan Salomat xudo bo'p ketdimi, ularni asli siz topgansiz, mening tanishlarim orasida bunaqa betamiz nonko'rlari yo'q, deb Samadning boshiga ta'nalar yog'dirdi.

Xayriyatki, payti kelib, Ma'sumaning qasosini Shoir oldi. Kinochi Akmalning xotini Salomat Shoirning shuhratiga tuzoq qo'yib, oila do'stleri safiga qo'shmoqchi bo'lganida rosa ta'zirini yedi. Shoirning andak kayfi bor ekanmi, jerkib tashladi: «Men bilan eringiz kelib gaplashsin, xotinlar bilan oshna bo'lmayman, Salomat xonim! Umuman, men yog'li luqmalardan bezorman, tomog'imdan o'tmay qoldi, shu paytgacha o'iganini qusolmasdan garang bo'lib yuribman».

O'sha kun Ma'suma uchun bayramga aylandi. Qasosli dunyo, deb o'yladi, Salomat bilan cri bizni mensumiagan edi, mana, Shoir aka ularni mensimadi, taklif etganiga pu-shaymon qildirdi. Shu gapdan keyin Ma'suma bu dunyoda haqiqat borligiga qaytadan ishona boshladи. Erining do'stlariga mehri ortdi.

Uning fikricha, G'aybarovning yagona aybi — so'qqaboshligi. Xotini bo'lganida, balki obro'si ziyodaroq bo'lardi. Ma'suma dugonalari bilan kelishib, kelinlikka bir-ikki nomzodlar ham topdi. Lekin G'aybarov uchrashuvga unamadi, ya'da berdi-yu, lekin aytilgan joyga (sirk yonidagi maydonga) bormadi.

U Samadning uyiga doimo bir o'zi keladi. Boshqa mehmonlar bo'limganda, shunda ham do'sti bilan maslahatni bahona qilib, aslida esa uning qizchasi Saida bilan gaplashib o'tirgani keladi. Ba'zida oylab qorasini ko'rsatmaydi. Bizdan zerikdi, deb kuladi Samad shunday paytlarda, sen-u men o'ta bosiq odamlarmiz, Ma'suma, G'aybarov esa hali tiyilmagan, kimlar bilandir olishib yuribdi, u o'zi shunaqa, birov bilan bahslashmasa, birovning ko'nglini og'ritmasa turolmaydi, sen uni katta olimlar qanchalik xushlamasligini bilsang edi... Bilimsiz, deb aytolmayman, bilimi bor, lekin tuzukroq biror ish qilmagani yomon, oxirgi kitobi chiqqanidan beri besh yil o'tibdi hamki, bu akam xotirjam, shunchaki laylak haydab yurad!..

Samadning G'aybarovga yon bosgani, unga xayrixohlik qilgani Ma'sumaga yoqadi. Eri insoqli, boshqa odam bo'lgnida eski do'stidan yuz o'girishi ham mumkin edi. Samad juda salobatli, G'aybarovning ham ko'rinishi tuzuk-ku, lekin bilmagan odam uni Samadning shoferi bo'lsa kerak, deb o'laydi. Bir kuni Buxorodan kelgan mehmon, G'aybarov Saidani o'ynatayotganini ko'rib, Samadga, shopiringiz ko'p bolaparvar pisar ekan, deb aytdi. Keyin, G'aybarov qaysidir ishni bahona qilib chiqib keiganida Samad rosa kuldil

— E, baraka topkur, Shaydullo aka, — deb aytди. — Bu yigit pisar emas, G'aybarov, katta domla!..

— Yo'g'-e! — deb xitob qildi Shaydullo aka.

Samad mehmonni ishontirish uchun javondan G'aybarovning kitobini olib ko'satdi.

— Te Re G'aybarov!.. «Shariat», — deb o'qidi Shaydullo aka. — E, bu bolaparvar mundoychikin domla ekan-ku, musulmonlikdan risola yozibdi-ya!.. Mulla bitishli ekan, qaysi machitda xizmat qiladi?..

— Machitda emas, institutda domla, — dedi Samad battar kulib. — Fan kandidati. Kandidat nimaligini bilarsiz, Shaydullo aka?..

— E, nodonlik qursin. — deb kuldil Shaydullo aka peshonasiga urib. — Axir, bizdi shahardn kandidotlarning mana mundoy chikin ishkambasi bo'lg'uvchi edi-ku!..

Mehmon gapirarkan, Samad kamzulining jez tugmalari ni o'ynab o'tiradi. Ullarning har biriga bittadan sariq chayon shakli zarb etilgan. Tugmalarni Samadning o'zi Tbilisidan olib kelgan, Ma'sumaning irimchiligidan kulib, qo'yaver, zora shuni ko'rib mendan cho'chishsa, deb aytgan. Umuman, Samad juda po'rim kiyinadi. Chayonli tugmalar, shaytonteri kamzul, bo'yinbog', ko'yak, bo'yin, yuz — hammasi ohorli va ajinsiz. Peshonasiga tushgan chiziqlar hisob emas, ular erkak odamga ko'rak Sochlari qalın, quloglari ustida andak jingala tortgan, lekin bo'yoq yoki qizdirilgan taroq tegmagan — o'ziniki, kumushrang va ko'rimli. Samadning qiyofasida dazmol izi sezilmaydi — Ma'sumaning sarishtali xotin ekaniga shuning o'zi isbot. U erining kelbati-yu gaplaridan zavqlanadi, ayniqsa, u o'ziga teng olimlar bilan suhbat qurib o'tirgan chog'larda, ko'rib ko'zi to'ymaydi. Mana hozir ham Samad G'aybarov bilan gaplasharkan, uning quloqqa singavermaydigan ba'zi almoysi-aljoyi gaplarini sira

bo'lmay eshitdi, so'ng, u ichida borini to'kib bo'lgach, sekkingina so'radi:

— Shumi?

— Qolgani keyin, — dedi G'aybarov qovog'ini solib.

Samad ko'zoynagini oldi, stol ustiga tashlab, iljaydi.

— Ahmoq emasliging tayin, Toshpo'lat, — dedi. — Lekin aqllisan, deb ayishim ham qiyin, aystsam ham bari bir ishonmagan bo'larding.

— To'g'ri, — deb bosh irg'adi G'aybarov. — Ishonmagan bo'lardim.

— O'zing bilasan, mening qarzga maqtaydigan odatim yo'q. Kel yaxshisi, jo'nroq gaplashaylik.

G'aybarov itoat ma'nosida bosh egdi. Buni ko'rib Ma'sumaning kulgisi qistadi. Odatta G'aybarov Saidaning buyrnqlarini bajarishdan oldin ham mana shunday bosh egib oladi. Ma'sumaning kulgisi G'aybarovning nazaridan cheida qolmadı, do'stining xotini paypoq to'qib o'tirgan burchakka hadiksirab qarab oldi. «U ayollardan qo'rquadi, — deb o'yldi Ma'suma, — bechora g'alati bo'lsayam yaxshi yigit, xotini boshiga chiqib olmasa go'rqa edi...»

— Kel, jo'nroq gaplashamiz, — deb takrorladi Samad. — G'idi-bidini chetga qo'yaylik, mard bo'lsang ayt, sen Haykal G'aniyevichga nechta maqola yozib bergansan?

Haykal G'aniyevich — ularning direktori, san doktori, professor. Ma'suma dastlab uning ismini shunchaki laqab bo'lsa kerak, deb o'ylagan edi, keyin bilsa, rostdan ham ism ekan. Ismligini bilib kuldi, lekin suhbatda hozir bo'lgan Shoир una tanbeh berib, ismlarda hech ayb yo'q, deylik, maymun so'zi aslida chiroyli degani, deb aytди. Ma'suma, oddiy bir vrach ayol, bu gapdan keyin har qanday g'alati ismlarni eshitganda ham o'ylabroq kuladigan bo'ldi.

— Ikkita, — dedi G'aybarov. — Lekin birortasi bosil-magan.

— Tushunarli, — deb salmoqladi Samad, — bunga sening quvliging aybdor. Yoki uslubing to'g'ri kelmagan. Katta olimlarga ko'proq uslubsiz shogirdlar kerak. Aslida, gap uslubda ham emas, ustozlarning yalqovligida. Fikr ma'qil bo'lsa bas, uslub-u so'zlarni randalab olish qiyin emas. Lekin ular negadir yalqovlik qilishadi. Endi, jo'ra, bularning barisi oldi-qochdi gaplar. Maqsadga kelaylik. Fan nomzodi bo'lganimizga sakkiz yil bo'ldi. U paytalar oriq, kamtar yigitchalar edik. Eslaysanmi, bazmlarimiz ham kamtarona o'tardi..

— Otam kambag'al, — dedi G'aybarov. — Menga oq fotihadan boshqa narsa berolmagan.

— Bu gaplar ortiqcha, — dedi Samad. — Bari bir sen boy bo'lomaysan, Toshpo'lat. Bo'ladigan odamning siyog'i boshqa, darrov bilinadi. Mening doktorligim tayyor ekanini bilasan, lekin sen, qadrdon do'stim, sakkiz yildan beri nima ish qilding?

— Hech narsa, — dedi G'aybarov. — Hali bir qarorga kelganim yo'q.

— Shuncha vaqt it quvib yurdingmi? — deb so'radi Samad. — Cho'pchakdan ko'proq yig'ilgan bo'lsa, folklor-chilarga qo'ng'iroq qilaylik?

— Kerakmas, — dedi G'aybarov. — Rosti, ko'nglim joyida emas, qiynalib yuribman, oshna.

Samad sal ajablandi, lekin surishtirib o'tirishdan erindi chog'i, shunchaki bir xitob bilan cheklandi:

— Menga qara, Toshpo'lat, sen hammaga ham shunday ochiq gapiraverasanmi?

— Do'st bo'lgandan keyin... — deb chaynaldi G'aybarov. — Ochiqroq gaplashging kelsa nima qilasan?..

— Inson kamol topgani sayin rostgo'ylikning ham turi ko'payarkan, — deb kului Samad. — Hali sen-u men yayrab

davron suradigan paytlar ham keladi. O'shanda ayni bugungi oshnalarimiz bilan raqobat qilamiz. Keksalarni hisobga qo'shmaslik kerak, unda ularni topolmaysan. Qolaversa, keksalarning g'azabidan qo'rqish shart emas. Sen-u men Arastu bo'lsak ham bir put, bari bir ular bizni mensimaydi. Ular xushomadga o'chroq. Aqli yoshlarning aksariyati o'jar va xudbin, ular iliqroq gap aytib yubormaslik uchun xo'rozlanishadi, goho odobni ham unutib qo'yishadi. Shu sababdan ba'zi kattalar o'z atroflarida girdikapalak bo'lib yuradigan odobli, ammo borib turgan xashaki yoshlarga homiylik qiladilar, ularni qulog'idan tortib bo'lsa ham, icodega qarab sudraydilar. Bir kun qarabsanki, yuksaklikka erishgan odobli shogirdlar haligi odobsiz, xudbinroq, lekin aslida aqli va talantli yoshlarning sho'rini quritadi. O'zaro kurashlarning yangi bosqichi yuzaga keladi. Sen ham vaqtı-vaqtı bilan kattalarga iliq gap aytib turishni unutma. Mana, Sotvoldiyevni olaylik, anchayin chinoqliklardan yiroq odam, lekin ba'zida yoshlar salom bermasa og'rinadi.

G'aybarov Samadni endi ko'rayotgandek hayratlanib qaradi, ko'zları katta ochildi. Ma'suma ham ajablandi, u eridan haligacha bunday gaplarni eshitmagan edi.

— Unga salom berishadi chog'i? — dedi G'aybarov.

— Har doim ham emas, — dedi Samad. — Lekin u aqli odam-da, g'azabini tiyadi. Axir, salomni birovdan tilab olmaysan-ku!

— Shunday.

— Balti, G'aybarov! — Samad mamnun kulimsiradi. Endi menga ayt, chinakamiga halol va qat'iyatlî bo'lishga qurbing yetadimi?

— Bilmadim, Samad...

G'aybarov o'ylanib qoldi. Cho'ntagidan papirosh chiqardi. Ma'suma olib bergen kuldanni kreslo tirsagiga qo'yib gungurt chaqdi, to'yib tamaki tutunini yutdi.

— Men o'zimning narximni bilmayman, Samad, — dedi u sal o'tib.

— E, qo'yilgan narxlarning hammasi bekor, — deb qo'l siltadi Samad. — Odamning qadri o'ziga bog'liq.

— Ko'p yaxshi gaplarning balandparvoz bo'lib tuyilgani yomon, — dedi G'aybarov. — Aslida ular hammamizga daxldor, hammamizning ko'nglimizda bor. Vatan, sadoqat va fidoyilik qalbda yashagani ma'qul, qonda e'tiqod bo'lmasa, eng ulug' shiorlardan ham zarracha nafl yo'q. Shularni o'ylab, kamsuqumlik bilan miq etmay yuramiz, qarabsanki, o'zimiz ham sezmagan holda chekkaga chiqib qolibmiz...

— To'g'ri, nutq so'zlashga usta odamlarga ko'proq ishoni shadi, — deya ma'qulladi Samad.

— Biror iblis sadoqatdan los urchan paytda, men soqov bo'lib qolaman. Bu ham tamagir ekan-da, deb o'ylashlidan qo'rqaman. O'sha iblis, so'zamol ablak, ipirisqi mansabparast mening ko'nglimda pinhon yashayotgan muqaddas so'zlarni oshkora sotib kun ko'radi. Fojia shundaki, unga e'tiroz bildirolmaysan, uning hamma gaplari umuman to'g'ri bo'lib chiqadi. Umuman to'g'ri gaplaridan xudo asrasin! Kamtarlik yaxshi narsa, lekin ba'zida shunaqa pand bergani yomon...

— Xo'sh, nima qilmoqchisan? — deb so'radi Samad.

G'aybarov do'stiga ranjibroq qaradi:

— Nima qilish kerakligini bilsam, sendan maslahat so'rab o'tirmasdim. Men o'layapman, do'stim, ko'pdan beri o'ylab yuribman.

— Shunday bir asbob ixtiro qilsang, — deya gap qo'shdi Ma'suma, — odam rost gapirganda jim tursa-yu, yolg'on gapirganda chinqirib yuborsa!..

— Balki shunday qilish kerakdir... — dedi G'aybarov ruhsizgina. — Kulgi bo'lishdan cho'chiysan odam, insof

deganiningning aniq bir o'Ichovi bo'lmasa, kim ham o'zini yomon sanardi...

— Bekor gap! Haq gap egasini topadi, — deya e'tiroz bildirdi Samad. — Sen, agar hushing kelsa, esnamasdan yozishing mumkin. Ana, Shoir, uning bizdan ortiqroq joyi bor ekanmi?

Samadning ovozida ozgina g'ayirlik sezildi. Ma'suma ta'na qilgandek, eriga yer ostidan bir qarab oldi.

— U sen-u men ham tuygan narsalarni bizga nisbatan tuzukroq ifoda etadi, — dedi G'aybarov.

— Eh timol...

Samad G'aybarovning gapiga shunchaki kulib qo'yaqoldi. Ma'suma xijolat chekdi, eri unga sal kibrli bo'lib qolgandek tuyildi. G'aybarovning og'rinxaganini ko'rib, xiyol ajablandi: burchalik latta bo'lmasa, nega indamaydi, yo'q, mendan kulishsa tek turmasdim, Samad akam bo'lsayam tek turmasdim, bu esa pinagini buzmay jum o'tiribdi... Tag'in u ichida kulayotgan bo'lsa-ya?

G'aybarov kresloda, oyoqlarini chalishtirib, beg'am, betashvish, papirosh burqsitardi.

— Fikr tarzing jo'nroq, Toshpo'lat, — dedi Samad. — Soddaroq fikrlaysan, o'rtuoq.

— Kim bilsin, balki rostdan ovsardirman..., — deb g'o'ldiradi G'aybarov.

— Birov seni ovsar deyayotgani yo'q, — deya tanbeh berdi Samad. — Lekin bari bir soddaliging bor. Sen haqingda mendan so'rashsin, molining fe'li egasiga ma'lum... U paytlar student edik, Ma'suma, — dedi u xotiniga yuzlanib. — G'aybarovning almisoqdan qolgan qo'ng'iroqli soati bo'lardi. Qo'shni xonadagilar bizdan bir soat oldin turib ketishardi. O'shalalar G'aybarovning soatini olib, keyin qaytarib berishmadi. O'zlari vaqtida uyg'onadi, biz bo'lsak, soatimiz ularda, darsga har kuni kechikib qolamiz. Har kuni ming marta uzr

so'rashadi, ertagayoq yangi soat olamiz, deb va'da berishadi, lekin olishsa qani! Bu akam, o'zining soatini so'rashdan uyalib, boshqa soat xarid qilganlar!..

— O'zlar bilib qaytarishmasa nima qilay? — dedi G'aybarov qizarib. — O'zi menga bir balo bo'lgan, doim bir g'alvaga uchrab yuraman... Sen ayt, nega men birovning cho'ntagidan tushib qolgan o'n so'mni cho'ntagimga solmayman, o'ziga qaytarib beraman? Axir u odam puli tushganini bilmaydi, meni ham tanimaydi... Nega?

— Egasi ko'rmasa olarmi'dingiz?

— Yo'q, bu olmaydi, tashlab ketaveradi, orqadan kelgan odam oladi, — dedi Samad. — Esingda bormi, G'aybarov, studentlikda uch so'mning bahridan kechib yerga tashlaganimiz? O'shanda biror beshta odam ega chiquvdi. Egalik ham nisbiy. Yiqilib qolguday bo'lib kulganlaring yodingdan chiqmagandir?

— Gapni opqochma, — dedi G'aybarov. — Sen ayt, nega men birovning haqini ololmayman? Vijdon deganlari shumi? Vijdon bunchalar jo'n emasdir?

— Bir marta olsam, keyin shunaqa bo'p qolaman, deb qo'rqasan, — dedi Samad. — Vijdon emas, shunchaki xudbinlik, dimog'dorlik...

— Soat mening esimdan ham chiqib ketgan ekan, — dedi G'aybarov sal o'tib. — Rostdan qaytarib berishmagan. G'ashim kelardi, lekin indayolmasdim. Sen ular nega soatni qaytarib bermaganini bilmaysanmi?

— Sababi aniq, — dedi Samad. — Sen o'zing talab qilmagansan.

— So'rash shartmi, ular shusiz ham mening soatim ekanini bilishardi-ku? Sababi boshqa yoqda, Samad. Ular meni mensishmasdi, do'stim. Tushunasamni, mendan mutlaqo uyalishmasdi, men nima-yu manavi jonsiz devor nima —

ularga bari bir edi. Lekin mening devordan farqim borday, buni bilaman, afsuski, ko'nglimdagini do'stimiz Shoir kabi so'zlarga tiza olmayman. Uning mendan ustunligi ham shunda. Uning tili biyron, meniki naq tarasha...

— Oshirib yubording, — dedi Samad. — Mana, tuppaturuzuk gapirib o'tirbsan-ku? O'sha gaplarniyam gapir-da!..

— Qiyin, — dedi G'aybarov. — Ko'proq alaming kelganda gapirishni istaysan, Iekin, afsuski, bu paytda seni tushunishlari qiyinroq....

Samad G'aybarovga achinibroq qaradi. Ma'suma o'ylandi, tag'in xayoli qochdi: rostdan ham, G'aybarov kim o'zi? Eri uni biladimi? Yoki faqat birga o'qigani bahona, o'Iganining kunidan gaplashadimi? G'aybarov, mensimaysan, deb aytganday bo'lidi, shu rostmi? Erining tepadan kelishi-yu, kulishlarini shunchaki hazilga yo'yib bo'larmikin? Nega unda orani uzib qo'ya qolmaydi yoki biror til qisiqlik joyi bormi?.. Unday desang, yana boyagi gap — nega mensimaydi, nega kuladi? Bu dunyo qiziq-da, deb o'yladi ayol, erimning baland kelgani menga og'ir botmaydi, qaytaga, uning ustunligidan quvonaman, mabodo. Samad akam emas, G'aybarov etim bo'lganida-chi?..

Ü go'yo eriga xiyonat qilib ulgurgandek qizardi, shosha-pishra qo'lidagi paypoqqa mashg'ul bo'lди.

Eshik qo'ng'iroq'i chalinib, ayolning xayoli bo'lindi. Borib eshikni ochdi: Samadning jiyani Xolida, ishdan qaytayotib Saidani ham bog'chasidan olibdi. Uzun-qisqa bo'lib ostonada turishibdi.

— Saida keldi, Toshpo'lat amakisi, — dedi Ma'suma qizchasini xonaga boshlab kirib.

— Assalom... — deb salom berdi qizcha, so'ng oyisi o'rnatgandek, salgina egilib ta'zim qildi.

— Salom, oppoq qiz. — dedi G'aybarov. — O'qishni bilay deb qoldingmi?

Qizcha uyalib, ko'zlarini yerga tikdi.

— Bog'cha opaları maqtayaptı, — deya qizi o'rniغا javob berdi Ma'suma.

Odatda, G'aybarov uch-to'rt kun kelmay qolsa, qizcha bordaniga ko'nikiб ketolmas edi. Hozir ham shunday bo'ldi. Saida unga yaqin kelmadi, ichkari xonaga kirib ketdi.

Samadning jiyanı kirib salom berdi. G'aybarov alik olgani iyemandi. Qiz salomi javobsiz qolganidan uyalib ketdi. U yarim yilcha avval o'qishga kelib, yiqildi. Tog'asi yordam bermadi, mayli, biror yilcha qiyalsin, keyin o'qishning qadriga yetadi, dedi. Endi Xolida to'quvchi bo'lib ishlayapti, garchi tog'asini qora tortib kelgan bo'lsa-da, na uning uyiga, na xotiniga va na shaharga tuzukroq ko'nikkani.

— Saidanıng kiyimini kiydiring. Xolidaxon, — dedi Ma'suma uning joniga ora kirib, so'ng, qiz ichkari kirkach, Samadga qarab dedi: — Bechora qiynalib yuribdi, bir uyiga oborib kelsangiz bo'lardi.

— O'ziyam yo'lni biladi, — deb to'ng'illadi Samad. — Avtobus soat sayin qatnaydi, juma kechqurun ketsa, yaksanbada qaytaveradi.

— Shu bahona, o'zingiz ham o'ynab kelardingiz... — deya e'tiroz bildirdi Ma'suma.

— Muni qara, mendan qutulishni ko'ngli tusab qopti!.. — deya hayratlangan bo'ldi Samad. — Shu, do'stim, xotinlarga ishonma, qullikda tutsang bir hisob!..

G'aybarov gap qo'shmadi. U Samadning ustaligini bildi. Jiyannini yaxshi ko'radi, lekin sirtiga chiqarmaydi. Samad qattiqko'llik bilan tergab-tejagani sayin, xotinining rahmi qo'zg'aydi, qizni tog'asidan himoya qilishga o'tadi. Turgan gapki, jiyen bunday yanganing soyasiga ko'rpacha soladi. Tog'asidan ham ranjimaydi, har qalay, jigari unga yomonlik tilamaydi.

— Shu, deyman, Toshpo'lat, sen menqa mundoq xushomad qilsang-u Xolidaga uylansang nima bo'larkan? — deb hazillashdi Samad. — U mening jiyanim, sen mening do'stim, begonaga uzatgandan ko'ra...

— Senga xudo bas kelsin, oshna, — dedi G'aybarov. — Esing joyidami yo meni uyingga kelmaydigan qilmoqchimisan?

— Nega, qarindosh bo'lsak yomonmi?

— Xolida hali yosh-ku?.. — Ma'suma bu gap og'zidan qanday chiqib ketganini payqamay qoldi. Labini tishladi. G'aybarovga zimdan razm soldi; yo'q, og'rinnabdi, tusi o'sha-o'sha...

— Hazil, — deb kildi Samad. — Darvoqe, Toshpo'lat, ko'pdan beri so'ramoqchi bo'lib yuraman, haliyam Galatepaga ko'milishim shart, deb o'ylaysanmi?

— Har holda, tug'ilgan joying...

— Jinni bo'psan! Eh-ha, hali o'limgacha ming marta uylanib, ming marta ajralsa bo'ladi. Qarigan chog'ingda ming birinchi qilib birorta galatepalik kampirni topib olarding-a!. Inara deganing bo'lardi, haliyam xat yozib turadimi?

Ma'sumaning quloqlari ding bo'ldi — u haligacha bunday ismni eshitmagan edi. Umuman, unga cri bilan G'aybarovning uzoq shaharda kechgan studentlik yillari shubhaliroq bo'lib tuyilardi, kim bilsin, ular qaylarda va kimlar bilan yurgan... Eslab turishlari rost, lekin faqat ichgan pivolari-yu hamisha og'aynilarini eslashadi. Ayollarning ismi atalmaydi hisob, atalganda ham, yo professor kampir, yo kutubxonasi mudirasi, yoki juda nari borsa, kurs onaboshisi bo'lib chiqadi.

— Nega indamaysan? — deb qistadi Samad.

— Yozmay qo'ydi...

G'aybarovning o'tgan kunlarni eslagini kelmadi. Chalg'imochchi bo'lib, xona devoridagi kattakon suratga qaradi. Do'stlari Abduvali Soqol chizgan Samad bilan Ma'suma-

ning surati, o'zlariga juda o'xshaydi. Samadning bo'yи  
baland, tik qarab turibdi, Ma'sumaning boshi uning ko'kra-  
gi barobar, go'yo erining yurak urishiga qulqoq  
tutayotgandek.

— Nega indamay qoldilaring? — deya ilmoq tash-  
ladi Ma'suma. — Ochmaysizlatmi eski gunohlaringni?

— Bizning xotinning sinchkoyligini qara, Toshpo'lat!—  
deb xitob qildi Samad. — Qo'rhma, Ma'suma, u bir farrosh  
ayol edi, bodi bor ekanmi, G'aybarovga bir-ikki marta tuyu  
juni so'mb xat yozgan... O'zing bilasan, bu akam galatepalik,  
butarda tuyu-puya degan jonivorlar ko'p bo'ladi.

O'zini boladay laqillatishga urinishgani Ma'sumaga  
yoqmadidi. Erkaklarning gurungiga aralashgan men ham ten-  
tak, deb o'yładi, mayli, gapiraverishsin...

U o'z xonasiga chiqdi. Alami hadeganda tarqayvermadidi.  
Tepadan dumalab tushganlar, deb o'yładi ichida, so'ng o'yid-  
an o'zining kulgisi qistadi, Galatepa, Qo'rg'ontep, Til-  
latepa, hatto Samad akamning tep-tekis qishlog'ining nomida  
ham tepasi bor, Qo'shtepa, kaftdek yalang joy-ku, Iekin  
nomi Qo'shtepa. Ularning qishlog'i asli Samarqand tarafda  
ekan, keyinroq odamlar qo'riq ochishga jo'nashganda, be-  
choralar biyday dashtga qishloqlarining nomini olib keli-  
shibdi. Ma'suma besh yil Samadga xotin bo'lib, erining qish-  
log'ini yaqindagina borib ko'rdi. Qo'ngan uylari endi suvoq-  
dan chiqqan edi. To'rti xonali dang'illama uy, jihozlat mo'l,  
biror hafta yashab qaytishdi. Seni ilgari opkegani uyaluv-  
dim, anavi uyda turardik, dedi Samad chetroqdagi tomi  
chiy bilan yopilgan eski bir kulbani ko'rsatib. Ma'suma eri  
mashinani yangilayman deb yig'ib yurgan pullarning qayga  
keleganini endi tushundi — uni deb uy quribdi. Hafta sayin  
qishloqqa qatnab yurganlari bejiz emas ekan. Xotin ketgan  
pulga achiinmadidi, erining qunt-u e'tiboridan quvondi. Qayta-

digan kunlari Samad uni o'sha eski kulbaga kiritib aytdi: buzib tashlagani ko'nglim bo'lindi, yolg'iz o'g'il bilan qari ena, ikkovimiz shu joyda yashardik... Bu gaplarni aytganida ovozi titrab ketdi, ko'zlarini namlandi. Ma'suma uni mahkam quchoqlab oldi. Er-u xotin, bir-birlariga mehrlari oshib, shu alfozda turib qolishdi. Samad onasini esladi, Ma'suma kelinlik chog'larini.

Xonaga qo'g'irchog'ini ko'tarib Saida kirdi.

— Toshpo'lat amaki ketdi, — dedi u.

Ma'suma qizini ergashtirib, mehmonxonaga chiqdi, eriga ta'na bilan qaradi.

— Ovqatga qol, demabsiz-da?

— Ko'nmadni, Ma'suma, — dedi Samad qo'lidagi jurnalni chetga qo'yib. — Eski yarasini yangilab qo'ydim, meniyam jin urgan, Inarani gapirib nima qilardim... Ayb o'zida, tayyor oshini og'zidan oldirib yuradi.

— Shu jo'rangiz sal bo'shangroq. — deya gapiga qo'shildi Ma'suma. — Uyatchanroqmi-ey...

— Sendan uyaladi, — dedi Samad. — Kim biladi, balki senga zimdan ko'ngli bordir.

— Aynimang, dadasi!..

Ma'suma qizardi, eridan ranjidi. Samad uni shunday qaltis hazillari bilan uyaltirishni xush ko'rardi.

— Uni hadeganda tushunish ham qiyin, — dedi Samad jiddiyashib. — Bir qarasang bulbuligo'yo, bir qarasang — mum tishlaganday jim.

— Xayolparast, — dedi Ma'suma.

— Yo'q, Toshpo'lat yaxshi olim, — deya e'tiroz bildirdi Samad. — Mendan yaxshiroq. Ko'p narsa biladi, lekin sal yalqovligi yomon...

Ma'suma eriga ajablanib qaradi. Lekin eridan xafa bo'l-madi, qaytaga, kamtarligi uchun unga mehri battar iydi. yaqinroq kelib, yonog'ini tutdi.

Samad xotinini o'pdi.

— Siz yaxshisiz, jonom, — deb shivirladi u. — Sizni hech kimga bermayman, hech kimga alishmayman.

## 7. MUHABBAT

G'aybarov shaharga kelib ilk bor oshiq bo'lganida, so'ng erta bahor Galatepaga qaytib, Naim amakinining uyiga mehmonga borganida kayfi andak oshib, uning kamgap, mehribon xotiniga kelin bo'lmishi haqida so'z ochdi. Kelin haqidagi cho'pchak, G'aybarovning o'zi to'qib, o'zi ishongan cho'pchak, o'shanda juda sirli ko'ringan. Aslida u istaganidan jo'nroq edi: g'ira-shira tomosha zali, kursdosh qizning qo'lli, keyin chap tizzasi, oq matoda uzunasiga ot chopayotgan suvoriyalar, keyin biror soat o'tgach, kinoteatrning qishki bog'idagi chang bosgan palma ortida olingan hurkak va begunoh bir muchchi.

G'aybarov yangasiga na qizning qo'llari, na chap tizzasi va na o'pich haqida hikoya qilmoqchi edi. Unda G'aybarov naq bo'g'zigacha baxtiyor edi; Galatepaning chang ko'chalarida xarish xo'tikday ag'anab o'sgan, mana, biror besh kundirki, bulardan uzoqlashgan bola, hali shahar havosiga to'ymagan, o'zining naq qahramonlik ko'ringan uddaburonligidan, jur'at va jozibasidan mast, boshi aylangan — o'zini qayga qo'yarini bilmaydi, dunyo yolg'iz uniki, uning amriga muntazir, ko'ngli tusagani bo'ladi, bo'lishi shart! Bor-yo'g'i shu hissiyotni so'zlarga tizish kerak, bor-yo'g'i...

Lekin G'aybarov so'zlarning besharmligini sezdi. Ko'ngli-da ozoda, shabnam yanglig' musatto hislarni tuygan ko'yi, jamiki beozorlikni bulg'aguvchi bir qator yalang'och va shafqatsiz so'zlarni ko'rди.

Yig'lagisi keldi:

Naim amaki unning holini ko'rib, kaftlarini bir-biriga ishqadi: «Balli, qarindosh! Otangiz meni do'zaxi ataydi, endi, sizlardan ham bitta chiqsin-da!» Yana, munis, yuvosh, G'aybarovni yaxshi ko'radigan yanga, erini qarg'adi: «O'ling siz, bu go'dakning aybi nima? So'ksa, tog'angiz so'kibdi, munda nima gunoh? Endi bu uyiga mast bo'lib borsa, echkingiz egiz tug'armidi?»

«Xusurim tarqaydi, xotin! Tog'am o'zini osmon chog'-laydi, endi manovi arzandasini ichib borsa, qani, ko'raychi, ahvoli ne kecharkin!..»

G'aybarov, mast va saodatli G'aybarov, ko'nglida hali tarqab ulgurmagan maqtanchoqlik, uyga borishni istamadi. Galatepadan chiqib. Qiziltoshga ketar yo'ltagi cho'chqaxonaga qarab yurdi. Do'sti Mahanboy shu joyda ishlardi. G'aybarov gandiraklagancha, do'stining faner taxtadan tiklangan bo'lmasiga kirdi. Mahanboy bir o'zi zerikib o'tirgan ekan, uni ko'rib xursand bo'ldi, kepak solingan qopni titkilab, bir shisha aroq chiqardi. Ichishdi. So'ng Mahanboy uni tash-qariga sudradi. Ochiq havoga chiqqanlari zahoti G'aybarov tag'in ko'nglida muhabbat tuydi, ko'ksi yorilib ketgudek bo'ldi. Yalanglikdag'i cho'chqalar qazib tashlagan chuqurchalarni oralab borarkan, sabri chidamadi, til butunlay boshqa yoqqa ketdi, qizning qo'li, chap tizzasi va lablaridan gapirdi. Bunisi osonroq edi — G'aybarov so'z axtarib qiynalmadidi. Mahanboy uning gaplarini toqat qilib eshitdi, lekin G'aybarov kutganday zavqlanmadidi, cho'chqaxonanining xunuk qo'qqaygan tomiga bir-ikki bor ma'yus qarab oldi, keyin sekin so'radi:

- Yoshmi o'zi?
- Yosh, o'zimiz qatori.
- Ko'p bo'ldimi?
- Qayoqda, o'zi borganimga besh oy bo'ldi-ku!

— Sen bu gapingni qo'y, Toshpo'lat, — dedi Mahanboy. — Bundan bir ish chiqmaydi. Otang seni o'qishga yuborgan, olaxurjun bo'yningga tushib yurmasin... Og'zing bo'sh sening. To'yan qo'zichoqday bo'p yurmaysanmi? Ana, otang qanday, og'rigan joyini bildirmaydi! Mahanboyning ovozi yo'g'on va jiddiy edi. Yuzi ham jiddiy. Qo'lidagi tol xivich bilan kirza etigining qo'njini savalab borardi. — Menga qolsa, o'zimizdan uylanganing ma'qil, oshna, harna alamingga sherik bo'ladi.

G'aybarov ranjidi.

Mahanboy uni chekkaroqdagi bir qo'ra oldiga boshlab bordi. Sassiq'i dimoqni yoray derdi — G'aybarov burnini jiyirdi, lekin Mahanboyning nafratidan qo'rqb, atrofi g'ov bilan to'silgan qo'rqa baqamti keldi.

— Qara!, — dedi Mahanboy. — Zoddor cho'chqa, birdaniga o'n beshta tug'di. Ko'zimning oldida turmasa bo'lmaydi, bular o'zi tuqqanini yeb qo'yarkan. Bunisi yemadi. Qara, bolalariyam katta bo'p qoldi. Shu, jo'ra, men o'zim ahmoqlik qildim, asli senga o'xshab shaharga ketishim kerak edi. Musobaqa deyishdi, boshqa deyishdi, xullas, og'rimagan boshimni og'ritib o'tiribman. Mana, sen shaharda yuribsan, nima, mendan ortiq joying bor ekanmi? Hisobni mendan ko'chirib olarding, esingdami? Men umrimida hisobdan «to'ri» olgan banda emasman. Sening otang tuzuk, meniki bo'lsa... Ko'rib turibsan-ku, Toshpo'lat!..

G'aybarov indamadi. Unga zotli ona cho'chqa, uning o'n beshta qip-qizil bolasi va do'stining tan olinmay qolgan hisobdonligi o'zi ko'ngliga tugib kelgan balandparvoz gaplardan ming bora afzalroq va ma'niliroq bo'lib tuyildi.

...Keyinchalik, ancha yillar o'tib, Mahanboy bilan bo'lgan suhbatni G'aybarov Inaraga so'zlab berdi. Inara jilmayib qo'ydi. Umuman, Galatepa haqida gap ochilsa, sen Gala-

Iepaga kelin bo'lib tushasan, deb aytilsa bas, o'zini tutolmasdi, kulib yuborardi. Mazaxsiz kulardi, uzoq, nomi kabi notanish Galatepa-yu unga kelin bo'lib borish g'alati ekani-dan zavqlanib, maroqlanib. Buning ajablanadigan joyi yo'q, bizga ham begona o'lkalar va shaharlarning nomlari g'alati va sirli tuyiladi, deylik, Granada, Qurdoba, Alabama, Mis-sisipi-Missuri, Gvadalaxara... Ehtimol, Inaraga Galatepa degani Xiva-yu Buxoro, Samarqand-u Urganchdek bir joy bo'lib tuyilgandir? Albatta, o'zimiz tarafda Galatepaning unchalik qadri ham yo'q, qaydansiz, deb so'rashadi, Galatepadan, deb aytasan... Ha-a, G'alatepadan, deng?.. G'allatepa, deb atashmaganiga shukr!

...Seni chimildiqqa olib kiramiz, Inara, avval sochingni sal o'stiramiz, keyin qoraga bo'yaymiz, shunday qaro bo'ladiki, Sa'diyning sherozlik go'zallari hasaddan qorayib o'ladi, atlas ko'ylag-u lozim kiyib, oq harir ro'mol o'rab, o'n besh kunlik oyday, kashta chekilgan qizil baxmal chimildiq ortida o'tirasan, bundan oldin mulla Doniyor kelib nikoh o'qiydi, kalima qaytarishing shart emas, mulla aqli odam, sen-u mening dinimiz muhabbat ekanini yaxshi biladi, Shayx San'on qissasidan xabardor, rozimisan, Inara qizim, deb so'raydi u vakil otangdan, agar tili kelishmasa, seni Inara emas, Anora yoki Anor deb atar, ayt, Toshpo'latga, Raim oqsoqolning o'g'li, G'aybar soqovning nevarasi Toshpo'latga xotin bo'lishga rozimisan?

Butun Galatepani to'yga aytamiz, Galatepa atrofidiagi o'n bir dahani ham aytamiz, Inara, Galatepa-yu Jom, Sarson-u Cho'nqaymish, Anjirli-yu Sho'rquduqdan olli-yayov, yoshi-u qari — hamma birday yig'ilib keladi. Seni oq bedovga mindirib olaman, oq bedov sen minganiningni sezsa bas, naq G'irotga aylanadi, qanot chiqarib uchadi, shunday tez uchadiki, sen qo'rquvdan meni mahkam

quchoqlab olasan, men esa, ortga o'girilib, seni mana bunday o'pib olaman! Mana bunday, mana bunday!..

Inara oq bedovning borligiga juda ishonardi. Biz esa, bisotimizda birligina qora cho'bir ot borligini o'ylab uyalar-dik, do'stim G'aybarov, uyalardik, lekin qora cho'birni oq bedovdan kam ko'rmasdik, taqdirdan mo'jizalar kutardik va ishonardikki, qora cho'bir ham qanot chiqaradi, hovli sahnida yoqilgan katta gulxan yoniga uzangi-yu egar-jabduqlarini yaltiratib, kishnab keladi, so'ng kuyov bilan oq harir ro'mol o'ragan kelinni sag'risiga o'tqazib, tun qa'riga parvoz qiladi. Zim-ziyo tun va oq harir ro'mol, cho'bir otning cho'birligi aslo bilinmaydi, kelin ham, kuyov ham aslo ko'rinxilmaydi, birligina oq harir ro'molning o'zi qorong'i samo qo'ynida hilpirab uchib boradi... Biz shunday chiroyli manzaralarni chizganimizda, Inara bizga paqqos ishonardi, battar zavqi oshib kulardi, do'stim G'aybarov!..

Qora cho'bir sag'risiga yozilmish ertak uch yil davom etdi. U yana ko'p cho'zilsa ham ajab emasdi, lekin uchinchi yil oxiriga kelib, mulla Doniyor qazo qildi. U ko'zlarini ko'k, sariq sochlarni timqoraga bo'yagan qizning Galatepaga kelin bo'lib tusharini ortiq kutolmadidi. G'aybarov mulla qazo qilganini aytganda, Inara juda qayg'urdi — u mulla haqidagi o'ylarga o'rganib qolgan edi. Mullaning o'limi yomon bo'ldi, go'yo u o'ldi-yu ajib ertakka raxna tushdi.

Xullas, hikoyamiz cho'zilibroq ketdi, do'stim G'aybarov, alqissa, bir kuni Inaraning tobi qochib, kasalxonaga tushdi. Bir oycha yotdi, bir oy tugal yuzimizga qaragisi kelmadi. Sen uning yoniga har kuni qatnaysan, har kuni ko'rging keladi, har kuni sovg'a-salom ko'tarib borasan, sovg'a-salom olarga esa pul yo'q, lekin bari bir darsdan keyin bozorga qatnaysan, rastalarni bezab turgan do'ppisi dol yurtdoshlar-ningdan naqsh olmalar xarid qilasan, yurtdoshlarining go'yo

yurtingni shundoq yelkalariga ortib bu tomonlarga ko'chirib kelishgan, olma deysanmi, anor deysanmi, behi, nok, uzum, olmaqoqi-yu qovunqoqi... Shu sabab, hammollik qilib, tunlari vagonlardan un tushiramiz, nonvoxonada o'sha undan pishirilgan nonlarni mashinaga ortamiz, xullas, ozmi-ko'p pul topamiz, mayli, deb o'zimizga taskin beramiz, bu pullar yurt ne'matlari-yu ajib muhabbatimizga nisor bo'lsin, bular nima bo'pti, dunyonи poyiga to'shab tashlasak ham oz, ammo Inarani endi tanib bo'lmaydi, ne'matlar solingan yelim xaltaga ko'zi tushsa bas, ajinsiz peshonasi tirishib ketadi: sen shu bilan meni sotib olmoqchimisan, G'aybarov?! Shunda uning yuziga tarsaki tortib yubormaganimiz ajab, shunday istak xuruj qilgani rost, lekin o'zimizni tiyardik, o'ylardikki, u betob yotibdi, bemor odam sal asabiyroq bo'ladi, uning har ne gapi kechirimli, fe'llimizni kengroq qilaylik, do'stim G'aybarov, unga olma-yu anor emas, bir og'iz shirin so'z kerak...

Bir gal kasalxona yo'lagida davolovchi vrachga duch keldik. Yosh, ko'hlikkina ayol ekan, uyalinqirab, o'rtoq Xaybarov siz bo'lasizmi, deb so'radi, so'ng xonasiga taklif etib, Inara albatta tuzalib ketadi, deb ishontirdi, bunga bizning ishonchimiz komil, palatadagi ayollar sizni uning eng yaqin odami, deb aytishdi, mana, qo'lingizdagи gullar ham juda chiroqli, hali durkun turibdi, Inarani shu gullarga qiyos etgim keladi, u juda yaxshi qiz, hali juda yosh, tajribasiz, gap so'rasak indamaydi, bizzdan uyaladi, shu sababki, sizga murojaat qilyapmiz, o'rtoq Xaybarov...

— G'aybarov, — deb tuzatdi uni G'aybarov.

— Uzr, tilim kelishmayapti, — dedi vrach battar qizari. — Men siz bilan ochiqroq gaplashmoqchi edim. Vrachlik burchim shuni taqozo qiladi.

— Marhamat, so'rayvering...

Vrach bir varaq qog'oz olib stol ustiga qo'ydi, qo'liga qalam tutdi:

— Yoshingiz?

G'aybarov yoshini aytdi — unda hali yosh edi, yoshligidan xijolat checkardi.

— Ota-onangiz, qarindosh-urug'laringiz biron-bir irsiy, ya'niki, nasldan naslga o'tuvchi kasallik bilan og'rimaganmi?

— Og'rimagan.

— Tutqanoq?

— Tutqanog'im yo'q.

— Qizamiq bilan og'riganmisiz?

— Ha. Keyin ko'kyo'talga chalinganman. Bolalikda zotiljamga yo'liqqan edim.

— Silga aylangani yo'qmi?

— Yo'q, zotiljamligicha o'tib ketgan.

— Gepatit? Yuqumli gepatit...

— Yo'q, urug'imizda sariq kasal tugul, sariq basharali odam ham yo'q.

— Hazilkash ckansiz. Ajdodlaringizda pushtsizlar bo'lmagandir?

— Nima deyapsiz, hammasining kamida o'ntadan bolasi bor!

— O'zingiz?

— ...

— Nega indamaysiz? Uyal mang, o'rtoq Xaybarov!

— Nima desam ishonasiz?

— Demak, Inaraga uylanasiz?

— Albatta.

— Qiz bola bilan juda avaylab muomala qilish kerak, o'rtoq Xaybarov, Tug'ma odob tufayli ular ko'pincha o'z tuyg'ularini ortiq darajada tiyishadi, oqibatda asab ishdan chiqishi mumkin... Imkoni bo'lsa to'yni tezlashtiring. Cho'zib yurmang.

- Pul kamroq, o'ptoq doktor...
- Studentsiz, hech kim ayb qilmaydi.
- Lekin...
- O'ylab ko'ring, o'rtoq Xaybarov. Inara yaxshi qiz. Bunaqasini keyin hech topolmaysiz. Saxaraga ham ergashib ketaveradi...
- Sahroi Kabir...
- Ehtimol, shundaydir, lekin gapga buning hech aloqasi yo'q, muhimi, Inaraning o'zi...
- Sizga o'zi arz qildimi?
- Yo'q, u arz qilishni bilmaydi. Men vrachman, arzsiz ham bilishim kerak. Siz uni ko'p qiynamang...

G'aybarov kasalxonadan o'nga cho'mibroq qaytdi. Samad kelib hol so'radi. Do'stdan sir yashirib bo'lmaydi, ba'zida ne-ne sirlarni ham oshkor etasan, hamdard izlaysan, og'ayni, deb aytasan, shunday bir nozik savdo, na kularingni bilasan va na o'lariningi, vrach meni tutib olib shularni aytib o'tirs-a-ya!..

Nachora, deb o'yladi G'aybarov, tabiat bizga nisbatan donishmandroq, unga qarshi borib bo'lmaydi! Endi eslasang alam qiladi, ayniqsa, Inaraning g'azablangani... Uning g'azabini eslasang bas, ko'ngilda alamli bir kulgi uyg'onadi, keyin bu kulgi yuzga tepadi — uyat, uyat, ming bora uyat, uyatdan badaning olov bo'lib yonadi, negaki, Inaraning kaftlari yuziga mahkam bosilgan, barmoqlari orasidan yosh sirqiysi, u hech narsani ko'rmaydi...

- «Nega avval aytmading?»
- «Avval aytadigan emasdi».
- «Qachon? Qachon bo'ldi?!»
- «Aytmayman».
- «Kim?»
- «Aytmayman».
- «Men taniyamanmi?»

«Aytmayman. Senga osilib olganim yo'q».

«Kelma, boshqa kelma, endi menga keraging yo'q, eshit-yapsanmi, boshqa kelma, sen faqat cho'pchak aytishga ustasan, cho'pchaklarin jonimga tegdi, meni tinch qo'y, Toshpo'lat, bu yog'i nafrat, faqat nafrat... endi meni yaxshi ko'rolmaysan!»

G'aybarov alamzada, darg'azab, uning huzuridan chiqib jo'naydi, lekin qaytib bormasdan turolmasligini sezadi, nafrat va alam ortidan mehr uyg'onadi. Bormasligi uchun o'n qadoqli toshni bel barobar ko'tarib, mo'ljal qiladi, so'ng tosh o'ng oyog'i ustidan bosib tushadi, oyoq zum o'tmay ko'karib, shishib chiqadi. G'aybarov og'riqdan uvlab yuboradi. Xonaning u boshidan-bu boshiga hakkalab so'kinadi.

So'ng Samad keladi. Uning latta bilan chirmalgan oyog'ini ko'rib, astini bujmaytiradi, biroq do'stligiga borib G'aybarovni ovutadi: qo'y, o'zingni qiynama, qadrdon do'stim, sadqai sar, o'zim senga onasi o'pmaganini olib beraman, qayg'urma, qayg'uraversang, tezda qarib qolasan...

G'aybarov noiloj iljayadi. Ojizligini bildirgisi kelmaydi, nimalar deyapsan, Samad, deb aytadi, shunchaki, kayfiyat yo'q, oshna, yurtimizni sog'indim, ketay desam, ilojim yo'q, bir yoqda kamxarjilik, bu yoqda oyoq... kecha ariqdan ilkisroq hatlagan ekanman.

Samad sir bermaydi. Lekin u ziyrak, hammasini biladi, do'stining ojizligini ham, boshqa gaplarni ham, biroq uni ayaydi, sezganini sezdirmaydi...

Bu — olis bir xotirot. U Samadning — salkam fan doktori, baxtli xonardon sohibi Samad Mansurovning yodidan allaqachon chiqib ham ketgan. Lekin G'aybarov, saodatga tashna G'aybarovgina bu xotiralarni g'ussaga botgan kezlarida eslab-eslab qo'yadi.

## 8. SHOIR

Shoir barcha shoirlar kabi sodda va ishonuvchan edi. Go'yo besh yashar bola bir kechada katta bo'lib qolganday sal-pal maqtanchoqligi ham bor. Kimnidir yaxshi ko'rmasa turolmaydi.

Bir kuni sochlari patila, naynov bir yigitni boshlab keldi:

— Jamol, — deb tanishtirdi. — Qisqacha aytganda, Jek. Juda ajoyib yigit, qishlog'ida nechta qaldirg'och yashashini ham biladi.

Chamasi, u biror joyda qaldirg'ochlar haqida she'r o'qigan-u, Jek-Jamol bilan o'sha yerda tanishib qolgan edi. Har holda, Shoirning o'ziga yarasha e'tibori bor, do'stlari Jek-Jamolni iliq qarshi olishdi, mehmonnavozlik rosa bir hafta davom etdi, goh unikida, goh bunikida. Ziyosati ayni quyuq bo'lgan kungi mezbon Abduvali Soqol Jek-Jamoldan so'rab qoldi:

— Qishlog'ingizda nechta qaldirg'och bor o'zi?

— Ikki yuzta, — deb javob qaytardi Jek-Jamol uzoq o'ylab o'tirmay. — Jarqaldirg'ochlar hisob emas, ularni sanash qiyinroq, lekin uy qaldirg'ochlari ikki yuzta, qishlog'imizda jami bo'lib ellikta uy bor, demak, har birida o'rta hisob bilan to'rtta qaldirg'och bo'lsa, hammasi ikki yuzta, nari-beri farqi o'ntacha bo'lishi mumkin, bundan oshmaydi.

Jek-Jamolni davradan izzat-ikrom bilan kuzatishdi-yu, Shoirning o'zi kulgiga qoldi. Gapning payrovi qaldirg'och bilan boshlanardi, ya'ni, Samadning Qo'shtepasida besh yuz uy bor — qaldirg'ochi ikki mingta, Qobilning qishlog'ida uch yuzta xonardon bor, qaldirg'ochi bir ming ikki yuzta... G'aybarovning qaldirg'ochlari hammanikidan ham ko'proq chiqdi, uning Galatepasida naq ikki ming uy bo'lib, ularda sakkiz ming qaldirg'och yashardi, nari-beri farqi besh yuzta,

bitta ham ortiq emas. Birgina Shoiring qaldirg'ochlarini sanab bo'Imadi, uning qishlog'i o'n besh yildirki, shahar nomi bilan yuritilar, uylar soni ham kun sayin o'sib borat edi.

Shoir jo'tabozligini tashlamadi. Naybatdagi gal do'mboq-qina bir yigitni ergashtirib keldi.

— Bu do'stimiz Tayloqov bo'ladi, — dedi. — Matematika fanlari kandidati, kasbi kibernetik, lekin o'zi g'irt adabiyotchi!

Buni eshitgan G'aybarov dumalab qolguday bo'lib kului.

— Matematika fanlari kandidati, kasbi kibernetig-u, lekin o'zi adabiyotchi, — deb takrorladi u. — E, o'Imang, Shoir... Men sizga aytsam, bizning Galatepadagi Otoboy bo'yoqchiga o'xshaysiz. O'sha Otoboy bo'yoqchi, Salim qarоqchining o'g'li Nurmamat armiyadan ulyanib qaytganda, kelinni ko'rib, «Nurmamat o'ris xotin opkelibdi, sap-sariq, xuddi nemisga o'xshaydi, nemisga o'xshaydi-yu, lekin o'zi ukrain», degan ekan...

Shoir undan xafa bo'Imadi. Tayloqov ham ortiqcha og'rigan yo'q. Bemalol o'tirib olib, adabiyotdan so'z ochdi. Davrada Shoirdan boshqa adabiyotchi yo'q edi, hamma mum tishlab o'tirdi.

— Men har bir yozuvchiga bittadan daftar ochdim, — dedi Tayloqov. — Kimki yangi qahramon yaratса, o'shani shartta yozib qo'yaman. Keyin o'zbek adabiyotida yaratilgan barcha yangi obrazlarni sartisob qilamiz, qani, kim qancha yangi qahramon yaratibdi ekan?.. Bu juda og'ir ish, mening bir o'zim eplashim qiyin, biror o'nta yordamchim bo'lsa qaniydi!..

U ishonch bilan gapirardi. Ishonchi boshqalarga ham yuqardi. Tayloqovning obro'si daqiqa sayin oshib borayotganini ko'rib, Shoir o'zida yo'q quvondi.

— Sizga o'zim yordam beraman! — deb va'da qildi u.

U har kuni Tayloqov ishlaydigan ilmiy markazga qatnay boshladи. Ozib-to'zib ketdi, she'r yozishni ham bas qildi.

Gapining bismillosi «yangi qahramon» bilan boshlanadi, har kuni kelib Tayloqovning hisobdon mashinalarini maqtaydi:

— O'lay agar, juda aqlli mashinalar!.. Kecha Tayloqov o'zining rasmimi ishlatdi, xuddi Soqol chizganday, faqat mashina bo'yoy ishlatmas ekan, birorta harfni oladi-yu boshdan-oyoq suratingni o'sha harf bilan chizib qo'ya qoladi! Tayloqov endi mashinaga she'r yozdirmoqchi, yozdirsa zo'r bo'lardi, men o'zim salpal qalam tegizib, katta jurnalda chop qildirardik. Men unga taxallus ham topib qo'ydim, «Mashtay», ya'ni Tayloqovning mashinasi, to'g'ri, sal forscha bo'ldi — mashinai Tayloqov, lekin «Taymash»dan «Mashtay» yaxshiroq jaranglaydi!..

Endi Shoир o'zi xush ko'rmaydigan yozuvchilarning asarlарини ham bitta qo'ymay sotib olardi. Boylam-boylam kitob ko'tarib, Tayloqovning yoniga yuguradi, go'yo Tayloqovning mashinasi ochofsat bir yuho-yu faqat kitob yeysi!..

— Bular hali oz, Toshpo'lat, — derdi Shoир quyonib.— Biz hali adabiy ahotining yuzdan birini ham hisobga olib ulgurmadi! Mening arabiylar imlodan mazam yo'qroq, Tayloqov ham bilmaydi, o'zingiz yordam berasiz... .

Keyinchalik G'aybarov ularning ishidan xabardor kibernetik olimdan eshitdi, Shoир bilan Tayloqov uch oy mobaynida butun boshli bo'limning rosa bir yillik ishini bajargan ekan, lekin bu ishning nimaga kerakligini hech kim tushunolmabdi.

Agar Soqol aralashmasa, kim biladi, Shoирning Tayloqovga maftunligi yana qancha muddat cho'zilardi. O'shanda Soqol Samad bilan Ma'sumaning suratini chizayotgani bahona, deyarli har kuni ularnikida yig'ilishardi. Soqol, egnida charm peshband, qo'lida mo'yqalam, papirosh tishlagan, fik etgan tovushga toqat qilolmas edi. Shoир esa, turgan-bitgani shovqin, ishning beliga tepdi, kela solib,

Samadning ko'ksiga bosh qo'yib tek qotgan Ma'sumani oshxonaga jo'natdi:

— Qorin piyozning po'sti deysiz, kelin! — Men-ku, yurgan bir ahmoqman, lekin Tayloqovga nima bo'lgan!.. Poeziyada yaratilgan qahramonlarni paqqos esdan chiqaribmiz!..

Soqol bo'yoqtaxtasini kursiga qo'yib, qo'llarini artdi. Biror narsa desangiz-chi, deganday, G'aybarovga qaradi. G'aybarov boshini xam qildi — u Shoирning ra'yini qaytarib o'r ganmagan edi.

Ma'suma Shoирga atab, sergo'sht qilib sho'rva keltirdi. So'ng o'zi tag'in erining yoniga borib, uning ko'ksiga bosh qo'ygancha tek qotdi — Soqol ularni shu holda chizmoqchi edi. Shoир ovqatini ham jimgina ihmadi, yana Tayloqovdan gap ochdi, Tayloqov unday, Tayloqov bunday...

— Tayloqov — telba! — deb baqirdi Soqolning sabri tugab.

Shoir do'sti Tayloqovning kamsitilganiga chidab turolmadi, Soqolga zug'um qildi:

— Gapingni qaytib ol! Sen Tayloqovning tirnog'iga ham arzimaysan! Tayloqov zo'r yigit, fidoyi yigit!..

— Bo'ldi endi, Shoир, — deya mojaroga chek qo'ymoqchi bo'ldi Samad.

Shoir uning ham haqini bermoqchi edi, Ma'suma chaqonlik qildi: Shoирning qaynonasi tufayli Samad bilan topishgani esida, muloyim jilmaydi, erining og'ziga kaftini bosdi:

— Siz aralashmang, Samad aka-a!..

Samad, og'zi yutuq, gapga aralasholmadi, Shoир ham yumsadi. Soqol battar g'ijindi, mo'yqalamiga bo'yoqni qalinroq surtib, yo'g'on bir chiziq tortdi-yu, ko'nglida borini aytdi:

— Tayloqovga ergashib, sen ham telba bo'lding!

— Isbot! — dedi Shoир. — Biz ikkimiz savob ish qilyapmiz.

— Kechasi dalaga chiqib, yulduz sanamaganingga shukr, — deb g'udrandi Soqol.

Shoir to'mtaydi. Yulduzlar haqidagi gapni butun shoir xalqi sha'niga otilgan ta'na toshi deb bildi, lekin labini tishladi.

— Tayloqovga ergashib yurguncha mendan kelib so'ramaysanmi? — deya davom etdi Soqol. — O'zbek adabiyotida ming ismda millionta qahramon bor!

— Nega faqat mingta ism bo'larkan? — dedi Shoir kuyinib. — Axir, har bir qahramon alohida bir odam-ku?!

— Ha, bor, ikki millionta bo'lsin! — deb kildi Soqol. — Mayli, uch millionta!.. Jinnisan, Shoir, quruq, sanoqdan senga nima foyda? Miyangni achitmay, she'ringni yozsang-chi!

— Tayloqovning mehnati-chi? — deb so'radi Shoir. — Axir u shuncha mehnat qildi. bir tiyin olmasdan, ishdan bo'sh vaqtlarida!..

— Tayloqov — laqma, — dedi Soqol. — U laqma adabiyotchi emas, borib turgan kibernetik, sen esa, kibernetik emas, shoirsan, shoir bo'lganda ham g'irt laqma shoir!..

Shoirning e'tirozi susayganini ko'rib, Soqol dadillashdi. Tayloqovni ayamay yakson qila boshladi. Shoir yengildi. Arazlab chiqib ketdi. Ma'suma uning ortidan yugurmoqchi bo'lgan edi, Samad kulib qo'l siltadi:

— Ketgani tuzuk, — dedi u odaticha dangal qilib. — Ikkovi ham ketsa bo'lardi, lekin Abduvali hozircha kerak, suratimizni chizyapti.

Ma'suma xijolat bo'lib iljaydi.

— Kulmang, jiddiy turing! — deb o'dag'ayladi Soqol. — Boshda qanday bo'lsa, shunday turing!... Xotiningizga aytинг, Mansurov, sizni o'ylasin, faqat sizni!..

— Siz odamning o'yini chizmaysiz-ku? — deb e'tiroz qilgan bo'ldi G'aybarov.

— Bilmagan narsangizga tumshuq suqmang, do'stim!

G'aybarov indamay qoldi. Ortiq o'tirolmay, Shoirning ortidan jo'nadi.

Bir hafta o'tib, Shoir Tayloqov ikkalasi sotib olgan kitoblarni mashinaga ortib G'aybarovning uyiga keldi.

— Bular sizga, Toshpo'lat, — dedi. — O'zimga keraklisini olib qoldim, biror elliktacha bor.

— Shuni kutubxonada o'qisangiz ham bo'lardi-ku, — deb koyidi G'aybarov.

— Esga kelmabdi...

U keltirgan kitoblar behisob edi. Javon-u deraza raflari to'lib ketdi, ortib qolgani oshxonaga o'tdi.

— Tajriba tuzukroq o'ylanmagani rost. — dedi Shoir xo'rsinib. — Lekin Tayloqov bari bir zo'r yigit! Siz ishonmaysiz, Toshpo'lat, lekin u zo'r yigit!..

G'aybarov kulib qo'yaqoldi. Uning o'zi ham Tayloqovning yomon odam emasligini bilardi.

Shoir o'zining yangi to'plamidan, radioga eltgan turkumlari-yu Berlindagi tarjimonlardan gapirib o'tirdi. Axiyri bo'l-madi, yuzidan pardani sidirdi.

— Pul qolmadi, Toshpo'lat, — dedi, — Tayloqovdayam sariq chaqa yo'q. Soqolda ko'p, lekin so'ragani uyalaman...

G'aybarov bor pulining yarmini berdi.

Shoir «tajriba»ga pulni ko'proq sarflab yuborgan ekan, yarim yilgacha xiyla qiynalib yashadi. Lekin u tavbasiga tayanmadid. Hatto nochorligidan ham o'zicha bir zavq topardi. O'sha — kamxarjroq bo'lib yurgan kunlaridan birida G'aybarovni teatrda o'tadigan she'riyat kechasiga sudrab qoldi. Minbargi chiqib, boshqa shoirlar qatori she'rini o'qidi. Keyin, tanaffus mahali bufetga kirishdi. Tayloqov ham shu yerda ekan, kelib qo'shildi. Uning ham cho'ntagi puch shekilli, mashqi pastroq ko'rinishdi. Buletning ganchkori, oynavand zali odamga to'la edi. Turfa odamlar, turfa kiyim-bosh, bashang erkaklar-u suluv ayollar, hamma bisotida borini kiyib kelgan, qadahlar jaranglaydi, shampan ko'piradi, qora-yu qizil ikra... G'aybarov odmiroq

kiyingan edi, o'zini sal o'ng'aysiz his qildi. Tayloqovning ahvoli haminqadar... Birgina Shoiring parvoysi falak, o'n besh tiyinlik buterbroddan oltitasini olib, ularga ham manzirat qildi, Tayloqovning bir tus g'arib turganini ko'rib kuldii.

— Qarang, Tayloqov do'stim! — dedi ixlosmandining yelkasidan quchib, — Tumonał odam, lekin bittasi ham she'r yozishni bilmaydi!..

G'aybarov kulib yubormaslik uchun yerga qaradi, Shoiring gapidan Tayloqov battar o'sal bo'ldi.

— Ha, endi... biz omi odamlarmiz, — deb qo'ydi u.

— Yo'q, Tayloqov, — deb xitob qildi Shoir. — Siz omi emassiz, axir siz mening do'stimsiz-ku!..

Tayloqov, iltifotdan xursand, kamtarlik bilan boshini quiyi soldi. U rostdan ham Shoirga do'st edi. G'aybarovga emas, Samadga yoki Soqolga emas, Shoirga do'st. Shoirni birovdan qizg'anish hech kimning xayoliga kelmasdi. U barchaga barobar do'st edi.

G'aybarov Shoirni ko'rganda zavqlanardi. Unga anqovlik ham, go'llik ham, soddalig-u borib turgan shumlik, zukkilik, xudbinlik, maqtanchoqlikdan tortib fidoyilikkacha — turfa xil va zidma-zid xislatlar birday yarashardi.

— Siz ishonmaysiz, Toshpo'lai, — dedi u bir kuni terisiga sig'may quvonib. — Siz ishonmaysiz, lekin men bugun olimga o'xshab qoldim... To'marisni eshitganmisiz?

— Albatta, — dedi G'aybarov. — Massaget malikasi, jasur ayol. Erk uchun kurashgan, o'g'lidan ayrılgan.

— Kayxusravning boshini kesib, qon to'la meshga tiqqan, — deya davom ettirdi Shoir. — Qonsirab kelgan eding, deb aytgan, mana, endi to'yuningcha ich!. Yudifni-chi, Yudifni bilasizmi?

U G'aybarov Yudifni bilmaydi, deb o'yilagan edi, lekin G'aybarov Yudifdan ham, Esfirdan ham xabardor chiqdi.

— Qandaydir o'xshashlik borday, — dedi G'aybarov. — Yudif ham Olofernning boshini kesgan.

— Yo'q, shoshilmang, Toshpo'lat! — deya xitob qildi Shoir hayajonlanib. — Siz avval To'maris haqidagi afsonani eslangu, o'sha manzarani bir ko'z oldingizga keltiring!..

Uning hayaioni kutilmaganda G'aybarovga ham yuqdi, u ko'zlarini chirt yumib, do'sti aytgan manzarani tasavvur etdi: qilich sopidan qabargan, kesilgan boshni tutgan qo'llar va dag'altroq bir ovoz — «Qonsirab kelgan eding mana, to'yguningcha ich!..»

— Endi, kesilgan boshni qo'lida tutgan erkak sarbozni ham tasavvur qiling, — dedi Shoir. — Xo'sh, nima deysiz?

— Yo'q, — deya bosh chayqadi G'aybarov. — Manzara jo'nlashadi, xo'sh, nima bo'pti, erkak erkakni o'ldirdi, mana, boshini qirqib olib, meshga tiqmoqchi bo'lyapti...

— Yashang! — dedi Shoir quvonib. — Afsonani to'qigan odam buni yaxshi bilgan! Endi haligi suratni eslangu, unda Yudif Oloferning kesilgan boshiga oyoq qo'yib turibdi, etagining kemtigidan boldiri ko'rindi, etak ostidan sal bo'rtgan... teparoqda beli, ko'kraklari va nihoyat — chiroyli yuzi!..

— Soqol ham bunchalik aniq tasvirlashi qiyin, — deb uni maqtadi G'aybarov.

— Chalg'imang, andak sabr qiling, — dedi Shoir. — Xo'sh, kesilgan boshga oyoq qo'yib turgan kim? Yudifmi?

— Yudif.

— Kesilgan boshni meshga tiqayotgan ayol-chi? To'marismi?

— To'maris, — deya to'tiqushday takrorladi G'aybarov.

— Endi aytинг, ularning qaysi biri ko'hna?

— Albatta To'maris, — dedi G'aybarov. — Lekin ikkovi juda o'xshashday tuyiladi.

— Balli! — dedi Shoир undan ham, o'zidan ham mammun bo'lib. — Ikkovi quyib qo'ygänday o'xshash, Xo'sh, kim kimdan o'g'irlagan? Massagetlar Tavrotdanmi yoki Tavrot massagetlardanmi?

— Massagetlar qadimiyoq... Afsona ham qadimiyoq.

— Umuman, Toshpo'lat, — dedi Shoир, — bu afsona ekani rostmi? Axir, kesilgan boshlardan qon tomib turibdi-ku?

— Siz... jiddiy olim ekansiz-ku, Shoир! — dedi G'aybarov chindan ham hayratlanib.

— Siz esa haqiqiy shoirsiz! — deb maqtadi Shoир ham o'z navbatida.— Shunaqa gaplar, Toshpo'lat, Shularni o'ylab, dunyo topgan tentakday quvonib yuribman,— G'aybarov aka!.. Esingizdam, sizdan o'lquday tortinardim, «G'aybarov aka» deb atardim?..

— Esimda, — deb jilmaydi G'aybarov.

— Men endi jiddiylashdim. Endi proza ham yozmoq-chiman. To'maris haqida yozaman. Dunyodagi eng zo'r hikoya shu bo'ladi!

G'aybarov unga zarracha bo'lsin ishonmadi — Shoирning shoirligi qolmagan edi. U endi dunyodagi eng zo'r hikoyasini ta'riflashga tushdi:

— To'maris — jangchi ayol. Unga sovut kiydiraman. Bitta temirchini o'ylab topdim, To'maris unga sovut buyuradi, qolgani oson! U yoq'iga To'marisning bevosita ishtiroki shart emas. Temirchi sovutning ko'krak qismini ichdan botiq, sirtdan qabariq qilib yasaydi. Siz o'sha temirchining yuragini his etasizmi?

— Yo'q, do'stim, — dedi G'aybarov. — Axir To'maris butun boshli massagetlar urug'inining boshlig'i, keyin uning o'g'lini shoh o'ldirgan, siz bo'lsangiz... Bu gaplaringiz To'marisning qadrini tushirib qo'ymasmikan?

— Tegmanozik bo'lmang-da, Toshpo'lat! — dedi Shoirning jahli chiqib. — Nimasidan qo'tqasiz? Axir sovutni shoh To'marisning o'g'li o'ldirmasdan turib ham yashash mumkinku? Juda istihola qilsangiz, ana, boringki, To'maris beva bo'la qolsin! Mayli, temirchi ham beva bo'lsin, shunda, ehtimolki, o'zbekchilikka putur yetmas... Ana endi beva xotin beva temirchiga sovut buyuradi. U o'z urug'ini himoya etgani chiqmoqchi. Endi siz temirchining sovut yashashini bir ko'ring! Uning barmoqlariga qarang! U qanday mehr bilan ishlayapti, bolg'asining zarblari qanchalar mayin!.. To'marisning bor go'zal-jigini temirchining barmoqlari-yu bolg'aning mayin zarblarida ifoda etsa bo'ladi. Go'yoki temirchi qattiqroq bolg'a ursa, suluv bevaning siynalariga ozor yetadiganday!.. Siz buni tasavvur etolasizmi, Toshpo'lat, bundan zo'troq hikoyani o'qigamisiz?

— Tezroq yozing, Shoir, — dedi G'aybarov o'ychan.

— Birdan yozib bo'lmaydi, — deya mulohaza qildi Shoir. — Avvalo, o'sha zamonda temir sovut bo'lgan-bo'l-maganini aniqlash zarur.

— Axir bu alsona-ku?

— Bari bir shoshmaslik kerak...

Shoirning «dunyodagi eng zo't hikoya»si shu tariqa yozilmay qoldi. U tuzukroq she'r yozishga ham ulgurmadi. Endi uning xayoli Qobil bilan band edi.

Qobil ularning sal zerikkan va dimiqqan davrasiga toza bir epkin bo'lib kirdi. Yigirma ikki yoshli, umidlari barq urgan ko'rkam bu yigitni ham Shoir boshlab keldi.

— Alpinist Qobil Murodov! — deb tanishtirdi. — Dunyodagi eng zo't alpinist! Ko'plab cho'qqilarni zabit etgan!..

Qobil o'zidan besh-o'n yosh katta, ko'pchiligi uncha-muncha tanilib ulgurgan bu odamlar orasida o'ng'aysizlanibroq turardi.

Jek-Jamolni ham, Tayloqovni ham unchalik yoqtirma-gan davra, bu gal iyi. Qobil hammaning didiga o'tirdi. U keldi-yu, Shoир endi tushlarida tog'larni ko'radigan bo'lib qoldi. «Ijodiy komandirovka» bahonasida qaylargadir haftalab yo'qolib ketardi. U ketgan paytda negadir Qobil ham g'oyib bo'ladi. Keyinroq G'aybarov ular ikkisi alpinistlar lagerida mashq qilishayotganidan xabar topdi. Shoирga, bola-chaqangizni o'ylasangiz-chi, do'stim, dedi, bir kamingiz tog'ma-tog' yurish qoluvdi, avval bir ishni eplab maromiga yetkazsangiz nima qiladi?

— Qanday ish? — deya ajablandi Shoир.

— She'r, — deb eslatdi G'aybarov.

— Men yashayapman, — dedi Shoир. — Hayotning o'zi she'r emasmi? Siz bilmaysiz. Toshpo'lat, lekin Qobildan o'tadigani yo'q, eng kuchli, eng abjir, eng farosatli alpinist! Men hali u bilan G'alaba cho'qqisiga chiqaman!.. Qobil — juda zo'r!..

— Jek ham zo'r edi. Tayloqov ham zo'r edil!, — deya kesatdi G'aybarov.

— Ularning har biri o'z ishida zo'r. Birovlarni kamsitish yaxshimas.

— Ayting-chi, nega Tayloqovniyam birga opketmadingiz?

— Tayloqov — olim, — dedi Shoир. — Olimlar parishion-roq bo'ladi, tog'da yurishi xavilli, uni Qobil chiqolmay qaytgan baland cho'qqining yoniga ham yo'latishmagan bo'lardi.

Qobil bir oycha bedarak ketib, keyin hech kutilmaganda, hamshira xotin yetovida, rangi bo'zday siniqqan, chap oyog'i oqsab, ko'zlaridan ayrilib qaytdi. Tafsilotini o'zi aytmadni, zorlanmadni ham. Juda qistroga olishganida, sirpanchiq ekan, dedi, ikki kun chuqurda qolib ketdim, ko'zoynagim yo'qoldi, qorning oqligidan ko'zlarim qamashdi... Bunga Samadning xotini Ma'suma tugalroq izoh berdi, aytdiki, tog'larda, havo

siyrak joylarda ultrabinafsha nurlar kuchli bo'ladi, ustiga-ustak, Qobilning buyragi ham shamollagan... Xullas, yigit ko'rmay qoldi. Biror yilcha uydan chiqmadi, yupatguvechi chuchmal so'zlardan qo'rqi, domla yollab, bo'rtma-nuqtali alifboni o'rgandi. Mazlumaga, endi nima qilasan, deb og'iz soldi, mayli, mening ham bir kunim o'tar, sen hali yoshsan, boshqa birovni top, sendan xafa bo'lgan — nomard. Mazluma yig'lab tarmashdi, qo'ying, dedi, topganim siz o'zingiz, boshqani boshimga uramanmi, ko'zingiz o'rniga ko'z bo'lay, qo'lingiz o'rniga qo'l bo'lay, iloyim, joningiz omon tursin. Qobilning xo'rligi keldi, xotinining sochlarini siladi, yana so'radi: rostingmi shu, Mazluma yoki, yo'liga gap qilyapsanmi? Rostim, dedi Mazluma, sizni yolg'iz tashlab qo'ymayman, Qobil aka.

Qobil andishali yigit edi. Xotiniga o'ylagani fursat bermoqchi bo'ldimi yoki rostdan ham ajralmoqchi edimi, tug'ilgan joyi Nurotaga ketib qoldi. Mazluma Samad bilan birga borib uni olib keldi. Mazluma oqibatli xotin, dedi keyinchalik Samad G'aybarovga, vafodor xotin, imonim ka-filki, Qobilni hech qachon yolg'izlatib qo'ymaydi, fidoyi ayol. Shu gaplarni ayta turib ko'zlar yoshlandi, G'aybarovning yelkasidan quchdi, qanday yaxshi, qadrdon do'stim, dedi, dunyoda shunday ayollarning borligi qanchalar yaxshi! Qaniydi, tentak Shoir mana shunday ayollarni ulug'lab she'r-lar yozsa!..

Lekin Shoir Mazlumaning fidoyiligi haqida she'rlar yozmadni. Qobilning boshiga tushgan kulfat sabab, u o'ta jiddiylashib qolgan edi. Kasalxonaga har kuni qatnar, har borganida ziyoda bir qat'iyat bilan qaytar edi. Bir kuni jug'rofisi xaritasini olib, barmog'i bilan nuqib ko'rsatdi:

— Mana shu, padariga la'nat!.. — dedi ovozi bo'g'ilib-roq. — U hali Nanga Parbat cho'qqisiga ham chiqmoqchi edi... Alam qiladi, Toshpo'lat, bor-yo'g'i besh ming metr,

sigir tezagiday pastak bir cho'qqi pand berib o'tirsa-ya! Men o'shanga chiqmasam bo'lmaydi, Toshpo'lat! Qobilning o'miga kimdir uni zabi etishi kerak-ku!

G'aybarov unga ishongisi keldi.

## 9. IKKI KUN AVVAL,

U direktorga uchrashmoqchi bo'lib, institutga kirdi. Haykal G'aniyevichning qabulxonasida kotiba qizdan boshqa hech kim yo'q edi.

— Domla sizni yo'qlagan edilar, — dedi u G'aybarovga — Kiravering. Tabriklash esingizdan chiqmasin.

— Axiyri berishibdi-da? — deb so'radi G'aybarov,

— Oldilar, — dedi kotiba qiz. — Ertaga gazetada e'lon qilisharkan. Samad Mansurovich aytdi. Bugun domlaning kayfiyatlar juda yaxshi.

— Mening ham kayfiyatim yaxshi, — dedi G'aybarov. — O'zingizdan so'rasak, Salimaxon?

Salimaxon qo'lidagi jurnalni stol ustiga tashlab, erinib-roq jilmaydi — uning kayfiyati, yoshligi, aft-angori — hamma narsasi yaxshi edi.

— Kiravering, Toshpo'lat Raimovich, — deb lutf qildi u. — Domla hozir yolg'iz o'tiribdilar.

G'aybarov charm qoplamali eshikning shisha qabzasidan tortdi-yu, kabinet to'rida o'tirgan Haykal G'aniyevichni ko'rди. Imo bo'lgach, o'zini ichkari olib, domla ko'rsatgan joyga — uzun stol yoniga tizilgan kursilardan biriga cho'kdi, kabinet egasini tabrikladı.

— Ha, endi... kamtarin xizmatimiz... — dedi Haykal G'aniyevich xijolat chekkanday. — Shunday bo'p qoldi... Sizni chaqirtirgan edim. Hozir yoshingiz nechada?..

— O'ttiz uch... — dedi G'aybarov sal ajablanib.

— Kechirasiz, bu shunchaki savol-da, — dedi Haykal G'aniyevich. — Yoshingizni bilaman. O'tgan hafta xodimlarning tarjimayi holini varaqlagan edim. Gap shundaki, G'aybarov, boshqa odamlar...

— Boshqalar allaqachon birof ishning boshini tutgan, demoqchisiz-da, — deya chaqqonlik bilan so'radi G'aybarov.

Haykal G'aniyevich tasdiq ma'nosida bosh irg'adi.

— Albatta, qilgan va qilayotgan birmuncha ishlaringizni yo'qqa chiqarmoqchi emasman, — dedi u. — Universitetda darsingiz ham bor, tuzuk. Lekin bu hali oz. Kecha Sotvoldiyev domla meni andak uyaltirdi. Bir o'zim o'ttizta shogird chiqardim, dedi. Siz-u menga Sotvoldiyev domlaning maqtanchoqligi ayon, u avval maqtanadi, va'da beradi, keyin o'sha va'dasini bajarmay iloji qolmaydi. Balki shuni o'ylab turib, atay maqtanar, nima dedingiz, G'aybarov?..

Shu yerda G'aybarov ozgina taltaysa bo'lardi — Haykal G'aniyevich uni teng ko'rib, kimsan akademik Sotvoldiyev haqida kulgi bilan gapiryapti.

G'aybarov iljaydi: rahmat, Haykal G'aniyevich.

Haykal G'aniyevich ham iljaydi: tuzuk, G'aybarov, o'zin-gizni tuzuk tuyapsiz.

— Men, garchi domla ko'pitiribroq gapirayotganini sezgan bo'lsam ham, juda uyaldim, — deya takrorladi Haykal G'aniyevich. — Ha, bugun ijtimoiy fanlardan dars beradigan muallimlarning seminarini chaqirishgan ekan. Siz tuzukroq kiyinmatsiz ham...;

— Dalada ishlayapman, Haykal G'aniyevich. — dedi G'aybarov.

— Mayli, zarari yo'q, — dedi Haykal G'aniyevich. — Yigitni janda ichida ham tanib olsa bo'ladi. Seminarda Samad Mansurovich doklad qilishi kerak edi, lekin

o'zingizga ma'lum, uning doktorlik himoyasi yaqinlashib qolgan, shu sababdan, haddimiz sig'ib sizni bezovta qildik...

— Qo'llimdan kelarmikin? — deya kamtarlik qilgan bo'ldi G'aybarov.

— Keladi, — dedi Haykal G'aniyevich. — Samad Mansurovich o'z o'rniga sizni tavsiya qildi. G'aybarov o'rnimni bosadi, vaqtida men ham uning uchun xizmat qilganman, deb aytidi.

— Ha, albatta, — deb g'udrandi G'aybarov, lekin Samadning o'ziga qanday xizmati o'tganini eslayolmadidi. — Biz u bilan eski og'aynimiz, qo'llimdan kelsa, bemalol...

— Islom mavzusida biror soat gapirib bersangiz kiloya, — dedi Haykal G'aniyevich. — Samad Mansurovich sizni haqiqiy improvizator, deb ta'rifladi.

— Yolg'on, — dedi G'aybarov. — Men badihago'y emasman.

— Katta olimlardan ham ikki-uch kishi qatnashadi, — deb ogohlantirdi Haykal G'aniyevich. — O'ylab, pishiqroq qilib gapiring. Institut markasi degan gap bor... Keyin yana bir masala... Komandirovka muddatingiz bitay deb qoldi, qilingan ishlar xususida batassilroq hisobot tuzishni o'ylang.

— Aytarli ish qilmadim, Haykal G'aniyevich.

— Ikki oy degan edingiz, ikki oyga ruxsat berdim. Muddatni boshqa cho'zolmayman.

— Ilmiy kengashga ariza berib ko'raman, Haykal G'aniyevich, — dedi G'aybarov. — Men ibodat ashyolaridan ko'proq topgunimizcha o'sha yerda bo'lmoqchiman. Hozircha qo'llimdag'i materialllar juda kam.

— Menga, buddaparastlarning ibodatxonasini topishdi, deb aytishgan edi-ku?

— Surxondaryodagi yigitlar topishdi, — dedi G'aybarov. — Bizning ekspediysiya hozircha sopol sinqlari-yu bazm tashvirlaridan nariga o'tgani yo'q.

— Siz dinshunossiz, G'aybarov, — dedi Haykal G'aniyevich norozi ohangda. — Ibodat ashyolarini bevosita o'zingiz qazib olishingiz shart emas.

— Mening o'zim ham nimanidir topmoqchiman, — dedi G'aybarov o'jarligi tutib. — Ko'ngil uchun, Haykal G'aniyevich...

— Ko'ngilni qo'yaturing, kasbimga mehrim susaygan, deb ayisangiz tuzuk bo'lardi. Xayolingiz parishon, G'aybarov, meni sezmaydi deb o'ylasangiz xato qilasiz...

G'aybarov indamadi. Bir hisobda Haykal G'aniyevich haq edi.

Stol chetidagi sarg'ish quticha qitirlab, kotiba qizning ovozi eshitildi:

— Eslatib qo'y, degan edingiz, domla, seminarga yarim soat qoldi...

— Rahmat, Salima qizim, — dedi Haykal G'aniyevich quticha tugmasini bosib, so'ng G'aybarovga yuzlandi: — Meni qabulxonada kutib tursangiz.

U stolidagi qog'ozlarni yig'ishtirishga tushdi. G'aybarov qabulxonaga chiqdi. Eshik yonidagi baland oynaga qarab ust-boshini tuzatgan bo'ldi. Shimining pochalarini latta etik qo'njidan chiqargan mahali toza parketga shuvillab tuproq to'kildi.

— Kechirasiz, — dedi u kotiba qizga gunohkorona qarab.

— Hechqisi yo'q, — dedi qiz tumtayibroq. — Panama sizga juda yarashibdi, lekin uniyam qoldirib ketganingiz tuzuk, G'aybarov bosh kiyimini yechib, burchakdagi ilgichga ildi.

— Afuski, siz hali juda yoshsiz, — deb kuldi u qizga yuzlanib. — Bo'lmasam, boshdan-oyoq tillaga ko'mib tashlardim.

— Tillangiz ko'pmi? — deya o'smoqchiladi qiz.

— Ko'p, juda ko'p, — dedi G'aybarov. — Ikki oydan beri qazib yetibman. Yuzta Salimaning ham mahriga yetadi.

— Siz boshqalari bilan gaplashib ko'ring, Toshpo'lat Raimovich, — dedi qiz, so'ng soxta afsus qilib bosh chayqadi: — Yo'q, oyim ruxsat bermaydilar, men yoshman, siz qarisiz...

G'aybarov mulzam tortdi. Qiz qasos olganidan xursand, yuzlari gul-gul yondi, bo'yoq tegmagan kipriklari pirpiradi, mashinkaning ikki chekkasidan tutgan ko'yisi, sas chiqarmay kuldi: o'n sakkiz yoshli, o'ysiz, tashvishsiz, shafqatsiz — havasni keltirguday!

Kabinetdan kumush sochlarini taragancha Haykal G'aniyevich chiqdi. Bardam, kiygan kiyimi bashang, atrofga yappyangi charm papka va yengilgina farangi atir isini taratib chiqdi. Kotiba qizni baxtiyor ko'rib yigitga ta'naomuz qaradi.

G'aybarov ko'zini olib qochmadi.

— Ketdik, — dedi Haykal G'aniyevich hafsalasiz roq. — Siz telefonidan boxabar bo'lib turing, Salima qizim. Buxorodan Shamsi To'rayevich qo'ng'iroq qilishlari mumkin.

Salima odob bilan boshini quyi soldi.

Zalda turli yoshdag'i, lekin birdek salobatlari yuzga yaqin odam yig'ilgan edi. To'rdagi qizil mato yopilgan stol ortida akademik Sotvoldiyev, Haykal G'aniyevich va yana ikki-uch taniqli olim o'tirardi.

Ro'znomadagi mavzu Samadning sohasi edi; o'rta asrlar o'zbek she'riyatidagi antiklerikal g'oyalar, xudoga qarshi shaxslar isyonasi va hokazo. G'aybarov do'stining «mulki»ga daxl qilolmadi: bu mavzuni Samaddan oshiribroq sharhlashiga ko'zi yetmasdi.

G'aybarovning nomi e'lon qilinib, u minbarga chiqqanida zaldagilar sal napisandroq qarashdi. G'aybarov bu qarashning sababini o'zining chang bosgan eski kastumidan ko'rdi: tanimasni siylamas va umuman, izzatni pulga sotib olib bo'lmaydi, do'stim G'aybarov, hamma ayb o'zingizda.

U gapni islam tarixining olis burchagidan boshladi, ya'ni u davrlarda hozir ko'rib turganimiz afsonalar silsilasi xiyla tarqoq edi, xurosiy tuyg'ular, xurosiy mavjudotlar, deylik, devlar va jinlar aqlli roviylarni, roviylar esa, yana bir zukko odamni — Muhammad payg'ambarni kutardi. Xurosiy mavjudotlar, xususan, jinlar ko'p jihatdan odamlarga o'xshab ketadi, lekin ular nisbatan kamtarroq, ular odamlarni aqli sanashadi, o'zlariga teng va balki usiunroq qo'yishadi, negaki, Dovud payg'ambarning mushtumzo'r o'g'li Sulaymon o'ziga itoat qilmagan jamiki jinlarni tutib ko'zalarga qamaga, aqalli birorta ham jin o'ttiga chiqib, «E, Sulaymon, mundoq tushuntir, sen o'zing kimsan?» deb so'ramagan.

— Taqdir savol so'ramaganlarni yomon ko'radi, — deb gap qo'shdi Haykal G'aniyevich unga rag'bat bildirib.

— Jinlar Sulaymonni odam deb o'ylashgan, — dedi G'aybarov. — Odam deganimiz aqli maxluq, xomo sapiyens, binobarin, Sulaymon odamligiga borib shu ishni qilyaptimi, demak, bunda bir hikmat bor...

G'aybarov jinlarni bandi etish manzarasini shunday chizdi: dengiz sohiliga taxt qo'yib, unga Sulaymonni o'tkazdi, uning yoniga saf-saf, lak-lak va guras-guras qo'shin — moridlar, odamlar, parranda-yu darrandalarni berdi. Burg'u chalingach, shakkok jinlarni bo'yinlariga chilvir solib sudrab kelishdi. Sulaymon imo qilgach, jinlar jimgina, itoatkorlik bilan ko'zalarga kirishdi. Birortasi miq etmadni. Xizmatkorlar ko'zalarning og'ziga so'rg'ich surib, qatronga yumalatib olishdi. Sulaymon so'rg'ich ustidan uzukdag'i mashhur muhrini bosdi. So'ng xizmatkorlar ko'zalarni birin-ketin dengizga uloqtirishdi.

— Devlar jinlarga nisbatan dadilroq, — deya davom etdi G'aybarov. — Ular ancha badfe'l, urishqoq, go'yo bu dunyoda ularning birligina maqsadi bor — o'zlariga ajal axtarish. Jonlarini, siz-u bizning tishning kavagida asraydigan

aziz-ü laziz jomni galvars devlar allaqanday iskablopas chivning ketiga tiqishadi, chivinni chumchuqning ketiga, chumchuqni temir sandiqqa.. So'ng bu sandiqni quillab, kaliti bilan qo'shib dengizga tashlaydilar yoki biror qari emanning yorig'iga bekitadilar. O'zları esa, parvoyi falak, duch kelgan xonning qızını o'g'irlaydilar. Qızıq joyi shuki, ular o'g'irlagan jonlarga tuzukroq qaramaydilar ham. Devning xon qızidan boshqa tashvishlari ham ko'p: shikor, kimo'zarga parvozlar, xotinsiz bazmlar. Bu paytda xonning arzanda qizi devning hayhotday go'shasida yolg'iz zerikib, yomon xayollarga boradi, miyasiga shahvat urib, devning g'irt to'nkaligidan, haligacha kelib quehog'iga kirmaganidan g'azablanadi, so'ng, devdan butkul umid uzib, tushlariga kirib chiqadigan afsonaviy poshshovachchani kutadi. Dev shikori bilan ovora, malika — xayoli bilan, shu asnoda kutilgan poshshovachchha qirchang'i baytalini minib keladi. Keladi-yu tizzalari dag'-dag' titrab, malikaning etaklari ostiga bekinadi. Nima balo, malikaning kindigini tomosha qilmoqe himi, deb o'ylaysiz!..

Boyadan beri taajjubda o'tirgan zaldagilar xiyol jonlanishi. G'aybarov Haykal G'aniyevichning norozi qiyofada luqma tashlashnga chog'langanini ko'rib, so'zini shosha-pisha davom ettirdi:

— Endi dev paydo bo'lishi kerak. Ostona hatlamay turib, ovozining boricha bo'kiradi: «Uf, odam isi kelyapti!..» Shunda haligi qo'rkoq poshshovachchha hech kutilmaganda botirga aylanadi, malikaning etaklari ostidan chiqib, kichkina zulfiqorini boshi uzra to'lg'agancha devga hamla qiladi.

— Dev katta emasmi? — deya savol berdi oldindi qatorda o'tirganlardan biri.

— Katta, — dedi G'aybarov. — Bo'yı osmon barobar, boshi gumbazday, qo'llari naq ming yillik chinor!..

— Shunisini demasangiz naq bizning Minorai Kalonga o'xsharkan! — deb xitob qildi boyagi kishi.

— Balli! — dedi G'aybarov zalni sal-pal qiziqtirganidan mammun bo'lib. — Dev ana shunday bahaybat va serviqor. Shahzodani ilkisroq turtib yuborsa bas, joni chiqib ketadi. Lekin dev negadir undan qo'rqedir, buning ustiga, sotqin malika qaysi go'rdandir bir tog'ora tariq keltirib (tariqning tayyor turganini qarang!) bechora devning oyoqlari ostiga sochib yuboradi. Yoz kumida yaxmalakning o'zginasi deysiz! Xullas, dev sing'anadi-yu poshshovachchaning oyoqlari ostiga yiqladi. Xuddi shunday — oyoqlari ostiga yiqladi. Dev shunchalar kichik edimi?.. G'aybarov iljaydi, atay bir muddat sukul saqladi.

— Gapiring, o'rtoq G'aybarov! — dedi zaldagi odamlardan kimdir. — Qiziq gaplar ekan!

— Jiddiyroq bo'laylik, o'rtoqlar, — deb grafinni chertdi Haykal G'aniyevich. — Davom eting, G'aybarov...

G'aybarov uning ortiqcha ehtiyyotkorligidan ensasi qoldi, lekin indamadi — zalda akademik Sotvoldiyev o'tiribdi, ustozi bilan tortishadigan payt emas.

— Xullas, miflarda miqdor tushunchasi juda nisbiy, — dedi u zalga o'girilib. — Keyinchalik paydo bo'lgan klerikal va dunyoviy yozma adabiyotdan farqli o'laroq, miflar poetikasi xiyla sodda. Qadimiy miflarning qahramonlari — devlar va jinlar — ularni to'qigan odamlar kabi sodda, hatto kibrliroq ma'rifat ahlining kulgisini ham qo'zg'atadi. Ba'zida ularga achinib ketasan kishi. Axir, o'zingiz o'ylang, allaqanday jimit shahzoda so'loqmonday devning boshini pakkiday shamshirchasi bilan sharita uzib tashlasa-ya! Men bu miflarning zamirida ikkita istak ko'raman: xohlang, shahzodaning boturfigidan zavqlaning, xohlang, menga o'xshab, devga achining va uning tentakligidan norozi bo'ling!.. Devlarning e'tiborga molik

jihat shundaki, ular garchi g'irt tentak bo'lsa ham, har qalay, ozodlikda yashaydi. Devlar olifta shahzodalarga o'xshamaydi. Ular xiyla faol jonzotlar. Ularning hayoti xiyla jo'n bo'lsa ehtimol, lekin rasmana hayot, ularning mashg'ulotlari ham, shodlig-u hasrallari ham real, real odamlarning mashg'ulotlariga, quvonch-u anduhlariga o'xshaydi. Buning sababi shundaki, devlar bizga islam demonologiyasidan o'tmagan, ularni ajdodlarimizning o'zlarini to'qib chiqqagan. Islam aqidasi bilan birga kirib kelgan jinlar mavzusi esa, musulmonlik dogmasining o'zi kabi, asrlar mobaynida o'zgarmagan. Jin deganimiz o'ta mo'min mayjudot. Jin ko'pincha oshiq-ma'shuqlar o'rtasida qo'shmachilik vazifasini o'taydi, tunlari malikalarni yelkasida ko'tarib uchib, uzoqdagi xotinsiragan shahzodaning og'ushiga eltadi, so'ng erta tongda yana uyiga keltirib qo'yadi. Jin dengiz yoki loyqa daryo tubida ming yillab g'iq etmay yetishi mumkin. Agar ertakchi izmidagi birorta baliqchining to'riga ilinib chiqmasa, mahshar kunigacha ham yotaveradi! U shunchalik mo'min va itoatkor!..

Zalda o'tirganlarga G'aybarovning kuyinchakligi ma'qil keldi. Yuzlarga kulgi yoyildi. Kimdir hatto qarsak chaldi. Haykal G'aniyevich tartib o'matmoqchi bo'lib tag'in qo'liga galam oldi, lekin grafinni chermadi, minbar tarafga buri-lib, G'aybarovning o'zi tomon qarashini kutdi. Lekin G'aybarov uning bor-yo'qligini unutib yuborganday edi.

— Hazil-huzil yaxshi narsa, o'rtoqlar, — dedi u zalning tinchlanishini kutib. — Lekin endi islam demonologiyasini jiddiyroq tahlil qilishga o'tsak. Avvalo sizlarga barcha xurosiy kuchlarning mansab-u nasabini bir karra eslatmoqchiman...

G'aybarov minbar ortidan chiqib, zal to'ridagi doska yoniga bordi va uning teparog'iga katta harflar bilan yozdi: OLLOH.

— Shunday qilib, eng tepada xudo turadi. Mangu va buyuk jamiki borliqning avval ibtidosi. Undan sal past-roqda — to'rt nafar maloik...

G'aybarov ularning ham nomini yozdi: JABROIL, AZ-ROIL, MEKOIL, ISROFIL.

— Chap tarafdan Shaytonga joy beramiz, — dedi u va uning nomlarini yozdi: SHAYTON, AZOZIL, DYABOLOS, ISBLIS. — Bularning barisi bir jonzot. Jamiki yovuz kuechlar ning sarkori. Endi ularning burch ham vazifalarini ko'raytik... Azroilni hamma biladi. U o'z «xizmat»lari bilan ancha mashhur. Jabroilning ham kimligi ma'lum. U yerdagi payg'ambarlarga vahiy keltiradi, payg'ambarlar esa bu ma'lumotlarni o'z ummatalariga ko'pitiribroq uqtirishadi, vahiy misoli don bo'lsa, payg'ambar va'zi qozonda portlagan bodroqqa o'xshaydi...

— Xullas, avom xalqni laqillatishadi, — deya gap qo'shdi Haykal G'aniyevich rag'ba bildirib.

— To'rt og'ayni maloiklar orasida Isrofildan o'tadigani yo'q. — deya davom etdi G'aybarov zavq bilan. — Maloik Isrofil juda g'aroyib. Uningdek tanbal jonzotni arshi a'lo tugul, pastdag'i yetti osmon qatlardan ham topolmaysiz. Nazarimda, Isrofil obrazini yaratishda odamzodning orzumandligi me'yordan oshibroq ketgan. Ilohiy bitikka ko'ra, bu maloik ro'zi mahshar kelganidan ogoh etib, bir martagina sur tortib qo'yishi kerak, xolos. Boshqa hech tayinli ishi yo'q. Mahshargacha bernalol yonboshlab yotaveradi!. Axir, qaysi tanbal banda Isrofilga teng keladi?.. Qaysi zot borki, qiyomat qo'pmasligini shu maloikdan ko'proq orzu qilsin!. Bunday yorqin obrazlarning Sharqda yaratilgani bejiz emas. Xalqimiz astlar mobaynida ko'shk-u ayvonlarda, parq-u bolishlar ustida, filning qulog'i-day ulkan yelpig'ichlar tagida yotgan qanchadan-qancha isrofillarni ko'rmagan deysiz!. Yana shuni aytishni istardimki.,

G'aybarovning gapi bo'g'zida qoldi. U zalning oxirroq'iga hayratidan ko'zlarini yiribroq qaradi. Xato bo'lishi mumkin emasdi: so'nggi qatorda, atlas ko'ylik kiygan yoshgina juvonning yonida u kecha bozorda ko'rgan odami — uzumfu-

rush o'tirardi. Faqat hozirgi qiyofasi bozorchiga aslo o'xshamaydi — egnida kulrang pidjak, bo'ynida serhasham galstuk, sochlari orasidan farq ochgan... Uzumfurush ko'zlarini olib qochmadi, beparvo jilmaydi, so'ng yonidagi juvonga engashib nimadir dedi, juvon ham unga qo'shilib jilmaydi, boshini xiyol qiyshaytirgancha, minbardagi notiqqa qiziqsinib tikidi.

— Davom eting, — dedi Haykal G'aniyevich G'aybarovning jim qolganini ko'rib. — Yana bir bor iltimos qilaman mavzudan ko'p chalg'imang...

— Urinib ko'raman, — dedi G'aybarov xushlamaygina. — Lekin avval bir kishi bu yerdan chiqib ketishi kerak. Agar u chiqmasa, leksiya o'qilmaydi.

Zalda g'ala-g'ovur ko'tarildi. Odamlar hech narsaga tushunmay, old-u ortga olazarak qaray boshladilar.

— Sizni aytyapman, domla, — dedi G'aybarov uzumfurushga tik qarab. — Siz chiqib keting!..

Uzumfurush erinibgina o'rnidan turdi.

— Nega? Biz siz bilan tuzukroq tanish emasmiz-ku, bunday deysiz?.. Tushunolmayapman...

— Kecha ko'rishgan edik, — dedi G'aybarov.

— Yo'g'-e! — dedi uzumfurush battar ajablanib. — Sizni birinchi marta ko'rib turibman, domla. Sirdaryodan bugun choshgohda yo'lga chiquvdim...

— Muxlis Soipovich bilan birga ishlaymiz, — deb gap qotdi uning yonida o'tirgan atlas ko'yakli juvon. — Avtobusda ham birga keldik.

— Nahotki? — dedi G'aybarov nochor qolib.

— Meni xafa qilyapsiz, domla, — dedi uzumfurush. — Kecha boshqa odamni ko'rgansiz. Dunyoda menga o'xshagan odam juda ko'p shekilli...

— Ko'pligi yomon-da, — dedi G'aybarov. — Uzr, men yanglishibman.

Uzumfurush joyiga o'tirdi. Yonidagi ayolga nimadir dedi, ayol hamdardona bosh chayqadi.

— Ovozingiz ham o'xsharkan, — dedi G'aybarov sal o'ylab turib. — Bari bir, siz chiqib ketsangiz bo'lardi. Navbatdagi leksiyagacha magazinlarni birrov aylanib kelardingiz...

Uzumfurush o'midan qo'zg'almadi. Najot so'raganday yonidgilarga ko'z yogurtirdi. Odamlar norozi bo'lib shovqin solishdi.

— Nega u chiqib ketarkan?..

— Tushuntirib gapirish kerak!..

Haykal G'aniyevich grafinni ehertib o'midan turdi.

— Hali yoshsiz, G'aybarov, — dedi u bosiqlik bilan, — Ma'ruzani ham yolchitmadningiz. Fanda bunaqa yuzakilik ketmaydi, uka. O'rgatyapti, deb o'ylamang, lekin shoirlik qilmasdan, islomning mohiyatidan kelib chiqib gapirsangiz bo'lardi. Garchi islom dini bareha yovuz kuchlar timsollarini boshqa majusiy dinlardan qabul qilib olgan esa-da, bu dinlarning asl tomirlari tag'in o'sha islom asosechilar bo'l mish arablarga borib taqaladi...

— O'rmuzd bilan Ahrimanni qayga qo'yasiz? — deb so'radi G'aybarov uning gapini bo'lib.

Haykal G'aniyevich savolga parvo qilmadi:

— Ularni sizga berdim!.. — dedi jilmayib.

Zalda o'tirganlar domlaning hozirjavobligidan kulgan bo'lishdi. Haykal G'aniyevich kamtarlik bilan boshini egdi, so'ng iljaygan ko'yil so'zida davom etdi: — Sizning savolningizga kelsak, o'rtoq G'aybarov, bunga jayob berish unchalik qiyinmas. Mening fikrimeha, yahudiylarning muqaddas kitoblari aslida arablarda mavjud bo'lган qabilaviy va diniy an'analarning inshosidan o'zga narsa emas. ular yahudiylarning o'zlariga qon-qardosh, lekin hali ko'chmanchilik yo'rig'i-dan chiqishga ulgurmagan arablardan ilk bor ajralib chiqishlari asnosida sal-pal o'zgartirilgan, xolos... — Haykal G'aniyevich nafas rostladi va G'aybarovga viyorli bir qarab oldi.

— Davom etavering, domla, — dedi G'aybarov istehzo bilan. — Juda yaxshi gapni aytdingiz!..

— Engelsda ham shunga o'xshash bir gap bor, — deya noiloj tan oldi Haykal G'aniyevich.

— Men ham shunday deb o'ylovdim, domla...

Haykal G'aniyevich qizarindি, G'aybarovga o'qrayib qaradi.

— Jiddiyroq bo'lishga urining, o'rtoq G'aybarov, — dedi u asabiylashib. — Sizga o'xshagan olimlarga ajina yoki jining tub mohiyatidan ko'ra, ularga bo'lgan xurosiy e'tiqod shakllari muhimroq ko'rindi. Siz bu odmi e'tiqoddan zavq olasiz, shu sababdirki, bo'lar-bo'lmasga cho'pehak yoki latifa sari chalg'ib ketyapsiz. Ajinaning bo'yniga ishtonbog' solib bo'g'sang, osongina taslim bo'larkan. Bu cho'pehak g'oyat kulgili, kulgi barobarida ma'lum joziba ham kasb etadi. Lekin u hayratangiz oddiy. Jo'nlik esa, ajinani xurosiy mohiyatidan mahrum etadi, qo'rquvni yo'qotadi...

— Sizningcha, odamlar ajinadan mudom qo'rqlishlari shartmi? — deb so'radi G'aybarov. — Axir bu soz-ku, domla? Odamlarning ajinadan mutlaqo qo'rqligini zo'r-ku!..

— Turgan-bitgani badiiyot! Bu gaplaringiz folklor tasarrufiga kiradi, — dedi Haykal G'aniyevich kesatiqqa e'tibor bermay. Axir, siz islamshunos olimsiz. Jin va devlar siz aytganchalik beozor emas, ular yovuz kuch timsoli, ular faqat yovuzlik qilmog'i mumkin!..

— Xuddi biror dev yoki jin boshingiz ustida qilich tutib turganday gapirasiz-a, domla! — deya kulib yubordi akademik Sotvoldiyev. — Vahima qilishga arzimaydi, Haykal G'aniyevich, axir bular hammasi shunchaki mis, cho'pehak...

Haykal G'aniyevich luqmani eshitmaganday edi. Hozir uning fikr-u zikri shogirdi G'aybarovda, ishqilib, u chuv tushirib qo'ymasin, deb tashvishlanardi. Haykal G'aniyevich o'z institutini yaxshi ko'rardи. Uni o'zi tashkil etgan desa

ham bo'ldi. Aqlini taniganidan beri sanoqsiz munozaralarni ko'rgan, ilm ahli qo'llaydigan juda ko'p zalvari so'zlar va usullarni yod bilar, payti kelganda qaltis holatlardan osongina chiqib ketishni ham uddalar edi. Hozir G'aybarov o'zidan mammun, aytayotgan gapini jiddiyroq idrok etmayapti, mabodo zavqi haddan oshib ketsa, rasmiyroq bir safsata bilan uni mahv etishlari ham mumkin. Agar G'aybarov moi qilinsa, Haykal G'aniyevich uchun, nasaqat u, butun boshli institut uchun isnod! Har holda, Sotvoldiyev va uning xodimlari tek qarab turmaydi, yaxshisi, sopini o'zidan chiqarish kerak, salgina norozilik, salgina tahdid, ya'niki, qattiqko'l ustoz erkator shogirdiga dashnom berdi, uni g'oyaviy xatolardan saqlab qoldi.

— Siz zararli diniy tasavvurning real ekaniga nima deysiz, G'aybarov? — deb so'radi Haykal G'aniyevich.

G'aybarov uning niyatini payqab, boshini sarakladi.

— Menimcha, domla Sotvoldiyev haq, vahima qilish ortiqebla, — dedi u. — Folklorni xush ko'rmasligingiz pand beryapti, Haykal G'aniyevich. Folklorni xush ko'rsangiz edi, mushkul lahzalarda odam bolasiga yaxshilik qiladigan jo'mard devlarni ham eslagan bo'lardingiz.

— Oq it, qora it, barisi bir it, — deya bo'sh kelmadi Haykal G'aniyevich.

— Ehtimol, itlar shunaqadir, — dedi G'aybarov. — Lekin bu maqolning devlarga daxli yo'q. Xalq qilmishlariga qarab devlarni oq-u qora ranglarga bo'yab tilgurgan; oq dev — yaxshi dev, qora dev — yomon dev. Siz meni badiiyot ta'siridan xalos qilmoqchisiz. Haykal G'aniyevich, lekin tuzukroq o'ylab qarasak, biz dinshunoslar folkorsiz hech qayoqqa borolmaymiz. Yolg'iz aqoid bilan cheklansa, ilmiy ateizm quruq inkorga, shunchaki jo'n haqiqat majmuasiga aylanib qoladi. Ilm yaxshi narsa, o'rtoqlar, — deya davom etdi G'aybarov zalga qarab, — lekin biz olim xalqi uning

kasridan andak kekkayib ketmadikmikan?.. Go'yo birligina biz dunyo asroridan voqifmiz!.. Boshqalarni nodon deb o'yaymiz. Eng yomoni shuki, ularni nodon fahmiab, o'lib-tirilib o'rgata boshlaymiz. Olimlikka da'vo qilmaydigan kishilar esa, biz olimlarning avom-u nodon ekanimizdan kuladi!

— To'g'ri! — deb ma'qulladi oldingi qatorda o'tirgan oq sochli kishi, so'ng o'rnidan g'oz turdi — Bizning kekkayganimiz rost, o'rtoqlar!

— E, bu qanaqasi bo'ldi, o'rtoq Badalov?.. — deya lutf qildi akademik Sotvoldiyev. — Sizni eng kamtar domlamiz, deb yursak!..

— Bu butunlay boshqa narsa, Nosir Xalilovich, — deb iljaydi Badalov, so'ng izoh berdi; — Men bir kuni kolxozi shiyponiga borib leksiya o'qidim. Avvaliga tappa-tuzuk quloq solib o'tirishdi...

— Keyin uxbab qolishdimi? — deb so'radi Haykal G'aniyevich «anoyilik» qilib: Badalov akademik Sotvoldiyev boshliq institutdan edi.

— Mening leksiyamda odamlar uxlamaydi, — dedi Badalov g'urur bilan. — Gap shuki, men... hali o'rtoq G'aybarov aytganday, dev va ajinalarni aytib qo'rqiymoqchi bo'lganimni bilaman, hamma piq-piq kula boshladi. Mening jahlim chiqdi. Xurofot yomon narsa, hech kuladigan joyi yo'q, deb aytdim. Lekin soydasini bo'lsa qani! Men devlarni gapirib asabiylashganim sayin ular battar kulishadi. Keyin bilsam, ular o'sha joyda o'tirgan davangiday piyonista yigitga «Dev» deb laqab qo'yishgan ekan!..

— Devlar ham piyonistalikni o'rganibdi-da!.. — deb yana hazillashdi akademik Sotvoldiyev.

Zaldagilar maza qilib kulishdi. Haykal G'aniyevich ham o'zini tutolmadidi — u endi leksiyaning mana shunday, quyushqonsiz o'tayotganidan mammun edi.

— Kechirasiz, o'rtoq G'aybarov, gapningizga so'roqsiz suquldim. — dedi Badalov joyiga o'tirarkan.

— Yo'q, ayni vaqtida suquldingiz, — deb kului G'aybarov. — Meni qo'llab yubordingiz, rahmat, domla. O'zimning ham shunaqa mulzam qolgan paytlarim bo'lgan. Ba'zida xalq biz olimlarning avomligimizdan kulishi turgan gap. Chunki u hammadan donoroq. Uning qonida asrlar mobaynida o'jar bir dahriylik yashab keladi. Siz-u biz olabo'ji aytib qo'rqiitmoqchi bo'lamiz, lekin bilmaymizki, jamiki olabo'jilarni, ajina-yu devlarni xalqning o'zi o'ylab topgan, o'zi nafratlanadi va hatto sevadi!..

— Oshiribroq yubordingiz, — deya e'tiroz bildirdi Haykal G'aniyevich. — Judayam sevmasa kerak?

— Sevadi, — deb takrorladi G'aybarov. — Mana, men o'zim... jinlarni yaxshi ko'raman.

Haykal G'aniyevich shogirdini yana tartibga chaqirmasa bo'lmasligini sezdi.

— Gaplariningizdan xurofot isi kelyapti, G'aybarov!

— Yo'q, aslida bu ham bir ilm...

— G'irt xurofot! — dedi Haykal G'aniyevich qizishganday bo'lib, — Haqiqat bilan xurofot orasidagi chegara qayda qoldi. do'stim?..

Boyagini bemalol kulib o'tirgan zal birdan jimib qoldi. Bahs o'ta jiddiy ko'rindi. Birgina akademik Sotvoldiyev Haykal G'aniyevichning shumligini payqdadi, kenglik qildi. Mayli, yosh yigit, shoshirmay qo'yaqoling, deganday unga ko'z qisdi.

— Men sizdan jiddiyoq gaplarni kutgan edim, — deya har ehtimolga qarshi po'pisa qildi Haykal G'aniyevich. So'ng o'rnidan turib, jilovni qo'liga oldi. — Uzr, o'rtoqlar, bizning institutda tartib shunday, birov birovimizni ayab o'tirmaymiz, — dedi akademik Sotvoldiyevga kulib qarab. — Gapning rosti, Toshpo'lat Raimovichning qiziqqonligi menga yoqadi. Har holda, bu yigit langa besfarq qarolmaydi. Bahsimiz sal

maydalashdi, lekin umuman olganda, bu narsa musulmon demonologiyasida chalkash fikrlar hali ko'p ekanini ko'rsatadi. Yovuz kuchlarga sig'inish islomgacha bo'lgan davrlardayoq boshlangan. Qadimiy arablarning tasavvuriga ko'ra, jinlar faqat sahrolarda maskan qurban, ahyon-ahyondagina odamlar manzil tutmish vohalarga kelgan. Jinlar odamlar bilan bemalol qovush mog'i mumkin ekan. Bu xil muloqotdan osiy bandalar dunyoga kelarkan.

— Menimcha, jinlar tarixiga oz-moz hazil aralashgan, domla, — dedi G'aybarov. — Deylik, o'sha qadimiy arablar xotinlarining og'ushidan qochib chiqqan jazmanlarni jinlar edi, deb e'lon qilgan bo'lishlari ham mumkin.

— Yo'q, badaviy arab o'sha jazmanni ham, xotinini ham o'ldirib qo'yaqolardi, — deb e'tiroz bildirdi Badalov. — Umuman, jindan jazman chiqishini tasavvur etish qiyin.

— Siz bir urinib ko'ring, domla, — dedi G'aybarov. — Deylik, o'sha badaviy er, ming xiyonatkor bo'lsa-da, xotinini yaxshi ko'radi. Bir tarafdan yaxshi ko'radi, keyin turli mish-mishlar jarqalishidan qo'rqadi. Balki shunda bechora er oson yo'lni turib, aybni xotin bilan jazmanning bo'ynidan olsa-yu, qandaydir jinning ustiga ag'darsa...

— Bu gapda jon bor! — dedi ma'ruza boshida Minorai Kalonni eslagan jikkakkina kishi. — Odatda shunaqa bo'ladi o'zi...

— Ana, ko'rdingizmi, — dedi G'aybarov beixtiyor iljayib.

Odamlar qah-qah urib kulishdi. Jikkak domla qovoq uymoqchi edi, uddalay olmadni, noiloj iljayib qo'ysi.

— Odobliroq bo'ling, Toshpo'lat, — dedi Haykal G'anivevich koyinib.

— Kechirasiz, domla, o'zimni tutolmay qoldim, — deb qo'ysi G'aybarov. — Qissadan hissa shuki, biz o'rghanayotgan

afsonaviy mavjudotlar aslida unchalik ham afsonaviy emas. Jin, dev, ajina va alvastilar, xullas, jamiki afsonaviy mavjudotlar niqobi ostida odamlar yashirin, turfa tabiatli odamlar — yaxshi va yomon, go'zal va xunuk, mard va nomard, aqli va ahmoq,adolatli va razolatli!. Tasavvurdagi ilohiy dunyo va ilohiy tartibot aslida kishilik dunyosining ayni nusxasi, xolos. Endi, boyta Haykal G'aniyevich aytgan gaplarga kelsak, domla bilan bahslashishim mumkin. Osiy bandalar, umuman badbin odamlar nafaqat jinlar va jazmanlardan, balki qonuniy erlardan ham tug'ilishi mumkin!..

Zalda tag'in kulgi ko'tarildi. G'aybarov ham ich-ichidan toshib kelayotgan kulgini tiyolmadı. Haykal G'aniyevich yuzini teskari burib oldi.

G'aybarov tanishlari bilan ozgina valaqlashgach, tashqari chiqdi. Haykal G'aniyevichni allaqachon jo'nab qolgan, deb o'ylagan edi, lekin u ketmagan ekan: mashinani yo'lga o'nglatib qo'yib, o'zi yonida asabiy odimlab turibdi.

— O'tiring, — dedi u buyruq ohangida.

G'aybapov bir so'z demay mashinaga chiqdi. Yarim yo'l-gacha churq etmay borishdi, Haykal G'aniyevichning qovog'i soliq edi.

— Sizgayam homiy topildi, G'aybarov, — dedi bir payt kesatib. — Kimsan, Sotvoldiyev shaxsingiz bilan qiziqib qolibdi.

— Ishga olmoqchi bo'lsa kerak, — dedi G'aybarov.

— Bilmadim. Lekin ketmoqchi bo'lsangiz, marhamat, qo'lingizdan tutib turganimiz yo'q.

— Ketmayman.

Haykal G'aniyevich unga ajablanib qaradi, ishonmadı.

— Sotvoldiyev domla shirin so'zga o'rganib qolgan, — deya izoh berdi G'aybarov. — Meni hafta o'tmay quvib yuboradi.

— Men u, hamma baloga chidaydigan, — deb uh tortdi Haykal G'aniyevich, yuzi ham sal yorishganday bo'ldi. — Siz bugungi mavzuni tuzukroq o'ylab ko'ring, G'aybarov, biror ish chiqarish mumkinga o'xshaydi.

— Bu gaplarni hamma biladi, — dedi G'aybarov. — Men boshqa mavzu olaman, ehtimolki, so'fiylarni...

— Kuchingiz yetmaydi. Qancha odam qo'l urib ko'rdi, Bertels, Bartold, Gasim Karimov!... Bu qiyin mavzu, G'aybarov.

— Oson ish bor ekanmi?...

— Mayli, urinib ko'ring, — dedi Haykal G'aniyevich daf'atan iyib. — Yanagi yil sizni Bag'dodga yuboraman.

— Shu yerda qolsam, — dedi G'aybarov. — Otam qari, domla, uzoqqa ketolmayman...

— Ha-a... — dedi Haykal G'aniyevich o'ylanib. — Lekin mendan bir maslahat, uka, boirman deb, o'zingizni o'tga ham, cho'qqa ham uravermand. Bu bir yaxshi zamonki, unga ko'proq qobiliyatli odamlar kerak,

— Hali men qobiliyatli bo'lib qoldimmi? — deb kului G'aybarov.

— Nozlanmang! Har holda, ahmoq emassiz.

— Shunisiga ham rahmat.

— Balli. Men ham oz-moz odam taniyman. Maktabning ko'pini ko'rdik, uka.

— Keyingisini yigirma yil deyishadi...

— Yolg'on, — dedi Haykal G'aniyevich. — Bor-yo'g'i o'n besh yil. Soddaroq ekanman, yubiley kechasida sallali shoirning suratini bir arbobning suratidan teparoqqa ilib qo'yibman...

— Shungami?

— Shunga. — dedi Haykal G'aniyevich g'amgin kulib. — Gunohim shunchalar bema'ni ekan alam qiladi...

— Bu borada qozilik qilmagan tuzuk, — deb mulohaza yuritdi G'aybarov. — Ba'zan bir qop turshak o'g'irlab qo'lga tushgan kimsha ham ko'kragiga urib, o'zini jabrdiyda ko'rsatadi.

Haykal G'aniyevich unga yalt etib qaradi.

— Shundaymi? — deb so'radi iztirob bilan.

— Shunday, — dedi G'aybarov, lekin shafqatsizlik qilganini anglab ko'ngli zirqiradi.

— Menga qarang, yigitcha! — dedi Haykal G'aniyevich yuzi bo'rday oqarib.— Siz meni kim deb o'ylayapsiz? Isoga o'xshab mix teshgan kaftini peshkash qilyapti, deysizmi?

— Nega? Ba'zida men ham sizga dardlarimni ayigim keladi...

— Meni siz gapga soldingiz! — deya tutaqdi Haykal G'aniyevich. — Men sizdaqalarning hamdardligiga zor emasman, jabrdiyda, deb o'ylasangiz xato qilasiz!.. Mayli, siz Sotvoldiyevning oldiga boring, unga o'ttiz bиринчи shogird bo'lasiz! Menga ham o'sha ustozlik qilgan, ikkimiz ham aspirant edik, suratni men ildim, u qayga ilishni ko'rsatib turdi... Unga yetaman deb bir umr ovora bo'lganimni bilasizmi? Yo'q, bari bir yetolmadim, u mendan aqlliroq chiqdi, o'sha paytda genetikani keraksiz fan deb qichqirgan odam, bugun minbardan turib, genetika — fanlar shohi, deb aytadi!..

— Men uning gapiga ishonmayman, domla, — dedi G'aybarov.

— Nega? Axir, u kishining nazariga tushdingiz-ku?

— Ehtimol shuning uchun ham ishonmasman, — dedi G'aybarov. — Yana aytib qo'yay, domla, men institutdan hech yoqqa ketmayman.

— Ketkizaman!

— Ketkizmaysiz, — dedi G'aybarov qat'iy. — Rost gap taxchil matoq, uning uchun seni qadrlashlari va hatto yaxshi ko'rishlari mumkin.

— Sizni-ya?! — dedi Haykal G'aniyevich asabiy kulib.— Siz chalamullasiz, G'aybarov! Tirmizaksiz!..

G'aybarov kuldji.

— To'xtating! — deb asabiy qichqirdi Haykal G'aniyevich shoferning yelkasidan tutib. — To'xtating!

Shoferning yuzi qift etmadı, mashinani oshiqmasdan, ancha naridan serbarg chinor ostida to'xtatdi.

— Rahmat, soya joyda turadigan bo'ldim. — dedi G'aybarov. — Xo'p, domla, yaxshi boring.

— Tirrancha! — deb g'udrandi Haykal G'aniyevich, so'ng shoferiga buyurdi: — Uyga haydang!

Mashina sekin joyidan jildi. G'aybarov so'nggi lahzada domlaning lablari nim kulgidan jiyirilganini ko'rди. Tepaga qaradi, chinor barglari orasidan sizib o'tayotgan za'faron nurlarni ko'rди, qizishmoq ne, deb o'yladı. qara, kun qanday yorug', kun hali ko'p, oftobni birov orqalab ketmaydi, hammaga barobar, nega biz bunchalar asabiyimiz, do'stim G'aybarov, nega birovlarining ko'nglini qabartiramiz, axir, yoshlik degani fazilat emas-ku, sobitlik qani, nega mehrimizni oshkor etishdan qo'rquamiz, axir odamzod it emaski, tishlab-netib olsa!..

Xiyobonni kesib o'tayotgan payti, kimdir uning otini atab chaqirdi. Ovoz kelgan tarasga qarab, ochiq qahvaxona sahnida salqinlab o'tirgan Shoir bilan Abduvali Soqolni ko'rди.

— Bir qarab qo'ying, G'aybarov! — deb qichqirdi Soqol. — Bunday kelib, biz g'ariblarga ham iltifot qiling! Osmon gumbaziday ulkan kosalarda shafaqdek gulgun may ichaylik!..

G'aybarov uning gaplariga tushunmadı, yaqinroq borib salomlashdi. Shoir o'mnidan turib, unga kursi surdi.

— Dalaga ketaman, ish ko'p, — deb uzrini aytdi G'aybarov.

— Birpas o'tirib keyin borasiz, — dedi Shoir. — Bitmay qolgan ish bor ekanmi?

G'aybarov noiloj bo'sh kursiga cho'kdi. Abduvali Soqol stol chetidagi qadahni vino bilan chayib tashlab, limmo-lim to'ldirdi.

— Tumanli kun, so'nik qadah, sil yuziday sariq may,— dedi u qadahni G'aybarovning oldiga surib. — Keling, bir ichaylik!

— Siz bunga parvo qilmang, Toshpo'lat, — deb izoh berdi shoir. — Do'stimiz Soqol Navoiyning nasriy tarjimasini o'qiyapti.

G'aybarov vinodan ozgina ho'pladi.

— Kun issiq, — dedi u. — Nima bo'lsayam, o'qigan tuzuk. Men, mana, ikki oycha bo'lди, qo'lga kitob ushlaganim yo'q.

— Kamnamo bo'p qoldingiz, Toshpo'lat, — deb o'pkalandi Shoir. — Ba'zida ko'rgimiz keladi. Siz ishonmaysiz, lekin mening ko'rgim keladi.

— Ishonaman, — dedi G'aybarov jilmayib. — Komandirovka tugasin, keyin bafurja o'tiramiz.

— Ungacha kim bor-u kim yo'q, — dedi Shoir. — Bugun jo'nab ketmoqchiman.

— Bu qishloqqa ketishniyam olamga ovoza qiladi, — deb g'udrandi Abduvali Soqol.

Shoirning ensasi qotdi, lekin e'tiroz qilmadi, yana G'aybarovga yuzlandi.

— Un to'la qopday mammun yuribman, — dedi u zorlanib. — Qani endi, bir baraka topkur boplab shapaloq tushirsa-yu ko'zim charaqlab ochilib, mammunlikni unutsam!.. Bilsangiz, Toshpo'lat, odam o'zini kamroq o'ylagan paytlari tuppa-tuzuk bo'lib qoladi.

G'aybarov indamadi. Shoir oldidagi qadahni chetga surib qo'ydi.

— Tag'in ichyapti ekan-dä, deb o'ylamang, Toshpo'lat,— dedi u. — Shunchaki... ozgina ichib, ko'proq o'layapman.

Anavi yoqqa qarang! Ha, yaxshiroq qarang, qani, nimalarni ko'rarkansiz?..

G'aybarov Shoira qilgan tomonga qarab, daraxtlar orasidan ko'chani, g'iz-g'iz yelayotgan mashinalar, shoshib borayotgan odamlarni ko'rdi.

— Ko'cha, — dedi u sekin. — Odamlar, mashinalar...

— Hayot o'sha! — deb xitob qildi Shoira.

Abduvali Soqol piqillab kulib yubordi.

— Tek o'tir! — deb jerkidi uni Shoira. — Qarang, Toshpo'lat! Biz bu yerda o'tiribmiz, hayot yonimizdan g'izillab o'tib ketyapti! Biz tinchgina, salqin qahvaxonalarda o'tirib chirolyi suhbaflar quramiz, ko'pirib-toshamiz, maqtaymiz, maqtanamiz! Biz mamnun va baxtiyor o'tiraveramiz, hayot esa... Ana u, yonimizdan o'tib boryapti! Shundoq yonimizdan, qo'l uzatsa yetgudek joydan! Tushunasizmi, Toshpo'lat, o'tib ketyapti u!..

G'aybarov yelka qisdi. U Shoirni yaqin o'rtada bunday tushkun ahvolda ko'rмаган edi. Mastlikka yo'yish qiyin, stolda bor-yo'g'i bir shisha arzonaho vino turibdi, u ham yarmiga yetmagan.

— Siz ham mamnun ko'rinasiz, Toshpo'lat, — dedi Shoira. — Bir savolim bor, agar eski payt bo'lsa-yu ko'ngilliga chaqirsa, borarmidingiz?

— Ko'ngilliga birov chaqirmaydi, — deb e'tiroz qildi G'aybarov. — Odam o'zi ixtiyoriy ravishda borsagina ko'ngilli sanaladi.

— Sizni chaqirdi, deb tasavvur qiling, borarmidingiz?

G'aybarov Shoirning maqsadini anglay olmadı, yuziga sinchiklabroq tikildi — yo'q, kulmayapti, tamom jiddiy turib so'rayapti.

— Mening oshqozonim kasal, — dedi u. — Keyin... Yo'q, avval aytin, o'zi qayerga borishim kerak?

— Gapni cho'zib nima qilasiz? — dedi Shoir jahli chiqib. — Borasizmi yo yo'qmi?

Shoirning xiratligi Abduvali Soqolga nash'a qildi.

— Xo'p deng, G'aybarov, sizdan nima ketdil... — dedi u kulib. — Nima balo, qiziqroq tush ko'rganmi, duch kelgan odamdan shuni so'raydi.

— Miyani achitdilaring, Abduvali, — dedi G'aybarov.

— Fahmimcha, — dedi Soqol, — Shoir o'zini harb-u zARBda sinab ko'rolmaganidan norozi bo'lib yuribdi. Ungayam qiyin, bitta o'zini deb rasmana urush ocholmasa...

— Gaping ham o'zingday sovuq, — dedi Shoir. — Men to'g'risini aytdim. Hech o'ylamay ko'ngilliga ketardim. Ishonmaysizlar, lekin men ketardim.

— Tentak! — dedi Abduvali Soqol. — Bolalaringga kim qaraydi?

Shoir indamay qoldi, yuziga g'uSSa qo'ndi — u bolalari ni yaxshi ko'rardi.

Abduvali uning holatidan yayrab kului. O'zidan mammun, iyagi-yu lunjlarini jingalak soqol bosgan, yonoq suyaklari turtib chiqqan yuzi yapasqi. Beg'am, betashvish, ermakka o'ch. Yeydi, ichadi, kuladi... Mayli, yesin, ichsin, lekin kummoqqa nima haqqi bor? Kim buni so'raydi? Shoirmi? Yoki biz o'zimizmi, do'stim G'aybarov?..

— Rasvo fe'ling bor, Abduvali, — dedi Shoir sal turib. — Odamning ustidan kulib huzur topasan.

Abduvali Soqol tag'in kului — mensimay, pisand qilmay... G'aybarov battar hayratlandi: nega bu firjayadi, o'tqazib qo'ygan joyi bormi?

Studentlik yillaridagi bir oshnasini esladı. Oshnasi boyvachcha edi, qiligi hech kimga yoqmasdi, shuning uchun hammaga qarz berardi, birovga o'n so'm, birovga — yigirma... o'ttiz... Hammaning o'ziga yarasha xarji bor, bu yodda

tayyor sudxo'r tursa, hadeganda qistamasa, olmasdan ilojing qancha? Xullas, o'sha boyvacheha ko'pehilikning tilini qisiq qilgan, kiyimning yaxshisini kiygan, qizlarning suluvin surgan. Soqol-chi? Nahotki, biz undan qarzdor bo'lsak, do'stim G'aybarov?

— Iltimos, endi g'ashimga tegma, — deb davom etdi Shoir. — Men bugun ketmoqchiman, bilaman, senga bari bir, badar ketganimda ham iching achishmaydi, lekin odam-zodning tabiatini qiziq, men negadir sen eslashingni istayman...

— Oq yo'll! — dedi Soqol. — Qaytib kelayotganda telegramma berarsan? Yo birato'la ko'mgani boramizmi?

Shoir bunday qo'tslikni kutmagan edi, gap topolmay ojiz qoldi, so'kindi.

— Qo'yinglar, — dedi G'aybarov murosaga chaqirib. — Bir hisobda, Shoir haq, qaygadir ketishing mumkinligini o'ylab yashagan tuzuk. So'nggi panoh deymizmi, boshpana deymizmi...

— So'nggi panoh! — deya takrorladi Abduvali Soqol. — So'nggi panoh yerning tagida, G'aybarov!

G'aybarov indamadi. Hozir pachakilashib o'tiradigan payt emasdi.

— Nega indamaysiz? — deb tig'aldi Abduvali Soqol.

— Arz qilmasligingizni bilsam, sizni yaxshilab tuyardim, — dedi G'aybarov.

— Qani, chiqdik bo'lmasa!.. — deb tahdid qildi Abduvali Soqol.

Shoir uning yengidan tortib kursiga o'tqazdi.

— Qo'ysangiz-chi, — dedi u. — Chiqaman deganing nimasi? Qo'rqa san, satiq chaqalik nomingga dog' tushishidan qo'rqa san. Bugun ketyapman, Toshpo'lat, — dedi keyin G'aybarovga yuzlanib. — Safsata-yu go'zal davralar jonimga tegdi!

— Ketolmaysan, — deb o'chakishdi Abduvali Soqol.

— Ketaman! — deb qichqirdi Shoir, so'ng o'rnidan dast turib, stolga mushitladi. — Sen ishonmaysan, lekin men ketaman!..

— Go'rgayam bormaysan!

Shoir Abduvali Soqolning yoqasiga qo'l cho'zdi. O'rtadagi stol chayqalib, vino shishasi yerga tushib chil-chil sindi. G'aybarov ularni zo'rg'a ajratib oldi. Ofitsiant xotin yugurib kelib, dag'dag'a qila boshladi. Soqol uning javrashiga beparvo, cho'ntagidan yuz so'mlik chiqardi-da, stolga naycha qilib o'tab tashladi:

— O'tkirrog'idan, — dedi. — Shoirning ketar jafosiga! Tezroq!

Pulni ko'rib, ayolning yuzi yorishdi, darhol ichkariga yo'rg'aladi. Shoir Soqolning yoqasidan yulib olgan tugmani stolga otib yubordi, so'ng G'aybarovning yelkasidan tutdi:

— Ketdik, Toshpo'lat!

G'aybarov turdi. Xiyobondan o'tib, avtobus manzili tomon yurishdi. Zum o'tmay, avtobus keldi.

— Men ketdim, — dedi Shoir qo'l uzatib. — Siz ishonmaysiz, lekin ketayotganim rost, G'aybarov!

— Yaxshi boring, bolalarga salom deng.

— Uygamas, uzoqqa, — dedi Shoir avtobus zinasida turib. — Sizga hammasini yozib yuboraman, G'aybarov!..

## 10. BIR YIL OLDIN

G'aybarovning ko'ngli tinch emasdi. Otasi bilan oralardan gap qochgan, garchi Raim oqsoqol buni unutganday ko'rinsa-da, G'aybarov otasining keki zo'rligini bilar va uning o'shanda nechog'li darg'azab bo'lgani bot-bot esiga tushib turar edi.

U o'sha safar Galatepaga borganida odatdag'i manzaraga duch keldi: hovlidagi keng chorpoya, otasi bilan mulla Chori,

otasi unga nimadir deb gap uqtiriyapti. Go'yo ular ko'p zamonalardan beri shu taxlit o'tirganday — na ostob, na soya nariga jilgan.

G'aybarov zavqlandi, chollarning erinmay o'tirishidan allaqanday sharqona xosiyat topganday bo'ldi, lekin mulla ga tuzukroq razm solib, uning suhbatdoshidan bezor bo'lib, o'zini qo'yarga joy topolmay turganini ko'rди. Ko'ngli g'ashlandi. Mullaning diqqatligi rost edi chog'i. G'aybarovni ko'rgan zahoti chiroyi ochildi.

— O'g'lingiz aqoiddan yomon emas, oqsoqol. — dedi. — Men uncha-muncha kitob qaragan odamman, lekin bizning talqinimiz bularnikiga to'g'ri kelmaydi. Mening yo'rig'im ko'p eski, ko'p sinalgan. Ba'zida gunohkor ko'nglim tanglikda qoladi, bu fuzalo ahli odamlarni boshqa yo'riqqa solaturib, xudoga teng biror tariqatni topib berarmikan?

— Mendan bu gaplarni so'ramang, mulla, — deya kamtarlik qilgan bo'ldi Raim oqsoqol.

G'aybarov mulla Chorining samimi gapirayotganiga ishonmadidi. Mulla hozir aqlini ishlatmay, yod bo'lib ketgan so'zlarni takrorlayapti, xolos. Xuddi ipga tizilgan marjonnini bir uchidan tutib qutichadan chiqarib olayotganday. Mulla Chori anoyi emas, u ko'p balolarni ko'rgan, endi asablarini ayab yashaydi... U hozir G'aybarovning g'ururini shunchaki qitiqlayapti, xolos. Aqoid bobidan ustunligini o'zi ham biladi, lekin u kamtarlikni unutmagan — yuksalmoqni istamaydi, miskinligicha qoladi, bir muddat o'tib, bu dargohdan ko'chaga chiqadi, tag'in o'sha kechki g'ubor, qirdan qaytayotgan sigirlarning yelini va tezagi hidiga to'lgan tuproq ko'chadan ohista yurib, kubasiga qaytadi, xotini dasturxonga keltirib qo'yadigan bir kosa yovg'on va bir choynak choy ustida hamma gapini G'aybarovning lat yegan g'ururiga qo'shib, esdan chiqaradi.

— Siz meni ayblab yurmang, o'g'lim, — dedi u G'aybarovga. — Nima qilay, o'zim istaganday yashay olmadim. Umr bo'yi ko'ngil tusamagan yo'llarni kezdim va bildimki, faqat qurban qilingan mehrgina pokiza bo'larkan. Alamlaring keyin bir kun lazzatga aylanadi, o'zingni kun sayin tushunibroq borasan, ayblaringni qaytadan his etasan, azob chekasan, lekin shu azoblardan ham o'zingcha bir huzur topasan. Boshqa iloj yo'q, odamzod uzlusiz uqubatga chidolmaydi.

— Siz aytgan pokiza mehr qayda qoldi? — dedi G'aybarov.

— Uyam birovga baxt keltirmaydi. — Mulla Chori diltang qo'l siltadi. Odamning ko'nglini ayanchgina bir g'ururga to'ldiradi, xolos. Jo'nroq mayllarning yo'rig'i boshqa, ular erkakni yig'loqi xotinga, xotinni quturgan itga aylantiradi. Gapim beparda bo'ldi, o'g'lim, keksalikda shallaqiroq bo'lib boryapman. Pokiza mehr soqov bo'ladi, u iqrorga muhtoj emas. Uni oshkor qilgan odam eri tunda qulog'iga shivirlab aytgan gaplarni ertasi kuni boshqalarga solgan xotinga o'xshaydi. Bu shunday bir pinhoniy va odil tuyg'ukim, o'g'lim, uni hech qachon bozorga olib chiqolmaysiz, mehringizga tushdimi, tishning kavagida asramoq shart. Mukofot kutmaslik kerak. Buning uchun o'zingizni yengmog'ingiz lozim, negakim, sizga o'zingizdan yomonroq dushman topilmaydi. Mahbubni jismdan judo qilsangiz bas, pokiza muhabbatga erishasiz...

— Marhumlargina shunday muhabbat qo'yishi mumkin, — deb gap qistirdi G'aybarov.

— Ha, balli! Keyin xudoga...

— Hallojga qaytyapsiz, mulla buva!

— Yo'q, o'g'lim, uni boshqalar ko'kka ko'taradi. Uning jur'ati shuki, o'zini xudo e'lon qilgan. Halloj — shuhrat, ovoza qo'li. Tilidan manmanlik ilon bo'lib chiqib, bo'yniga chirmashgan, keyin, terisi shilinar mahal... Yo'q, Toshpo'lat-

boy, men uning o'sha paytda ham afsus qilganiga ishonmayman. Ahmoqlik deysizmi, boshqa deysizmi, lekin u o'zidan mammun ekanicha jon bergen!

— Siz ko'p narsalarga ishonmaysiz, mulla buva?

— Men qaridim, o'g'lim, endi menga har kun g'animat, agar bugun shak keltirsam, hay, bugun o'tadi, ertayam o'tadi, keyin bir kun kelib jon deganining pirr etib uchadi-ketadi... — Mulla Chori pixillab kuldii. Keyin lablari o'z-o'zidan qimtildi, yuziga istehzo qalqdi.

... Hallojga o'xshab ishonmagani unga alam qiladi. Halloj sal bo'lsayam ishongan, balki, butunlay ishongan, toki o'zingning haq taolo ekaniga qadar! Mulla uni yomon ko'radi. O'lganining kunitdan kuladi, demoqchiki, dunyodan hali umid uzmaganimiz, jon uzilsa, izmimizdan tashqari... Yaxshimi, yomonmi, oxiri borib uzilishi tayin, muhimi — yahima qilmaslik, jonne begona deb o'ylagan ma'qil, jon emas, qafasga qamalgan shunchaki bir qush, chumchuq bir kun qarabsizki, pirr etib uchib ketadi!..

— Siz bilan ko'p hamgap bo'lmadik, o'g'lim, — dedi mulla Chori. — Lekin nimagadir, sizni quvroq, deb o'ylashga o'rganibman. Nazarimda, buni otangizdan merosga olgansiz.

G'aybarov indamadi. U mullaning otasiga murojaat qilganini tushundi. Uni suhbatga tortmoqchi, yo'q, quvlikni aytib, ko'nglini ko'tarmoqchi.

— Menda ayyorlik yo'q, mulla, — dedi Raim oqsoqol. — Buning tog'a jamoati ayyorroq.

— Balki, shundaydir. O'ylab ko'rmabman, oqsoqol.

G'aybarov mullani birinchi bor ko'rganini esladi: ko'p yillar oldin, Qiziltoshga borar yo'lda, yoz, tush payti, issiq eshak ustida sekin chayqalib ketayotgan mulla, payg'ambarmonand soqoli kalta kuzalgan, g'amgin ko'zlar salgina... Mulla xudo haqidagi har qanday xayol kabi sirli

va chuchmalroq edi. Botalar undan cho'chibroq, turishardi, go'yo mulla alsungartik qiladi, go'yoki mullaning qo'lida minglab jinlar va ajinalar bor, ularni ustingga qo'yib yuborsa...

— Siz mening kamtarin e'tiqodimga tegmang, o'g'lim,— dedi mulla Chori. — Sal-pal shubha qilsam qilarman, lekin bu narsa hammaning qonida bor. Odamzod vaqt—vaqt bilan o'z e'tiqodidan norozi bo'lib turgani ham ma'qil. Shunchaki adolat yuzasidan, shunchaki o'zini ovulmoq uchun. Sizga qolsa, mening ojizgina shubhamni shishirib, pashshadan fil yasaysiz. Men unga qodir emasman, o'g'lim. Men uyalaman...

— Uyalmaysiz, mulla buva.

— Mullani tinch qo'y, Toshpo'lat, — dedi Raim oqsoqol. U hech narsaga tushunmay, chorpoya to'rida mammun o'tirardi.

— Balli, oqsoqol,— dedi mulla Chori. — Siz o'g'lingizga nisbatan shafqatliroqsiz. Siz meni doim ayab kelgansiz. Hatto bir marta turmadan opqolgansiz.

G'aybarov gap qo'shmadi. Otasiga rahmi keldi. O'z boshiga balo orttirgan deb o'yładi, mullani ayagan, turmadan olib qolgan, mana endi, turmadan olib qolgani uchun mulla uni mazax qilyapti.

Raim oqsoqol mulla Chorining pisandasini tushunmay gul-gul yondi.

— O'zi bekorga opketmoqchi bo'luvdi, mulla, — dedi u.— Bir borib yotganingiz yetmaganday, yana axtarib keldi. Mening haqsizlikka tobim yo'q. O'zimni peshgardon qilib, sizni opqoldim-da.

— Taqdir, taqdir deng, oqsoqol! — dedi mulla Chori. — Bo'lmasa, kim sizni menga yordam qiladi, deb o'ylardi!

Raim oqsoqol kinoyani payqamadi, battar iydi. Jim o'tirganidan yuragi toliqqan ekan, birdan ganga tushdi.

— Qoraboyniyam bir gal opqoluvdim. Griguryan ortidan izlab keluvdi. Men uni sizga aytganman, mulla, badbaxt juda serjahl odam edi.

— Yodimdan ko'tarilibdi, oqsoqol, gapiting, — dedi mulla miyig'ida kulib.

— Yo'q, mulla, sizga muni avval ham bir aytuvdim...

Raim oqsoqol bir muddat jim qoldi, chaması, o'zidan uyaldi. Lekin istak zo'troq keldi, gapirishni xohladi.

— Griguryan Qoraboyni qamagani keldi, mulla. Qoraboyning ko'pam aybi yo'q edi. Bosmachi bo'lgani rost, barchag'ar mening o'zimgayam beshotar o'qtalib do'q urg'an. Ular besh og'ayni edi, otalari Parda oqsoqol, gapini birovga bermaydigan, xudodan qaytgan odam edi, o'g'illariyam qulurgan deng, og'zidan ko'pik sochib, ayg'irday pishqirib yuradi, har biri devday! Zo'r yigitlar edi. mulla. Parda oqsoqol o'rtancha o'g'li bilan Darg'omga bosqingga borib qo'lga fushdi. O'liklarini Darg'omga tashlashgan ekan, shu bo'yil qolib ketdi, izlab topisholmadi. Qolgan uchovini qulooqqa yozdik, askar kelib opketdi. Bitta shu Qoraboy qoluvdi. Qulooqqa yuborgani ko'zim qiymadi, teng-to'shligi bor, kechalari oqsuyak o'ynab katta bo'lganmiz, naryog'idan so'rasangiz, uzoqroq bo'lsayam, harne, tog'a jamoatimizdan... Bechora, otamning xunini olaman, deb yurardi. Zamon muni ko'tarmaydi. Avval bosmachi bo'ldi, keyin bu tarasga o'tdi, bosmachining ko'p sirini o'g'irlagan ekan, shuni aytib, o'zini oqlab ham oldi. Akalari qulooqqa ketgandan keyin yakka o'zi qoldi, kelib kolxozga qo'shildi. Bir kuni xabari yetib, haligi Griguryan izlab keldi deng. Izlab kelib, bozordagi choyxonaga qo'nibdi. Shukur bazzoz, hozirgi Barot qiyshiqning ota-si, o'g'liga o'xshab choyxonachi edi, Griguryanni chorpo'yaga o'lqazib, otini birovga mindirib yuboribdi. Ertasi kuni armani mening qoshimga dahshat solib keldi: yo otimni topib berasan,

yoki bo'lmasam, urug'-aymog'ingni quritaman, deb aytdi. Odam yubordim, otni naq Termizdan topib keldi.

G'aybarov har gal hikoyaning mana shu yeriga kelganda ajablanardi. Axir, otasi rost gapiryapti: u odam yuborgan, yuborgan odami Griguryanning otini naq Termizdan qaytarib kelgan. Aql bovar qilmaydi..

Balki, Raim oqsoqolning o'zi Shukur bazzozga pishang bergandir! Bunisini Raim oqsoqol aymaydi. Faqat bir narsaga ishonmoq kerak: Griguryanning otini o'g'irlashgan, keyin uni Raim oqsoqolning ishonchli odami naq Termizdan topib kelgan.

G'aybarov bu sarguzashtni yod biladi. Ot topilgach, Shukur bazzoz Raim oqsoqolning yoniga yig'lab keladi. Qari onasini o'rtaga soladi, bola-chaqasini nom-banom eslaydi, keyin Raim oqsoqolning o'ksasi yumshab, badjahl armanini dashtga olib chiqib siyosat qiladi: Shukurga tegmaysan, Qoraboyni tinch qo'yasan yoki bo'lmasa, anavi qalin burganning ichida o'liging qoladi — ikkovidan birini tanla, Griguryan!

Mulla Chori zerikdi. U ham armani haqidagi qissani biror yuzinchi marta eshitayotgan edi. Yuzlari salqib, xok tusiga kirdi, esnog'ini bosmoq uchun choynakning tubida qolgan achchiq choyni sirqitib ichdi. Keyin payt poylashga tushdi... Nihoyat Griguryan biyday cho'lda gulday xotini bilan ikkita bolasini o'rtaga qo'yib qasam ichdi.

— Ko'zingizga hech narsa ko'rinnaganini qarang! — deya xitob qildi mulla Chori. — Men munga jur'at qilolmasdim, oqsoqol. Mansab deng, oqsoqol, mansab deganning havosi odamni sher qilib yuborar!..

— Griguryanning mansabi menikidan ulug'roq edi, — deb kamartlik qildi Raim oqsoqol. — Bizning davrimiz bir

qiziq davr ekan. Endi o'ylab hayron bo'lasan. Bir gal jomlik Xolbozorov rais yonimga keldi...

— E oqsoqol, Xolbozorov raisni qo'ying, bugunning g'a-minı yeng, bugunni deng, birodar!.. — Mulla chaqqonlik qilib, uning gapini bo'ldi. — Mana, o'g'lingiz katta mulla bo'ldi, oq-qorani tanigan, boshqalariyam o'zlarini o'zlarisarishtalab yuribdi. Shukr qiling, oqsoqol!..

— Shukr. Endi shularning baxtini bersin, deymiz-da.

— Ha, balli!

Mulla Chori Raim oqsoqolni chalg'itishga ulgurdi. Bahonada asta o'rnidan qo'zg'aldi.

— Hassamni oling, Toshpo'latboy, men endi ketay...

G'aybarov mullani darvozagacha kuzatib bordi.

— Siz loaqal namoz-pamoz o'qirsiz, mulla buva? — deya yo'l-yo'lakay so'radi.

— Ikki yil bo'ldi, o'qiyapman, nima edi?

— Biznikiga kamroq kelsangiz...

— Biz endi keksa odam, Toshpo'latboy, — dedi mulla Chori. — Kelmay qo'ysak, oqsoqolning o'ziyam yolg'izlikdan zerikadi.

— Otam kimligingizni biladimi?

— Biladi. — deya kiprik qoqmay javob qaytardi mulla Chori. — Bilganda qanday, eski zamон bo'lsa, u mening naq biqinimdan beshotar qo'yardi. Endi kech, Toshpo'latboy, keksalik hammani birday qilib qo'yadi. Kim behroq ekanini ajratib oling-chi? Ajratolmaysiz.

G'aybarov o'zini behuzur sezdi.

— Loaqal men borligimda kelmañg!

— Xo'p, xo'p, o'g'lim. Lekin basharti kelsak, unda nima bo'ladi?

G'aybarov chidab turolmadi.

— Itga talataman!..

Mullani kuzatib, otaşı yoniga qaytdı. Ota o'g'lining avzoidan nimanidir sezganday bo'ldı, sarosimaga tushdi. Sekin uzr so'tagan bo'ldı: o'zing tushunasan, bolam, yosh deganing bor tarafga ketgan, endi tilni tiyib turishim qiyinroq. Gapirmasam, chetga surilib qolganday bo'laveraman.

O'g'il o'tindi: hech bo'lmasa, anavi sassiq mulla bilan gapplashmang, ota.

Ota bir zum boshini egdi, lekin jahlini tiyolmadı; kim bilan gaplashsam, o'zimning ishim, sen o'zingni bil, bolam!

O'g'il aytdı: qo'rqaqsız, ota, o'zingizni oqlamoqchi bo'lasiz. Sizga eshitadigan qulog kerak.

Ota qo'rqaqligini inkor qildı: bosmachi ko'kragimga beshtig'ini qo'yganda kiprik qoqmagan odam, kelib-kelib... nimasidan qo'rqaaman?

U g'azablandi, g'azabi ojizlikka aylanmog'iga, ko'kragini ochib, beshotarining o'qi teshib o'tgan joyda qolgan qoraqizg'ish chandig'ini ko'rsatmog'iga sal qoldı!

O'g'il yumshatishga urindi: yo'q, ota, siz o'zingizdan qo'rqaqsız, balki, salgina uyalasiz.

Ota tushunmadı, battar jahllandı: oq qilaman! Men o'lsam, sen qutulasan! Ezmaligim oringni keltirsa, mayli, meni jarning labiga chiqarib, otib tashla!

O'g'il ojiz qolib, yig'laguday bo'lib gapirdı: yo'q, ota, gapni kamroq qilsangiz bas, yo'qsa, hammaga kulgi bo'lasiz!

Ota qulog solmadi, o'z aytganida turib oldi: yo'q, otasan, bolam, men o'lsam, sening qulog'ing tinchiydi!..

Shunda o'g'il aytdı: ota, rostdan ham aynib qolibsiz!

Va o'zida ibo-yu or qolmaganini sezdi. Oxiri baxayr bo'lsin, deb o'yladi, iloyo baxayr bo'lsin.

Aslida ota aybdor emasdi — bor-yo'g'i qarib borardi, qarib borayotganini sezardi va shuni unutmoq istardi.

Keyin, biror besh oy o'tgach, Raim oqsoqol shaharga keldi. Egnida raislik zamonidan qolgan ko'k kitel, oyog'ida sariq xrom etik, boshida Maylonboyning do'ppisi, kechki mahal kirib keldi. Etigini yechmadi, yerga to'shalgan gilamni bosib o'tdi-yu o'g'li qo'ygan kursiga o'tirdi. Ancha sukul saqladi, o'tirgan joyiga hech ko'nika olmadidi, behuzur bo'ldi. G'aybarov yerga ko'rpaacha to'shadi. Raim oqsoqol ko'rpaachaga o'tdi, oyoqlaridagi etiklarni yechib, poygakka ottdi. Lekin gap bar'i bir qovushmadidi.

- Uydagilar tinchmi? — deb so'radi G'aybarov.
- Tinch, Senga salom aytishdi.
- Salomat bo'lishsin. Menden ham salom deng.
- Munday gaplashmasak, bolam,— dedi Raim oqsoqol.

So'ng o'g'lining ko'zlariga mung'ayibroq qaradi. G'aybarovning unga rahmi keldi, yuragi achihsiddi. Beixtiyor hovli sahnini, ikkita tut orasiga tortilgan sim dorni, o'zining go'daklik paytini esladi — otasi uni yelkasida ko'tarib yurguvchil edi. Ozib ketibdi. Faqat tishlari sog', tishim to go'rgacha tushmaydi, deb aytardi, tishlari sog', bir qator sadafday...

- Ishlab yuribman, ota.
- Rostini ayt, — dedi Raim oqsoqol. — senga shu ishing yoqadimi o'zi?
- Endi buni o'ylashiga kechroq, ota. Asli o'zingiz aybdorsiz, kitob o'qirdingiz, qulog'im tagidan ketmaydi...

Raim oqsoqolning yuzi sal yumshadi, chamasi yigirma yil oldingi farog'atlari damlarni esladi, yuragi orziqdi, o'g'liga mehr bilan qaradi: yaxshi, bolam, eslatganining o'zi yaxshi. Lekin aytgan gapi boshqa bo'ldi:

- Oz-moz yig'insang bo'lardi. Men ham qo'limdan kelganicha qilyapman. O'limligim...
- Mayli, — dedi G'aybarov. — Bir ko'nglim, Galatepaga qaytib borsammi deyman.

Raim oqsoqol bosh chayqadi:

— Yo'q, Toshpo'latboy, shu yerda qolganing ma'qul. U yodda kun ko'rishing qiyin, endi sen shiqib ketgan odamsan, qayradan el bo'lasanmi, yo'qmi... Cho'qib tashlashadi. Kulgi bo'lasan, bolam.

— Nega?

— O'zing kech deding-ku? Borib nima qilasan? Qo'y, o'z ishingdan qolma. Men erta tongda ketaman. Yo'l odamni charchatdi. Avval bilinmasdi... Bir kunda qishloqni sog'inibman, Sen biroz davlat orttirgin, keyin, mayli, borarsan...

— Pul yig'maganingizga achinasizmi, ota?

— Uylansang bo'lardi, bolam, Raimning bolasi soqoli oqarganda uylanadimi yoki biror qusuri bormi, deb o'ylashadi. Uylan. Ketar chog'imda ko'nglim to'q bo'p ketay... Bir piyola choy ber, og'lim. O'zingdan gapir, durust-misan, oshnalarining tuzukmi?

— Hammasi yaxshi, ota, faqat ko'p gapiramiz-da, ota. Ba'zan zerikib ketaman.

— Men ham ko'p gapiradigan bo'p qoldim. Ilgari og'zim-dan gap chiqmasdi. Qancha kam gapirsam, shuncha ko'p cho'chishardi. Endi tilni tiyib turolmayman...

— Qaribsiz, ota.

— Avval bilinmasdi, qarilikni bo'yinga olganim bilan darmon bor edi, endi... Otam bilan enam tushimga kirib chiqadi. Tegirmoning boshidagi supachada uxlاب yotgan bo'laman, enam kelib uyg'otadi, boshimni silaydi. Qo'rqib uyg'onib ketaman...

— Mavlon nima ish qilyapti? — G'aybarov otasini chaig'itmoqchi bo'ldi.

— Eski ishi, moshinada qurilishiga odam tashiydi. Kech-qurunlari birovning xas-xashagini opkeladi. Qo'y, deb ayt-

dim, menga qulqoq solmadi, endi uning ro'zg'ori bo'lak, xotini, bolalari, mayli, pul topsin, bo'lmasa, xotinga beqadr bo'ladi... Asli ko'ngil bermay olsa bo'lardi, xotin deganining avval qovog'ingga qarab turadi, qo'lni bo'shroq tutib, manglayini silasang, bas, o'zicha qul qilib oladi. Sen uylansang xotinga sir berma. Bitta rivoyat bor...

— Esimda, esimda,— dedi G'aybarov.— Er bitta qo'yni so'yib, tanasini xaltaga solib ko'madi-yu, xotiniga odam o'ldirdim, birovga isi chiqmasin deydi...

— Ball! Xotin borib uni sotadi! — Raim oqsoqol maminun bosh irg'adi. — Dunyoda solqin ko'p, bolam. Qambarni bilasan, bag'rimda katta bo'lgan, nonimni o'zimdan ko'proq yegan. Lekin, vaqt kelganda, shuyam meni sotgan. O'tgan juma namozida Samarqandga bordik. Namozini oxirigacha o'qimadim, Toshpo'latboy, yarmiga kep qarasam, yonimda nokas Qambar sajdaga bosh uryapti. Chidab turolmadim, xudoga u ham sig'insa, men ham sig'insam, kimning duosi qabul bo'ladi?.. Chiqib jo'nadim. Galatepaga yetguncha so'kinib keldim. Nokas Qambar, o'zini otga sudratgan, otga sudratib, yuz-boshini tildirgan, kiyimini parcha-parcha qilib, yantoqlarning uchiga ilib ketgan, keyin uni Qoraboy otiga o'ngarib kelgan: «Mana, Raim rais urib majaqladi, zo'rg'a o'ligini so'rab oldim». Mening hech narsadan xabarim yo'q, uyda edim. Ochil Kuch bilan yana bir-ikkita baloxo'r kelgan, shularning hurmatiga ziyofat qilib o'tiribman de, bu yoqda bu gap... Ozgina kamomadni shunga tirkab, o'n yil berdi! Ochil Kuch bir og'iz gap aytmadni, o'g'lim. Uning gapiga ishonishardi. Qambarni urmaganimni bilardi, uyimda tuzimni yeb o'tiruvdi. Lekin Ochil Kuch bir og'iz tarafimni olmadni... Men endi nokas Qambar bilan yonma-yon o'tirib, xudoga topinaman-mi?.. Teskari dunyo, suv keltirgan xor-u ko'za sindirgan aziz!..

— Balki, sizga biron qasdi bo'lganadir, ota? — deb so'radi G'aybarov. — O'zini otga sudratibdi, o'lib ketishiyam hech gap emasdi.

Raim oqsoqol jim qoldi. Qambarga nima yomonlik qilganini o'yadi, ko'ngliga gumon solgani uchun o'g'lidan norozi bo'ldi.

— O'zini ayamagan, ota, bir gap bor ekanki, o'zini ayamagan. Odam yomon qasd qilmasa, bunday ishga qo'l urishi qiyin. Nafrati zo'r ekanki...

— Nafrat dedingmi? Unda nafrat nima qiladi?! — dedi Raim oqsoqol. — Hali sen meni yolg'onchiga chiqarishing ham hech gapmas. Nokasda tuzukroq nafrat bo'larkanmi? Unga pul berishgan, o'g'lim, naq yigirma ming sanab berishgan. Sanab bergen odamniyam bilaman, meni qamatishga qamatdi, lekin o'rningga o'tirolmadi. Qambar ularga bir o'yinehoq bo'lgan.

— Birgina Xolbozorovda g'irromlik ko'rmadim. U bilan so'kishib, oshna bo'lganmiz, Jomning cho'li keng, hammaga yetadi, bizning Galatepa qo'sh haydamoq bo'lib ko'chib chiqqanda, rais yerni qizg'angan, menga ot ustida siyosat qilib keldi. Oqbo'z degan yaxshi bir oti bor edi. uloqqa baqamti kelganda o'zi egilardi, aqli edi, taqimga olganini sezsa, bas, uchib ketardi!. Lekin unda rais bilan tuzuk tanish emasdik, menga do'q urib keldi, men ham sal qizishdim, keyin, ikkov tuzukroq o'ylab qarasak, yer yuzi keng ekan, unga uch gaz, menga uch gaz, qolganlarga uch gazdan, undan ortib qoladigani qancha!. U o'zining jomligi bilan cho'lning bir yog'ini, bizning galatepalik mardum bir yog'ini tilib shudgor qildik, unumi zo'r bo'ldi, yuz yillardan beri qisir yotgan yer, har qovunlar bitdi, shirasining zo'ridan paykal boshida tars yorilib ketaverdi! E, endi u vaqtning g'ayrati qani!..

Raim oqsoqol gapdan to'xtadi, ko'zlarida yongan orzumandlik birdan o'chdi, boshini bir chayqab, o'zini shaharda, o'g'lining gulqog'oz yopishtirilgan to'rt devori orasida ko'rdi. Ko'ngliga g'uissa cho'kdi, xayolga bandi bo'lganidan uyaldi, o'zini kamsitilgan, bud-shudidan ayrılib, ko'chada qolgan musofirday g'arib, beorom sezdi va o'g'liga so'z qotdi:

— Choyingdan xabar ol, Toshpo'latboy, keyin men bir mizg'ib olay, ertalab tag'in yo'lga chiqaman...

— Charchabsiz, ota. Sarson bo'psiz, shuncha yo'l, pulmul kerak bo'lsa, xabar qiling edi.

Raim oqsoqol unga gina bilan qaradi: gap pulda emas, bolam, gap diydorda, seni ko'rib qolay, dedim.

## 11. XOTIROT

Hamma narsadan hovli sahnini eslash osontoq — tuproq-supu, tepada bir parcha osmon, sahndagi ikki tup tutning uchlariga qaramay ilojing yo'q, boshidan oxirigacha qaraysan va tepada osmon ko'rindi: so'ng supaning g'arb tarafidagi tuy, uning derazalari, devordan chiqqan dudquvur, afsuski, xotiradagi manzarada undan tutun chiqmaydi — xotirot ko'proq yoz mahaliga bog'liq, yozda tutun hovli burjidagi o'choqdan chiqadi; ikki tut orsiga tortilgan sim dor, dorga ilingan kiyimlar, bir xillaridan, deylik, chakmondan, qo'ng'irsiq jun hidi keladi, kechki payt, epkin yo'q, tuproqqa suv urilgan, kechki payt ekani shundan ham bilinadiki, havoda jun hidi aralash issiq va nam hovur kezadi, bog' tarafidan rayhon bo'yi adashib keladi, otaning o'ng yelkasi, yelkada o'tirgan to'rt yashar bolakay (bu — G'aybarovning o'zi), bolaning sim dorga uzatilgan qo'li, so'ng tutlar, dordagi kiyimlar silkinadi, sustgina, bolaning kuchi yetgani qadar, ba'zida ular sal keskinroq silkinadi,— otaning ham qo'l uzatgani

bilinadi; tutlar hali yosh, nari borsa yetti-sakkiz yillik, tanlari nozik, hali sim dorning uchlaridagi halqa ularning eniga mos, keyinroq borib tutlarning tanasi qiyiladi, keyinroq borib, ular sim dorni po'stloqlari orasiga yutib yuboradi. lekin bunga hali ko'p yillar bor, ko'p yillar, hozircha, bundan yigirma sakkiz yil muqaddam ota to'rt yashar o'g'ilchasini yelkasiga mindirib hovli sahnini aylantiradi.

Idrok etilgan tuyg'ular, balandlik sezgisi, ishonch.

Otaning yelkasiga mingan to'rt yashar bola hali juda ishonuvchan. So'ngroq uni bir marta aldashadi: bor, izlagin, qulog'ing tushib qolibdi. Bola hovli sahnida yurib, qulog'ini izlaydi. Darvoza yonigacha boradi, lekin «yo'qotilgan» qulogni topolmaydi, yig'laydi. Uni yupatishadi, quloglari dan — avval o'ngidan, so'ng so'lidan sekin tortishadi, mana, qulog'ing joyida turibdi, yo'qolgani yo'q, mana, joyida. Bola ishonmaydi, battar yig'laydi, shunda unga oyna ko'rsatishadi, bola unga qarab, quloglari joyida ekanini ko'radi.

Lekin bu xotirot keyingi gap, Bola uni doim sim dor ostidagi sayrlardan keyin eslaydi.

Bir kun kelib bola otasiz qoladi — otani turmaga olib ketadilar,

So'ngroq u onasidan eshitadi: hamma yig'ladi, bolam, otangni opketayotganda sen zor qaqlashing, rahmi kelmagan odam qolmadni, otangni opketgani kelgan ikki melisa uzoqroq borib turdi, otang seni yerdan ko'tarib oldi, keyin menga aytdiki, xotin, uydagi arziyidigan narsalarni qarindoshlarniga clib qo'yinglar, balki bular yana bir marta shilgani kelishar, shuncha olganiyam yetar, o'zi ustimga iladigan bitta chakmon bilan bitta ishtonim qoldi!. Otangni opketishgan kecha uyda qolgan bir-ikkita namatni ammangnikiga obordik, shu-shu, hammasi ammangnikida qolib ketdi, otang or bilib so'ramadi, ammang insof qilib, menda shu moling bor, deb aytmadni.

Ona boshqa ko'p narsalarni ham gapiradi, lekin bola bularni esda saqlamaydi. Yolqiz bir hikoyani u tuzukroq eslab qoladi. Bu hikoyada ular ona, bola, uning kichkina, hali ko'krakdan ayrimagan go'dak ukasi — uch kishi bo'lib otani ko'rgani borishadi. Go'dak shahardagi mehmonxonada qimmatbaho kursini (ehtimol, arzonroqdir, lekin ona mudom qimmat, deb aytadi — qishloqi ayol, tuzukroq anjomni ko'rmagan hisob, o'ziga notanish narsalarni doimo qimmatbaho hisoblaydi) bulg'ab qo'yadi. Onaga rosa baqirishadi. Yig'ladim, bolam, deb eslaydi u keyinehalik, senlarning ham erlaringni turmaga tiqsin, senlar ham menday bo'linglar, agar kunim qaro bo'ilmasa, bu yer yutkur shahringni boshimga urarmidim, o'zim istab kelmadim, taqdiming izmida keldim, iloyo meni qarg'agan tillaring uzilsin!..

Ona o'zi ham qarg'aganini sezmag'an, yig'lay-yig'lay boshidagi shol ro'molini yechib, bola bulg'ab qo'ygan kursini artgan, battar yig'lagan...

Ona yahudiy sartaroshni maqtab eslaydi. Sartarosh bolanning sochini beput oladi. Bola turmada yotgan bir bechoraning o'g'li ekanini sezganmi, xizmat haqidan voz kechgan. Sartarosh — sal tamagir, mahbusning mushtipar xotini o'la-o'Iguncha o'zini alqab eslamog'ini istagan chog'i.

Rostdan ham, ona o'la-o'Iguncha yahudiy sartaroshni maqtab o'tadi: mazhabi boshqa, lekin o'zimiznikidan tuzukroq ekan, sochingni oldi, bir chaqa so'ramadi, pul uzatsam, boshini chayqadi, qo'ying, opa, dedi, mendan bir yaxshilik bo'lsin.

Mehmonxona esa faqat qarg'ishga qoladi. U haligacha bor. Yillar o'tib, ona yerga qo'yilganidan keyin, G'aybarov o'sha shaharga kelib, mehmonxonaga kiraverishda rosa bir soat o'tiradi. Ma'murlik darchasi ortidagi semiz no'g'oy xottinni o'sha, onani so'kkan ayloga o'xshatadi, rosa bir soat mehmonxonaga bola ko'targan qishloqi xotin kirib kelishini kutadi — toki u bola tizilib turgan yumshoq kursilarning

hammasini bulg'asin, gilambilni, butkul mehmonxonani bulg'asin, lekin G'aybarov qishloqi xotinni tahqir etgani qo'ymaydi, kursilarni no'g'oy xotinning o'ziga arttiradi, agar u artemasa... yalashga majbur qiladi.

O'talmay qolgan burch har doim shunday alamli bo'ladi.

U onasining shol ro'mol bilan kursini artganini ko'rgani aniq, lekin hech eslay olmaydi. Onasi boshqa paytlarda odmiroq fatta bilan ukasining ortini artganlarini eslaydi. Iekin uning qo'lida shol ro'molni tutib turganini tasavvur etolmaydi. Biladiki, shol ro'mol hali ohorli bo'lgan, onasi uni musodaradan asrab qolgan, so'ng boshiga o'rabi, turmadagi erini ko'rgani kelgan, mehmonxonada o'g'li bulg'agan kursini tozalab artib, ro'molni axlat qujisiga otgan, so'ng u, qishloqi xotin, shaharda boshini ochib yurgan: xonumoni kuyganday yurdim, bolam, sochimga kul sepmaganim qoldi.

Na yahudiy sartarosh, na ma'mur xotin G'aybarovning esida saqlangan.

Ona hayron bo'lardi: ko'ruvding-ku, bolam, sartarosh-xona turmaning naq manglayida edi-ku? Joriya xotin baqirdi, ovozidan sen boyoqish qo'rdding, etagimga yopishib olib rosa yig'lading, men ham senga qo'shilib yig'ladium... Otasizlik yomon, bolam, xayriyat, seniki tezroq keldi. Bergan o'n yil muddatini to'ldirib o'tirs, holimiz ne kechardi? Xo'tlik, xo'tlik degin, bolam!..

Shularni aytardi-yu, ko'zlaridan sekin yosh ogardi.

Ba'zida u kulib hikoya qilardi, xah, bu ukangmi, bolam, avval-boshdan shunday edi, bir marta shaharning musofirxonasini bulg'ab qo'ygan.

Yuzida kulgi, lekin ko'zları jiqqa yosh. Chamasi, unga «musofirxona» so'zining o'zi kifoya qilardi.

Endi g'alati tuyiladi: bir kuni, yakshanbada, yakshanba ekanini bola yaxshi eslab qiladi, negaki, mahalliy gado va

devonalar Galatepada faqat yakshanba kunlari paydo bo'ldi, Norboy vali, qo'lida bir tutam so'ligan ravoech, aft-basharasi kosovday qop-qopa, tayog'ini darvozadan tashqariga tashtab, yelkasida yegulik solingan to'rva, ichkari kirdi, tunning soyasida, ertalab kuv pishgandan so'ng qolgan yalpiz poyzitari ustiga chiqdi, lekin yalpiz nam ekanini ko'rib cheunga, qattiq yer ustiga chordana qurib o'tirdi, juldur choponi birlarini qo'liga olib, oyog'iga ilishgan qatiqning zardobini artdi va shunday dedi: «Tataddudingni ko'raber, kecha yo'lga chiqdi».

Ona ishonmadi, folbin kampirlarga rom ochiraverib, bechoranining yuragi olingan edi. Bir xayoli devona cholni quylab solmoq ham bo'ldi, lekin allanechuk yumshadi, bir go'lida kichkina bola, unisi bilan kattasini boshlab keldi va so'ng devonaga aytdi: «Tupuring, devona buva, o'g'lim sizga o'xshagan vali bo'lsin».

Norboy vali olti yashar bolaning og'ziga turupurdii: «Yigirmaga kirganda Xizrnii ko'rasan, bolam».

Devonaning gapi rost chiqadi, ota turmadan qaytadi.

O'sha kunlardan esda qolgani: sariq boshmoqchalar, yangi, g'archli, tagcharmi mayin-u, lekin g'archli bo'lgani juda quvonechli; bir just iroqi soyun, hidi o'tkir, yoqimli, uzoq o'lkalar xayoliday sirli, ustidagi qog'oziga chinnigul rasm solingan; qalin muqovali kitob, ichki betida surailari bor, ularda qandaydir baland va uchli binolar fasvirlangan, keyin ko'l va qayiqlar, qayiqlar sohildagi qoziqlarga bog'langan, ularning ustida daraxtlarning egilib turgan shoxlari, lekin bola hali kitob o'qiyolmaydi, ukasi bilan ikki-uch kunda yirtib ado qiladi, taqatgina kitobning g'alati nomi esida qoladi - «So'na». Bu nom bolaga kulgili bo'lib tuyiladi, u hat kuni choshgohda ko'chaga chiqib, to'dasidan qochgan sigirlarni guzar bo'ylab zirillatib quvadigan podachining so'kishlarini eshitadi: «Enangni palon qilay, so'nalar!..»

Keyinroq bola bu kitobni o'qiydi, o'qib bo'lgach, xilvatda o'tirib yig'laydi, undagi gaplarning hammasiga ishonadi, bu kitobni butun umrga sevib qolmog'ini ham sezadi, lekin bari bir, o'sha otasi keltirgan, ukasi bilan o'zi ikki-uch kunga qoldirmay yirtib ofgan kitobni sog'inadi, nazarida, o'sha kitob, muqovasi ichiga uchli binolar, ko'l, qayiqlar, qayiq ustiga engashgan daraxtlar tasviri tushirilgan kitob boshqacha ko'rindi. yaxshiroq, qiziqroq tuyiladi.

Lekin bular hammasi keyin...

Hozirgacha bola sariq boshmoqchalarni oyoqlariga ilib, qir bag'ridagi so'qmoqlarda rosa yuguradi. So'qmoqlar qumli, yaqindagina yomg'ir yog'ib o'tgan... bahor... o'tlardan, qo'zulgul, qo'ziquloq, guliqayrag' ochlardan boshmoqchalarga, shimning pochalariga shabnam sachraydi, tizzagacha jiqqa ho'l, yer sirpanchiq, so'qmoqdan yugurganda yiqladi, tizzalari shilinadi, turadi, yig'lagisi keladi, lekin yig'lab bo'lmaydi — atrofda odam ko'p. Kattalar, kichkinalar, qishloqning bor odami ko'chib kelgan. Hovlida ikkita doshqozon osilgan, ularda bo'rdoqilarning ustixoni qaynamoqda. Bugun — to'y. Kimsan G'aybarov rais qaytib kelgan. Hamma uni ko'rgani yig'ilgan, hamma xursand, uning olti yashar o'g'ilchasi boshqalardan ham xursandroq, negaki uning oyoqlarida sariq boshmoqchalari bor, bugun unga boshqa bolalar havas bilan qarashadi, shunchalik havas bilanki, ular ham otalari Raim oqsoqolga o'xshab turmaga tushmog'ini, keyin u qaytganda mana shunday katta to'y bo'lmog'ini orzu qilishadi; hamma unga yoqishni istaydi, mana, bittasi hisobchining o'g'li uch g'ildirakli velosipedini keltirib tutdi, ma, minaqol, sen minsang otam urishmaydi, ana, otamning o'zi qarab turibdi; hisobchi iljayadi, sariq boshmoqchali bola velosiped egariga o'tiradi, hisobchi tag'in iljayadi, shu zumda u o'g'lining manavi sariq boshmoqchali baxtiyor bola bilan

oshna bo'lishini istaydi, kim biladi, balki ular oshna bo'lishmas, lekin sariq boshmoqcha kiygan bola, keyinchalik islom-shunos G'aybarov, velosipedini bergen bolani va uning xushfe'l otasini bir umriga eslab qoladi, negaki hozir u otasi qaytib kelganidan xursand, hozir dunyo juda keng va yorug', mana, sariq boshmoqchali oyoqlar velosipedning kichkina pedallarini bosdi, g'ildiraklar avval sekin, keyin tezroq, so'ng yana tezroq aylandi-yu qir etagidagi sayhonlik bo'ylab keza ketdi...

Kechqurun odamlar tarqab, o'zları qolishganda, ota olti yashar o'g'lini yana yelkasiga mindirib, hovli aylantirdi. Yomg'ir shivalab turardi. Sim dor bu gal tarangroq tuyildi. Sariq boshmoqchalar otaning ustidagi to'nni loy qildi, bola oyoqlarini teparoqqa ko'tardi, lekin ota ularni mahkam tutib to'niga, yuzlariga ishqadit.

«Qo'yaber, o'g'lim, otasi boshqa tuproq-da!..»

Ota tuproqni shunday deb atadi. Undan jirkanmadidi. O'sha kech sariq boshmoqchali bola otasini qattiq yaxshi ko'rди. O'sha kech u baxtli edi.

Raim oqsoqol o'g'lini yelkasiga mindirib, hovli aylantirgan paytini tuzukroq eslay olmasdi: qani eslat, o'g'lim, balki yodga tushar.

G'aybarov eslatadi, lekin u kunlar negadir otaning ko'nglida o'g'il istaganday jonlanmaydi.

Uning ranjiganini ko'rib, ota gapni dudmalroq qilardi, qanday esdan chiqsin, o'g'lim, sen unda go'dak eding, go'dak edingki, men seni yelkamga mindirib yurganman-da, endi sening bolangni ko'tarib yursam deyman...

G'aybarovga otasining eslay olmagani alam qiladi. Lekin ota uning e'tiboridan xursand, keksalik chog'ida yuqqan mushtiparlikni itqitib tashlab, dadil gap boshlaydi: «Sizlarning boringizga shukr, o'g'lim, sen bag'rimdan uzilgan bo'lsang ham, bari bir, bag'rimdasan, bu yoqda ukalaring,

to'rti birday odamsizlar. Bir vaqtlar, ikki o'g'lim o'lib, qizlarim omon qolganida, Salim qaroqchi zang'arning tashlagan qadamidan o'g'il unardi, hurkitmasang sanab bo'lmasdi, shu Salim qaroqchi aytgan ekanki, men o'lsam, o'rnimda qancha Salim qoladi. Raim o'lsa, o'rniда uyining vayronasi bilan uni qo'riqlaydigan bitta oq ko'ppagi qoladi. Bir oq itim bor edi, o'g'lim. Menga bir gal Pirimqul moliya burnimdan baland gap qilganida, shu it kelib, shartta bo'g'zidan olgan, men hayhatladimki, bo'g'zini bo'shatdi, bo'lmasam qo'ymasdi, naq g'ajib tashlardi. E bolam, ko'p aqli it edi, mening qovog'imga qarab turardi, ko'nglim qorong'i bo'lganda yaloqqa qaramasdi. U paytlar sizlar yo'qsizlar, ikkita qiz ham birovning xasmi, bir kun kelib uchadi-ketadi, odamlar shu oq itni menga o'g'il qilib taqishgan... Keyin, sizlar tug'ilgandan keyin ham, shu itni sizlardan kam ko'rmadim. Odamlardan sitam yedim, lekin undan yomonlik ko'rmadim...

Raim oqsoqol ikkala oyog'i bilan ham kechagi kunda turadi, bu tarafga hatlashni istamaydi. Bugungi kunda uning biror ming so'm o'limlik puli bor, kafanligi bor. Bugungi kunda uning qiladigan ishi qolmagan hisob, bugungi kunda o'lmosg'i mumkin, xolos... Raim oqsoqol o'limdan deyarli og'iz ochmaydi, uni jimgina kutgan ma'qul, balki, omadi kelsa, mo'ljaldan ikki-uch kun oshiqroq yashar, agar yashamas...

U bugungi kundan gapirganda ham o'tmishni eslaganday bo'ladi. Deylik, bunday gap qiladi: Tosho'latboy o'g'lim, shu Ochil Kuch buvang Oyparchaga uylansa nima bo'lardi, a? Uying kuygurning tillasi bor, Ochil Kuchga shu narsa hech uyqu bermaydi, tila degani yomon narsa-da, odamni uyqudan ayiradi... Panji o'g'rinining bor davlati shu xotinning qo'lida qoldi, mening qilganim — Kuchni qayraganim, bo'lmasam, Panji qaytib kelib, naq yelkamdan pichoq san-

chardi. Kuch uni otdi, tillaning barisi Oyparchada, endi Panjining urug'-aymog'i o'choq aylanib meni qarg'aydi.

Bu juda qiziq bir halqa: Ochil Kuch Panji o'g'rini otib, Oyparcha kampirni badavlat qilgan, Raim oqsoqolni muqarrar o'llimdan asragan, keyin Raim oqsoqol tirik qolib, undan Toshpo'lat G'aybarov yaralgan va endi Toshpo'lat G'aybarov Oyparcha kampir va Ochil Kuch haqida o'ylaydi, o'ylaydiki, Oyparcha kampir pulni yaxshi ko'rganidan qarindoshi Panji o'g'rini sotmaganda. Raim oqsoqol o'limi muqarrarligini sezib, Ochil Kuchga pishang bermaganda, Ochil Kuch guppilik qilib, Panji o'g'rining naq ensasidan otmaganda, balki u, Toshpo'lat G'aybarov, bu dunyoga kelmagan ham bo'lardi. Uzviylik bordek, keyin bu uzviylik shunchalar soddaki, badaningga titroq kiradi, dunyoda naqadar omonat ekaningni sezasan.

Aslini olganda, Raim oqsoqol ayfadigan gaplarning sababi oddiy. O'limlik deb yiqqan biror ming so'm puli unga ozday ko'tinadi, u noiloj Oyparchani, uning afsonaviy xazinasini o'ylaydi, acheinadi: nega men davrim kelganda davlat orttirmadim, axir qancha mol, qancha pul qo'llimdan o'tdi, qancha odamni boqdim, endi kelib...

Keyin u o'zini ovutadi: bundan chiqdi, men xasis emasman, mol-dunyoga hirs qo'ymadim, xudo bo'lsa, shunda Raim oqsoqol xudoning borligiga juda ishongisi keladi — agar xudo bor bo'lsa, o'zi hisobga oladi.

Uning ko'ngli g'aribgina g'ururga to'ladi: men dunyonni mensimay yashadim, boshga tushganni ko'z ko'rasi, mayli, ko'ramiz, hammasini ko'ramiz.

Shunday kezlarda Raim oqsoqol chiroyli bo'lib ketadi. Eski paytlarga, o'sha, damida osh pishgan kunlarga qaytganday, yuzida hayot barq uradi!

Afsuski, bunday damlar kun sayin siyraklashib boradi. Go'yoki uning xotirida vaqt muzlab qolganday. Unga nega-

dir Oyparcha kampir baxtliroq bo'lib tuyiladi. Raim oqsoqol uni o'sha paytdagi qiyofada ko'radi, uning uchun Ochil Kuch ham qarimagan, go'yo Panji o'g'ri ham kuni kecha otulganday, eng yomoni shuki, ularning birortasi ham qarimagan, lekin u o'zining qartayganini tuyadi, tomirlarida qonning kun sayin sustroq oqishini, mushaklari ilvirab borayotganini, terisi yupqa tortayotganini sezadi, lekin xayoli, xayol, xayol deganing... eh-ha!. Unga tutqun bo'lgan yaxshi! Xayolda sen qush bo'lasan, uncha-muncha qush emas — naq sorburgut! Uchasan, uchasan, havolab-havolab uchasan, nomard dunyoning boshidan adog'igacha kezib chiqasan!..

Endi uning oldiga odam kam keladi. Eng ko'p keladigani — mulla Chori. Yana bir-ikki odam keladi. Raim Oqsoqol si-nashta bo'Imagani uchun, ular bilan bosiq, izzatini bilib gaplashadi, kuzatgani chiqmaydi. o'tirgan joyida xo'shlashib, o'g'illariga buyuradi: «Mehmonning uzangisini bos!..» Ba'zida, sal obro'lipoq mehmon bo'lsa, manzirat qiladi: «O'tirsangiz bo'lardi, yana ozroq otamlashardik, kun g'animat, bu yog'iyam oz qolyapti...»

Mulla Chori mehmon emas — mijoz, doimiy mijoz. U Raim oqsoqolning hikoyalarini erinmay eshitadi, zerikmaydi ham, sehrlangan shahzoda misoli qimir etmay o'tiraveradi. Bu hikoyalar uzun, hech adog'i ko'rinxaydi, qancha ko'p gapirsang, shunchalik aybdor bo'lib ko'rinasan, hammasi o'z vaqt uchun to'g'ri ekan, endi ba'zi ishlar kulgili tuyiladi, lekin u paytlar hech kulgili tuyilmagan, u paytlar hamma jiddiy edi, aytaylik, uni taftish qilgani Boshliq kelgan, keyinchalik bu odam Katta Boshliq bo'ldi, lekin u paytda kichikroq edi, shuning uchun ham Raim oqsoqolning ustidan yozilgan shikoyatni o'zi kelib tekshirgan, avvaliga qovog'ini ochmagan, shikoyatning zalvari bosib turgan. Boshliq mashinaning kabinasida, Raim oqsoqol tepada, ikkovi

Galatepaning bu boshidan kirib, narigi boshiga jo'nashgan, yo'lning biror yarmidan o'tib, qishloqning uy-joylari, bog'rog'larini ko'rib, Boshliq mashinani «saqlagan», keyin o'zi ham tepaga, Raim oqsoqolning yoniga chiqqan, keyin aylgan: kechirasiz, o'rtoq G'aybarov, men avval ishonmagan edim, sizni naq xudo, xudoday hukm yuritadi, deb aytishgan edi, endi bildim, siz rostdan ham Galatepaning jonkuyari ekansiz, rahmat sizga, shuncha obod joylarni ko'rsatdingiz!

Shunda Raim oqsoqol kamtarlik qiladi: yo'q, o'rtoq Palonchiyev, siz avval odamlar bilan gaplasting, balki, mendan norozilar bordir?

Boshliq aytadi: men gaplashdim, orqavoratdan ham surishtirdim, sal pismiqlik bo'lgani rost, lekin haqiqatni bilib oldik, Galatepaga ko'p xizmatingiz singibdi!

Raim oqsoqol tag'in kamtarlik qiladi: yo'q, o'rtoq Palonchiyev, bizning Galatepa ham dunyoning bir chekkasida emas, bu yerda ham sho'rolar hukumati va partiya ish yuritadi, ularning yo'li bilan mening yo'lim bir, hammamiz ham xalqqa omonlik tilaymiz.

Raim oqsoqol doim o'zini salgina xolisroq olib gapiradi. Buning sababi ayon: u communist emas, negaki, savodi kamligidan biror marta qo'liga ariza tutib bormagan, o'zini noloyiq sanagan, andisha qilgan. Lekin uning sodda, qishloqilarga xos andishasiga, faxriga ko'pchilik tushunmaydi. Birovlar uning ustidan kuiadi: nafsingizni bilmaysiz, oqsoqol!.. Bunday odamlarni esa Raim oqsoqol tushunmaydi. Bir narsaga aniq ishonadi — u Galatepaga rais, Galatepaga undan boshqa odam raislik qilolmaydi, usiz Galatepa uchun hech qanday ravnaq yo'q, shu bois, maktab quradi, kasalxona quradi, ko'prik quradi, hashar yo'li bilan, ba'zida g'irromlik qilib, Xolbozorov raisga o'xshagan qalinqoq jo'ralarining kolxzogga atalgan pullardan yulib,

shoshilib, go'yoki crta-indin o'ladigan odamday, ba'zi-da tuzukroq o'yamasdan, nimadir qilib qolish uchun, boshdan-oyoq fashvishga ko'milgan, tinim bilmay yeladi, yuguradi, baqirib-chaqiradi, aldaydi, otang yaxshi, enang yaxshi, deydi — toki o'zi istagan narsa yoki ishni undir-maguneha qo'ymaydi. Galatepa — Raim oqsoqol uchun yerning kindigi, Shaharlarning ko'rki-yu kibrini ko'rganda afti burishadi. Galatepaning to'poritoq ekanligini biladi, lekin shu ondayoq qishloqning bog'-rog'lарini, mol-hol bilan to'la qo'tralarini eslaydi, ko'ngli yana g'ururga to'ladi. bularning barisi meniki, mening Galatepam, mening odamlarim! Qizig'i shundaki, u mansabini qadrlamaydi. Mansab unga om'onat ekanı aniq, qanday kelgan bo'lsa, shunday ketadi. U mansab, mansab nima, u baxsh etgan faollik nechog'lik zarur ekanini hali payqamaydi, keyin, egardan tushib, bekor, birovga keraksiz, ezma, zerikarli bo'lib qolishini bilmaydi. Uning bilaklarida kuchi ko'p, umri ham uzoqday, hozireha u ertangi kunni o'ylamaydi, o'zining odmiligini faxri — savodsiz bo'laturib, a'zolik daffarisiz, katta, yetti ming joni Galatepani idora qilmoqqa yetgan uquvi bilan ovunib yuraveradi.

Galatepa Raim oqsoqolga uzoq vaqtargacha ko'nikolmaydi. Uzoq vaqt unga czilgan, birovga so'zi o'tmaydigan isqirt batrak — G'aybar soqovning o'g'liga oltinchı barmoqqa mo'minning ayig'iga qaratganday erinaklab qara-shadi, keyintiroq, Raim oqsoqolning rostakam davr surayot-ganini ko'rib, noiloj ko'nikishadi, sekin-sekin uni G'aybar soqovdan farqlab gapira boshlaydilar, so'ngroq, borib, bu farq qaytadan yo'qoladi — G'aybar soqovni bir karra unutib, yangi bir sifalda, ya'ni Raim oqsoqolning bo'shangroq ofasi deb izzat qiladilar, hatto uning ajdodlari Xuroson tarasdan qul bo'lib kelgani ham unut bo'ladi. Raim oqsoqol otasiga

unchalik o'xshamaydi — uquvliroq, aqliroq, otasiday miskin emas, hatto o'zini qaysidir ma'noda yagona sanashga ham jur'ati yetadi. Lekin otameros soddalik va to'porilik uning qonida bari bir qolaveradi. Raim oqsoqol taxtiga mingan kal singari adolatli va kamtarin bo'lishga urinadi, shu sabab, birovlari uning naf bilmasligidan kuladi, birovlari uning savod-sizligi va shuning kasridan sal qimtinibroq yurishidan ham bir qusur axtarishadi, hatto bu qusurni topishadi ham, deylik, Raim oqsoqol raistligiga yakun yasalgan sud majlisida, u o'zining aybiga tushunmay, bor savlatini yo'qotib, boshiga so'yil tushganday garangsib, chor atrofiga hayron boqib, katta-yu kichikdan gado yanglig' shafqat kutganida, temirday qattiq va soyuq ovoz bilan so'roq so'rashadi:

«Nega a'zo emassiz!»

Raim oqsoqol to'g'risini aytadi:

«O'zimni noloyiq sanadim».

Tahdidli bir sukutdan so'ng yana so'rashadi:

«Bundan chiqdi, siz noloyiq ekaningizni o'sha payt-dayoq o'zingiz ham payqagansiz, shundaymi?»

Raim oqsoqol gapning qayoqqa ketayotganini sezadi, g'azabi keladi, bor jur'atini yig'ib, o'jarlik bilan (o'ladijan ho'kiz boltadan toymas!), to'g'risini aytadi:

«Savodim kam edi, o'zimni nojoyiq sanadim».

Hukm chiqarishadi:

«Asli ko'nglingiz halol bo'Imagan!»

Kevin rasmiy hukm o'qiladi:

## RESPUBLIKA SUDI NOMIDAN...

So'ng boshqa hukmlar, aniqrog'i, ajrimlar: umumiy ajrim, xususiy ajrim va hokazo ajrimlar, musodara, diqqatni jahb etish, c'tiborni qaratish...

Qamoq haqida Raim oqsoqol kam gapiradi. Turmada qanday savod chiqargani haqida ikki-uch hikoyasi bor, ularda bir eshon to'g'risida gap ketadi, dam solayotgan biror ayolga ilkisroq qo'l tekkizganmi yoki muridlaridan ortiqcha nazrniyoz olganmi, ishqilib, aybini topib qamashgan. Eshon bilan sobiq rais bir bo'lmada istiqomat qilishadi. Rais unga bos-machilarni otganidan, eshonlarni quloq qilganidan gapiradi, eshon bo'lsa raisga savod o'rgatadi. Eshon barcha muallimlar kabi nolibroq gapiradi: ko'p kitoblar yo'q bo'lib ketdi, Raim afandim, deydi, ko'p yaxshi kitoblar arab alibosida yozilgani kasridan yo'qoldi. Raim afandim, mualliflari kimligini bilmay hatto Kitobning jildiga tuzukroq qaramay ham yo'qotishgan, go'yoki xurosfot deganlari zer-u zabarga jo bo'Iganday, nimasini aytasiz, Raim afandim, siz bu imloni o'rganining, o'g'lingizga o'rgating, keyin sizni savodsiz degan odamning yuziga tuflang, savobi tegadi, ko'zi ochilmagan kuchuk-vachchaday o'lib ketmaylik. Raim afandim, endi mana, dorilzamon bo'ldi, boy-kambag'al yo'q, menga o'xshagan bir-ikki unsur ham hademay dunyonи sizlarga bo'shatib beradi, bu yog'i sizlarniki, bu yog'ini sizlarga-yu xudoga topshirdik.

Eshon ko'p gapiradi, uning va'zlarida chalkash fikrlar ko'p, ba'zida u o'ziga o'zi qarshi boradi, ba'zan shunday yuksakliklarga parvoz qiladiki, Raim oqsoqol beixliyor iljayadi, u bilan bir bo'lmada yotgan, yegani yovg'on sho'rva, ichgani qaynoq suv bo'lgan mahbusning lafzidan bunday g'alati gaplar chiqayotganiga ishonmaydi, ishonish shakkoklik bo'lib tuyiladi, ishonsang, negadir xo'rлиging keladi, shu bois, u ko'pincha boshini burkab, o'zini uxlaganga soladi. Eshon ko'p o'qigan, ko'p narsalarni biladi, lekin uning qo'llari nozik, barmoqlari nozik, umrida qor kuramagan, go'ng kuramagan yoki Raim oqsoqolga o'xshab miltiqning tepkisini bosmagan, eshon — po'k, bo'sh, uning chatanog'i

terdan achishmagan, keti ot egarida qadoq bo'Imagan, turmushni ham bilmaydi, bug'doyning qachon ekilib, qachon boshoq boylashi unga qorong'i, u faqat yegan va ichgan, duosini o'qigan, lekin taqdirni qarangki, u bilan Raim oqsoqol bir bo'lmada o'tiribdi, bir havodan nafas olishadi — turgan-bitganiadolatsizlik! Ammo ba'zida eshonning gaplari qiziqroq ham tuyildi. Raim oqsoqol uning ham odam ekanini, u ham haqiqatni gapirishi mumkinligini tan olishga majbur, ba'zida u ham o'ylanib qoladi, deylik, o'sha kitoblar haqidagi uzundan-uzoq nutqdan so'ng, umr bo'yig'oz tutgan qad-dini sal egishga to'g'ri keladi, shunda sekin so'zlaydi: «Gappingiz rost, eshon shu gunohdan biz ham benasib qolma-ganmiz. Eshon hamdardlik bilan so'raydi: «Quloq qilishlari dan qo'rqedingizmi?» Raim oqsoqol kuladi: «Men o'zim quloq qilardim, eshon!»

Turmada, Toshkentga yaqinroq, ustidan tutun arimaydi-gan bir shaharchada Raim oqsoqol ikki yil-u bir oy yotadi. O'zini dadil tutadi, o'n yilga kesishdimi, endi shuni mo'ljal qilish kerak, deb o'laydi, kuchini, jonini ayaydi, boshqa-larga o'xshab ariza yozib shikoyat qilgani yuzi chidamaydi, or qiladi — o'zining aybdor emasligini biladi. Kunlari juda sekin, xuddi eshonning rivoyatlaridek imillab kechaveradi, ehtimol, u begunohligiga suyanib, ehtimolki, shu tuyg'uning qasdig'a, qolgan sakkiz yilni ham turmada o'tkazishi mumkin edi, lekin ittifoqo bir vaqtlar Galatepaga shikoyat yuzasidan kelgan Boshliq, u paytda sal kichikroq, endi Katta Boshliq, kutilmaganda Galatepani eslaydi, chamasi, o'tmishini o'zicha bir sidra taftish qilib, yakun yasamoqni, keyin butkul boshqacha, yanada yaxshiroq, Katta Boshliqqa munosib faoliyat boshlamoqni o'laydi, shunda xotiralar-ning bir chekkasidan Galatepa va uning raisi qalqib chiqadi, raisning turmada ekanini eshitib, Katta Boshliq ajablanadi:

«Serg'ayrat, to'g'ri odam edi, yaxshi ish bo'lma bdi». Uning talabi bilan qayla tekshiruv boshlanadi. Raim oqsoqol ko'nikib qolgan ruhsiz, rutubatli kunlarning birida uning ustidan ikkinchi marta hukm chiqariladi. bu gal ham respublika nomidan, lekin hukm endi odatiy tantanavorligi va salobatidan mahrum, endi unda ko'proq xijolat ohangi seziladi:

### ...SUDLANMAGAN IIISOBLANSIN

Raim oqsoqol ortiqcha shov-shuvsiz turmadan chiqadi. Uni Katta Boshliq chaqirib, xunuk anglashilmovchilik uchun urz so'rigan bo'ladi: men sizni mukofotga taqdim etgan edim, o'rtoq G'aybarov, surishifirib ko'rsam, sizni u yodda deyishdi. Gunohingiz yo'q ekan, mana, chiqdingiz. Lekin endi mukofotni qo'yib turamiz, o'zingiz tushunasiz, shuncha gapdan keyin mukofot bersak, mazax qilganday bo'lamiz.

Raim oqsoqol Galatepaga ruhi ko'tarilib qaytadi. Oradan biror hafta o'tar-o'tmas, rayijroqo'mdan odam kelib, undan raisga muovin bo'lishni so'raydi: hozirecha shu ishni band qilib turing, o'rtoq G'aybarov, u yog'ini keyin o'ylashib ko'ramiz. Kolxozning raisi ham uyala-uyala shu iltimosni takrorlaydi: saylovgacha sabr qilasiz, oqqsoqol, men o'zimga biror mo'ljal topay, shusiz ham sizni rais, meni muovin o'nida ko'rishadi. Raim oqsoqol bunchalar izzatni kutmaganmi, mehri iyadi va aytadi: qo'y, uka, men davrimni surdim, biror hosilotlikmi, boshqami, kichkinaroq amal topib bersang bas, tagimda bitta ulov bo'lsa, bozor-o'charga minarman, bu yog'i bolalar ham odam bo'p qoldi...

Boshqa ko'p odamlar keladi, ko'p marta amal taklif qilishiadi, lekin Raim oqsoqol oyoqni mahkam tirab turib oladi: yo'q, bizniki bo'ldi, endi yoshiarning omadini bersin...

Bularni eslash Raim oqsoqolga yoqadi, u o'ziga o'zi tog' bo'lib ko'rindi: dunyo avvatiga undan yuz o'girdi, keyin yana orqasini tutib keldi, lekin endi Raim oqsoqolning o'zi yuzini cheiga burdi! Ko'ngil faxrga to'ladi!

U boshqa tuzukroq mansabga minmadi. Bola-chaqanining yonida, oyoqni uzatib yashayverdi. Eski kitoblarni o'qidi. Shunda mulla Chori yaltoqlanib keldi, savodingiz zo'r bo'pti, endi mullalik qiling, rais.

Raim oqsoqolning jahli chiqdi: bundan boshqa ishlaram ham bor, mullalik qilguncha, kulbet eshagimni qashlaganim durust, dunyoni xudo yaratgan-u, keyin uni mulla-yu eshonlar aralashib buzgan, men, agar gaplashsam, bitta xudo bilan gaplashaman.

U mullani itday qilib haydaydi. Mulla esa qaytib kelaveradi. Raim oqsoqol haydaydi, mulla tag'in keladi. Keyinroq, Raim oqsoqol sal o'rganib qolganda mulla Chori eski gapini takrorlaydi. Bekor o'tirmang, rais biz bilan yuring, to'y-ma'takada yonma-yon o'tiraylik, mulla hisobiga o'ting, sizning bilganingiz ham oz emas, ana soat sayin ham nikoh o'qib, har to'ya yigirma so'm pul bilan bitta qo'chqor undiryapti..

Raim oqsoqol bari bir unamaydi: xudo bersint!..

Mulla Chori xafa bo'ladi: biz gadolik qilmayapmiz, rais. Elning udumi ko'p.

Raim oqsoqol kuladi: Men ham gadoylik qilmayman, o'lsam o'larman, o'lib bekafan qolarman, lekin sassiq gapga aralashganimni ko'rmaysiz.

Vaqti kelib, Raim oqsoqol yolg'izlanib qoladi, endi uning yoniga boshliqlar kelmaydi, maslahat so'raydiganlar ham siyrak, o'zi va o'tmishi, bir-ikkita hangomatalab chollar...

Va u bir kuni ko'radiki, yostiqqa yastanib olib, faqat kechagi kundan naql qilyapti: Panji o'g'ri kazzob edi. Ochil Kuch o'lguday hovliqma, Oyparcha o'taketgan ayyor xotin.

Raim oqsoqol erinmay gapiradi. Ezmalik qilayotganini o'zi ham sezadi, lekin jim qolishdan qo'rqaadi, go'yo u so'zdan to'xtasa, uni butkul unutib yuborishadi. Unut bo'lishni istamaydi — gapiradi...

## 12. BIR KUN AVVAL

Nihoyat, G'aybarov izlaganini topdi. Izlagani aynan shu yerdan chiqishini o'ylamagan edi, lekin tavakkaliga cho'kich urganida tuproq qatlami o'pirilib tushdi-yu zim-ziyo o'ra tubida nimadir yiltiraganday bo'ldi. Yuragi tez urib ko'zlarini chirt yumgancha, o'raka qo'l tiqdi, qo'li soyuq ma'danga tegdi, olib ko'rsa, xuddi izlagani — ayol haykalchasi, qanotlari ham bor, haqiqiy ma'buda!

Chuqurdan irg'ib chiqib, chodir tarafga chopdi. Zamira soyabon tagidagi kursida o'tirib ko'zi ilingan ekan, G'aybarov ovozining boricha qichqirdi:

— Yashasin G'aybarov! Dunyo turguncha tursin!

Zamira cho'chib tushdi, ko'zlarini ishqaladi. G'aybarov, qo'lida ma'buda, qizni yerdan azot ko'tardi, mahkam bag'riga bosdi, yuz-u ko'zidan o'pdi.

— Topdim, Zamira, — dedi hayqirib. — Topdim, axiyri topdim!..

Qizning yuzida og'riq ko'rindi — haykalchaning qanotlari beliga botgan edi. Lekin G'aybarov uni qo'yib yubormadi.

— Kundoshlik shunday og'ir, Zamira, — dedi u ko'ngli saodatga to'lib. — Ikki ayolni birdaniga quchish osonmas, lekin men quchyapman!..

— Aqdan ozibsiz, Toshpo'lat aka!..

Qiz tipirchilab uning og'ushidan xalos bo'ldi, lekin ko'zi ma'budaga tushdi-yu, G'aybarovni quchoqlab oldi. Bir

daqiqqa oldin uni dadil quchgan G'aybarov endi daf'atan kalovlandi, o'zini yo'qotdi.

— E, e, Zamira... — deya oldi u qizning og'ushidan sirg'alib chiqarkan. Mana shu... shuni topdim... O'zingiz bir ko'ring!..

Zamira uning qo'lidan haykalchani oldi, avaylab oldi, go'yo ma'dani uvoqlanib ketishdan qo'rqqanday...

— Diana, ov xudosi, — dedi asta pichirlab. — Ovingiz baroridan kelgan ekan!

— Hasad qilyapsizmi? — deb hazillashdi G'aybarov.

— Yo'g'-e, nega endi... — dedi qiz uyalib. — Baxtli ekansiz, Toshpo'lat aka!

— Saodatli deng!

— Bunaqasi arxeologlarning o'ziga ham kamdan-kam nasib qiladi.

— Axir bu ma'buda-ku, — deb kului G'aybarov. — Xudo bo'lgandan keyin dinshunoslarga uchraydi-da!

— Qayerdan topdingiz?

— Hu anavi, tashlandiq chuqurdan. Shunchaki cho'kich urib ko'rdir, fanni o'yagan bo'lsam o'lay agar!.. Ketdik, Zamira, buni yuvmasak bo'lmaydi!

— Yo'q, men yana bir qaray, — dedi qiz.

G'aybarov chodirga kirib, anjomlarini yig'ishtira boshladidi. Tashqari chiqqanida Zamiraning qo'llarida bir hovuch taqin-choq bor edi.

— Bularni ko'rmabsiz ham, — deya o'pkalandi qiz. — Qarang, qancha!.. Boshqa narsa topilmadi, lekin bari bir, militsiya chaqirmasak bo'lmaydi.

— Ular o'marib ketishmasmikan?

— O'marib bo'pti!.. Direktorga ham qo'ng'iroq qilamiz.

— O'zlarining qo'riqlab turinglar desa-chi?

— O'libdimi! Yo qolsakmikin, Toshpo'lat aka?..

— Ketaylik, — dedi G'aybarov yalinguday bo'lib. — Sizsiz quvonch tatimaydi, Zamira. Rost gapim, yuragim yorilay deyapti, kimadir maqtanishim kerak. Aksiga olganday, Qobilning yo'qligini qarang!.. Maqtanmasam yorilib o'laman, Zamira!..

— Ketdik, — dedi Zamira sal o'ylab turib. — Yo'q, siz bizning xodimlar qanchalik g'azablanishini tasavvur ham qilolmayasiz. Qandaydir G'aybarov kelsa-yu, ular tashlab ketgan chuqurdan ma'budani topsa!..

— Ikkalamiz topdik, Zamira, — dedi G'aybarov. — Siz bo'lmasangiz... — U bir zum ikkilandi, keyin baribir aytdi. — Sizsiz men allaqiehon jo'nab qolardim.

Qiz ko'zlarimi yerga tikdi va qat'iy qilib gapirdi:

— Ma'budani siz topdingiz, Toshpo'lat aka.

G'aybarov uni yana o'pib olgisi keldi, lekin botinnadi — Zamira tag'in begona bo'lib qolganday edi.

...Shaharga tramvayda qaytishdi. Tramvay shaharga yuqinlashgani sayin odam tirband bo'ldi. G'aybarov tepadagi tutqichidan, Zamira uning yefkasidan titib borardi.

G'aybarov tush ko'rayotgandek edi. Tramvayni ham tush ko'ryapman, deb o'yADI, negaki, tushda oshiq bo'lishi oson, Zamiruni tushimda sevib qoldim, endi tush va ro'yolar qafini yorib chiqib o'ngimda ham bu qizni qattiq, xiddi darvesh o'z miskinligini suygani misol o'kinch-u azob bilan kuyib-yonib, jizg'inak bo'lib sevaman, u meni rad qilsa ham mayliga, ko'nglimdag'i muhabbatni hech kimga bermayman, uni ko'ksimga joylab, mana shu shalag'i chiqqan tramvayda olib ketaman, tramvayning temir izzari adoq bilmaydi — Toshkent sarhadini bosib o'tib, sho'rdan oqarib yotgan dashtlarga, undan vohalarga, Jizzaxga, Samarqandga, nomsiz tog'lar qurshovidagi Galatepaga dovr boradi,

yo'lda butun yoz o'tadi, yoz o'tib, kuz kiradi va kuzning oxirlarida men Toshpo'lal Raim o'g'li G'aybarov, ko'nglim muhabbat va imondan yuksalib, Galatepaning chekkasida, kunbotar qirlar ustida, xor-u xaslari kech kuz shamolida qaltirayotgan, jizlovnqlari allaqachon tinib qolgan zarang yerga sakrayman — o'shanda hayotim qaytdan boshlanadi...

G'aybarov tramvaydan yengil sakrab tushdi-da, Zamiraga qo'l uzardi va o'ngdag'i yozgi qahvaxonaga boshladi. Muz-qaymoq sotuvchi ayol eskidan tanish edi, ularni ko'rib o'zicha suymib ketdi:

— Qaylarda yuribsiz, G'aybarovjon uka!..

— Xizmatchilik, Adolat opa, — deb kulimsiradi G'aybarov. — Ilmni igna bilan qaziydigan quduq, deb aytishgan ekan, shu, sekin-sekin... kaylab yotibmiz.

— Kaylang, G'aybarovjon, iloyo charehamang!

— Rahmat, opa. Endi bizga muzqaymoqning sovuqtog'idan berasiz.

— Jonim bilan, G'aybarovjon uka, sizday yigit so'ragan-dan keyin qaymog'idan beramiz-da!.. Xaridorlarga xushomad qilmasam bilmaydi, hammasi anov Xadichanining do'koniga ketib qolyapti.

— Illoyim, tezroq isib ketsin!

Kulishdi. G'aybarov bilan Zamira chekkaroqdagi stolga o'tishdi.

— Siz o'tiraturing, men bitta shampan opkelay, — dedi G'aybarov,

— Ichmasak, Toshpo'lal aka, — deb zorlandi Zamira. — Men ichmayman.

— Yo'-o'q, bugun ozgina ichamiz.

G'aybarov bir shisha vino olib keldi.

— Adolat opa afandi ayol, — dedi Zamira. — Bir marta Shoir aka bilan kelganimizda tumshayib oldi.

— Jo'rttaga qilgan. U bizning er-xotin emasligimizni juda yaxshi biladi. — G'aybarov shishani o'chib, qadahlarga quydi. — Ma'buda uchun!..

— Ma'buda uchun! — deya takrorladi Zamira va ko'zlarini yumib, vinoni birdan sippordi. O'riganmagan ekan, bo'g'ziga tiqildi, egilib tomog'ini changallamoqchi edi, bilaqidagi qoramtil halqa yerga uchib tushdi.

G'aybarov bilaguzukni olib stolga qo'ydi.

— Ana, ko'rdingizmi!.. — dedi Zamira yo'tala-yo'tala. — Ma'budangiz burnimdan chiqdi!

G'aybarov qadahdagi vinoni shoshmasdan, maza qilib ichdi, yana to'latib quydi. Bo'sh likobechalarni yig'ishtirib yurgan Adolat opa ularning oldiga keldi. Stolda yotgan bu-yumni ko'rib, yuzi birdan jonlandi:

— Tillami, G'aybarovjon?!

— Ko'rib turibsiz-ku, — dedi G'aybarov. — kumushga o'xshaydi.

Adolat opa bilaguzukni qo'liga olib ko'rdi.

— Qalayi ekan, — dedi afsuslanganday. — Lekin o'zi chiroqli. Munaqasini Buxoroda yasashadi, mening ota yurtimda. Nima, kelin buxorolikmi?

— Yo'q, buyam Galatepadan. — dedi G'aybarov. — Bilaguzuk ham qalayi emas, sof kumush.

— Men toshkentlikman, opa, — dedi Zamira uzt so'raganday.

— Bu Toshkentdan, lekin bilaguzuk Galatepadan, — dedi G'aybarov. — Oqyigit temirchi yasagan.

— Zargarlik ham qilarakan-da?

— Yo'q, opa, u zargar emas, oddiy taqachi, — dedi G'aybarov, — u ot taqalatganda xuddi qiz bolaning bilagiday

avaylab ushlaydi. Shunda yalpoq tizigacha gulmix urilgan Boychiborning tuyoqlarini ko'z yoshlari bilan yuvib, zulfi bilan artayotgan Oybarchinni eslaysiz. Oybarchinni bilsiz, Adolat opa?

— Unaqasini bilmayman, G'aybarovjon. Lekin Barchin deganlari ko'p.

— Oybarchin o'zi bitta, opa! — dedi G'aybarov. — Qolganlari bo'lmaydi. Eshitganmisiz, opa: «Oy Barchinim, yor-yor, gul Barchinim, yor-yor, Ultontozga tekkuncha, o'l, Barchinim, yor-yor!»...

— Eshitmaganman, G'aybarovjon.

— Buni har bir ilg'or savdo xodimi biliishi kerak, — dedi G'aybarov. — Siz loaqal Boychiborni bilsiz?

— Bilmayman, G'aybarovjon... — dedi Adolat opa battar dovdirab.

— Bilmaganingiz yomon-da, opa, — dedi G'aybarov, so'ng uning qo'lidan bilaguzukni olib, Zamiraning qo'liga soldi. — Bu kumush ham emas, asl tilla, opajon, qalayi emas — tilla!

Zamira o'zini tutolmay kulib yubordi. Adolat opaning jahli chiqdi.

— Tillu emish!.. — dedi u labini burib. — Qalayini qalab qo'yishibdi, qalayi, kumush ham emas!

— Kumushni-chi, Kumushni bilsiz, opa? — deb ijaydi G'aybarov.

— Bilamiz, — dedi Adolat opa zarda bilan. — Julqunboyning Kumushi-da,

— Yashang! Dunyo turguncha turing!

— Lekin bilaguzuk bari bir qalayi, — deya o'jarlik bilan takrorladi Adolat opa.

— Sizga tilla kerakmi?

Zamira barmog'ini labiga bosdi, lekin G'aybarov qiziq ustida ko'rmadi, oyoqlari tagida yotgan xaltaga qo'l suqib,

bir shoda tilla bilaguzukni stol ustiga chiqarib tashladi. Adolat opaning ko'zlari ola-kula bo'shib ketdi.

— Bu nima? — dedi G'aybarov.

— Tilla, G'aybarovjon...

— Mana bunisi-chi?.. — G'aybarov tilla ma'budani ham chiqardi. — Buyam tillami?

— Tilla... G'aybarovjon uka, — deb g'o'ldiradi Adolat opa.

— Qalayi bilaguzukni kamtar odamlar taqadi, shuni, esdan chiqarmang, opa. — dedi G'aybarov battar avj qilib. — Bular hammasi tilla, ko'rtingizmi?

— Yo'q, G'aybarovjon. Hech uarsa ko'rganim yo'q... — Adolat opa bo'sh likobchalarni olishni ham unutib, do'koniga qarab yo'reyaladi.

— Maqtanchoqsiz-da, Toshpo'lat aka, — dedi Zamira. — Hozir u militsiya chaqiradi. Bechorani qo'rqtib nima qilar dingiz?..

— Keling, ichaylik, Zamira!..

G'aybarov ichishga ulgurmadi, ko'cha chetiga qizil «Mosvich» kelib to'xtadi.

— Samadmi? — dedi ajablanib. — Shu yerga ham topib kelganini qarang!

Samad Qobilning qo'lidan yetaklab kelib, G'aybarov bo'shatgan kursiga o'tqazdi. G'aybarov qo'shni stol yonidan yana ikkita kursi oldi.

— O'tir, Samad. — deb taklif qildi.

— Shoshib turibman, — dedi Samad. — Ma'sumaning tobi yo'q.

— Keling, ichaylik, Zamira!..

— Ha, yaxshi, — deb qo'ydi Samad parishonxotirlik bilan.

— Xayoling qursin, — deb kuldji G'aybarov. — Tu-shunsang-chi galvars, biz chinakam tilla ma'buda topdik!..

— Yo'g'e! — dedi Samad ishonmay.

- Rostdanmi? — deb so'radi Qobil ham oldinga engashib.  
— Rost, — dedi G'aybarov. — Lekin ko'rsatolmaymiz.  
Hozir shuni yuvyapmiz.  
— Unda mengayam quy, — dedi Samad.  
— Men ham ichaman, — dedi Qobil. — Ozgina ichsam bo'tlar, Toshpo'lai aka?  
— Bo'ladi, — dedi G'aybarov, so'ng do'kon peshtaxtasi ortidan qarab turgan Adolat opaga ikki barmog'ini ko'rsatdi.  
Ayol ikkita qadah keltirdi, lekin hadeganda ketavermadi.  
— Rostdan ham tillami, G'aybarovjon? — deb so'radi u.—  
Biror ikki kilo bordir?  
— Uch kilo.  
— Hammasi tillami yo aralashi ham bormi?  
— U paytlar qotishma rasm emasdi, Adolat opa,— deb tushuntirdi Zamira.  
Adolat opa boshqa so'z aytmadı, sckin do'koniga qarab yurdi. G'aybarov vinoni uchta qadahga bo'tlib quydi.  
— Prozet! — deb ko'z qisdi Samad. — Ketdik, G'aybarov!  
— Muni qara-ya! — dedi G'aybarov boshini saraklab.— O'zbekchaniyam g'afati qilib gapiradi.  
— Senga bas kelish qiyin, G'aybarov, — deb kului Samad, so'ng vinoni ichdi. — Ekkanga, tikkanga, hammasiga baraka, o'min!..  
U qo'lidagi shoda kalitni o'ynagancha, mashinasi tomon ketdi. G'aybarov Qobilning qo'liga qadah tutqazdi:  
— Qani, ol, og'ayni!  
— Samad aka doim shunaqa shoshib yuradi, — dedi Qobil go'yo Samad uchun uzt so'ragandek. — Ishli odam...  
— Doktorligi yaqin, tashvishi ko'p-da.  
Do'koncha oldida uch-to'rtta militsioner paydo bo'ldi. G'aybarov Zamiraga imo qildi, qiz tushunib, o'rnidan turdi.

— Mayli, men endi boray... Telefon nomeringizni bersangiz, kechqurun qo'ng'iroq qilardim.

G'aybarov telefon nomerini yozib uzatdi. Zamira xal-tachani ko'tarib, peshtaxta oldiga bordi, hujjatini ko'rsatdi, biror uch daqiqalik kengashdan so'ng militsionerlar qurshovida kafe sahnidan chiqib ketdi.

Qobil vinoni ichib, qadahni stolga avaylab qo'ndirdi.

— Boyagi gap rostmi, Toshpo'lat aka? — deb so'radi u.— Shoir akaga bildirsangiz bo'lardi-da.

— Hozir daladan kelib o'tiribmiz, — deya o'zini oqladi G'aybarov. — Yana ichamizmi?

— Mayli, — dedi Qobil, so'ng cho'ntagiga qo'l tigib, hamyon chiqardi. — O'zingiz opkelasiz endi...

— Qo'ying, — dedi G'aybarov, — menga Adolat opa nasiyaga ham beraveradi. Tilla ma'buda topsag-u yayrab ichmasak — gunoh!

— Albatta... Xafa bo'lmasangiz, Toshpo'lat aka, bir iltimosim bor edi. Parijdan konyak opkeluvdim, oshxonadagi javonda turibdi. Shuni opkelsak bo'lmaydim! Zo'r konyak, deyishadi.

— Men sinab ko'riganman, lekin fransuz vinosini maqtashadi.

Qobil cho'ntagidan kalit chiqardi.

Qobilning uyi uzoq emas, shundoq tuyilishda edi. G'aybarov to'rtinchı qavalga yugurib chiqib, eshikka kalit soldi, ichkari kiraturib oyog'ini ho'l lattaga yaxshilab artdi, namat chetidagi ikki juft poyabzalni ko'rdi. Tuflisi bilan poyondozni bosib o'tarkan, chapdagı xona eshigi yonida turgan Mazzumaga ko'zi tushdi.

— Siz uyda ekaningizni bilmabman, — dedi u qizarib.— Men konyakka keluvdim, kelin, Qo'rqmang, Qobil o'zi ichmaydi... Oshxonadagi javonda, deb aytdi...

Mazluma javob qaytarmadi, tek qotib turaverdi. Endi o'rindan turganmi, sochlari to'zg'igan, ust-boshi ham betar-tibroq edi.

G'aybarov oshxona tomon yurdi. Ichkari kirib, gaz plitasi yonida devorga qapishib turgan Samadni ko'rди-yu hamma gapga tushundi. Do'sti ko'ylagini kiyishga ham ul-gurmabdi, yarim beligacha yalang'och, ko'r er paypaslab ham topolmaydigan joyga kelib turibdi!

G'aybarov nimadir demoqchi bo'lib yutindi, lekin tili hech aylanmadi. Samad gaz plitasidan nariroqqa jildi, yerga tikiladi.

— Yomon-ku? — dedi nihoyat G'aybarov sal o'ziga kelib.

Samad indamadi. G'aybarov tag'in nima qilarini bilmay turib qoldi. Devordagi mixga ilingan temir cho'michga ko'zi tushdi. Oldi, oldi-yu Samadning boshiga tushirdi, yorilgan boshdan yerdagi kigiz ustiga chakillab qon tomganini ko'rdi.

Samad indamay turaverdi.

— O'zing o'yla, Samad, — dedi G'aybarov titrog'ini arang bosib. — O'zing o'yla, sen yo'g'ingda kelsam-u xotining bilan yotsam... Yoqadimi?

Samadning yuzi battar bo'zardi — g'azab, turgan-bitgani g'azab.

— Istaysanmi, sendan xotiningni ham, qizingni ham tortib olaman?

Samad to'satdan unga hamla qildi, lekin cho'mich zarbidan ortga chekindi.

G'aybarov tag'in bostirib bordi. Samad uni aylanib o'tib, eshik tomonga yurdi.

— Menga hasad qilasan, — dedi u.

G'aybarov indamadi. Samad uning hasad qilmasligini anglab, battar g'azablandi:

— Inarang esingdami? — deb baqirdi u. — Esingdami, hajiqiz?

Graybarov Inarani haligacha umutmagan edi, yalt etib qaradi. Ich-ichidan o'rtandi, yondi, do'stim-ku, deb o'yaldi, ishongisi kelmadidi. Uning ko'zlariga boqdi. Samad g'olibona iljayib turardi.

— Senmiding o'sha? — deb so'radi iztirob bilan.

— Bo'lmasa kim? Sen yana kimga sir aytuvding?

— Faqat senga,— dedi G'aybarov.— Mana bu Inara uchun!.. — U cho'mich bilan qulochkashlab tushirdi, so'ng cho'michni bir chetga nloqtirdi. Eshikka yugurgan Samadga yetib olib naq jag'iga musht tushirdi:

— Buyam Inara uchun! Bunisi Qobil uchun! Bunisi Ma'-suma uchun!..

— O'ldirib qo'yasan, nomard!.. — deb xirilladi Samad.

— O'lmaysan, sendaqalar o'lmaydi, — dedi G'aybarov va yana musht urdi. — Bunisi qizchang Saïda uchun!.. Bunisi ham Saida uchun!!!

Samad biqinini changallab, yerga o'tirib qoldi.

— Nomard!.. — deb xirqiradi u:

— Tuzukroq baqirolmamasang, shuyam hayot bo'ldimi, — dedi G'aybarov. — Bo'ldi, tur o'rningdan...

Samad, aft-basharasi qora qonga bo'yalgan, bir amallab o'tnidan qo'zg'aldi. Yuzi ochiq, ikki qo'li hamon biqinida.

— Arz qilib borolmaganing yomon, — dedi G'aybarov. — Nomingga dog' tushadi, obro'ing to'kiladi... Sening biror dog'siz joying bormi o'zi, ablah?!

— Yo'q, — dedi Samad. — Do'stim, tushun...

— Tek tur! — dedi G'aybarov. — Gapirma, gapir-sang sob bo'lasan!.. Qani, shimingni yech, hozir ko'chaga valang'och chiqasan, ikkovingni birga qo'shib chiqaraman!..

Samad yig'lamsirab bosh chayqadi. G'aybarov yana yerda yotgan cho'michni qo'lga oldi. Cho'michni ko'rib, Samad shimini tushira boshladidi, yig'ladi.

— Borib anavini ham yechintir!.. — deb buyurdi G'aybarov.

— Yo'q, yo'q... — Samad ortiga tisarilib, oshxonadan chiqa boshladi.

G'aybarov yana kimnidir, nimanidir unutganini o'yladi, birdan esladı — qizaloqni, o'sha kanop xalta ko'targan qizaloqni. Vujudi bezgak tutganday qaltiradi, tag'in yetib borib musht tushirdi:

— Mana bu yana bir qiz uchun!.. — dedi u. — Nega indamaysan, nega musht ko'tarmaysan? Mana bu ham jigari sitilgan o'sha qiz uchun!.. Do'sting G'aybarov uchun alohida ol! Bor, o'ynashingni yechintir!..

— Yo'q, — dedi Samad. — Yo'q...

— Yaxshi, — dedi G'aybarov, — unda men o'zim...

G'aybarov ichkari xonaga o'tdi. Mazluma qo'shto'shak o'rın boshida qalt-qalt titrab turardi.

— Ayb mendamas, Toshpo'lat aka, — dedi u devorga qapishgancha. — Shayton yo'ldan ozdirdi..

— Yechin, — dedi G'aybarov keskin ohangda va chetga qaradi.

Mazluma bir muddat ikkilandi, so'ng titrab-qaqshab ko'ylagini yecha boshladi... So'ng to'shakka yuztuban yotib yig'ladi.

— Unga aytolmaysiz, — dedi piqillab. — Bari bir aytolmaysiz, mayli, bilganingizni qiling, lekin aytmang... Men roziman, Toshpo'lat akajon!..

— Aytolmasligimni bilasan-da, megajin.

Ayol chalqancha o'girildi, G'aybarovning teskari qarab turganini ko'rdi-yu:

— Uyalganing nimasi?! — deb qichqirdi birdan jazava bilan. — Niyating shu-ku, ablah, kelmaysanmi endi!..

— Sensirama, qanjiq! — deb baqirdi G'aybarov va o'girilib, uning qip-yalang'och yotganini ko'rdi. Lekin ortiq uyalmadi, ayolning oppoq, silliq, durkun ko'kraklari aralash tupurdi.

### 13. SOQOL

Besh yil burun Soqol eni va bo'yli bir gazcha keladigan mis taxtachaga suvchi tasvirini zarb etgan edi.

Buyurtmachiga suvchining sallasi yoqinqiramadi, bosmachinga o'xshab qolibdi, dedi. Soqol kuyindi, salsa o'taganining hammasi bosmachi bo'laveradimi, mening inqilobchi tog'am ham salsa o'tagan, deb aytdi, hatto Navoiy bilan Ulugbekning sallasini pesh qildi, keyin arzi yerda qolgach, yo'lxaltasini yelkaga ilib Sho'rechiga ketib qoldi.

G'aybarov uni Sho'rehidagi hovlisida, beligacha yalan-g'och, oyoqlarida eski shippak, soqolsiz, lekin sochlari o'sgan, labida o'chib qolgan papiro, qari gujum ostida chalqancha tushib yotgan joyida topdi. U go'yo elchi kelishidan vaqtiroq xabar topgan-u, biror besh daqiqa burun kir sholcha ustiga uzala tushib olganday edi. G'aybarovni ko'rib ham o'midan qo'zg'almadni, sholcha ehetidan joy ko'rsatib, ko'pdan beri mashq qilib yurgan gapini aytdi: bormayman! Siz ablahlar umuman san'atni tushunmaysiz! Endi men Sho'rechinining echkilariga misdan qo'ng'iroq yasayman, ularga egalarining rasmini zarb etaman, toki birov adashtirmaydigan bo'lsin!

Shu gapni aytdi-yu yengil tortdi, o'zini go'yo tarozi pallasiga soldi-yu zimdan kuzatdi — qani qadog'i yetarmikan?

G'aybarov o'zi umrida ko'rimgan bir amaldorning no-mini ayтиб (oshnalarning o'zaro bitimi shunday edi), uni aldagani bo'ldi, kelsin, deb aytdi, kelgan zahoti buyurtma beraman, xohlasa, Navoiy ko'chasini bezashiga ham ruxsat oladi, dedi.

Soqolga bu gap moyday yoddi. Lekin bari bir ishonmadi — shunchaki maqtov o'rnida ko'rdi. Uyga kirib, qop-qora bir qizni sudrab chiqdi: mana, G'aybarov, men uylandim, endi hech go'rga bormayman, bola zovuti ochaman, hammasi toshkesar-u misgar bo'ladi!

Xullas, u G'aybarovni noumid qilib jo'natdi. G'aybarov kunni Sho'rchingning o'zida, dorishunos birodari Bo'ri Chorinikida kech qildi.

Kechqurun oshnasi uni poyezdga olib chiqdi. Soqol o'sha yerda poylab turgan ekan, avvalgi dimoq-sirog'i yo'q, yalinishga tushdi, ketmang, G'aybarov, dedi, suv omboriga olib boraman, juda maza, bo'g'izgacha suvga ko'milib aroq ichamiz, buning gashtini hech bilmaysiz-da, ichasiz-u, lekin hech mast bo'lmaysiz, jillaqursa, ikki kunga qoling, men juda zerikdim, jo'ra, Toshkentimizni sog'inibman, qoling, keyin birga ketamiz, mayli...

G'aybarov qolishga unamadi — Haykal G'aniyevich unga ikki kunlik muhlat bergen edi. Soqol tirishdi, keyin allaqayoqqa yugurib ketdi. Zum o'tmay, xotinini semiz bo'xhasi bilan boshlab qaytdi. Oyoqlarida o'sha eski shippak, egnida eski surp ishton bilan qora ko'ylik, shu ahvolda poyezdga chiqdi. Qora ko'ylagini ko'rsatib, motam belgisi, dedi, erkimga aza ochdim, G'aybarov.

G'aybarov unga taskin bermadi. Yuzma-yuz o'tirgan ko'yi do'stining keyingi yo'rig'ini o'yladi. Bu yo'riq ikki karra ikkiday sodda tuyildi: ertalab nonushta, tushda tushlik, orada ozgina xizmat yoki ish, kundalik g'iybatlar, hamkasblarning mayda-chuyda havasi-yu hasadi, boshliqning qovog'i, xotinning xarxashasi, bolalarning yig'isi, tumov, gripp, bod... yuz gramm otilganda neki daho bor — hammasini yoppasiga mahv etadigan, aslida esa sovun pufagiday jo'n va omonat bir ijod, ya'niki, beshta portret (uchtasida g'amgin xotini xushhol kulib

turadi), oltita manzara (uchtasingining chetrog'ida g'amgin xotini kulib turadi), yettiita natyurmori (hammasida g'amgin xotin tutgan odmi, lekin ozoda dasturxonlar), keyinroq, o'zini yoki xizmatini ko'rsatib ulgursa — kichikroq bir unvon, radioda ikki marta maqtashadi, televizorda ikki marta... qarabsanki, umr ham poyoniga yetib qolibdi...

Toshkentga qaytgach, Soqol o'zidan tinchidi. Yangi buyurtmalar oldi. Avval bekor qilingan suvchi tasviri uchun ham yaxshigina haq to'lashdi. Faqat Sho'rechidan olib kelgan xotini shaharda ko'p turolmadi, yarim yil o'tar-o'tmas yurtlariga qochib ketdi. Soqol Toshkentdan uylandi, ikkinchi xotinidan o'g'il ko'rdi, avvalgi xotini Sho'rechiga borib egiz tuqqan ekan, ularni ham tashlab qo'ygani yo'q, buyurtma oladi, ba'zan buyurtmasiz, lekin naqd mavzularni topadi... Mana endi, maishati ham mehnatiga yarasha, dang'illama hovlisi bor, nochor qolgan do'stlariga yebketarga pul beradi, garchi soqol qo'yib o'zini andak quvg'indi va majnunsifat ko'rsatsa ham nufuzli odamlarning nazariga tushgan, unga hatto alohida ustaxona berishgan, xohlasa shahar hovlisida ishlaydi, xohlasa, mashinasini minib ustaxonasiga boraadi, ishqilib, turish-turmushidan rozi Oshna-og'aynisi ko'p, ular bilan gaplashadi, hazillashadi. Hazil yaxshi narsa, kulgi bor joyda o'y-tashvishga ne hojat?!

Shoir ketib qolgach, xotini arz qilgan shekilli, Soqol kechki payt G'aybarovning yoniga dag'dag'a qilib keldi. G'aybarov Qobilni uyiga kuzatib qo'yib, divanda ko'ngli xufton bo'lib yotgan edi — Soqolni xushlamay qarshi oldi.

— Shoirga siz pishang bergansiz! — dedi Soqol ostonadan hatlar-hatlamas. — Sizga bepul tomosha kerak, G'aybarov!

G'aybarov indamadi. Mehmmonni ish bo'lmasiga boshlab kirib, joy ko'rsatdi.

— Siz tomoshabinsiz, G'aybarov!.. — deya battar zamzama qildi Soqol.

— Rost aytasiz, — dedi G'aybarov mahzun ohangda. — Lekin bu tomoshalar menga qimmatga tushyapti.

— Qo'lida biletib bor ekan, bizga bir og'iz aytmabdi, nomard!..

— Aytasa, qaytarib qolarmidingiz?

Soqol javob bermadi. Xonada u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Devorga osig'lik mis tasvirga ko'zi tushib andak chalg'idi, lekin shu zahotli yuziga hazin tus berdi.

— Endi go'dakligimiz qolmadi, G'aybarov! Ikkita bola, gumaniali xotin!..

— Pul jo'natib turar.

— Xotinining gapiga chidayolmadim. Do'sti yo'q emish, do'sti bo'lganida, u tentakni beboshvoq qo'yib yubormas edi, deydi!..

— Yolg'on aytadi, tentak deb o'ylasa edi, tayin halovatdan kechib, injiq shoirga tegmagan bo'lardi. Uning ketgani tuzuk, issiqliqna vannaga, xalajoyga o'r ganib qolgisi kelmagan. Bir-ikki oy aylanib qaytar...

Soqol unga yeb qo'yguday bo'lib qaradi.

— Meni kechiring, Abduvali, — dedi G'aybarov. — Eslatib bekor qildim.

— Qayga ketishini aytmabdi, — dedi Soqol salgina yumshab.

— Sopollitepaga ketgandir. Arxeologlar bilan gaplashib yurardi. Xotiniga shunday deb aytasiz-qo'yasiz.

G'aybarov borib dahlizdag'i telefon apparatini olib keldi. Soqol raqam terib Shoirning xotini bilan gaplashdi, avval g'amgin, so'ng birdak yuzi yorishib ketdi:

— Shunday kelinjon... O'zi boradi! Ha, ha, G'aybarov akangizning o'zi. Keragi yo'q, kelinjon. Burchimiz-da, Sopol-

litepada. Surxon taraf... Qolgan-qutganini terib bersa kerak. Nima qilardi, chiroyli qizlar bo'limgandan... keyin sopol teradi-da! Iltimos qilamiz, G'aybarovning o'zi boradi. Ha, unga ruxsat berishadi... Balli, kelinjon, bardam bo'ling, bolalarni o'pib qo'ying!

Soqol trubkani qo'yib, G'aybarovga iljaydi.

— Borasiz endi. Termizga ruxsatnomani o'zim tezlataman.— deb va'da qildi Soqol. — Pasportni bersangiz bo'ldi, do'stim.

— Keyinroq, — dedi G'aybarov. — Biror oy yurib ko'rsin, keyin borarmiz. Menga hamroh bo'lomaysizmi?

— Ish ko'p. Hali yana o'ylashib ko'ramiz.

G'aybarov naridan-beri dasturxon tuzadi. Xolodilnikdan pivo, duqlangan baliq oldi.

— Sirdaryodan bir aspirant yigit olib keluvdi. Uyi yaqin-da, tez-tez borib turadi. Siz yurtingizni sog'inmaysizmi, do'stim?

— Sog'insam nima qilay? — dedi Soqol. — Odamlar ola qaraydi, og'ayni, yurtchilik...

— Begona odam bo'lib borib, yana o'sha xotiningizga uylansangiz bo'lardi...

— Tushunolmadim... — deb g'udrandi Soqol.

— Pivodan iching, tushunish osonroq bo'ladi,— dedi G'aybarov.

— Bir hikoya bor... Urushga ketgan askar ko'p zammon o'tib uyiga qaytadi. Xotini bilan bolalari uni mutlaqo tanimaydi. O'z uyidan begona bo'lib yashayveradi. Keyinroq xotini bilan qovushadi, o'zini tanitmay turib qovushadi, lazzat o'tmiga alam tuyadi, o'z xotinini o'zidan rashk qiladi...

— Qayoqdag'i gaplarni topib yurasiz, G'aybarov!..—deya ishoninqiramay kuldil Soqol.

— Yo'q, Abduvali, siz tuzukroq o'ylab ko'ring. Nahotki sizga alam qilmasa?..

Soqol o'zicha tasavvur etdi chog'i, qovog'i solindi, pivo quyib ichdi.

— Yana opkeling, G'aybarov. Aroq-paroqdan yo'qmi?

— Uyda aroq saqlamayman. Ko'chada ichganimiz ham yetib-ortadi. Sog'ligim zaifroq, Abduvali, ko'zimga allanimbalarolar ko'rinaraveradi, goh jin, goh ajina deganday...

O'zingizni ehtiyyot qiling, do'stim,— dedi Soqol.— Bilaman, ilm deganlari og'ir ish, charchatishi tayin.

— Galatepadagi bog'imizda, olmalarning tagida bir zammon yotsam bo'ldi, tuzalib ketaman.

— Yong'oq tagida bo'lmasa bas,— deb kesatdi Soqol.

— Yo'q, yong'oq emas, olma, — dedi G'aybarov.— Lekin xosiyatli olma. O'sha olmalarning tagida yotdim. Yonverimdan chumolilar tepa-yu pastga zir qatnardi, ularni tomosha qildim, tepadagi shoxlarga qaradim, barglarni sanamoqchi bo'ldim, lekin hisobdan mazam yo'qroq, tezda zerikdim. Chumotilarga havasim keldi, o'zim ham chumoliga aylanib, yog'och karavotning oyog'idan pastga qarab o'rimalab ketdim. Pastga tushib, o'zimni qalin o'rmon ichida ko'rdim. Daraxtlari turfa xil, do'stim, birovi qurigan, birovi yashnab turibdi. Agar odam bo'lgan chog'larimni eslamasam, balki bu o'rmonning oddiy o't-o'lanlar ekanini ham tushunmag'an bo'lardim. O'rmonda aylanib yurib, oq rangli, sirtlari g'adir-budir bir gumbazni uchratdim. Gumbazga tirmashdim, tepasiga chiqib ham ancha yurdim, toki narigi nishabidan borib tushgunimcha olam-zamon vaqt o'tib ketdi...

Soqol uning gapini bo'lmay eshitdi, kulishini ham, g'azablanishini ham bilmadi. G'aybarovning ovozi sirli tuyildi, ozgina makri ham borday... Shu sabab, G'aybarov jimiib qolganida andak behuzur bo'ldi, mensimayroq so'radi:

- Xo'sh, keyin-chi?
- Men tirmashgan ulkan gumbaz oddiy oq olma, deya davom etdi G'aybarov.— Har shoxda yuzlab bitadigan olmaning bittasi. Men olmaning bu qadar g'aroyib ekanini bilmay yurganimidan atsuslandim.
- Attang!.. — deb qo'ydi Soqol oshkora g'ijinib.
- Siz umringizda loaqal biror marta chumoli bo'lib ko'rganmisiz?

Soqol javobni nomunosib bildi. indamay qo'ya-qoldi.

— Endi bu yog'ini cshiting, Abduvali. O'shanda men kichik bir kavakdan yer qa'riga tushdim. Uzoq yurdim, axiyri chirigan tomirlar atrofida uymalashib turgan bir gala chumolini ko'rdim. Ular sanoqsiz tuxumlarni qo'riqlayotgan ekan. Qatorдан qolmay deb, men ham bitta tuxum qo'ydim.

— Hali o'shandan bittasi bilan yuribman, deng!..

— Nima bo'pti! — deb g'amgin kuldji G'aybarov.— Axir, sizga o'xshaganlarning ko'ziga hamma narsa ikkita bo'lib ko'rindi-ku!.. Bu yog'i yana qiziq... O'sha tuxumlar ham aslida boyagi olmaga o'xhash ulkan edi. Qo'riqchi chumolilar menga qarab: «Sen bexavotir yuraver, G'aybarov, endi sen shu tuxumda, shu tuxumdan chiqadigan tuxumlarda, keyin ulardan ham chiqadigan tuxumlarda ming-ming marta va abadulabad yashaysan», deb aytishdi.. Chumolining tuxumi — olmaga, olma gumbazga, gumbaz — boshqa narsaga va oxir-oqibatda dunyoning o'ziga fadrijan tenglashib boraveradi, nisbiylikning chegarasi har bosqich o'tilgani sayin bir karradan va cheksiz marta yo'qolib, butun koinot uchun umumiyl uyg'unlik, boshqacha aytganda garmoniya tuziladi-da, buni anglagan odam saodatga erishadi.

Soqol tek o'tirganicha qo'lidagi pivoning ko'pig-u pufaklari uchib bitishini kuzatardi.

— O'shanda men sizni ham ko'ruvdim,— dedi G'aybarov.— Teparoqda boshqalarni tomosha qilib turgan edingiz.

— Men ham chumoli edimmi?! — deya zo'raki kuldil Soqol.

— Albatta. Meni ko'rmaslikka oldingiz, lekin men sizni ko'zlarindan tanidim.

— Aqldan ozyapsiz. G'aybarov!..

— Soppa-sog'man!

— Bu originallik emas, borib turgan bodilik, mahmadaanalik, G'aybarov! Mujmal tuyg'ulardan kimga naf?

— Naf bo'lishi shartmi? Menga ana shu mujmal tuyg'ularni ifoda etgulik qurolim yo'qligi alam qiladi. Ikkita oyog'u ikkita qo'l, og'izda — andishasiz til!.. Samad yolg'onchi, siz ham yolg'onchisiz. Qaniydi, arzonechilik zamон bo'lsayu arzimas umring badaliga do'stlaringning hammasi dard-u balosini sotib olsang, keyin ular birdaniga pok va halol bo'lib qolishsa!.. Ayting, Abduvali, ilohi omin, deb ayting!..

Soqol zerikkan edi, indamadi. Bo'yinbog'ini bo'shatib, ochiq derazadan tashqariga qaradi — ko'cha shovqini yoqimli tuyildi. Noilojlikdan tepadan, pastdan... panjasini taroq qilib soqolini qashlay boshladi.

— Endi keting, Abduvali! — dedi G'aybarov to'satdan.

— Shoир nima bo'ladi? — dedi Soqol gangib.

— Basharangizga tushirmasimdan keting!.. Shoир o'zi qaytib keladi.

— Ahmoqsiz, G'aybarov! Siz... siz... — Soqol gap topol-magandek, boshini changalladi.

— Esingizda bormi, og'ayni, «Sizning tinch va beg'am yashashingizga xatal bermaydimi xotirot?»

— Sizga achinaman, G'aybarov...

— Bilganiningizi qiling.

Soqol eshikka qarab yurdi, quvilayotgani alam qildi, ortiga o'girildi:

— Hali ko'ramiz, G'aybarov! Hali ko'p assus qilasiz.

— Ehtimol, Sho'rehidagi mis qo'ng'iroqsiz qolgan echkilarni unutmasangiz bo'ldi. Echkilarni yetim qoldirmang, qarg'ishi tutadi.

Soqol xonadan chiqib, oynavand eshikni qattiq yopdi. Zarbning kuchidan singan oyna parchalari bitta qolmay to'kilib tushdi. So'ng tashqari eshik qarsillab yopildi.

G'aybarov kulishga urindi, lekin kulolmadı — ko'ngil to'la alam edi.

... yana birovidan ayrıldık-da, do'stim G'aybarov!

#### 14. GALATEPAGA QAYTISH

Ertasi payshanba kuni — peshinda G'aybarov otasining o'limidan xabar topadi.

Keyinroq, ko'p vaqtlar o'tib, shum xabar qo'zg'agan qayg'u sekin-asta bosiladi va G'aybarov o'zini, uydan otilib chiqib, vokzalga oshiqqan, na yerni, na osmonni farq etmay, qulog'i chippa kar, yuragi talpinishdan tars yorilay degan odamni, uning besaranjom harakatlarini yo'l yoqasidagi bir tusli uylarni, dalalarni, fungi ko'chalarning g'amgin yog'dusini eslaydi.

Hatto poyezdlarning qichqirig'i ham g'amli tuyiladi.

Betus, besanoq kunlar birdan ortga chekinadi, hayot kutilmaganda ma'no kasb etadi — endi u azador.

Poyezdda ketaturib, negadir Samadning ona yurtiga borganini esladi: yiltiragan qumi bo'lmasa, naq, kulga o'xshash tuproq, tomi qamish bilan yopilgan uy, atrofsgagi daraxt va butalar — jing'il, jiyda, saksovul, uy ichidagi anjomlar, toki Samadning qari onasiga qadar, hammasi boshqacha tuyilgan edi.

Uy o'rtasida dumaloq ustun, ustun yonida oyoqlar to'rt tarafga tarvaygan televizor: Samadning kampir onasi uning yonidan har gal hadiksirab o'tadi, goh chalop ko'tarib, goh

sho\*tva ko'tarib..., Charchab qolgan mahali hamsoyaning qiziga, Samaddan umidvor bo'lib yurgan, Samadning o'ziga o'xshash bodomqovoq qizga buyuradi: akanglarga yana bir nima pishirib ber, ochqab qolishdi, shaharda nimayam yet edi, bularning rangiga qara, ming yil ovqat yemaganga o'xshaydi, bor, ena qizim, bir nima pishir...

Qiz bosh egib, quvonib, baxtiyor bo'lib chiqarkan, Samadga o'g'rincha qarab olib, sekingina so'raydi: serpiyoz bo'lsinmi, aka?

Unga javoban Samad ham nimadir deb g'o'ldiraydi, u G'aybarovdan tortinadi, G'aybarovning galatepalik bir to'pori ekanidan xabarsizdek, manavi og'irkarvon qizni ko'rib kulmasligini, Samadning kuni shunga qolibdi-da, deb o'yamasligini islaydi, shu boisdan, ovozini o'zgartirib, lahjasini o'zgartirib, go'yoki tuqqan onasi-yu manavi qizdan uzoqligini, nainki uzoq, balki, ulardan aqli va ustunroq ekanini ta'kidlamoqchi bo'ladi: agar sening gapiningga qaraydigan bo'lsak, so'fiylarni salkam inqilobchi, deb tan olishga to'g'ri keladi, lekin, do'stim, o'rtada vijdon degan gap bor, xususan...

G'aybarovning riyosini sezadi, iljayib bosh irg'aydi: shunday, shunday, lekin sen bu gaplarni qo'y, hozir payti emas.

Shu onlarda G'aybarovga do'stining qishlog'i, onasi, ro'paradi qimtinibgina turgan sodda qizaloq va hatto Samadning o'zi ham yoqadi, bir zum uning o'mida bo'lishini, manavi kuyunchak kampir onasi bo'lib qolishini, keyin manavi qizga uylanmoqni, undan bodomqovoq bolalar orttirmoqni orzu qiladi.

Kampir o'g'lidan ko'z uzolmaydi. Go'yo o'g'lining do'stini kansitganday, mehridan qisganday, o'zini aybli sezadi va uni ham izzat qilmoqchi bo'ladi: men endi qaridim, endi xudo insof qilsa-yu jonimni olsa, shunda ustimga bir ketmon iuproq tashlagani kelasiz-da, bolam!..

Ovozi — yoqimli, sokin. Bu ovezni eshitia turib, o'limni ezu bir ish ekan, deb o'ylaysan, hech qo'rqaqidan joyi yo'q, qaytaga, ko'ngilga bir tus orom cho'kadi; kampir o'lsa, men kelsam-u uning go'riga bir ketmon tuproq tashlasam...

Tasavvurdagi manzarada qayg'udan asar ham yo'q.

...erta tongda Toshkentdan kelib fushasan, chollar va kampirlar bilan liq to'la avtobus Samadning qishlog'iga tashlab o'tadi, ko'chada to'n kiygan, g'amgin, basavlat Samad qarshi oladi va sekin aytadi: shunday bo'p qoldi, jo'tra, enamdan ajraldik. So'ng ikkoving marhumani qabristonga eltasan. Boshqa hech kim bo'lmaydi. Tomi qamish bilan yopilgan pastak uydan qabristonga qadar ko'chalar bo'm-bo'sh...

O'lim ana shunday jo'n, ana shunday sodda tuyilar edi.

Keyin, kampir rostdan qazo qilganda. G'aybarov o'sha o'ylari uchun o'zini aybdor sezdi. Onasini yerga berib qaytagan Samaddan ko'ngil so'rashga horib, uni xushro'ygina bir juvon bilan mast bo'lib o'tirganini ko'rdi. Ta'ziya bildirgani tili aylanmadidi. Samad uni ichkariga qo'ymadidi hisob, dahlizda turib uzoq yig'ladi, enamni yo'qotib qo'ydik, do'stim, dedi, yaxshi ayol edi, meni oyoqqa turg'azdi, odam qildi. O'zining nasibasidan qiyib, menikiga qo'shdidi, endi do'stim, o'lib qoldi, endi men yolg'izman, hech kimim yo'q, yolg'izlik yomon, do'stim, yolg'izlikni unutay deb ichdim, meni kechir, jon do'stim, o'zing ayt, xudolig' yuzasidan ayt, bechora yana o'n yilcha yashasa nima qilardi, axir, boshqalar yasha-yapti-ku, nega mening bechora enam yashamaydi? Yomon, yomon, do'stim, odamning dunyoda biror huzur ko'rmay qarigani yomon, bechora shu yil saksonga kiruvdi...

G'aybaroy Samadga achindi. Uni o'zicha fushungan ham bo'ldi. Ammo yo'lda, ko'ngilda qandaydir tugun, shalvirab

ketayotgan mahali bechora kampirning hali yetmishga ham kirmaganini esladi.

... yolg'on! Axir u yolg'on aytdi-ku! Nega hech kimga rahmimiz kelmaydi? O'zimizni bunchalar yaxshi ko'rmasak!..

Poyezd qandaydir begona joylarga ketayotganday tuyilgan edi. Butunlay boshqa ko'chalar, boshqa uylar, uni kutib oladigan odamlar ham boshqa — begona. Faqatgina marhum unga tanish — otasi, Raim oqsoqol, Raim rais, Raim G'aybarov.

Xayoldan qatorlashib so'zlar oqdi: o'zing shafqat qilgin, gunohlarini kechir, axir biz hammamiz gunohkormiz, umrimiz ularni ato etgali yetib, yuvmoqqa kelganda ado bo'ladi, sen o'zing barqarorsan, qaygaki yuz burmaylik, Mag'ribgami, Mashriqqami — chor tarafda ro'yingni ko'ramiz, sirlarimiz yolg'iz o'zingga ayon, o'zing unga shafqat ayla, gunohlarini kechir, toki kechagi kunlarini o'ylab og'rinmasin, toki u umridan salgina bo'lsa ham rizo bo'lsin, yupanch topsin!

So'ng o'pkasi to'lib aytdi: men undan norozi edim, endi o'zimni gunohkor sezyapman. U mening otam edi...

Va tag'in aytdi: munofiqlik qildim, men senga zarracha ishonmayman, sen buni ham kechir, axir sen — karimsan!

So'zlar go'yo yelkadan bosib turgan zilday yukni ko'tardi. Ko'ngilni ularning ohangi chulg'adi va G'aybarov vagon derazasi yonida o'tirgan ko'yi taomtaxtaga bosh qo'ydi, yana o'yładi, uzoq, toki charchab, uyquga mag'lub bo'lguniga qadar... So'ng cho'chib uyg'ondi, bosib chekkan kashanda kabi og'zida yoqimsiz ta'm sezdi, bosh ko'tarib bo'zarib kelayotgan tongni, bo'Imalarda uxlayotgan yo'lovchilarini ko'rди, dimog'iga kir paypoqlar va ter hidi urildi. Ustidagi kiyimi taxtadek qotgan edi; poyabzali oyoqlarini siqqanini sezdi; bir zum og'riq bilan ovora bo'lib, o'zining ahvolini unutdi, keyin tag'in azador ekanini esladi...

Atrof sokin edi. Hech kimning G'aybarov bilan ishi yo'q. Hammaning joni uyquda, fushlar panohida. Faqat poyezd g'ildiraklarining ma'nosiz taqillashi, bo'lma devorlarining g'ijirlashi... Tashqarida — o'chirilmay qolgan chiroqlar.., lip-lip.., xira minoralar, cho'l, bekallarning och sariq binolari.., tag'in chiroqlar...

Uni hech kim kutib olmadi. Otasi o'iqazgan tollar ostidan sekin yurib bordi, qo'lida kichkina yo'lxalta, kiyimlari g'ijim. Tollar ostida odamlar uchradi, ular G'aybarovni ko'rib cheitga chiqishdi, boshlarini quyi solib turishdi, hech kim unga bir og'iz gapirmadi, salom ham bermadi.. Darvozadan kirarkan, ovoz chiqarish-chiqarmasligini bilmay bir zum turib qoldi.

Uy derazasi oldida biror o'n chog'li yigit to'planib turardi. Hammasing ustida to'n, boshida do'ppi, ular G'aybarovning ovoz chiqarishini kutmay o'zlari «otam»lab yuborishdi. So'ng to'dadan uch yigit ajralib chiqdi — Mavlonboy, Zokir, Ahmad. Mavlonboy kelib, uning yelkasidan quchoqladi, bo'yи akasidan pastroq, lekin qoruqli edi. Mavlonboy ketib, Zokir keldi, sekin quchoqladi, lekin u ham bir gap aytmadni, qo'ynidan ro'molcha olib uzatdi, uning ho'lligini ko'rib, cho'ntagidan boshqa quruqrog'ini chiqardi. Keyin Ahmad keldi, u akasini quchishga jur'at qilolmadi, cho'chidi; u hali akasiga bunday ro'para kelmagan edi. Toshpo'lal akasi u bilan doimo yarim hazil, yarim jiddiy qilib gaplashardi, o'shani eslاب tizzalari bo'shashdi, yig'lab yubordi. G'aybarovning yuragi birdan zirqirab ketdi. Bularga qiyin bo'ldi, deb o'yladi, otamning boshida o'tirishgan...

U qarshisida turgan mo'rtgina o'smirning ota to'shagi yonida o'tirganini sira tasavvur qilolmadi, yo'q, Ahmad o'tirilmagan, chidashi qiyin, u tomorqaga ketgan, balki alamini, bo'g'ziga tiqilgan yigini bosmoq istab, sabzini o'toq qilgan...

Jon uzayotgan otasi va uni xayolidan ketkizolmay, ko'zlarini jiqqa yosh, sabzi bilan o'tni farq etolmay yulayotgan ukasining mungli qiyofasi G'aybarovning xayolida parchinlanib qoladi.

Mana, G'aybarov janozaga yetib keldi, motamga qo'shildi, qabristonga bordi, qaytdi, bir kun va bir tunni o'tkazdi.

Ta'ziyaga kelganlar past ovozda, iloji boricha ma'nilik qilib ayiadigan hamdardlik so'zlarini ortiq uning qulog'iga kirmay qo'ydi, hatto g'ashiga tega boshladi.

Oppoq kafan lahad zulmatiga qorishib ketgan ondan boshlab, G'aybarovning taniga qo'rquv oraladi, u birdan o'zini tug'ilgan uyi va umuman, Galatepadan ayri ko'rdi, so'ng, yolg'izlik vahmini bosmoq istab, o'zini tag'in Galatepaga — bir mahallar zarracha nadomatsiz tashlab ketgan bir parcha makoniga qaytadan payvand qilmoqchi bo'ldi.

Ko'ngilda yana shubha uyg'ondi: nega u qaytishi kerak? Buikul vidolashuv oldidan bir sidra dilga singdirmoq, ayriliq damlaridagi bir zumlik iztirob bilan dilni forig'lamoq, undan xudpisandlikni yuvmoq tavba va tazarru aylamoq, umrida birinchi marta chin ixlos bilan qasam ichmoq uchunmi?

Umuman, uning Galatepadan ayri ekani rostmi, agar rost bo'lsa, nega busiz ham siyrak tushlariga nuqul shu kichik makon, gaplari hammavaqt ham qulopqa singavermaydigan, goho ovsar, gohi donishmand odamlar maskani, uning to'rt fasli bostirib kiraveradi?

Balki, G'aybarovni turfa zavollardan asraguvchi yagona ilinj — mana shu mavhumroq manzaralar, ular baxsh etmish oniy kayfiyat, vijdonni ozgina bo'lsa ham yupatmoq uchun bu manzaralarni ko'ngil tusagan bo'yoqlarga bo'yash, maroq'i, tushdek omonat makon ichra telbakezik sayrlar va jonning, bu xudbin va gunohkor jonning boshqa talvasa-yu talpinishlari beiz yo'qolib ketmas?

Balki, G'aybarov rostdan Galatepaga qaytar?  
Mayli, u Galatepaga qaytsin, Umidlar va imon izi qaytsin.  
Qo'llimizdan keladigani shu — biz faqat umidvor bo'l-mog'imiz mumkin.

## 15. HAQIQAT

G'aybarov bog' eshikka yaqinlashganda ortidan Opa yetib keldi. Ukasining egnidagi to'nning yoqasini tuzata turib:

— Komil uydan xabar olgani ketdi. Tushdan keyin qaytib keladi, — dedi.

— Bolalaring yosh, o'zing borsang bo'lardi, — dedi G'aybarov.

Opa indamay iziga qaytdi. Hovli sahnida odam siyraklasib qolgan, o'choq oldida Mavlonboyning xotini bilan Anzirat kampir kuymalanib yuribdi...

G'aybarov bog' eshikdan kirib, mulla Chori, G'uchchi chol, Ibodulla Maxsum va yana ikki-uchta begona chollar o'tirgan davraga qo'shildi. Yoshgina bir bola choynak ko'tarib keldi. G'aybarov uni Mahanboyga o'xshatdi, xayolida hisoblab chiqdi: agar do'sti o'n to'qqizda uylangan bo'lsa, bola hozir o'n uchga kiribdi; Mahanboy undan bir yosh katta edi.

Nariroqda, olmalarning quyuq soyasida odamlar ko'p. Bog'ning bir taraf devori o'yilib, yo'l ochgan. Ta'ziyaga kelganlar shu kemtikdan o'tyapti. Dasturxon boshida o'tirib olgan Soat sayis qur'on tushiryapti. Tilovat, bir piyola choy, bir tishlam non... keyin hamma o'z yo'liga ketadi. Endi Raim oqsoqol yo'q, u o'lgan — shuni ko'ngliga solib ketishadi.

Mavlonboy, mullaning yonida, yuzi jiddiy, egnida qora to'n, hamdardlik bildirishganda, g'amgin bosh irg'aydi: nachora, bandalik ekan.

Ü ahyon-ahyon akasi tomon o'g'rincha qarab oladi. O'zini gunohkor sezadi. Katta o'g'il turganda, kichigining ta'ziya qabul qilishi joiz emas. Lekin Mavlonboya bir hisobda joiz, negaki, endi Toshpo'lat emas, Raim oqsoqoldan qolgan ozimi-ko'p dov-dastakka u balogardon, shu qishloqning uvsavobiga sherik, kuyadi, unga — joiz.

Mavlonboy arzimas g'urur dilidagi qayg'uni yengib borayotganini sezadi, cho'chiydi, tag'in akasiga qaraydi, uning yuzidan norozimi, yo'qmi — shuni anglamoq istaydi.

G'aybarov ukasiga achindi.

... endi unga qiyin. Ro'zg'orning bor tashvishini bo'yunga oladi. Balki, ikki ro'zg'orni qaytadan bir qilar...

Mavlonboyning o'zi ham shu o'y bilan band edi. Akamga osonroq, deb o'yladi, u ketadigan odam, men qolaman, menga qiyin... Balki, rostdan ham ikki ro'zg'orni qaytadan bir qilish kerakdir? Zokir uylanib, oradan biror yil o'tgach, yana o'ylab ko'tilar...

Mavlonboyning Zokirdan ko'ngli to'q, u yo'lini topib yuribdi. Topish-tutishi ham yaxshi. O'tgan hafta bir odam otiga qo'y o'ngarib keldi — xotini Zokirning qo'lida davollangan ekan. Do'xtirjon, taningiz dard ko'rmasin, dedi, u yonidan aylandi, bu yonidan o'rgildi, xullas, ko'p izzat qildi. Pul bergen edi, Zokir olmadi, otasidan qo'rqiadi. Raim oqsoqol, uch-to'rt kundan beri ko'rpaga mixlanib yotgan bo'lsa-da, hovlida hamon-hanuz hukmron edi.

Cho'pon orti-oldini o'ylab kelgan ekan, pulni hamyonga solib, hurjunidan sur teri chiqardi. Zokir endi uning qo'lini qaytarolmadidi. Boyoqish cho'ponning boshi ko'kka yetguday bo'ldi, iloyim, ming yil yashang, do'xtirjon!

Zokir aqlli, Mavlonboyning ko'ngliga qarab gapiradi, boshqalar bor joyda «aka», deb turadi, undan to'rga o'tmaydi, o'ziga uzatilgan piyolani (Zokirga birinchi bo'lib uzatishadi,

negaki, u do'xtir, unga odamlarning ishi ko'proq tushadi) sekin qo'lga olib, keyin Mavlonboyga uzatadi: siz iching, aka, bizning navbat keyin, rasamadi bilan... Yo'q, Zokir aqli, obro'si ham joyida, obro'sining bir chekkasi Mavlonboyga ham tegadi. Avvallari uni Raim oqsoqolning kattasidan kichigi, deb atashardi, endi boshiqacharoq — Zokir do'xtirning akasi, deyishadi. Birgina Ahmad Mavlonboyning ko'nglini sal xijil qiladi...

Uzoqdan kelgan bir guruh odamlar Mavlonboyning diqqatini bo'ldi. U tag'in boshini quyi soldi, tilovotxonning ovoziga qulqoq tutdi. So'ng bosh ko'tarib, kelganlar bilan bir-bir ko'z urishtirib chiqdi.

— Bandalik, uka, bandalik...

— Bandalik ekan... — deya sekin takrorladi Mavlonboy. U o'choq boshidan patnis ko'tarib kelayotgan Ahmadni ko'rib imladi. Ahmad bosh irg'ab, qo'lidagini davra boshidagi bakovulga uzatib, akasining yoniga keldi. Mavlonboy avvaliga patnis tashima, deb aytmoqchi edi. Iekin o'zining bu davrada, Toshpo'latning narigi davrada o'tirganini esladi — Ahmadga joy yo'q edi. Bir zum o'ylanib turdi. Ahmad oyoqlarini kergan ko'yi, uning tepasida hayallab qoldi. Nihoyat, Mavlonboy arzirli bir gap topdi.

— Akang qachon ketarkan? Aytmadimi?

— Ketmasa kerak... — Ahmad uning niyatini tushunmadni.

— Ketmasidan so'rab qol, Ahmadboy, toshga nima deb yozarkanmiz, esingdan chiqmasin.

— Qanday toshga?..

— Marmartoshga... — Mavlonboy sal qizardi. U aslida bu niyatni aytmoqchi emasdi, ko'nglining tubida asrab qo'ygan edi. — Akangdan so'rab qol, harne sen-u bizdan ko'ra...

Ahmad soddaroq edi. Akasini endi ko'rayotganday unga ajablanib tikildi: axir... hali otasining go'riga tortilgan tuproq, sovimay turib bular toshni o'laydimi?

— Bor, maslahatlash, — deb qistadi Mavlonboy.

Ahmad bir so'z demay nari ketdi. Mavlonboy ko'nglida g'alati kin bilan Ahmadning Toshpo'lat o'tirgan qo'rga borib yetishini kuzatdi: yozg'irarmikan? Xayriyat, Ahmad Toshpo'latga biringchi bo'lib gap qotmadi. So'ng, ular gaplashgan mahalda ham, Mavlonboy yuzlaridan biror yomonlik o'qiy olmadi. Avvaliga tang, keyin xursand bo'ldi...

— O'tir, Ahmadboy, — dedi G'aybarov kenja ukasiga.

Ahmad qo'ynidan to'rt buklangan qog'oz chiqarib, akasi-ga uzatdi:

— Zokir akam berdi, otam yozgan ekan...

G'aybarov qog'ozni ochmadi, cho'ntagiga soldi — vasiyat deganlari shu edi.

— Zokir o'zi ko'rinnmaydi? — deb so'radi u.

— Sho'rquduqdan odam keldi, — dedi Ahmad. — Kasal ko'rgani ketdi. Avval bormayman dedi, keyin...

U akasining yuziga tikildi: qani, nima derkin...

— Yaxshi qipti, — G'aybarovning gapi qisqa bo'ldi.

— Odamlarga hayronsan, — deb gapga qo'shildi mulla Chori. — Do'xtirning boshida nima tashvish-u, bular oyog'iga tikan kirsa ham chaqiradi.

— Bedard dardmandning holini ne bilsin, — dedi Ibodullo Maxsum.

— Do'xtirning boshida g'am, yana birovi o'zining g'ami bilan kelgan bo'lsa, u qanday qilib yo'q desin?!

Mulla Chori indamadi. U Ibodullo Maxsumdan cho'chibroq turardi. Maxsum oq-qorani tanigan-u, lekin oxiratni bo'yniga olmagan odam, bir qarasang — merov, yana bir qarasang — shaytonga dars beradi.

O'choq tarafdan oshpazning ovozi keldi:

— Murod amakini chaqirib oling, Maxsum buva!..

— Beri keling, Murodboy! — deb chaqirdi Ibodullo Maxsum. — Beri keling!

Murod amaki to'xtadi. Ishonar-ishonmay davraga yaqin keldi. G'aybarov sal pastga surilib, unga joy ko'rsatdi:

— O'tiring, amaki.

— Bir kosa sho'rvangdan ber, Shodiqul! — dedi Ibodullo Maxsum oshpazga qarab. — Raisning kosasi... — deya go'ldirab qo'ydi Murod amaki.

— Kosani sindiradi. — deb to'ng'illadi oshpaz. — Jez tovoqqa suzaman, ikkovingiz ichasiz.

— Mayli, opkel-chi, qani. Murodboy bilan ikkovimiz asli oshna edik, — dedi Ibodullo Maxsum G'aybarovga yuzlanib. — Mendan yoshi kichkina-yu, lekin oshna edik. Urushgayam birga ketdik. Keyin, qaytib kelib, meni tani-madi. Otimni biladi, Toshpo'latboy, ming odamning ichida bo'lsayam ajratadi, lekin endi tanigani bo'lak... Murodboyga o'xshaganlar o'zi oz qoldi. Bir kuni meni maktabga chaqirdi, o'quvchi bolalar bilan uchrashasiz, dedi, borsam, tirik qolganlardan bitti o'tiribdi, o'ng qo'l panjasidan o'q yegan... O'zini o'zi otgan. Ketib qoldim, Toshpo'latboy, hech o'tirgim kelmadi. U bolalarga va'z o'qibdi, bizlarga o'xshagan mard bo'linglar, deb aytibdi. E, men unga o'xshaguncha, ustimga tosh bosaman!

— Qo'ying, Maxsum, — deya mulla Chori uni insolga chaqirdi. — Harne, birovning ma'rakasida o'tiribmiz.

— Gapirmasam haqqim ketadi, mulla! — dedi Ibodullo Maxsum. Parvo qilmay yurasan-u, bir kun qarabsanki, to'lib ketibsan, ko'ngilni bo'shatmasang bo'lmaydi. Sizni hech maktabga chaqirganmi, mulla?

— Chaqirmagan, — dedi mulla Chori.

— Mulla ekaningizni o'ylab chaqirmagan, — dedi Ibodullo Maxsum. — Bo'lmasam, sizniyam chaqirardi.

— Meni chaqirmaydi, — dedi mulla Chori. — Men asirda bo'lganman.

Jim qolishdi. Ahmad bir choynak choy keltirib, tag'in nari ketdi. Ibodullo Maxsum tizzajab o'tirib, qozon tarasga ovoz berdi:

— Ovqatingni opkelmaysanmi, Shodiqul!

— Shoshirmang, Maxsum buva, yov kelgani yo'q-ku!.. — deya asabiyashdi oshpaz. — Mana, Murodboydan ulug-roq, odamlar ham navbat kutib turibdi.

Ibodullo Maxsum oshpaz bilan bahslashib o'tirmadi.

— Bu Shodiqul deganimiz asli sarkash odamning bolasi,— dedi u G'aybarovga qarab. — Otasi shunday edi, birovga biror og'iz shirin so'z aytib qo'ysa, uch kun qorni og'rib yotardi...

— Meni pashist urgan... — dedi Murod amaki to'satdan.

— Qo'ying, Murodboy, pashistning enasi o'lsin! — dedi Ibodullo Maxsum. — Shu pashistdan gapirmang.

— Uh... urgan... — deb takrorladi Murod amaki.

— Shu gap hech esidan chiqmaydi. — dedi Ibodullo Maxsum. — Ilgari Manzar polvon ham urgan, muniyam esidan chiqarmaydi. Qizig'ar nemis chapidan o'tib, miltiqning qo'ndog'i bilan tushirgan, endi Murodboy bechora chap tomonidan odam o'tsa qo'rqadi...

— Otdim, otdim, otdim!.. — deb suyinib gapirdi Murod amaki. — Dalada o'tirgan... kke... ketidan otdim... qqochdi!..

— Organi rost, — dedi Ibodullo Maxsum. — Pashist deganingiz juda bemalol o'tirgan. Oy chiqib turgan bo'lisa kerak, bo'limasa, Murodboy uning qayeridan otganini ko'rmas edi.

G'aybarov telbaqa qaradi. Uning uzun va siyrak kipriklarini, barcha aqli ko'toh, odamlarniki singari bejoroq boqadigan ko'zlarini ko'rib, tanida qandaydir ojizlik sezdi. Yuragi siqildi. U Murod amakini o'sha oydin, biyday keng dalada tasavvur etmoqchi bo'ldi, lekin eplay olmadidi...

Murod amakini hatto xayolda ham G'arbdagi uzoq bir dalaga, dala uzra kezayotgan oy yog'dusi ostiga, nemislarga,

aytaylik, Remarkning kitoblarida tasvir etilmish dalada yonma-yon o'tirib olib, bir-biriga gap sotadigan nemislarga qo'shib bo'lmasdi. Go'yo n azal-abad Galatepaning xasmi, go'yoki ming yillardan beri shu yerda yashab keladi, egnidagi yamoq bosgan shineli ham ming yillik, ming yildirki, Galatepaning bola-baqrasi bu eski shinel barlariga osilib, qumloq ko'chada sirpanadi. U Galatepaning yuragiga eski og'riq singari o'mashib qolgan og'riq singari azobli, har kimsaning vujudida yashaydi..

Murod amaki bolalardan qo'rqaadi. Ular yaqiniga kelsa bas, lo'killagancha qochib qoladi. Uning qochgani bolalar-ga nash'a qiladi, atrofga qiyqiriq sochib, battar quylashadi, tosh otishadi, Murod amaki yamoq shinelning etagiga osilgan bolalarni sudrab, jim, tishini tishiga bosib qochadi... Toshpo'lat, oyoqlariga sariq boshmoqchalar ilgan bola, tengqurlariga qo'shilib, qichqirib, uning ortidan chopadi, tosh otadi— daraxt shoxiga qo'ngan chumehuqni ko'zlaganda mo'ljallab otadi... Murod amaki, oyog'i shinelning etaklariga o'ralashib, yo'lning o'rtasiga yiqlilib tushadi. Hamma tirqirab qochadi. Toshpo'lat oyoqlariga sariq boshmoqchalar ilgan bola, atrofga g'olibona qaraydi, lekin hech kim uning quvonchini sezmaydi. Katta, kimsasiz yo'lda birgina u va Murod amaki qoladi. Toshpo'lat qo'rqa-pisa uning yoniga boradi, egilib qarab, peshonasidan sizib oqayotgan qonni ko'radi, qo'rqaadi, qochmoqchi bo'ladi, lekin ketolmaydi... Shunda Murod amaki ko'zlarini ochadi, shunda Toshpo'lat birinchi bor bu ko'zlarning setkiprik ekanini payqaydi. Murod amaki esa, go'yo hech narsa bo'limganday sekkingina so'zlanadi:

— Pashist urdi, Mmanzar u-urdi... Hamma uradi...

Ovozida na o'kinch, na alam,

Yuzida og'riqdan nishon ham yo'q.

Go'yoki shu yo'l ustida u ming yillardan beri boshi yorilib, changga belanib yotganday.

Toshpo'lat, sariq boshmoqchali bola, uning yoniga o'tirib yig'ladi. Nega yig'layotganini o'zi ham tushunmaydi. Murod amaki hayron bo'ladi, hatto kuladi, keyin so'raydi:

— Nnega?..

Toshpo'lat, sariq boshmoqchali bola, unga bir og'iz iliq so'z aytmoqchi bo'ladi. Lekin yig'i tag'in tomog'ini bo'g'adi, aytolmaydi, battar ho'nggraydi.

Murod amaki yuzining qonini kir shinelineg etagiga artib, o'midan turadi, lekin ketolmaydi, ho'ng-ho'ng yig'layotgan bolani qanday oyutishni bilmay tang qoladi.

It bo'lib huradi.

Buzoq bo'lib ma'raydi.

Xo'roz bo'lib qichqiradi.

O'yinga tushadi, qo'llarini yoyib, shox tashlab, qiyqirib!..

...eslaging kelmaydi, yurakda tugun qoladi.

Bir hafta o'tib, yana o'sha bolalar, yana o'sha ko'chada, lo'killab o'tayotgan Murod amakiga hujum qiladilar. Usmoncha, baqaloqqina bolakay, uning etagiga osifib oladi, bolalar uning sirg'anib ketayotganini ko'rib zavq bilan qichqirishadi: «Chu! Chu-u, jonivor!..»

Murod amaki chopadi. Usmoncha uning ortidan sirg'anib borarkan, qayqdandir bir tosh uchib kelib, boshiga tegadi, u dodlagancha shinelineg etaklarini qo'yib yuboradi, ag'anab yotgan qo'yisi, boshiga bodrab chiqqan g'urrani silab turib, qo'lining changini qoqayotgan bolani — sariq boshmoqcha kiygan Toshpo'latni ko'radi.

So'ng Usmonchaning otasi, Otaboy tegirmonchi, semiz va bo'ydon odam Raim oqsoqolga arz qilib keladi. Raim oqsoqol darg'azab bo'ladi, o'g'lini so'kadi, keyin alamzada Otaboydan

so'raydi: «Murod bechorani himoya qilmoqchi bo'lganmikan?..» Otaboy bosh chayqaydi: «Yo'q, oqsoqol, kuni kecha xuddi o'zginasi u bechoranining qansharini yorgan ekan!..»

Raim oqsoqol o'g'lini tushunolmaydi.

O'g'il ham o'zini tushunolmaydi.

Ko'ngilda tugun qoladi. Hech narsa esdan chiqmaydi, Begona joylarda, begona odamlar orasida birdan lop etib yodga tushadi, dil jizillab achishadi, negadir Murod amakini ko'rting, bag'ringga bosging keladi. Bag'ringga bossang u seryamoq, tuproq va nam yutaverib naq taxtaday qotgan shinelini yuzlatingga bossang, yig'lab tazarru qilsang!..

Tovoqda sho'rva keltirishdi. Oshpaz Shodiqul bitta qoshiq solib yuborgan ekan, Ibodullo Maxsum, G'aybarov, Murod amaki, uchovlon bir qoshiqni aylantirib sho'rva ichdilar. Murod amaki o'zini xotirjam tutdi, qoshiqni uzoq ushlasmasdan, qizg'anmay tamaddi qildi.

G'aybarov boshqalar ularga qarayotganini sezdi, lekin parvo qilmadi. Ko'nglida shirin bir miskinlik tuydi, so'ng shubhalandi:

...Maxsum bilan mening bu ishim o'zgalarga namoyish emasimi?..

Yo'q, Ibodullo Maxsum ham xotirjam edi. G'aybarov unda biror g'irromlik sezmadni. O'zidan ham iganish topmadni: Maxsum ham, Murod amaki ham unga ting'ishgandek yaqin edi. Go'yoki ular uchovi bir tan, bir tanda uch odam bo'lib yashayapti, xolos.

— Murodboy bilan biz ham g'animat bo'lib qoldik, Toshpo'latboy, — dedi Ibodullo Maxsum. — Men shuni ko'p o'ylayman. Toshpo'latboy, agar men ketsam, bu dunyo huvillab qoladiganday...

— Rahmatli Raim oqsoqol ham shunday deb o'ylardi.— deb gap qo'shdi mulla Chori.

— Siz ham shuni o'ylaysiz, mulla, lekin aqlingiz bovar qilmaydi.

Mulla Chori Maxsumning gapini eshitmaganga oldi.

— Odamgarchilikdan chiqib ketyapmiz, — dedi u. — Birov to'y-ma'rakaga qatnamay qo'ydi. Siz ta'ziyaga kelolmaganlardan o'pkalab yurmang. Toshpo'latboy. Ilgarigi ittifoqlik yo'qolgan.

— Siz yomon qariyapsiz, mulla. — dedi Ibodullo Maxsum. — Odam yomon qarisa, ko'ziga hamma narsa mana shunday ko'rinaraveradi.

— Siz ham mundoq bir odam zotiga ishoning, ko'nglin-gizni ochibroq yuring. Axir bunaqada dimiqib ketasiz-ku!

— Bari bir, — dedi mulla Chori. — Eski gap-gashtaklar endi yo'q. Qaytaga, manavi Murod tuzukroq, to'y-ta'ziyaga kanda qilmay keladi.

— Murodboyning yo'rig'i boshqa, — dedi Ibodullo Maxsum. — Murodboy elning odami.

Murod amaki o'zining otini eshitib, tovoqdan bosh ko'tardi:

— Cho'nqayymish ketaman...

— Ilgari o'qday uchib yurardi. — dedi Ibodullo Maxsum. — Cho'nqayymishga avvallari yo'rg'a ot qatori borib kelardi.

— Mmeni Mmanzar urgan... — dedi Murod amaki yana.

— Avval Manzarni kamroq aytardi, endi qarib, tilidan qu'yimaydigan bo'lib qoldi. — dedi Ibodullo Maxsum. — Rahmatli oqsoqol buni yaxshi ko'rardi. Sal gappa chivinlab ketardi-ku. Iekin Murodboyning hamma so'kishiga chidardi. Bechora buyam qaridi. Siz aytинг, mulla, agar Murodboy jannatga tushsa, xudo ahlini qaytib beradimi?

— Bilmadim, — deb dudmal javob qildi mulla Chori. — O'zi olgan narsa balki, qaytib bersa ham ajab emas.

— Muning aqlini pashist olgan, — dedi Ibodullo Maxsum. — Agar xudo adolat qilaman desa, Murodboyning aqlini qachonlari qaytarishi kerak edi.

— Qaytaradi, Maxsum buva, — dedi G'aybarov. — Cho'n-qayymishga ketaman, deydi, u yerda nima qiladi?

— Murodboya qaytarmasa, yana kimga qaytaradi, — dedi Ibodullo Maxsum. — Muning zarra gunohi bo'lmasa, yurgan yerida aziyat ko'midi, kulgiyam shuning boshida, ermak ham. Ma'rakada Shodiqulga o'xshagan chetga suradi. Agar tol-polning tagida uxbab qolsa, qizig'ar so'nayam shu bechorani chaqadi. Siz munga sholchani qiruqroq joyga to'shab bering, Toshpo'latboy.

— U yoqda tutingan akasi bor, Toshpo'latboy. Uyam munga o'xshagan mo'minroq odam. Rahmatli Norboy devonayam bunga tutingan uka edi. Norboy o'lganda ko'mgani Cho'nqayymishdan bu yerga opkelishdi. Ularning ham o'ziga yarasha go'ristonni bor, mullasi bor, lekin bular Norboy devona o'zimizniki, deb turib olishdi. Mana, mulla Chorining o'zi borib janoza o'qigan.

— Meni qo'yishmadi, — dedi mulla. — Men ei qatori ta'ziyamga boruydim, janozaga o'ting, deyishdi.

— Keyin, tobut ko'tarilgan mahali. Galatepaga, deb buyurgan kim?

— Galatepaning mozoristonni ulug' mozoriston, — dedi mulla Chori. — Necha yuz yillardan beri bor. Ne-ne odamlar ko'milganki, ahling shoshadi!

— Oriyat deb, tobut talashasizmi, mulla? — deb so'radi Ibodullo Maxsum.

— Axir... o'zimizning o'likni qanday qilib begona joyda qoldiramiz?

— Tirigi xor-u, o'ligi azizmi?.. Hali ko'rasiz, biror kor-hol bo'lsa, Cho'nqayymishning odami Murodboyni yashirib ko'madil!..

— Ko'mib ko'rsin!..

— Siz o'zingizni merovlikka solmang, Chori, — dedi Ibodullo Maxsum: —Siz ularning oriyatidan yumalab kulgandirsiz!..

— Sizga xudo bas kelsin, Maxsum, — deya mulla Chori iljaygan ko'ydi, o'rnidan turdi. — Men endi boray...  
— Boring, mulla.

Mulla Chori maydaqadam yurib, narigi qo'rga borib qo'shildi. Uni to'rga o'tqazishdi. Mulla boshqalar bilan bosh iring'ab salomlashgan bo'ldi, so'ng boshini quyi egib, Soat sayisning siniq ovoziga quloq tutdi.

— Aqli odam, zang'ar, — dedi Ibodullo Maxsum. — Sayisdan kulmaslik uchun bu yerda o'tirib edi. Meni yomon ko'radi.

— O'zingiz ham bekor koyindingiz, Maxsum buva, — dedi G'aybarov.

— Qaridim, Toshpo'latboy, tilni tiyib turishim qiyin.— Avvallari munday emasdim, endi qarasam, haqqim ketadiganday. Rost gapdan hatto mullayam qo'rqadi. Yuziga ayting, qani, birovi, g'ing deb ko'rsin!.. Bularning hamma ilm-u amali zo'raki, Toshpo'latboy, asli siz o'zingiz kelib imomlik qilsangiz bo'lardi.

— Bo'Imaydi, Maxsum buva.

— Xo'p deng, Toshpo'latboy, — dedi Ibodullo Maxsum xiyol ranjib.

— Endi, imomlik qil, deb har kimga ham yalinayoiganimiz yo'q-ku!

— Menikiyam qalbaki bo'ladi-da, Maxsum buva, dedi G'aybarov. Yaxshisi, siz imom izlaguncha, Murod amakidan xabardor bo'lib turing. Men imom bo'lmasam ham, bir yo'limni topib ketarman,

— Bu og'ir yumush-da, Toshpo'latboy, — dedi Ibodullo Maxsum. — Mening badfikrligim bilmagan odamga yoqmas,

lekin ochiq'ini aylsam chidab turishim qiyin. Shunday, Toshipo'latboy, yaratgan egam hech kimsani esdan ayirmasa-yu, u bir burda nonini o'zi topib yesa. Shu bir burda nonni haqiqatga yo'ysa bo'ladi, negaki, uni deb odamzod riyozat chekadi. E, qo'ying, o'g'lim, muni o'zingiz ham bilasiz...

U aytmoqchi bo'ldiki, riyozat chekkan kimsaga o'zgalarning iztirobi, barcha iqror va tazarrular, o'zgalarning hamdardligi — hammasi bekor.

Harakat, qo'llarning harakati, oyoqlarning harakati — haqiqat.

Tanda uyg'ongan og'riq — haqiqat.

Qilmishlar — haqiqat.

Odamzodning bu yorug' dunyoga ko'z ochib, toki undan ko'z yumgunga qadar bo'lган hayoti — haqiqat.

Aytmoqchi bo'ldiki, faqatgina shular amal, faqat shularning rost ekaniga ishonsa bo'ladi!..

G'aybarov Murod amakining ortidan chiqdi. Ikkovlon u bolalikda oyoqlariga sariq boshmoqcha ilib chopgan so'qmoqdan yurishdi. Nariroqqa borib so'qmoq ikkiga bo'lindi: biri pastda qoldi, biri tepaga o'rлади. Tepaga ketgan qir oshib katta yo'lga borib tushardi. Katta yo'lning ikki tarafı ham tikanzor — karrak, yantoq, qushqo'nmas.

Murod amaki birdan gandiraklab ketdi, so'qmoqdan chiqdi, tikanzorga oraladi. Oyoqlari tikanga to'ldi. Uning qahri keldi, tikamlarni qasdma-qasd, achchiqma-achchiq toptay boshladi. Yalangoyoq!

G'aybarov buni ko'rmaslik uchun ko'zlarini yumib oldi.

Murod amaki charchadi. Shinelining yengi bilan ko'zlarini artdi. Yana tuproq yo'lga qadam qo'ydi, xor-u xas tirnagan oyoqlari tag'in changga belandi. U bir zum qaqqayib turdi-da. Cho'nqaymish tarafga qarab chopdi.

G'aybarov uning ortidan ergashdi. Nihoyat, Murod amakiga yetib, yengidan ushlab to'xtatdi. Murod amaki ilkis o'girildi, ko'zlarida qo'rquv ko'rindi.

- Sizni yaxshi ko'raman, amaki, — dedi G'aybarov.
- Rais yaxshi, — dedi Murod amaki. — U o'limgan.
- Yo'q, amaki... — deb xomush bosh chayqadi G'aybarov.
- Rais o'limgan... Sen uning o'g'lisan-ku!

G'aybarov hayratlandi: Murod amaki soppa-sog'day tiyrak, osuda boqib turardi. Birdan entikib Murod amakini mahkam quchoqladi, tarashaday qotgan shinliga yuzini burkadi.

- Yana ayting, amaki, — dedi yuragi to'lib.
- Sen Toshpo'latsan, — dedi Murod amaki. — Raim raisning o'g'lisan, seni tanidim...

G'aybarovning dili larzaga kelganday bo'ldi. Chontagini kavlab, boyasini Ahmad bergan qog'ozni oldi. Murod amakiga qaradi, qaradi-yu qog'ozni qaytib chontagiga soldi. Go'yo vasiyatnomadagi gaplarni hozirgina, qarshisida turgan mana shu telba odamning og'zidan eshitganday edi...

- Yana bir marta ayting, amaki!..

Murod amaki boshqa gapirmadi, eski holiga qaytdi, bir zum angrayib, og'zi xiyol ochildi, issiqda, do'zaxday yonib yotgan tuproq yo'lda o'zini tutib turishganiga hayron bo'l-gandek, peshonasi tirishdi, so'ng nenidir esladi chog'i, yuziga kulgi yoyildi:

- Bisso'm ber!..

G'aybarov mungli iljaydi, chontagidan bir so'mlik chiqardi.

- Sizni yaxshi ko'raman, amaki, — deb takrorladi u.— Rost aytasiz, otamning o'limgani rost, axir biz tirikmiz-ku!..
- Charchadim, Toshpo'lat.

— Men ham charchadim, amaki, hech balo qilganim yo‘q, lekin itday charchadim.

— Men itdan qo‘rqlmayman, — dedi Murod amaki.

U shinelineg barini ko‘tarib, burnini artdi, keyin yana Cho‘nqayymish tarasga yo‘rtib ketdi. Yo‘l o‘rllov, Murod amaki keksa edi, endi u avvalgiday uchib yurolmasdi.

Atrofsga hazin bir sukunat cho‘kdi. G‘aybarov og‘ir xo‘rsindi, so‘ng yana bir marta zo‘r berdi-yu, tepada tik porlagan quyoshni, bu quyosh tagida jizg‘anak bo‘lib yotgan yo‘l bo‘ylab yo‘rtib horayolgan Murod amakini va uning ortidan g‘amgin kuzatib turgan umidlari barq urgan yosh yigitni — o‘zini, shu holicha ko‘ngliga parchinlab tashladi.

Og‘riq barobar ko‘nglida forig‘langan bir muhabbat tuydi...



*Adabiy-badiiy nashir*

**Murod Muhammad Do'st**

**GALATEPAGA QAYTISH  
YOXUD  
saodatmand G'aybarov rivoysi**

Muharrir *Abror Qilichev*  
Badiiy muharrir *Akrom Bahromov*  
Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*  
Musahhib *Fotima Ortigova*  
Kompyuterda sahitlovchi *Umida Valijonova*

IB № 4829

Bosishga 22.06.09 da ruxsat etildi. Bichimi 70x108<sup>1/3</sup>,  
Tayms garniturasi. Ofset bosma 10,50 shartli bosma toboq,  
12,0 nashr tobog'i. Adadi 2000 nusxa. 52-2009 raqamli shartnomani.  
228 raqamli buyurtma. Bahosi shartnomani asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100128. Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.

Bizning internet manzilimiz: [www.iptdgulom.uz](http://www.iptdgulom.uz)

E-mail: [fop-iptd@rambler.ru](mailto:fop-iptd@rambler.ru)

Muhammad Do'st, Murod.

Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G'aybarov rivoyati/ Murod Muhammad Do'st. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. — 240 b.

«Galatepaga qaytish» — yozuvchi Murod Muhammad Do'sting daslabki yirik asari. Unda o'tgan asrning 80-yillari haqida, behalovat, bekorom zamondoshlarimiz — o'zbek ziyorilarining hayoti to'g'risida, muhabbat va imon, haq va haqiqat yo'lidagi izzirobli, gohida chigal izlanishlar, ana shu izlanishlar sabab inson qalbida kechadigan turfa ruhiy kechinmalar xususida o'ziga xos ohang va rang bilan hikoya qilinadi.







ISBN 978-9943-03-223-1



9 789943 032231